

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSYS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

(noiqtisodiy oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma)

Qayta isblangan, to'ldirilgan uchinchi nashr

Toshkent

2005

# Иқтисод - Иқтисодиёт Назарияси,


Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi qoshidagi Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy- uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash Prezidiumining 17.06.2000 y. 15-sonli majlis qaroriga asosan tavsija etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» fani o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan. Bu o'quv qo'llanma qayta ishlangan ikkinchi nashr bo'lib, unda iqtisodiy rivojlanishning umumiy muammolari, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligi rivojlanishi bilan bog'liq mavzular sodda va ravon tilda bayon etilgan. Qo'llanma xorijiy tajriba va iqtisodiyotimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq o'zgarishlar, milliy g'oya va milliy mafkuralar e'tiborga olingan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma noiqtisodiy oliy o'quv yurtlari, fakultetlari, kollej va litsey talabalariga mo'ljallangan.

**Tuzuvchilar:** dots. Umarov K.Yu. (rahbar), dots. Xashimov P.Z.,  
prof. Beknazarov N., dots. Sodiqov N.K.,  
dots. Holmirzaev A., i.f.n. Saparov T.O.,  
kat. o'q. Tursunov A., o'q. Boynazarov E.E.

**Taqrizchilar:** Iqtisod fanlari doktori, prof. Qodirov A.  
Iqtisod fanlari doktori, prof. Vaxbov A.V.

31820  
W 3



10

## KIRISH

Mustaqil O'zbekiston bozor iqtisodiyoti tomon shahdam qadam qo'ymoqda. O'tkazilayotgan bozor istohotlari iqtisodiy taraqqiyotda yangi davri ochadi. Sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodi — kelajakdag'i demokratik, huquqiy va adolatli jamiyat uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Islohotlar kishilar ongi va ruhiyatida ham o'zgarish yasamoqda. Ular orasida yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini idrok etish va uning talablari ruhidagi ishlash va yashashga intilish qaror topmoqda. Boqimandalik ruhiyati o'mini ishchanlik ruhiyati egallamoqda. Bularning hammasi iqtisodiy bilimlarga qiziqishni kuchaytirmoqda. Yoshlarni malakali mutaxassis sohibi sifatida iqtisodiyotning qonun — qoidalari va sir — asorlarini bilishga o'rgatishdir. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani fundamental fan bo'lib, iqtisodiy hayotning mohiyati, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish qonunlari va ulardan foydalanish yo'llerini o'rgatadi.

Bu qo'llanmani tuzishda va mavzularni aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida qo'yilgan talablar inobatga olingan. Shuningdek, qo'llanmada biz bozor iqtisodiyotiga kirib kelayotganimizni, bu sharoitda yashashimiz, faoliyat ko'rsatishimiz, iqtisodiy munosabatda bo'lismizni hisobga olib, bozor iqtisodiyoti muammolarini, uning sabab — qibatlarini, tushunchalarini, ularning bizning sharoitda qay darajada, qanday shaklda amal qilayotganini batafsilroq yoritishga harakat qildik.

Mazkur qo'llanmada iqtisodiy jarayonlarni yuzaki, ko'rinish turgan tomonlari emas, balki ularning ichki mohiyati, ziddiyatlari va bog'lanishlariga, iqtisodiy jarayonlarning sabab va oqibatlariga alohida e'tibor berildi. Asosiy iqtisodiy tushunchalarni ta'alabalarga soddaroq qilib, tushunarli tilda, hayotiy misollar asosida yoritishga harakat qilindi.

O'quv 'go'llanmada o'qitishning yangi texnologiya xususiyatlari hisobga olinib, har bir ko'rilgan masala yuzasidan asosiy tayanch tushuncha va atamalar, takrorlash va munozara uchun savollar berilgan.

Mazkur qo'llanmaning tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinish tartibi va uslubi bo'yicha bildinligan fikr va mulohazalarni bajonidil qabul qilamiz, u keyingi nashrlarni takomillashtirishga yordam beradi.

## I Bob. IQTISODIYOT NAZARIYASINING PREDMETI VA USLUBI.

1. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi.
2. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. Iqtisodiyot nazariyasining metodologiyasi.

### 1. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi

Uzoq davrlar davomida insoniyat tafakkuri aniqlagan ayrim masalalar bugun juda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo'lgan narsaga o'xshab ko'rindi.

Masalan, hammaga ma'lumki, siyosat, san'at, adabiyot, ma'rifat, madaniyat bilan shug'ullanishdan oldin insonlar oziq—ovqat va kiyim — kechakka ega bo'lishlari lozim.

Demak, inson mehnat qilishi, xo'jalikning turli sohalarida faoliyat ko'rsatishi kerak bo'ladi. Insoniyatning mavjud bo'lishini va uning taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy faoliyat moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish hamda xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Bu iqtisodiy faoliyat deb ataladi.

Iqtisodiyotga oid bilimlar va uning sirlari antik dunyoning ko'zga ko'rangan olimlari Ksenofot, Aflatun, Arastu asarlarida, shuningdek, qadimgi Misr, Kitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo c'imirlarining asarlarida aks ettirilgan.

Fan, ya'ni iqtisodiy tizimning mohiyati, maqsadi va vazifalari to'g'risidagi tizimiylar bilim sifatida iqtisodiy nazariya XVI—XVII asrlarda yuzaga keldi. Bu kapitalizmning shakllanishi, manufakturaning yuzaga kelishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining chugurlashishi, ichki va tashqi bozorlarning kengayishi, pul muomalasining intensivlashuvi davridir.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanishi va rivojlanishining birinchi bosqichi bu merkantilizmning yuzaga kelishidir.

Merkantilistlar ta'lomitining mohiyati boylikning yuzaga kelishi manbasiga berilgan ta'rifdan iborat (ularning xizmati shundadir, chunki ular bu to'g'risida birinchi bo'lib fikr bildirganlar). Biroq ular bu masalani noto'g'ri talqin qilganlar, chunki boylikning manbami muomala sohasidan keltirib chiqarganlar, boylikni esa pul bilan tenglashtirganlar. Mazkur ta'lomitning nomi ham shundan kelib chiqqan, chunki "merkantil" tarjimada "pullik" ma'nosini anglatadi. Merkantilistlar savdogarlar vakillari bo'lib, ularning manfaatlarini himoya qilganlar.

Merkantilizmga fikran yaqin bo'lgan ta'lomit proteksionizm siyosatidir. U milliy iqtisodiyotni boshqa davlatlar bilan bo'ladigan raqobatda bojxona lo'siqlarini joriy qilish, mamlakatga chet el

tovarlarini va kapitallarini kirib kelishini cheklash yo'li bilan himoya qilish va saqlashga yo'naltirilgan.

Merkantilizmning eng ko'zga ko'ringan vakillari bo'lib T. Man (1571–1641), A. Monkretyen de Vattevil (1575–1621), G. Skaruffi (1519–1584), D. Nore (1641–1691), D. Yum (1711–1776) hisoblanadi.

Keyingi oqim «fiziokratiya», ya'ni «tabiat hukmronligi» deb atalgan. Ular merkantilistlardan farqli o'laroq, «boylik qishloq xo'jaligida yaratiladi va ko'payadi» degan g'oyani ilgari suradilar. Keyinchalik iqtisod fanining mumtoz (klassik) maktabi namoyandalari bo'lmish A. Smit, U. Petti, D. Rikardo kabi atoqli iqtisodchi olimlar boylik faqatgina qishloq xo'jaligidagina emas, shu bilan birga, sanoat, transport, qurilish va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida ham yaratilishini isbotlab berdilar, **hamma boylikning onasi yer, otasi mehnat, degan qat'iy ilmiy xulosaga keldilar.**

Markaziy Osiyoda iqtisodiy fikrlarning rivojlanishi Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusul Xos Hojih, A. Navoiy va boshqa dunyoga mashhur olimlar nomlari bilan bog'liq.

Ularning asarlarida iqtisodiy fikrlar hali falsafiy va butun ijtimoiy biliplar majmuidan ajralmagan bo'lsa – da, katta ahamiyatga ega edi.

Hozirgi paytda marjenalizm, monetarizm, keyinschilik va boshqa qator yo'nalishdagi iqtisodiy ta'llimotlar yig'indisi «Ekonomiks» («Iqtisod») nomli kitobda mujassamlashgan bo'lib, u AQSH, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda darslik sifatida o'tiladi. Rus tiliga tarjima qilinib, bizga ma'lum bo'lgan P. Samuelson, K. Makkonnell, S. Bryu kitoblari uning namunalaridir. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan iqtisodiy g'oyalar asosida iqtisodiyot nazariyasini fan sifatida vujudga kelgan.

## 2. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti, maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyot nazariysi – kishilik jamiyatidagi ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni va ularga xos bo'lgan iqtisodiyon qonunlarni o'rGANADIGAN fandir.

Iqtisodchi – olimlarning asarlarini o'rGANAR ekanmiz shunga e'tiborni qaratish mumkinki, iqtisodiy hodisalar tahlili bo'yicha u yoki bu yondashuvlarga mos ravishda fanning predmetiga berilgan ta'riflar ham bir – biridan farq qiladi. "Ekonomiks" darsliklarida fanning predmetiga quyidagicha ta'rif beriladi: birinchidan, cheklangan resurslar dunyosida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida individuallar harakatini

tadqiq qilish, ikkinchidan, kishilarning moddiy ehtiyojlarini to'lar oq qondirish maqsadida cheklangan resurslardan samarali foydalanishni o'rGANISH.

Bu ta'riflar iqtisodiyot nazariyasini predmetining ba'zi tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun "Ekonomiks"ni iqtisodiyot nazariyasining bir qismi deyish mumkin. Iqtisodiyot nazariyasini resurslardan rasional, optimal va samarali foydalanan muammolarini o'rGANISHdan tashqari, iqtisodiy tizimlarining tarixiy evolyusiyasi, milliy boylik va jamiyat farovonligi o'shining manbalari va harakatlantiruvchi kuchlari tahlilini ham o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishi to'g'risidagi fandir, shuning uchun uning predmeti ishlab chiqarish munosabatlardir.

Ishlab chiqarish munosabatlari – bu hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'tasida obyektiv yuzaga keladigan munosabatlardir.

Iqtisodiyot nazariyasi tarkiban o'z ichiga mikroiqtisodiyot (alohida iqtisodiy subyektlarning xatti – harakati) va makroiqtisodiyotni (butun milliy iqtisodiy tizim xatti – harakati va amal qilishi) oladi.

Iqtisodiyot nazariyasining predmetini o'rGANISHda uni aniqroq tasavvur qilish macnadiida quyidagilarni alohida hisobga olish zarur.

- tadqiqot sohasi – xo'jalik faoliyati amalga oshiriladigan iqtisodiy hayot yoki muhit;
- tadqiqot obyekti – iqtisodiy hodisalar;
- tadqiqot subyekti – inson, kishilar guruhi, davlat;
- tadqiqot predmeti – "iqtisodiy insонning" kishilar guruhi va davlatning hayotiy faoliyati, iqtisodiy muhitda ularning xatti – harakati.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifasi – iqtisodiy hodisalarning shunchaki talqinini berish emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqadorligini ko'rsatish, ya'ni iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va qonunlar tizimini yoritib berishdan iborat. U shu bilan boshqa aniq iqtisodiy fanlardan larq qiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi boshqa fanlar singari qator vazifalarni bajaradi. Birinchi bo'lib iqtisodiy nazariyaning vazifalarini A.Smit belgiladi va ularni ikki qismga bo'ldi: pozitiv va me'yoriy vazifalar.

Pozitiv – iqtisodiyot nazariyasi obyektiv iqtisodiy reallilikning tahlilini amalga oshiradi va uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlaydi. U iqtisodiyot sohasidagi dalillar, shart – sharoitlar va hodisalar bilan ish yuritadi.

Iqtisodiyot fanining me'yoriy (normativ) tomoni firma va davlatning iqtisodiy siyosatini ta'minlaydi. O'tkazilgan tahlillar asosida u eng maqsadga muvofiq uslub orqali ishni qanday tashkil qilish kerakligi to'g'risida amaliy maslahatlar beradi.

Shunday qilib, iqtisodiyot nazariyasi boshqa aniq iqtisodiy fanlarning nazariy asosi sifatida quyidagi uch vazifani (funksiyani) bajaradi: bilish, amaliy va metodologik.

Iqtisodiyot nazariyasining amaliy ahamiyati shundan iboratki, bilimlar oldindan ko'ra bilishga, oldindan ko'ra bilish esa harakatga olib keladi. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy siyosat asosini tashkil etadi, bu orqali esa xo'jalik amaliyoti sohasini yoritishi lozim. Harakat (amaliyot) bilishga, bilish – oldindan ko'ra bilishga, oldindan ko'ra bilish esa to'g'ri harakatga olib keladi.

Iqtisodiy siyosat ijtimoiy ishlab chiqarish ne'matlarni taqsiinlash, ayriboshlash va iste'mol qilish sohasidagi davlatning aniq maqsadlarga qaratilgan tadbirlari tizimidir. U jamiyat, uning barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini aks ettirmog'i lozim va milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

### **3. Iqtisodiyot nazariyasining metodologiyasi**

Metodologiya masalalari iqtisodiy muammolarni o'rGANISHDA muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot nazariyasi metodologiyasi – xo'jalik hayoti, iqtisodiy hodisalarни o'rGANISH uslublari to'g'risidagi sandir.

Metodologiyani uslublar bilan, ya'ni fandagi vositalar, tadqiqotlar uslublari majmui, iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar tizimida ularning namoyon bo'lishi bilan aralashtirib bo'lmaydi.

Iqtisodiy bog'liq katta miqdordagi dalillardan iborat bo'lib, ularni bilishda iqtisodiyot nazariyasi turli uslublardan (grekcha "tadqiqot uslubi") foydalanadi.

Dialektik uslubning mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy hayotning barcha hodisalarini va jarayonlari o'zaro bog'liqlikda va to'xtovsiz rivojlanishda ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun san asosiy narsalarni o'rGANISHNI qiyinlashtiruvchi ikkinchi darajali dalillarni chetlab o'tadi, abstraktlashadi, ilmiy abstraksiya uslubining mohiyati ana shundan iborat.

Iqtisodiyot nazariyasi shuningdek tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik va mantiqiylik, statistik kuzatish, iqtisodiy-matematik modelllashtirish, iqtisodiy eksperiment (amaliyot) metodlaridan ham foydalanadi.

Yuqorida nomlari keltirilgan uslublarni qo'llash iqtisodiy hodisalarning turli tomonlarini tavsiflovchi iqtisodiy kategoriyalari tushunchalari tizimini ishlab chiqish imkonini beradi.

Iqtisodiy kategoriyalari deb, jamiyat iqtisodiy hayotining eng umumiy va muhim tomonlarini aks ettiruvchi mantiqiy tushunchalarga aytildi.

Tadqiqotlarni chuqurlashtirish shuni tushunishga olib keladiki, jamiyatdagi barcha jarayonlar ichki, ularga xos bo'lgan iqtisodiy qonunlar bilan boshqariladi. Iqtisodiy qonunlar iqtisodiy hodisalaridagi puxta, doimo takrorlanib turuvchi, zaturiy aloqalar va o'zaro bog'liqlarni aks ettiradilar.

Iqtisodiy qonunlarning hammasi birgalikda jamiyat rivojlanishining iqtisodiy qonunlari tizimini tashkil etadilar. Bu tizim o'z ichiga turli guruh va ko'rinishdagi qonunlarni oladi.

Iqtisodiy qonunlar (tarixiy tuzumlarga bog'liq holda) quyidagi guruhlarga ajraladilar:

- 1) Maxsus iqtisodiy qonunlar.
- 2) O'ziga xos iqtisodiy qonunlar.
- 3) Umumiy iqtisodiy qonunlar.

**Maxsus iqtisodiy qonunlar** – bиргина ishlab chiqarish usulida amal qiluvchi, ma'lum, tarixiy xo'jalik yuritish shakllariga xos bo'lgan qonurlardir. Masalan, quldorlik, krepostnoylik davrlaridagi taqsimot qonunlari va boshqalar.

**O'ziga xos iqtisodiy qonunlar** – ularning amal qilishiga shart – sharoitlar mavjud bo'lgan tarixiy davrlarga xos bo'lgan qonurlardir. Masalan, vaqtini tejash qonuni, ehtiyojlarni oshib borishi qonuni, ijtimoiy mehnat taqsimoti va boshqalar.

**Umumiy iqtisodiy qonunlar** – barcha tarixiy davrlarga xos bo'lgan qonurlardir. Masalan, vaqtini tejash qonuni, ehtiyojlarni oshib borishi qonuni, ijtimoiy mehnat taqsimoti va boshqalar.

Tabiat qonunlari singari iqtisodiy qonunlar ham obyektiv xarakterga ega. Biroq, iqtisodiy qonunlarning obyektivligi va majburiyligi kishilarning amaliy faoliyatini ahamiyatini yo'qqa chiqarmaydi. Iqtisodiy qonunlarni o'rganish va tushunish makroiqtisodiy vazifalarni hal etishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni to'g'rn ishlab chiqish va asoslashga yordam beradi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Ishlab chiqarish munosabatlari** – bu hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtaida obyektiv ravishda shakllanadigan munosabatlardir.

**Iqtisodiyot nazariyasi** – kishilik jamiyali ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga

keladigan iqtisodiy muammolarni va ularga xos bo'lgan iqtisodiy qonunlarni o'rganadigan fandir.

**Iqtisodiyot nazariyasining tadqiqot sohasi** – xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotgan iqtisodiy hayat yoki muhit.

**Tadqiqot obyekti** – iqtisodiy hodisalar

**Tadqiqot subyekti** – inson, kishilar guruhi, davlat.

**Tadqiqot predmeti** – "Iqtisodiy inson", kishilar guruhlari va davlatning hayotiy faoliyati va ularning iqtisodiy muhitdagi xulq – atvori.

**Iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifasi** – iqtisodiy hodisalarga oddiygina tafsif berish emas, balki ularning o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berish, ya'ni iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va qonunlar tizimini ochib berish. Ana shu bilan u aniq iqtisodiy fanlardan farq qiladi.

**Iqtisodiy siyosat** – ne'matlarni ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish sohasidagi davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlari tizimi. U jamiyatning, uning barcha ijtimoiy guruhlari manfaatlarini aks ettirishga qaratiladi va milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga yo'naltiriladi.

**Iqtisodiyot nazariyasining metodologiyasi** – xo'jalik hayoti, iqtisodiy hodisalarni o'rganish metodlari to'g'risidagi fan.

**Metodlar** – fandagi tadqiqot vositalari, uslublar majmui, ularning iqtisodiy kategoriyalari va qonunlar tizimida o'z aksini topishi.

**Iqtisodiy kategoriyalar** – jamiyat iqtisodiy hayotining asosiy va eng umumiy tomonlarini aks ettiruvchi mantiqiy tushunchalar.

**Iqtisodiy qonunlar** – iqtisodiy jarayonlar o'rtaqidagi doimiy takrorlanib turadigan, barqaror aniq sabab – oqibat aloqalarni, ularning bog'liqligini ifodalovchi voqealari – hodisalarga aytildi.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetiga ta'rif bering.
2. Iqtisodiyot nazariyasining ijtimoiy, aniq iqtisodiy, sotsial va tabiiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligini ko'rsating.
3. Xo'jalik amaliyotini iqtisodiy nazariyasiz tasavvur etish mumkinmi?
4. O'zingizni tekshirib ko'ring, quyidagi tushunchalarni siz qanday o'zlashtirdingiz: tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt va aniq, mantiqiy va tarixiy, subyektiv va obyektiv tushunchalarga misollari keltiring.
5. Iqtisodiyot nazariyasining metodologiyasi hima?
6. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarga ta'rif bering. Ularning obyektiv tabiatini deganda niymani tushunasiz?
7. Iqtisodiy siyosat tushunchasini tavsiflang.

## **II Bob. MULKCHILIK VA XO'JALIK YURITISH SHAKLLARI**

1. Mulkchilik munosabatlарининг мөhiyati.
2. Mulk subyektlari va obyektlari.
3. Mulkning turlari va xo'jalik yuritish shakllari.  
Xususiylashtirish.

### **1. Mulkchilik munosabatlарининг мөhiyati**

Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi. Mehnat orgali avloddan – avlodga o'tgan boyliklar va tabiat in'om etgan boyliklar mulk bo'lib kelgan. Mulk egasi bo'lish yoki bo'lmaslikka qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqeい, ularning sotsial maqomi yuzaga keladi. Iqtisodiyot doimo mulkiy munosabatlarga asoslanadi. Mulkchilikning qay darajada rivojlanganligi mamlakat iqtisodiy ravnaqini ko'rsatib beradi.

Mulkchilik munosabatlari – jamiyatdagи boyliklarni o'zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlardir. Mulkchilik, birinchidan, inson bilan boylik o'rtaqidagi munosabat, ikkinchidan, boylik yuzasidan kishilar o'rtaqidagi munosabat. Kishilar o'ziga tegishli bo'lgan barcha buyumlarni o'rganishadi, o'zlashtirishadi, chunki o'zgalarning narsalarini o'zlashtirmaslik insonga xos xususiyatdir.

Mulk sohibi mustaqil o'z mulkiga tayanib ish yuritadi. Mulsiz u o'zga mulknij ijaraga olib, faoliyat yuritishni, yoki mulkdorga aylanib, yoki nochorlikda unga qaram holda ishlashi, birovning qo'liga qarab yurishi mumkin.

Mulkchilik o'zlashtirish borasidagi munosabat bo'lar ekan, u egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishning yaxlitligini taqozo etadi. Mana shu uch jihat mulkchilikning ajralmas unsurlaridir.

**Egalik qilish** – mulkka rasmiy va huquqiy (yuridik) egalik qilish.

**Foydalanish, ishlatish** – mulknij iqtisodiyotda amaliy qo'llash, ishlatish va undan daromad olishdir. Mulk egasi uni amaliyotda ikki xil yo'l bilan ishlatishi mumkin:

1. Mulkni bevosita o'zi ishlatishi va undan olingan foyda butunlay o'ziga tegishli bo'ladi.
2. Mulkni ijaraga berish. Bundan olingan daromad ijarachi o'rtaida har xil nisbatlarda taqsimlanishi mumkin.

**Tasarruf etish** – mulk bo'lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish, ya'ni mulknij sotib yuborish, ijaraga berish, merosga qoldirish, astrab – avaylab ko'paytirish yoki uni yo'qotib yuborishdan iborat xatli – harakatlarini amalga oshura bilishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lismiga ruxsat beriladi. Mulkchilikning hamma shakllari daxlsiz bo'lismeni va ularning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratilishini qonun kafolatlagan. Respublikada mulkiy xuquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Mulkdor o'z mol — mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lмаган har qanday xatti — harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun bilan ta'qilangan magan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishdan foydalana oladi. Mulkdor O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o'ziga tegishli mulkiy huquqni amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalinish to'g'risida ular bilan shartnoma tuzishi mumkin.

## 2. Mulk obyektlari va subyektlari

Mulkchilik munosabati o'zining obyekti va subyektiga ega.

Mulkchilik obyekti — bu mulkka aylangan barcha boylik turlari. Unga yer, suv, konlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, mashinalar, mashina — uskunalar, imoratlar va inshootlar, moddiy va madaniy buyumlar, pullar, qimmalli qog'ozlar, mahsulotlar, xizmatlar, tarixiy yodgorliklar, ilmiy — texnikaviy g'oyalar, tovar belgilari, tovarlarning o'zi, insonning unumli va ijodiy mehnat qilish qobiliyati kiradi. Mana shu moddiy va nonoddiy ne'matlarni o'zlashtirish yuzasidan mulkiy aloqa shakllanadi. Ne'matlarni o'zlashtirishda qatnashuv —

Mulkchilik subyekti — mulk obyektni o'zlashtirishda qatnashuv — chilar, mulkiy munosabatlarning ishtirokchilari. Bular jumiasiga davlat, respublika fuqarolari, jamoalar, ularning uyushmalari, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashminalari, xalqaro tashkilotlar, boshqa xorijiy yuridik shaxslar va fuqarolar kiradi. Turli yuridik shaxslar va fuqarolar bitta mulknинг subyektlari bo'lishi mumkin. Aytulgan subyektlarga qarab o'zlashtirish individual, oilaviy, ijtimoiy — sinfiy, hududiy va umummilliy tus oladi. Ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatda o'zlashtirish uning darajasi va usuliga qarab har xil bo'ladi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqlisudiy ishlashlarni chequqlashdirish yo'llida — T.: "O'zbekiston", 1995, 13 --hel.

O'zlashtiriladigan mulk ikki xil bo'ladi:

1) ishlab chiqarish resurslari, ya'ni vositalarni o'zlashtirish;

2) ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish

Ishlab chiqarish resurslarini o'zlashtirishda moddiy va mehnat resurlari ishlab chiqarish sohibining mulkiga aylangandan so'ng o'zlashtiradi. Ishlab chiqarishdagi o'zlashtirish birlamchi. Bu yerdan ishlab chiqarishning har ikkala omili (moddiy va inson omillari) birikadi, mahsulot va xizmatlar yaratiladi. Mana shu omillarning o'zlashtirilishiqa qarab, mehnat natijalariga nisbatan mulk shakllanadi.

Ishlab chiqarish nitijalarini o'zlashtirish yaratilgan mahsulot, xizmatlarni, ularni sotishdan kelgan daromadni kishining mulkiga aylanishini bildiradi. Resurslar kishining mulki bo'lsa, natija ham uniki bo'ladi. Lekin bu holda egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish yaxlit holda va bir subyekt ixtiyorida bo'lgandagina yuz beradi.

Mulkchilik – bu mas'uliyat bilan manfaatning o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Mulkdorning manfaati ostida, avvalambor, uning iqtisodiy manfaati yotadi. Mulkdorning iqtisodiy manfaati – uning boylik egasi sifatida hayotiy ehtiyoji bo'lib, xatti – harakat, fe'l – atvorni, iqtisodiy faoliyat sahabini yuzaga chiqaradi. Mulkdorning manfaati nafaqat tirikchilik ehtiyojini, balki mulkning miqyosi va xarakteriga qarab, tirikchilik zarurati chegarasidan chiqib, boylik orttirish, ijtimoiy hayotda martabali mavqega ega bo'lish, obro orttirishni ham o'z ichiga oladi.

Jamiyatda kishilarning mulkiy maqomiga qarab manfaat to'rtta guruhiга bo'linadi:

1. Individual manfaat, mulk egasining shaxsan o'ziga tekkan daromadda ifodalananadi.
2. Korporativ – guruhiy manfaat, mulk egasi bo'lgan jamoaning hamjihat bilan o'zlashtiradigan daromadi orqali yuzaga chiqadi.
3. Umum davlat manfaati. Buni davlat budjeti daromadlari ifodalaydi.
4. Milliy manfaat. Milliy manfaat – jamiyatdagи milliy boylikning ko'payishini bildirib, individual, guruhiy va umum davlat manfaatlarining birligidan iborat.

Mana shu to'rtta manfaatlар zaminida xususiy, jamoa, davlat va milliy mulk yotadi.

Mulkning tavsifiga va miqyosiga qarab amalga oshiriladi. Uning quyidagi usullari mavjuid:

1. O'z mulkini kapital (sarmoya) sifatida ishlatish, o'zgalar mehuatini qo'llab, tadbirdorlik qilish ortjali foyda olish.
2. O'z mulkini ijara berib, ijara haqi olish.

3. O'z mulkiga tayangan holda mehnati bilan daromad topish, o'z mehnatiga asoslangan xo'jalik yuritish yo'li bilan pul topish.
4. Pul shaklidagi o'z mulkini qarzga foiz hisobida berish.
5. Yollanib ishslash orqali o'z mulki bo'lgan ish kuchidan daromad topish, ya'ni ish haqi olish. Demak, mulk egasiga naf, foyda keltiradi.

Aytilgan usullarning mavjudligi mulk faqat bir usul bilan amalga oshadi degan gap emas. Bu usullar birqalikda qo'llanishi mumkin.

Mulkdorlik potensiali, ya'ni tavakkalchilik taqlidida va real, ya'ni amalda tasarruf etish, mulkni o'z bilganicha ishlatalish shaklida bo'ladi.

Mulk real bo'lishi uchun mulkdor uni o'z manfaati yo'lida ishlata olishi, undan naf ko'rishi kerak. Mulkni ishga solish undan naf kutish bilan bog'liq. Uning muqobil yo'llari ham bo'ladi. Mulkni saqlab qolish va ko'paytirish uchun pulga yer, uy, qimmatbaho buyumlar, antikvar narsalar, aksiya, obligatsiya sotib olish mumkin. Bu muqobil usullardan qaysi birini tanlash keladigan naqfa bog'liq. Agar yer yoki uyni ijaraga berishdan tushadigan daromad aksiya keltiradigan daromaddan ko'p bo'lsa, mulkdor shubhasiz birinchi yo'lni tanlaydi. Mulk kal'a bo'lsa, uning egasi birdaniga bir nechta alternativ yo'llarni tanlashi mumkin, chunki bir sohada yutqizsa, boshqasida yutib chiqadi.

Kishilarning har bir qadami ularning mulkchilik munosabatidan kelib chiqadi. Ishchi o'z kuchining egasi bo'lganidan yollanib ishlaydi, natijada u mehnati uchun ish haqi oladi. Pul egasining aksiya, obligatsiya, yer-suvi, zavod-fabrika sotib olishdan maqsadi o'z mulkidan kelgan daromadni o'zlashtirish huquqiga ega bo'lishdir. Kishilar o'z mulkiga tayanih xatarli ishni boshlaydilar, tavakkaliga yo ostidan, yo ustidan degan qabilida harakat qiladilar. Mulkning mavdujligi iqtisodiyotdag'i xatti - harakatni oldindan belgilab qo'yadi.

Jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish uchun ko'pchilikni mulk sohibiga aylantirish zarur. Bu mulkiy munosabatlarni demokratiya - lashtirib, xalqni milliy boylikning haqiqiy egasiga aylantiradi. Mulkka ega bo'lishning uch asosiy yo'li bor:

1. Mulkni ishlab topish, bunda topilgan daromad hisobidan aksiyalar sotib olinadi, yoki pul boshqa yo'l bilan mulk obyektiga aylanadi.
2. Davlat mulkini xususiylashtirib, o'z mulkiga aylantirish. Bu usul hozirgi davrda keng tarqalgan;
3. Metos orqali mulkka ega bo'lish.

4. Mulkdorlarning ko'payishi mulk shakllarini keltirib chiqarishi mumkin.

### 3. Mulkning turlari va xo'jalik yuritish shakllari

Bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma – xil bo'lishini talab qiladi, turli mulk bo'lgan tovarning egalari bozor munosabatiga kirishadi. Tovar muayyan mulk obyekti bo'lgandagina oldi – soldi qilinadi. Mulkchilik bozor munosabatining birlamchi asosi, lekin uning o'zi bozorsiz yuzaga chiqmaydi O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida mulkchilik shakllari ko'payib, fuqarolar mulki, jamoa mulki va davlat mulki uning asosiy ko'rinishlariga aylanadi. Mazkur mulk shakllari, o'z navbatida, bir necha mulk turlariga bo'linadi.

Mulkiy munosabatlar turli shakl va turdag'i mulkni o'z ichiga oladi.

Mulk shakllari – bu o'zlashtirishning tavfsisi, ya'ni uning ko'rinishi, qiyofasi, majmuidir. O'z mehnati evaziga o'zlashtirish, o'zgalar yaratgan boylikni o'zlashtirish, yakka tartibda, jamoa bo'lib, sherikchilik asosida o'zlashtirish borki, ular mulkchilikning har xil shakllarini bildiradi. O'zbekiston Respublikasida quyidagi shakllardagi mulk mavjud.

- fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulki;
- kollektiv (shirkat) mulki, shu jumladan, oilaviy, mahalla, kooperativ mulk, ijara qilingan korxona mulki, aksiyadorlar jamiyatasi, davlat korxonasi jamoasining, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar konsernlarning mulki, turli xo'jalik birlashmalari va uyushinalari mulki, yuridik shaxs hisoblangan boshqa jamoalar mulki;
- Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ma'muriy – hududiy tuzilmalardan (kommunal) iborat davlat mulki;
- aralash mulk;
- qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari, tashkilotlar va davlat, shuningdek, chet el yuridik shaxslari mulki shaklida yuzaga chiqadi.

Xususiy mulk – ayrim kishilarga tegishli va daromad topishga qaratilgan mulk. Uning ikki ko'rinishi mavjud: 1) individual – xususiy mulk; 2) korporativ – guruhiy mulk. Individual mulk bor joyda boylikni o'zlashtirish alohidalashgan holda, ayrim mulkdor tomonidan amalga oshiriladi. Korxonani ijara qilingan berish yoki aksioner jamiyatiga aylantirish tanho mulkdor ixtiyorida bo'ladi. Kooperativ – xususiy mulk deganda ma'lum bir guruh tomonidan boylikni

sherikchilik asosida individual tarzda o'zlashtirish tushuniladi. Mulkning bunday shakli hissadorlikka tayanadi. Guruh a'zosi umumiy ishga o'z hissasini pay (ulush) sifatida xususiy mulkini qo'shadi va shu ulushining miqdoriga yarasha daromad oladi.

Xususiy mulkdan tashqari shaxsiy mulk ham borki, u ham individual o'zlashtirishni bildiradi. Ammo u xususiy mulkdan farqliroq, ya'ni daromad topishga xizmat qilmaydi, balki shaxsiy ehtiyojni qondirishga qaratiladi. Asosan iste'mol buyumlari, ya'ni oziq — ovqat, kiyim — kechak, turar — joy, transport vositalari shaxsiy mulk obyekti bo'lib xizmat qiladi. Ular pul topishga emas, shaxsiy hayot kechirishga qaratiladi. Bu mulkning o'sish manbai iste'molga ajralilgan daromad hisoblanadi. Shaxsiy mulkning ko'pligi jamiyat boyligini bildiradi. Xususiy va shaxsiy mulk birgalikda fuqatolar mulki deb yuritiladi. Ular o'rtasidagi chegara nisbiydir. Muayyan boylik shaxsiy mulkdan xususiy mulkka aylanishi mumkin. Masalan, muayyan bir kishining topgan puli iste'mol tovarlari va xizmattlarni xarid etib, iste'mol qilishga ishlatalisa, u shaxsiy mulkka aylanadi. Agar uni aksiyaga aylantirib, daromad topilsa, xususiy mulk bo'ladi.

Jamoa mulki — boylikning muayyan maqsad yo'lida ayrim jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtirilishidir. Bu mulk sharoitida o'zlashtirish jamoadan tashqarida bo'la olmaydi. O'zlashtirish sharti jamoaga kirishdir. Jamoa mulki mehnasiz o'zlashtirishni inkor etadi va korporativ — xususiy mulkdan farqli ravishda nafaqat mulkka, balki mehnatga ham hissa qo'shishni talab qiladi. Shundagina o'zlashtirish yuz beradi, ishlab chiqarish resurslari birgalikda ishlataladi, ammo olingen natijaning bir qismi yakka tartibda o'zlashtiriladi.

Jamoa mulki mayda mulk egalarining ko'ngilli tarzda va o'z manfaati yo'lida turli jamoalarga birlashuvni orqali yuzaga keladi, uning obyekti moddiy boyliklar, subyekti esa jamoa a'zolaridir. Jamoa mulkining ko'payishi ikki yo'l bilan boradi: 1) jamoaga yangidan kirgan kishilar bergen, ular hissasining umumiy mulkka kelib qo'shilishi; 2) jamoa olgan daromadning bir qismining moddiylashib, mulk obyektiga qo'shilishi.

Kooperativ mulk — jamoa mulkining asosiy turi, har xil kooperativlarga birlashgan kishilarning umumiy mulki, mulkdagi hissadorlikka asoslangan bo'lib, guruhiy mazmunga ega.

Ijaraga olingen korxona jamoasi mulki — davlat mulkini korxona jamoasi tomonidan ijaraga olib ishlatishdir.

Korxona jamoasining mulki — ishchi va xizmashilar jamoasi davlatdan yoki xususiy mulk sohibidan sotib olgan va umumiylashtirib, birgalikda o'zlashtiriladigan mulk. Bu yerda mulk

ikkiga ajralmaydi, hamma mol – mulk va pul mablag'ları korxona jamoasi ixtiyorida turadi.

Korxona va tashkilotlar uyushmasi (assotsiatsiyasi) mulki – ma'lum maqsad yo'lida uyushma tashkil etganlarning umumiyl mulki. O'z faoliyatini uyg'unlashtirish, savdo – sotiq, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil etish uchun har xil yoki bir xil mulkka oid korxonalar va tashkilotlar ajratgan moddiy va pul mablag'i hisobidan tashkil topgan, lekin ishtirokchilar mulkidan alohidalashgan umumiyl mulk paydo bo'ladi. Uni xar bir ishtirokchi emas, halki uyushma tasarruf eta oladi. Bu mulk umumiyl maqsad yo'lida qina ishlataladi.

Ijtimoiy tashkilotlar mulki – ijtimoiy tashkilotlar partiyalar, kasaba tashkilotlari, xalq harakatlari, turli fondlar va boshqalarga a'zo bo'lgan va o'z ulushini qo'shgan kishilarning umumiyl mulkidir. U badal puli, ajratmalar, xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar hisobidan paydo bo'ladi, tashkilotlar nizomida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Diniy tashkilotlar mulki – dindorlar tashabbusi bilan vujudga kelgan tashkilotlarning mol – mulki. Bu mulk ham birgalikda tasarruf etiladi va u o'tmishdan meros qolgan diniy bino – inshootlar bilan cheklanmay, dindorlardan tushgan mablag'lar, korxona va tashkilotlarning xayriya yordami, diniy marosimlardan tushgan daromad hisobidan shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunida yuqorida ko'rib o'tilgan jamoa mulki turlaridan tashqari oila mulki va mahalla mulki qonun bilan qayd etilgan. Oilaviy korxona va xo'jaliklar borki, u yerdagi mol – mulk daromad topishni ko'zlaydi, birgalikda o'zlashtiriladi. Bir necha qondosh oilalar uyushmasi jamoa bo'lib, uning doirasida mulkiy aloqa paydo bo'ladi. Oila mulki obyekti oilaga qarashli mol – mulk bo'lib, u mehnat vositalari bilan birga iste'mol buyumlaridan ham iborat. Oila mulki zaminida mikroiqtisodiyotning bir turi – oila xo'jaligi amal qiladi.

Mahalla mulki – mahalla ahlidan iborat jamoa doirasida unga qarashli boylikning hamjihatlik bilan o'zlashtirilishidir. Mahalla ixtiyoridagi bino – inshootlar (kulubxona, idora binosi), marosimlarga xizmat qiluvchi asbob – anjomlar mahalla mulkinining obyekti bo'lsa, uning subyekti jami mahalla ahli hisoblanadi. Mahalla ahlining pul mablag'lari, davlat (mahalliy hokimiyyat) bergen mablag'lar, mahallada joylashgan korxona va tashkilotlarning xayriya ajratmalari hisobiga mahalla mulki shakllanadi va o'sib boradi.

Davlat mulki – boylikning o'z vazifasini ado etishi uchun davlat tomonidan o'zlashtirilishidir. Bu mulk davlat paydo bo'lishi bilan vujudga keladi, amino uning maqsadi va miqyosi o'zgarib turadi. U

xususiy va jamoa mulkidan o'sib chiqadi, ya'ni ularga tegishli moddiy va ma'naviy ne'matlar davlat tasarrufiga o'tadi. Davlat mulkining paydo bo'lishi va rivojahnishi quyidagilar hisobidan bo'ladi: 1) mulknинг milliyashtirilishi; 2) davlat mablag'i hisobidan korxonalar qurilishi; 3) jamiyatda yaratilgan, ammo boshqa mulklarga taalluqli daromadlarning bir qismidan soliq undirish orqali davlat budgetiga olinishi.

Turli mamlakatlarda davlat mulki obyekti bir - hiridan farq qiladi. Ko'pchilik mamlakatlarda yer xususiy mulk obyektiga kiradi, O'zbekistondagi mulk to'g'risidagi qonunga ko'ra yer, suv, qazilmalar, o'simlik va hayvonot dunyosi davlat mulki deb e'lon qilingan.

Davlat mulki faqat unga qarashli korxonalar mol - mulki bilan cheklanmaydi, unga davlat tashkilotlari mahkamalaridagi mol - mulk, davlat budgetining pul mablag'lari, davlatga qarashli aksiyalar ham kiradi. Shuningdek, davlatning xorijda ham mulki bo'ladi.

Turli shakldagi mulklar bir - biridan tamomila ajralib qolmaydi, ularning o'zaro aloqasi faqat bozor orqali bo'lmay, ular kirishib ham ketadi, natijada aralash mulk paydo bo'ladi. Aralash mulk muayyan bir obyektning turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi. U hozirgi ochiq turdag'i aralash aksioner kompaniyalarida aniq ifoda etiladi. Bu yerda xususiy mulk, jamoa mulki va hatto xorijiy mulk hissadorlik asosida birlashadi. Mulk obyekti birlashgan holda ishlatalib, o'z egalariga daromad keltiradi.

Mulkiy munosabatlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish muhim o'r'in tutadi.

**Davlat tasarrufidan chiqarish** - davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga aksionerlik jamiyatlarga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.


**Xususiyashtirish** - fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyonerlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishdir.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishning uchta asosiy yo'nalishlari:

1. Davlat korxonalarini mehnat jamoalariga bepul topshirish.
2. Davlat korxonalarini mehnat jamoalariga sotish yoki ijaraga berish, keyinchalik butunlay sotib olish.
3. Davlat mulkini barcha jamiyat a'zolariga teng bo'lib berish.

Davlat mulkini topshirishning amalga oshirish mumkin bo'lgan shakllari:

1. Korxonalarda mustaqil aksionerlik jamiyatlarini va boshqa xo'jalik jamoalarini tashkil etish.



2. Davlat mulkini auksion (kimoshdi savdo) yuridik shaxslarga yoki jismoniy shaxslarga sotish.
3. Yuridik shaxslar tomonidan ijaraga olingan korxonalarini butunlay sotib olish.
4. Davlat korxonalarini mehnat jamoalari tomonidan sotib olish.
5. Foyda keltirmayotgan korxonalarini mehnat jamoalariga hepul berish (istisno tariqasida).

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish obyektlarini sotish tartibi, narxi, bitimlarni rasmiylashtirish tartibi, mablag'i 1991 – yil 19 – noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risidagi qonunda batafsil ma'lumot berilgan.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etishdan iborat strategik vazifaga bo'yusundirildi. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga berildi.

O'zbekiston respublikasida kichik va o'rta biznesni davlat yo'li bilan qo'llab – quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tuzildi. 1995 – 1998 yillarda kichik va o'rta korxonalar soni 2 baravar ko'paydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida xususiy lashtirishni qisqa vaqt davrida o'tkazish kat'ea ahamiyatga egadir. Chunki iqtisodiyotni bozor munosabatlariiga o'tkazish mamlakat iqtisodining rivojlanishiga va aholi turmush darjasini yaxshilashga, farovonligini oshirishga olib keladi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Mulkchilik munosabatlari** – jamiyatdagi boyliklarni o'zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlardir. Mulkchilik o'zlashtirish borasidagi munosabatlar bo'lar ekan, u egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishning yaxlitligini taqozo etadi.

**Egalik qilish** – mulkka rasmiy va huquqiy egalik qilishdir.

**Foydalanish, ishlatish** – mulk bo'lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo'llab, xo'jalik jarayoniga kiritib, undan natija olish.

**Tasarruf etish** – mulk bo'lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish, ya'ni mulkni sotib yuborish, ijaraga berish, merosqa qoldirish, asrab – avaylab ko'paytirish yoki uni yo'qotib yuborishdan iborat xatti – harakatlar.

**Mulkchilik obyektlari** – bu mulkka aylangan barcha boylik turlari.

**Mulkchilik subyektlari** – mulk obyekti o'zlashtirishda qatna – shuvchilar, mulkiy munosabatlarning ishtirokchilari.

**Mulkdorning iqtisodiy manfaati** – uning boylik egasi sifatidagi hayotiy ehtiyoji bo'lib, xatti – harakat, fe'l – atvor, iqtisodiy faoliyat sababini yuzaga chiqaradi.

**Mulk shakllari** – bu davlat, jamoa, xususiy mulklardir.

**Xususiy mulk** – ayrim kishilarga tegishli va daromad olishning asosit bo'lib xizmat qiluvchi mulk.

**Jamoa mulki** – boylikning muayyan maqsad yo'lida ayrim jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtirilishi.

**Davlat mulki** – boylikning o'z vazifasini ado etishi uchun davlat tomonidan o'zlashtirishidir.

**Davlat tasarrufidan chiqarish** – bu davlat mulkini har xil mulk shakllariga aylantirish.

**Xususiylashtirish** – davlat mulkini xususiy shaxslar ixtiyoriga o'tishidir.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mulkning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati nimadan iborat?
2. Mulkning qanday shakllarini bilasiz, ularning har biriga ta'rif bering.
3. Mulkni tasarruf etish deganda nimani tushunasiz?
4. Mulkning obyekti va subyektlarini izohlang.
5. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish deganda nimani tushunasiz? ularning yo'llari va shakllarini sanab o'ting.

### **III Boh. TOVAR ISHLAB CHIQARISH. PUL**

1. Natural va tovar ishlab chiqarish ijtimoiy xo'jalik shakllari ekanligi.
2. Tovar va uning xossalari.
3. Pulning vujudga kelishi, mohiyati va asosiy vazifalari.
4. Qiymat qonuni.

#### **1. Natural va tovar ishlab chiqarish ijtimoiy xo'jalik shakllari ekanligi**

Avvalo, bu mavzuni o'rganishni biz tovar-pul munosabatlari nima, degan savolga javob berishdan boshlaymiz. Tovar-pul munosabatlari — bozor iqtisodiyoti mohiyatini tashkil etuvchi munosabatlar: tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayriboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarning yaxlitligidir.

Xo'sh, tovar ishlab chiqarish inson vujudga kelgan vaqt dan mavjudmi? Yo'q, albatta. Kishilik jamiyatni rivojlanishida tovar ishlab chiqarishdan oldin natural ishlab chiqarish mavjud bo'lgan.

Natural ishlab chiqarish tarixan ibtidoiy jamaa tuzumida mavjud bo'lgan, ammo u hozirda ham primitiv turdag'i ana'naviy iqtisodiy tizimlarda ham mavjud bo'lis'i mumkin.

Natural xo'jalikda mahsulotlar bozorda sotish uchun emas, balki xo'jalikning o'zida uning xodimlari va yaratuvchilari iste'moli uchun ishlab chiqarilgan.

Natural ishlab chiqarishda iqtisodiyotni tashkil etishning asosiy muammolari juda sodda yo'l bilan hal etilgan. Nima yaratish, qanday yaratish, mahsulot kimga mo'ljallanganligini xo'jalik xodimlari faqat xo'jalik ichidagi iste'molni hisobga olgan holda aniqlaganlar.

Natural ishlab chiqarish alohidalashgan xo'jaliklardan iborat bo'lgan. Bu esa natural ishlab chiqarishga chegaralanganlik xos ekanligini ko'rsatadi va iqtisodiy jarayonlarni bir doiraga qat'iy qilib qo'ygan, tashqi aloqalarga yo'l ochishga qo'ymagan. Natural xo'jalikda, xomashyonni topishdan tortib, mahsulotni tayyor holga keltirishgacha bo'lgan ishlarni alohida xo'jaliklarning o'zi bajargan. Ishlab chiqarish qo'l mehnatiga asoslangan. Bu esa natural xo'jalikka bir qancha asrlar davomida universal qo'l mehnati xos bo'lganligini ko'rsatadi.

Natural xo'jalikda iste'mol hajmi bilan ishlab chiqarish hajmi bir muncha muvofiq kelgan: bu esa o'z navbatida ularni bir-biri bilan bog'lash muammosini osonlashtirgan. Chunki natural xo'jalikka ishlab chiqarish va iste'mol o'tasida iqtisodiy aloqalar xos bo'lgan,

ular "ishlab chiqarish — taqsimot — iste'mol" ketma — ketligi bo'yicha ro'y berган.

Ishlab chiqarishning natural shakli ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarning shunday darajasiga xosdirki, bunda ishlab chiqarishning asosiy maqsadi nihoyatda chegaralangan hamda hajmi katta bo'lмаган va tarkibi jihatidan deyarli bir xil bo'лган ehtiyojlarni qondirishga bo'ysundirilgan.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanib borishi natijasida natural ishlab chiqarishga nisbatan ishlab chiqarish unumdorligining o'sishiga mukammalroq ishlab chiqarish vositalarini qo'llashga sharoit yaratadigan tovar xo'jaligi vujudga kelgan, uning kurtaklari ibtidoiy jamaa tuzumining yemirilishi davrida vujudga kelgan. Tovar ishlab chiqarish shunday xo'jalik tizimidirki, bunda mahsulot yakka, alohida ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladi va ularning har biri, biron xil mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashadi, natijada ijtimoiy talabni qondirmoq uchun mahsulotni bozorda sotish va sotib olish zarur bo'ladi. Xo'sh, tovar ishlab chiqarishning vujudga kelish sabablari nimadan iborat? Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va mavjud bo'lishining ijtimoiy — iqtisodiy asoslari — ijtimoiy mehnat taqsimoti ishlab chiqaruvchilarning alohidalashuvi, ularning iqtisodiy mustaqilligidir. U yoki bu jamiyatda tovar ishlab chiqarishning ijtimoiy — iqtisodiy mohiyati, tutgan o'mi, rivojlanganlik darajasi va amal qilish chegarasi shu jamiyatning mulkiy munosabatlariiga va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining teranlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, tovar ishlab chiqarishining vujudga kelishi natijasida bozorning shakllanishi insonlarni oldida turuvchi "noyob" cheklangan resurslar har xil ne'matlar bo'лган "cheksiz ehtiyojar" ning dilemmasini hal etish uchun cheksiz urinishlar natijasidir. Zero, insonning cheksiz ehtiyojariga nisbatan iqtisodiy resurslar va insonlarning ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklanganligi sababli, inson bitta mahsulotni unumli ishlab chiqarish, bitta sohada samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin, ammo uning ehtiyoji ko'p mahsulotlar bilan o'chanadi. Binobarin, resurslar cheklanganligi ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida tarmoqlar hamda inson faoliyat turiga ixtisoslashuviga sabab bo'лган. Hozirgi iqtisodiyot mehnat taqsimotining o'sishi, ixtisoslashuvining chuqurlashuvi mahsuli bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat taqsimoti natijasida ish kuchi samaradorligi oshadi.

Ixtisoslashuv natijasida, ya'ni bir mahsulotlar ortiqcha ishlab chiqariladi. boshqalari umuman ishlab chiqarilmaydi, bu esa mahsulotni ayriboshlash masalasini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, ayriboshlash munosabatlari bozorda ro'y beradi. Demak, bozorning

vujudga kelishida yana bir muhim bo'g'in – bu mehnat taqsimoti darajasining o'sishi natijasida tovar va xizmatlarni ayriboshlashning shakllanishidir.

Tovar bozorning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Tovar inson mehnati natijasida bozorda ayriboshlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot. U insonning ma'naviy, jismoniy, ishlab chiqarish ehtiyojlarini qonditadi.

## 2. Tovar va uning xossalari

Tovar ikki xossaga ega:

- a) iste'mol qiymati;
- b) qiymat;

Tovarning iste'mol qiymati mahsulotlarning foydali tomonidan kishilarning biron bir iste'molini qondira olish qobiliyatidan iborat va har qanday jamiyat boyligining moddiy mazmunini tashkil etadi. Tovar har doim mehnat mahsulidir: ammo tovar bo'lishi uchun bozorda ayriboshlanishi zarur. Demak, u almashuv qiymatiga ega. Tovarning almashuv qiymati nima?

Bir tovarning ikkinchi tovarga biora bir nisbatda ayriboshlanishiga uning almashuv qiymati deyiladi.

Almashuv qiymati qiymatning namoyon bo'luchchi shaklidir. Tovarlar bir-biriga ayriboshlanganda ularning qiymati hisobga olinadi.

Demak, tovar ikki xossaga: iste'mol qiymati va qiymatga ega. Tovar iste'mol qiymati va qiymatning birligidan iborat, ammo bu birlik ziddiyatlidir, bir vaqtning o'zida ikki yoqlama shakliga, ya'ni ashyoviy va qiymat shakliga ega. Tovarning iste'mol qiymati va qiymati o'rtaсидagi ziddiyat tovarlar sifasiz ishlab chiqarilganda yuzaga keladi.

Tovarning ikki xossasi borligiga sabab, unda mujassamlashgan mehnatning ikki yoqlama xarakterga egaligidadir.

Masalan, kostum ishlab chiqarishda yigiruvchilar, to'qimachilar, tikuvchilar; nonda – novvoy, traktorchi, tegirmonchi va boshqalar ishtirok etadilar. Agar har bir aniq iste'mol qiyinatida masalan, kostumda ma'lum aniq mehnat gavdalansa, uning qiymatida ish kuchi sarfi sifatida umuman sarf qilingan inson mehnati gavdalanganadi. Aniq mehnat turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, tikuvchining mehnati novvoy mehnatidan farq qiladi, chunki birinchisi kostum yaratadi, ikkinchisi esa non. Inson mehnatining umuman sarflanishi nuqtai nazaridan, ya'ni insonni jismoniy, ma'naviy, ruhiy energiyasini sarf etishimiz nuqtai nazaridan tikuvchi va novvoy mehnati bir xildir. Demak, tovara mujassamlashgan mehnat ikki yoqlama xarakterga

ega. Birinchisi – aniq mehnat. Ikkinchisi – umuman insonning mehnati va aqliy energiyasining sarfi – abstrakt mehnat. Aniq mehnat tovarning iste'mol qiyamatini, abstrakt mehnat tovarning qiyamatini yaratadi.

### - 3. Pulning vujudga kelishi, mohiyati va asosiy vazifalari

Tovar qiymati ishlab chiqarishda vujudga keladi, ammo faqat bozorda bir tovari ikkinchisiga tenglashtirish orqali aniqlanadi.

Tovarlarning qiyamatini o'zida aks ettirgan tovar ekvivalent tovar deyiladi. Masalan, X va Y tovarlar ayrboshlanyapti, ya'ni  $X \neq Y$ . Bunda Y tovar, X tovarning qiyamatini o'zida ifodalayapti. Bunda Y tovar ekvivalent tovar hisoblanadi. Ammo pulni vujudga kelishidan oldin ekvivalent tovar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tgan.

Demak, almashuv hozirgi zamon shakliga yetib kelguncha bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Qiymatning eng elementar shakli bo'lib u 'bir tovar qiyamatining boshqa tovarda gavdalanishidir. Qiymatning oddiy shakli ayrboshlash endi vujudga keladigan vaqtga muvofiq keladi: bu vaqtda u hali tasodifiy xarakterga ega bo'lган. Masalan, 10 metr mato = 2 qop g'alla. Bunda tovar ekvivalent rolini g'alla o'ynayapti.

Mehnat taqsimoti va tovar ishlab chiqarishning o'sishi almashinadigan tovarlar sonini ko'paytiradi, qiymatning to'la yoki kengaytirilgan shakli kelib chiqadi, almashish jamiyatda doimiy tus oladi. Endi tovar qiymati bir necha tovarlarning qiymatlari bilan ifodalanishi mumkin bo'ladi, ya'ni  $2 \text{ qo'y} = 2 \text{ qop g'alla}$  yoki  $25 \text{ metr chitga yoki } 3 \text{ boltaga kabi}$ .

Qiymatning kengaytirilgan shakli asta – sekin qiymatning umumiyligi shakliga aylandi. Hamma tovarlar o'z qiymatlarini bir tovarda aks ettira boshlaydilar.

Masalan:

8 qop g'alla yoki	
10 metr chit yoki	
1 bolta yoki	q 1 qo'y.
2 gr oltin	
va hokazo.	

Bunda tovar – ekvivalent rolini bitta qo'y o'ynamoqda. Buning natijasida umumiyligi ekvivalent kelib chiqqan va bu rolni o'ynovchi tovarning asosiy vazifasi odamlarning sbaxsiy ehtiyojini emas, ijtimoiy almashuv ehtiyojini qondirishdan iborat bo'lib qoldi.

Har xil xalqlarda va tarixning turli bosqichlarda ekvivalent vazifasini turli tovarlar bajargan. Ishlab chiqarishning yanada taraqqiy

etishi, tovar almashuvining rivojlanib, savdo – sotiq ishlarning milliy doiradan chiqib ketishi, katta xalqaro bozorlarning paydo bo'lishi yagona umumiylar ekvivalent zaruriyatini keltirib chiqargan. Shunday qilib, qiymatning pul shakli kelib chiqdi. Umumiylar ekvivalent vazifasini oltin bajara boshlagan. Oltin pulga aylandi. Pul rolini tarixda boshqa materiallar ham (mis, temir, kumush) o'ynagan. Shunday qilib, pul – o'ziga xos tovar, umumiylar ekvivalentdir.

Pul vujudga kelishining asosiy sababi tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvidan. Buning natijasida ortiqcha mahsulotni ayrboshlash zaruriyati vujudga kelgan. Pul esa ayrboshlashning eng qulay vositasi bo'lganligi sababli insonlar tomonidan qabul qilingan.

Pulning mohiyati: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arish, to'lov vositasi, jahon puli vazifalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

#### 1. Pul – qiymat o'lchovi.

Pul turli tovarlarning qiymatini o'lchab, miqdorini taqqoslab beradi. Tovarlar qiymatining pulda ifodalanishi tovarning bahosidir.

#### 2. Pul – muomala vositasi

Tovar – pul muomalasi jarayonida pul naqd bo'lishi kerak, chunki uning yordamida tovarlar oldi – sotdi qilinadi. Tovarlarning pulga aylanishi tovar ishlab chiqaruvchining tovari tayyorlashga sarflagan mehnati jamiyatga kerakli deb e'tiraf etilganligini bildiradi. Shuning uchun pulga tovar ayrboshlash bozor iqtisodiyotining muhim tomoni hisoblanadi.

#### 3. Pul – jamg'arish vositasi.

Turli vaziyat taqozosi muomala jarayonining uzilib qolishiga olib kelishi mumkin. Buning natijasida pul muomalada bo'lmay turib qoladi. Bunday holda pul boylik to'plash vositasi vazifasini bajara boshlaydi.

#### 4. Pul – to'lov vositasi.

To'lov muddati kechiktirilib, sotilgan tovarlarning haqi to'lanayotgan vaqtida pul to'lov vositasini bajaradi. Xaridorlar tovarning pulini to'lov muddati kelgandan keyingina to'laydilar. Natijada pul ma'lum vaqtidan keyingina oborotga tushadi. Pul to'lov vositasi vazifasini tovar muomalasi sohasidan tashqarida ham bajaradi. Xususan, ish haqi to'lashda har xil moliyaviy majburiyatlar (soliq, ijara haqi) to'lanadi.

#### 5. Jahon puli.

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojalnishi bilan tovarlar muomalasi bir mamlakat doirasidan tashqariga chiqsa boshlaydi, ya'ni jahon puliga aylanadi.

## O'zbekiston milliy valutasining joriy etilishi

Valuta deganda, keng ma'noda, har bir mamlakatning yoki davlatning milliy pul birligi tushuniladi, har bir o'ziga siyosiy va iqtisodiy mustaqil bo'lgan davlat o'z milliy valutasiga – pul birligiga ega bo'lishi lozim. Ammo, buning uchun mamlakat iqtisodiyoti rivojlangan bo'lishi ko'p sohalarda o'zini – o'zi ta'minlay olishi, xalqaro iqtisodiy jamiyatlarda erkin qatnasha olishi ta'minlangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda milliy valuta qadri tushib ketadi. Har bir davlat o'z valutasining konvertirlashuviga, ya'ni boshqa valutalar bilan erkin almashina olishiga erishmog'i kerak. Buning uchun milliy pul birliklari yetarli miqdorda tovar zahiralari bilan ta'minlangan, mamlakat iqtisodiyoti mustahkam, baquvvat, barqaror rivojlanayotgan bo'lishi kerak.

Valuta – tor ma'noda konvertirlashgan milliy pul birligidir. Bunday valutalar jumlasiga dollar, funt'sterling, marka, frank, iena kiradi. Bu pul birliklari o'z mamlakatida tovarlar bilan ta'minlangan bo'lgani uchun xalqaro darajada ham erkin almashina oladi. Iqtisodiyoti yuksalgan har bir mamlakat valutasi ana shunday transmilliy quvvat kasb etishi mumkin.

Har qanday mamlakatning mustaqillik belgilariidan biri – o'z milliy valutasini chiqarishi inqilobiy jarayon bo'lib, har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi kerak. Asosiyisi, mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bo'lishi, iqtisodiy rivojlanish ta'minlanishi, ma'lum sarmoyaga ega bo'lishdir.

O'zbekistonda milliy valutani muomalaga kiritish Markaziy Osiyodagi boshqa mustaqil davlatlarga nisbatan biroz kechiktirildi. Biroq, bu ishning g'oyat murakkabligi, mas'uliyati nazarda tutilsa, to'g'ri qilinganligini tushunish qiyin emas. Milliy valutaga o'tish ma'lum tarixiy davrni o'z ichiga olishini e'tiborda tutib, o'tish davrida (1993 – yil noyabrdan 1994 – yil iyulgacha) so'm – kupon joriy etildi. So'm – kupon ma'lum ma'noda milliy pul birligiga o'tilishi uchun tayyorgarlik vositasi bo'ldi.

Shuningdek, so'm – kupon misolida milliy valutani qadrsizlantirmaslikning ma'lum jihatlari sinovdan o'tkazildi.

Mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning milliy valutasi – so'mni 1994 – yil iyul oyida muomalaga kiritish maqsad emas. albatta, bu obyektiv zaruratdir. Maqsad – muomalaga kiritilgan milliy pulimiz – so'mning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik, uning xarid quvvatini mustahkamlash; keyinchalik so'mning konvertirlashuviga iqtisodiy zamin yaratish. xalqaro miqyosda o'zbek pulining e'tirof etilishiga, xalqaro hisob – kitoblar vositasiga aylantirishga erishishidan iborat.

#### 4. Qiymat qonuni

Qiymat deb mahsulot ishlab chiqarishga sarf etilgan mehnat miqdori tushuniladi. Mehnat sarflari jonli (ish kuchi sarflari) va buyumlashgan (ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va h.k.) turlarga ajratiladi.

Binobarin, "tovarning qiymati" deganda, uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlari tushuniladi.

Ishlab chiqaruvchining har doim harakat qilishiga, yangiliklarga intilishiga, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishga nima undaydi? Bu savolga qiymat qonuni javob beradi.

Qiymat qonuniga binoan tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Bu qiymatning miqdori ijtimoiy – zaruriy mehnat sarflari bilan o'lchanadi.

"Ijtimoiy" degan ibora avvalo shuni bildiradiki, tovar qiymatining miqdori u yoki bu ishlab chiqarishning o'ziga alohida qilgan mehnat sarflari bilan emas, balki ijtimoiy – zaruriy mehnat sarflari (IZMS) bilan o'lchanadi, ya'ni ijtimoiy – zaruriy mehnat sarflari ishlab chiqarishning mavjud ijtimoiy normal sharoitda va shu jamiyatda mehnat mahoratining va intensivligining o'rtacha darajasida, biron iste'mol qitymatini ishlab tayyorlash uchun talab qilina lig'an ish vaqt mehnat sarflaridir. Agarda ususiy mehnat sarflari ijtimoiy mehnat sarflaridan kam bo'lsa, ishlab chiqaruvchi qulay iqtisodiy mavqega ega bo'ladi va iqtisodiy jihatdan rivojanib mstahkamlanib boradi.

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy talabi ishlab chiqaruvchi kam mehnat sarflab, ko'p va sifatli mol ishlab chiqarilgandagina, ya'ni kishilarning talab va ehtiyojini to'laroq qondirgandagina foyda ko'rib ishlashi mumkin, aks holda, zarar ko'radi. Demak, qiymat qonuni ijtimoiy mehnatni hisobga olish va tartibga solish va vaqtini tejasjni rag'batlantirish vazifalarini bajaradi.

Qiymat qonuning amal qilishi oxir – oqibat ishlab chiqaruvchilarning tabaqalashuviga olib keladi. Tabaqalashuvning kechishi faqat sarf – xarajatlardagina emas, shuningdek, bozor talabini hisobga olishga, unga moslasha olishga ham bog'liqdir. Shunga ko'ra, qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini o'stirib borishga yoki boshqa bir tovar ishlab chiqarishga o'tishga rag'batlantiradi.

Demak, qiymat qonuning yana bir vazifasi – tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtirishdir. Bozordagi tovar bahosi asosida qiymat yotadi. Shunga ko'ra, qiymat qonuni baholar qonuni sifatida ko'ribadi. Lekin, qiymat qonuning vazifasi boho qiymat bilan teng bo'lganda ham, farq qilganda ham ainalga oshaveradi.

Chunki, eng yuqori unumdorlikka erishgan tovar ishlab chiqaruvchilar, bir muncha vaqt yuqori daromad olib turishlari mumkin, lekin bu bilan ularning ahvoli butunlay kafolatlangan deb bo'lmaydi. Agar ular texnik va tashkiliy yangiliklarni, ko'proq samara beradigan ishlab chiqarish yo'llarini muntazam qidirib topib ishlab chiqarishga qo'llab turmasalar, bir muncha vaqtdan keyin o'z ustunliklaridan ajralib qolishlari mumkin.

Shunga ko'ta, qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni mehnat sarfini kamaytirish yoki kamaytirmaslikni tanlab olish erkinligidan mahrum qiladi. Ular doimo iqtisodiy tazyiq ostida bo'ladijar va doimo ish vaqtini tejash imkoniyatlarini axtarish bilan shug'ullanishga majburdirlar. Tarix tajribasi – qiymat qonuni yaratadigan rag'batlar va tazyiq g'oyat samarali ekanligini ko'rsatadi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Natural xo'jalik** – bu xo'jalik yuritishning shunday shakliki, unda moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish alohida xo'jalik birligining o'z ichida iste'mol qilish uchun amalga oshirilishidir.

**Tovar (bozor) xo'jaligi** – bu tovar is'lab chiqarishga asoslangan va bozor orqali ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtaсидаги o'zarо aloqadorlikni ta'minlovchi iqtisodiyotni tashkil qilishning ijtimoiy shaklidir.

**Oddiy tovar xo'jaligi** – bu mustaqil xususiy ishlab chiqaruvchilar – dehqonlar va hunarmandlar o'rtaсида ayrboshlash uchun mahsulot ishlab chiqarish.

**Rivojlangan tovar xo'jaligi** – nafaqat barcha mehnat mahsullari balki ishlab chiqarish omillari, jumladan, ishchi kuchi ham tovarga aylanadi.

**Tovar** – bu o'z iste'moli uchun emas, balki boshqa mahsulotlarga bozorda pul vositasida ayrboshlash uchun yaratilgan mehnat mahsulidir.

**Tovarning iste'mol qiymati** – bu uning kishilarning biron – bir ehtiyojlarini qondirish xususiyati.

**Tovarning almashuv qiymati** – bu uning boshqa bir tovarga almashina olishi xususiyatidir.

**Tovar qiymati** – uni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy – zaruriy mehnat, ijtimoiy – zaruriy ish vaqtini bilan o'lchanadi.

**Aniq mehnat** – tovarning iste'mol qiymatini yaratadigan mehnatdir.

**Abstrakt mehnat** – tovar qiymatini yaratadi ("abstrakt" so'zi o'zbek tilida mavhum degan ma'noni bildiradi). Mehnat aniq shaklidan qat'i nazar umuman sarflangan ish kuchidir, jami ijtimoiy mehnatning qismidir. Shuning uchun gohida "abstrakt mehnat" deganda insонning nima ishlаб chiqarishidan qat'i nazar aqliy va jismoniy quvvatini sarf qilishi tushuniladi.

**Pul hamma** tovarlarga ayrboshlana oladigan va hamma tovarlar qiymatini o'zida ifoda eta oladigan maxsus tovardit.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Natural xo'jalik deganda nimani tushunasiz?
2. Tovarga ta'rif bering va uning xossalariini tavsiflang.
3. Pul bu nima va uning mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Pul qanday vazifalarni bajaradi? Bu vazifalarni tavsiflab bering.
5. O'zbekistonda milliy valuta qachon joriy etildi va uning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
6. Qiymat deganda nimani tushunasiz?
7. Qiymat qonunini ta'riflang.

## **IV Bob. IQTISODIY RIVOJLANISHNING UMUMIY MUAMMOLARI**

1. Iqtisodiy rivojlanishning obyektiv shart-sharoitlari. Cheklangan resurslarning samarali ishlatalishi.
2. Jamiyat oldida turgan asosiy iqtisodiy muammolar.
3. Iqtisodiy tizimlar modeli.

### **1. Iqtisodiy rivojlanishning obyektiv shart-sharoitlari. Cheklangan resurslarning samarali ishlatalishi**

Har qanday iqtisodiy tizimning amal qilish maqsadi bu jamiyat va har bir jamiyat a'zosining ehtiyojini qondirishdir.

Ishlab chiqarish jarayoni bu jamiyat ictiyoridagi resurslardan foydalaniib, jamiyat a'zolari uchun tovar va xizmatlar yaratishdir.

Ehtiyojni qondirish maqsadida cheklangan resurslarni ishlatalish iqtisodiy o'sish muammolarini keltirib chiqaradi. Bu muammolarning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, jamiyat iste'molining cheksizligi va ular to'liq qondirilmasligidir, ikkinchidan, tovar va xizmatlarni yaratish uchun kerak bo'lgan resurslarning cheklanganligidir. Bu muammo tanlash yo'li bilan hal etiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining asosiy maqsadlaridan biri ham bu tahlil qilish uslubi orqali cheklangan resurslarni tanlash yo'li bilan iste'molni maksimal qondirish muammosini hal etishdir.

Jamiyat iste'molining cheksizligi. Iste'mol - shaxs va jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun kerak bo'lgan zaruratdir. Insonlar uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar hajmi millionlarda o'lchanib, ularning soni o'sib bormoqda. Iqtisodchilar moddiy ehtiyojni, ya'ni tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganadilar. Iste'molning qondirilishi jarayonida uning miqdori sifati, tarkibi o'zgarib boradi va takomillashadi.

Iste'molning cheksiz o'sib borishini insoniyatning iqtisodiy evolyutsiyasi jarayonida kuzatish mumkin. Har 10 yilda tovarlar va xizmatlar hajmi ikki baravardan ko'proq o'sib bormoqda. Inson tabiat boyliklari oddiy iste'molidan boshlab, to tabiat, inson va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalinishgach bo'lgan bosqichlarni bosib o'tmoqda.

Iste'molning turlari. Iste'mol turlari ikki xil: birlamchi va ikkilamchi bo'ladi.

Birlamchi iste'molga inson uchun birinchi navbatda kerak bo'ladigan buyumlar kiradi (kiyim - kechak, oziq - ovqat, uy - joy).

Ikkilamchi iste'molga esa qolgan boshqa buyumlar va xizmatlar kiradi (kino, teatr, sport).

✓ Iste'molni qondirish manbai bo'lib moddiy boyliklar hisoblanadi. Ularning ayrimlari jamiyat ixtiyorida cheksiz bo'ladi (masalan, havo), ayrimlari cheklangan bo'ladi.

**Iqtisodiy resurslar va ularning cheklanganligi.** Iqtisodiy resurslar – bu tovar va xizmatlarni yaratish uchun kerak bo'lgan tabiiy, insoniy va inson tomonidan yaratilgan resurslardir.

Resurslar ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

1. Moddiy resurslar – yer, xomashyo materiallari va kapital (sarmoya).
2. Inson resurslari – mehnat va tadbirkorlik qobiliyati.

«Yer» tushunchasiga: haydaladigan yerlar, o'tmonlar, konlar va suv resurslari kiradi. «Kapital yoki investitsion resurslarga»: tovar va xizmatlarni yaratish va ularni iste'molchiga yetkazib berish uchun kerak bo'lgan barcha vositalar (bino – inshootlar, asbob – uskunalar). Kapital tovarlarni ishlab chiqarishni takomillashtirish va kengaytirish uchun ishlatish jarayoni (mashina, uskunalar, qurilish materiallari) investitsiyalash deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi moddiy resurslarga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Prezident I.A.Karimov bu borada «O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxlanadi – bu yerda mashhur Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan» deb ta'kidlab o'tgan<sup>1</sup>.

O'zbekiston yer osti boyliklari resurslaridan tejamli va samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosidir.

«Mehnat» tushunchasiga tovar va xizmatlarni yaratish jarayonida insonlarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining qo'llanilishi kiradi.

«Tadbirkorlik» qobiliyatiga barcha ishlab chiqarish omillarini unumli ishlata olishdagи maxsus insoniy resurslar kiradi.

Barcha iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish omillari cheklangandir. Bunday cheklanish nisbiydir. Chunki, ma'lum bir iqtisodiy taraqqiyot sharoitida barcha talabni qondirish uchun kerak bo'lgan resurslar cheklangandir. Resurslarning cheklanganligi oqibatida ishlab chiqarish hajmi ham cheklangandir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jamiyat uchun kerak bo'lgan tovar va xizmatlarni yarata olmaydi. Shuning uchun jamiyat oldida qanday mahsulotlarni ishlab chiqarish va qanday mahsulotlardan voz kechish muammosi turadi (masalan, ma'lum nisbatlarda saryog' yoki

<sup>1</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sug'asida: xavfsizlikka tahdid, bargorlik shartlari va taraqqiyot kefotlari» – T: «O'zbekiston», 1997 – y 230 – bet.

zambaraklar ishlab chiqarish). Natijada ijtimoiy ishlab chiqarishni tejamlı va samarali olib borish zarurati kelib chiqadi.

Har qanday jamiyat iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun cheklangan resurslarni maksimal darajada unumli ishlatish orqali, maksimal darajada foydali tovar va xizmatlarni yaratishga intilishi kerak.

**Cheklangan resurslarning samarali ishlatilishi.** Iqtisodiy samaradorlik – bu cheklangan resurslardan unumli foydalaniib, tovar va xizmatlarga bo'lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir. Agar qilingan xarajatga nisbatan ko'proq mahsulot ishlab chiqarilgan bo'sa, samaradorlik oshgan hisoblanadi va aksincha, mahsulot kam ishlab chiqarilsa, samaradorlik pasaygan bo'ladi.

Har qanday jamiyat iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga intiladi. Ular cheklangan resurslardan maksimal tovar va xizmatlarni yaratishga harakat qiladilar. Bu maqsadga erishish uchun jamiyat o'zidagi bor resurslardan to'liq foydalanishi kerak. Buning uchun jamiyat ish bilan bandlikni va ishlab chiqarishni to'liq ta'minlashi kerak. To'liq bandlikni amalga oshirish uchun mamlakat iqtisodiyoti mehnatga qodir hamma jamiyat a'zolarini ish bilan ta'minlab berishi kerak.

Ishlab chiqarishni to'liq amalga oshirish uchun cheklangan resurslarni samarali taqsimlash, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotda resurslarning ulushi salmoqli bo'lishi kerak. Ishlab chiqarishni samarali olib borish uchun texnologiyalarning eng yaxshisini qo'llash kerak.

Milli iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'i.


Jamiyatda resurslarning cheklanganligi, ularni samarali va oqilona ishlatishni zarur qilib qo'yadi. Jamiyat oldida resurslardan foydalanishning alternativ varianti mayjud. Buni biz quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin. Faraz qilaylik, mamlakatda faqat ikkita tovar turi ishlab chiqariladi. Stanok va non, ya'ni mehnat quroli va iste'mol buyumi. Agar jamiyatning barcha resurslarini non ishlab chiqarish uchun ishlatsa, unda maksimal miqdorda – 500 tonna ishlab chiqarish mumkin va aksincha, resurslarning barchasi stanok ishlab chiqarishga sarflansa – 15 ming dona ishlab chiqarish mumkin. Lekin jamiyat bir vaqtning o'zida ham non, ham stanok ishlab chiqarishi kerak. Buning uchun non va stanoklarni ishlab chiqarish maksimal darajasidan pastroq bo'lishi kerak. Non va stanoklarni bir – biriga nisbatan ishlab chiqarishni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

**1-jadval.**  
**Non va stanoklarni ishlab chiqarish nisbati**

Imkoniyatlar	Stanoklar (ming)	Non (tonna)
A	15	0
B	14	100
D	12	200
E	9	300
F	5	400
G	0	500

Non va stanoklarni ishlab chiqarishni milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'i bilan namoyish etish mumkin.

**1-chizma. Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'i**



Chizmada ko'rsatilgan raqamlarni bir-biri bilan chiziq yordamida bog'lasak, ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'i hosil bo'ladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlarining egri chizig'i jamiyat uchun mahsulot ishlab chiqarishda alternativ imkoniyatlar mavjud ekanligini namoyish etadi. Resurslarning barchasi ishlatilgan

sharoitda non va stanoklarni ishlab chiqarishning mumkin bo'lgan kombinatsiyalarning nuqtalari ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasida bo'ladi. Resurslarning cheklanganligi sababli, jamiyat bir vaqtning o'zida ham non, ham stanok ishlab chiqarish hajmini oshira olmaydi va natijada S nuqtasiga siljib boradi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'liq foydalananigan sharoitda non va stanok ishlab chiqarishning kombinatsiyalari egri chiziq ustida emas, balki Y nuqtasida bo'ladi. Bu nuqta shuni ko'tsatadiki, qo'shimcha resurslar ishlataliganda non va stanoklar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish mumkin.

### **3. Jamiyat oldida turadigan asosiy iqtisodiy muammolar.**

#### **4. Iqtisodiy o'sish**

Jamiyat oldida turgan asosiy iqtisodiy muammo jamiyatning cheksiz talablarini qondirishning jamiyat ixtiyoridagi cheklangan resurslardan unumli foydalanishning optimal variantini izlab topishdir. Har qanday jamiyat o'zidagi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'lgan holda uchta savolga javob topish imkoniyatini izlashi kerak. Bu savollar quyidagilardan iborat:

- qanday tovarlar, xizmatlar va qancha miqdorda ishlab chiqarilishi kerak?
- qanday usullar bilan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi kerak?
- kimlar tovar va xizmatlarni sotib oladilar va iste'mol qiladilar?
- Nimalar ishlab chiqarilishi kerak?

Ayrim shaxslar o'ziga kerak bo'lgan tovarlar bilan o'zini har xil yo'llar bilan ta'minlashi mumkin: mahsulotni ishlab chiqarish, almashtirish yoki sovg'a ko'rinishida ega bo'lishi. Jamiyat esa barcha kerakli mahsulotlarga birdaniga ega bo'lolmaydi. Shuning uchun jamiyat oldida qanday mahsulotlarni bиринчи navbatda, qanday mahsulotlarni keyingi navbatda va qanday mahsulotlarni ishlab chiqarishdan voz kechish muammosi turadi.

Rivojlangan mamlakatlarda boshqa mamlakatlar bilan raqobat kurashida g'olib chiqish uchun ma'lum bir doira bilan cheklangan tovarlarni yanada yaxshiroq ishlab chiqarishga intilmoqdalar. Bunday tovarlar avtomobillar, EHMLar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Rivojlanmagan mamlakatlarda tanlov masalasi juda og'ir kechadi. Bunday mamlakatlarda butun ish kuchi aholiga faqat oziq-ovqat va kiyim-kechak ishlab chiqarishga sarflanadi. Aholining turmush darajasini ko tarish uchun ishlab chiqarishni kengaytirish zarur bo'ladi. Buning uchun tovarlar ishlab chiqarishga zatur bo'lgan

resurslarning bir qismini kapital tovarlar, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarishga va ishlab chiqarish bino-inshoollarini qurishga sarflashga to'g'ri keladi. Lekin bunday taqsimot vaqtincha turmush tarzining pasayishiga, ommabop tovarlarning qisqarishiga olib keladi.

Tovar va xizmatlar qanday yo'l bilan yaratilishi kerak?

Jamiyat a'zolari uchun kerak bo'lgan ne'matlar yaratilishining har xil variantlari mavjud. Bu ne'matlar kim tomonidan qanday resurslardan va qanday texnologiya asosida ishlab chiqarilishi kerak? Turli loyihamalar asosida sanoat inshootlari, uylar va avtomobilarni yaratish mumkin. Binolar ko'p qavatlari va bir qavatlari bo'lishi, avtomobilarni konveyerda yoki qo'lda yiq'ish, ekin maydonlariga makkajo'xori yoki g'alla ekish mumkin.

Binolarning ayrimlari bir shaxs tomonidan, ayrimlari davlat tomonidan qurilishi mumkin (masalan maktablar). Avtomobil ishlab chiqarishni bir xil mamlakatda davlat hal esa, boshqa mamlakatda xususiy firma hal etishi mumkin.

Kimlar tovar va xizmatlarni sotib oladi va iste'mol qiladi?

Jamiyatda yaratilgan tovarlar va xizmatlarning cheklanganligi sababli, ularni taqsimlash muammosi kelib chiqadi. Kim bu tovarlarga ega bo'lishi va ulardan foydalanishi kerak? Tovarlar va xizmatlar jamiyat a'zolari o'rtaida teng taqsimla ishi yoki boy va kambag'allar bo'lishi kerakmi?, ular o'rtaida nisbat qanday bo'ladi?, aqliy yoki jismoniy mehnatga ko'proq e'tibor berish kerakmi? Bu muammolarning hal etilishi jamiyatning maqsadi va uning rivojlanishini rag'batlantiradi.

### 3. Iqtisodiy tizimlar

Insoniyat jamiyatni o'z taraqqiyot yo'lida har xil iqtisodiy tizimlarni qo'llab kelmoqda. Ular bir-biridan asosiy iqtisodiy muammolarni hal etishga yondashuvি va uslublari bilan farqlanadilar. Iqtisodiy tizimlar to'rt turga bo'linadi:

**1. An'anaviy iqtisodiy tizim.** Bu qadimgi va qoloq iqtisodiy tizimdir. Bu tiziunda ishlab chiqarish natural xarakterga ega bo'lib, qo'l mehnatiga asoslangandir. Iqtisodiy aloqalar cheklangan va an'anaga asoslangandir. An'analar avioddan - avlodga o'tib, kim uchun qanday tovar va xizmatlarni yaratishni belgilab beradi. Texnik taraqqiyot bu tizimga juda qiyinchilik bilan kirib keladi, chunki u an'analar bilan ziddiyatga kirib boradi.

Ayrim mamlakatlarda maxsus iqtisodiy resurslarning mavjud bo'lishi. Iqtisodiy masalalarni an'anaviy yo'l bilan hal qilishga

asoslanadi. Masalan, Braziliyada yildan – yilga bir xil texnologiya asosida import uchun kofe ishlab chiqiladi.

**2. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyot tizimi.** Bu tizimda davlat iqtisodiyotini to'la – to'kis o'z nazoratiga oladi. Mamlakatdag'i hamma iqtisodiy resurslar davlat mulki hisoblanadi. Xalq xo'jaligi davlat tomonidan tuzilgan markazlashgan reja asosida boshqariladi. Qanday mahsulotlarni ishlab chiqarish davlat tomonidan belgilanadi. Mamlakatda teng taqsimot tamoyili hukm suradi, hech kim boshqalardan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bunday holat mehnatga besarqlik va layoqasizlik bilan qarashga olib keladi. Natijada yaratilgan mahsulotlar miqdori, sifati pasayib ketadi va mahsulot taqchilligiga olib keladi. Bunday iqtisodiy tizim sobiq sotsialistik mamlakatlarga xos edi.

**3. Bozor iqtisodiyoti tizimi.** Iqtisodiy muammolar bozorda bozor munosabatlari orqali hal etiladi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarni faqat bozordagi talab belgilaydi. Iste'molchi bozorda qanday tovarlarni xarid qilishni o'zi hal etadi. Ishlab chiqaruvchilarni daromad topish harakatga keltiradi. Bozordagi erkin raqobat ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulotni sifatli ishlab chiqarishga majbur etadi. Bozor iqtisodiyoti mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtiradi va rivojlantiradi. Bozor tizimi dunyoning ko'p mamlakatlarida bor. Lekin ularning rivojlanish darajasi har xil.

**4. Aralash iqtisodiy tizim.** Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblash, davlat bilan tadbirkorlik shakkilarining uyg'unlashib borishi aralash iqtisodiy tizimni keltirib chiqaradi. Bu tizimda bozor vositalari bilan birga rejalashtirish amal qiladi. Davlat o'z iqtisodiy siyosati bilan iqtisodiyotga faol ta'sir ko'rsatadi. Buni bir necha mamlakatlar misolida ko'rish mumkin.

Shvetsiya iqtisodiyotida davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda va daromadlarni qayta taqsimlashda faol qatnashadi. Shvetsiya iqtisodiy tizimining asosini sotsial siyosat tashkil etadi. Bu siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yuqori darajada soliqlar olinadi. Bu soliqlar yalpi milliy mahsulotning 50 foizini tashkil etadi. Natijada ishsizlik juda past darajaga tushirilgan, aholining har xil guruhlari o'rtaсидagi daromadlarning farqi katta emas, fuqarolarning sotsial ta'minoti yuqori darajada va Shvetsiya kompaniyalarining eksport imkoniyatlari yuqoridir.

Yaponiya iqtisodiy modelida davlat xususiy sektor bilan mukammal tuzilgan reja asosida va ish faoliyatini muvofiqlashtirish asosida olib boradi. Davlat tomonidan tuzilgan rejalar xususiy sektor uchun maslahat ko'rinishini oladi. Tuzilgan rejalar davlat dasturi ko'rinishida bo'lib, alohida iqtisodiy bo'g'lnarni umummilliy vazifalarni bajarish uchun birlashtiradi. Yaponiya iqtisodiyotida milliy

an'analar saqlanib kelinmoqda va shu bilan birga boshqa mamlakatlarning tajribalari o'rjanilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Milliy an'analar va boshqa mamlakatlar tajribasining birga olib borilishi Yaponiya sharoitida yuqori samara bermoqda.

AQSH iqtisodiyotida iqtisodiy qonun – qoidalarni yaratishda va ularning bajarilishini nazorat qilishda erkin tadbirkorlik, fan, ma'rifat va madaniyatni rivojlantirishda davlat muhim rol o'ynamoqda.

Aralash iqtisodiyot iqtisodiy resurslarni yanada samaraliroq ishlatalishga, yangi texnologiyalarni kashf etish va ishlatalishga majbur etadi.

### ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Ishlab chiqarish jarayoni** – jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalaniб, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratishdir.

**Iqtisodiy resurslar** – tovar va xizmatlarni yaratish uchun kerak bo'lgan tabiiy, insoniy va inson tomonidan yaratilgan resurslardir.

**Iqtisodiy samaradorlik** – cheklangan resurslardan unumli foydalaniб, tovar va xizmatlarga bo'lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir.

**Kapital** – daromad keltiruvchi mulk. U ishlab chiqarish vositalari, tovarlar va pul mablag'lari ko'rinishida bo'ladi

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ishlab chiqarish jarayonining vazifikasi nimadan iborat?
2. Jamiyat oldida turgan asosiy iqtisodiy muammolar.
3. Iqtisodiy resurs tushunchasi va uning turlariga ta'rif bering.
4. Iqtisodiy samaradorlik nima?
5. Iqtisodiy tizimlarni ta'riflang.

## **V Bob. BOZOR IQTISODIYOTINING MOHIYATI. BOZOR VA UNING TUZILISHI**

1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilari.
2. Bozor, uning vazifalari va tuzilishi.
3. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.
4. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos yo'li.

### **1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilari**

Hozirgi zamон iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. Yer yuzidagi ko'pgina mamlakatlar har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda.

Bozor asosida tovar-pul munosabatlari yotadi. Tovar pul munosabatlari - tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayrboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarning yaxlitligidir. Tovar ishlab chiqarishga oid munosabatlar tovarni yaratishda moddiy va jonli mehnat sarf etilishi, bu sarf-xaraqtalar jamiyat uchun zaruriy darajada bo'lishi, tovarning sitati va narxining muvofiqligi ta'minlanishi, individual mehnat sarflari zaruriy darajada bo'lishi, tovarlar qiymati mehnat unumдорligiga teskati proporsional tarzda o'zgarishi kabi aloqalarni bildiradi. To'ri ishlab chiqaruvchilar mustaqil ravishda, bozorga qarab tovarlarni yaratadilar, bozor talabi qondirilgandagina daromad topadilar. Yaratilgan tovarlarni ayrboshlash sohasidagi munosabatlar sotuvchi va xaridor o'rtaсидаги erkin oldi-sotdi munosabatlaridir. Turli tovar ishlab chiqaruvchilar bozorda ayni bir vaqtida ham sotuvechi, ham xaridor vazifasini o'tashadi. Bozor aloqalari kerakli tovarlar zaruriy miqdorda va kelishilgan narxda ayrboshlanishini bildiradi. Tovarlar bevosita emas, balki pul vositasida ayrboshlanadi. Pul muhim iqtisodiy vazifalarni hajaradi, uning nufuzi yuqori bo'ladi. Tovar-pul munosabatlari umuminsoniy hodisa, ular turli tizimlarga xos, ularni bir-biriga bog'lab turadi. Ammo bu munosabatlar yuksak darajada rivoj topgandagina bozor iqtisodiyoti shakllanadi.

Hozirgi dunyoda, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida iqtisodiyot haqida gap ketganda taqat bozor iqtisodiyoti tushuniлади. Hozirgi zamон nazariyalarida bozor iqtisodiyoti deganda iqtisodiy xatti-harakatlarning erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning bozor mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib, muvofiqlashuvi tasarruf qilinadi. Bozor iqtisodiyoti g'oyat ko'p qirrali va murakkab iqtisodiyotdir. Uning mohiyatini anglash uchun unga xos tub belgilarni yaxlitlikda olib qarash kerak. Bu belgilari shakllanib ulgurgan, aralash iqtisodiyotga aylangan bozor iqtisodiyoti sharoitida

vujudga keladi, bu esa hozirgi eng rivojlangan mamlakatlarda aniq ko'rinadi.

Bozor iqtisodiyoti erkin tovar – pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy mo'ljalga, aholini ijtimoiy muho'laza qilish yo'nalishiga ega bo'lgan va boshqarilib (tartiblanib) turuvchi iqtisodiyotdir. O'ziga xos mulkiy munosabatlari, ijtimoiy yo'nalishlari va tartiblanib turish usullari jihatidan bu tizim kapitalistik iqtisodiyotdan va tarixda mavjud bo'lgan sobiq sotsialistik iqtisodiyotdan farq qiladi.

Bozor iqtisodiyotining quyidagi subyektlari mavjud:

a) iqtisodiy mustaqil mulk egasi yoxud iste'molchi bo'lgan ayrim kishilar yoki guruhlar. Bularga odatda, yollanib ishlovchilar, yer egalari, kapital sohiblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmay, o'z mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi;

b) firma, korxona, xo'jaliklar, ularda band bo'lgan tadbirkorlar. Ular foyda olish yo'lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar;

d) davlat, aniqrog'i, davlatning barcha mahkama – idora tashkilotlari. Ular ham ishlab chiqarish, ham iste'mol bilan shug'ullanadilar, bozor va unda qatnashuvchilar faoliyati ustidan nazorat qiladilar.

Bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o'zaro aloqaga kirishadilar. Ish kuchi, yer, kapital va boshqa vosita egalari ularni korxona, firmalarga sotadi. Ular o'z navbatida ishlab chiqarish, omillaridan foydalaniib, tovar va xizmatlar yaratadilar, ularni taklif etadilar.

Bozor iqtisodiyotining mohiyatini anglash uchun uning asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi – iqtisodiy pluralizm hisoblanadi, ya'ni mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining turli – tuman bo'lishidir. Turli shakllardagi mulklar erkin, yonma – yon, hech bir chegaralanmagan holda rivojlanadi. Turli mulklar muvozanatda bo'lib, ayrim mulk shaklining hukmronligiga yo'il berilmaydi. Ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi o'z tovari yoki pulini o'zi bilganicha ishlatadi. Bozor iqtisodiyoti erkin bo'lganidan u har qanday iqtisodiy monopolizmni inkor etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zaro munosabatlar manfaatlarni ko'zlagan holda o'rnatiladi. Ish yuzasidan bo'lgan munosabatlar (sheriklik) erkin shakllanadi. Turli ishlab chiqaruvchilar bir – bini bilan manfaatlì aloqa o'rnatadilar. Bozorda esa, xaridor bilan sotuvchi bir – birini erkin tanlaydi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bu'lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki

iste'molchi (xaridor) o'z izmini o'tkazadi, tovar va xizmatlarning sifati va narxiga qarab tanlab olish imkoniga ega bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining yana bir belgisi narxlarning liberallashuvi, ya'ni narx – navoning erkin tashkil topishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridañ belgilamaydi, narx ayrim ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi tazyiqi ostida shakllanmaydi. Narx bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining savdolashuviga binoan yuzaga keladi.

Bozor iqtisodiyoti moslashuvchan iqtisodiy tizimdir. U sharoit o'zgarishlariga darhol javob beradi, nima yetishmasa, shuni darhol ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Uning muhim belgilaridan yana biri innovatsiyaga moyillikdir. U fan – texnika yangiliklarini darhol qabul qiladi, yangi tovarlar, yangi texnologiya va ishlab chiqarishni boshqarish usullarini joriy etishni ta'minlaydi, chunki bu raqobatda yutqazmaslik, yaxshi foyda ko'rish, obro – e'tibor orttirish sharti bo'lib xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar to'kinchiligini yuzaga keltiradi, ko'pchilik tovarlardan eng yaxshisini tanlab olgan holda ehtiyojni qondirish imkonini beradi.

Ammo, bozor iqtisodiyotini haddan tashqari olqishlash kerak emas, unga xolisona baho berish zarur. Uning o'ziga xos muammolati, zaif tomonlari ham yo'q emas. Bozor iqtisodiyoti millionlab ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning faoliyati bo'lganidan unga tarqoqlik va xudbinlik (egoizm) ham xos. Bozor iqtisodiyoti ham sakrab – sakrab, siklli ravishda rivojlanadi, iqtisodiy yuksalishlar bilan birga inqiroz va tanglik ham paydo bo'ladi. Bozor iqtisodiyotining ham, har qanday iqtisodiyot kabi o'z rivojlanish qonunlari mavjud. Unga xos qonunlar tizimini ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) umumiqtisodiy, lekin bozor iqtisodiyotida ham amal qilishda davom etgan qonunlar;

b) faqat bozor iqtisodiyotining o'ziga xos bo'lgan qonunlar. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan tub belgilar sekin – asta shakllanib, pirovard natijada yaxlit iqtisodiy tizimni hosil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish XX asrga xos bo'lgan umumbashariy, ya'ni umumjahon voqeligidir. Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, bozor iqtisodiyotiga o'tishning uch shakli yoki modeli mavjud:

1. G'arbiy Evropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'lli.
2. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatları yo'lli.
3. Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari yo'lli.

Yuqorida qayd qilinganidek, bozor iqtisodiyoti deganda, hozirgi rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiyot tushuniladi.

Tarixiy nuqtai nazardan, bozor iqtisodiyotining ikki turi mavjud. Birinchisi – asov yoki yovvoyi bozor iqtisodiyoti. Bunday iqtisodiyotning asl namunasi XVIII va XIX asrlarda bo'lgan.

Ammo, yovvoyi iqtisodiyot abadiy saqlanmaydi. U sivili-zatsiyalashgan yoki madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga aylanib boradi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga o'tish deganda sivilizatsiyalashgan iqtisodiyot sari borish tushuniladi.

## 2. Bozor, uning vazifalari va tuzilishi

Bozor iqtisodiy kategoriya silatida takror ishlab chiqarishning ayirboshlash bosqichiga xosdir. Ammo, u har qanday ayirboshlashni emas, balki pul vositasidagi, oldi – sotdi shaklidagi ayirboshlashni biladiradi. Ayirboshlashda pul ishtirok etmasdan bir tovar boshqasiga to'g'ridan – to'g'ri almashganda bozor munosabatlari paydo bo'lmaydi. Bozorning eng muhim sharti ayirboshlanganda pulning vositachi bo'lisdigidir. Bozorda tovar muomalasi yuz berib, u ikki jarayonning birgalikda borishini bildiradi. Bozorda tovar fulga almashadi. ( $T - P$ ), ya'ni tovarni sotish yuz beradi, ayni vaqtda pul tovarga almashadi ( $P - T$ ), ya'ni tovarni xarid etish kelib chiqadi.

Oldi – sotdi bozordagi yaxlit muomalaning ikki tomoni bo'lganidan, unda sotuvchi va xaridorni ishtirok etishi muqarrardir.

Bozor – bu sotuvchilar va xaridorlarning tovarlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlari, ularning o'zaro aloqalaridir.

Bozorning subyektlari ishtirokchilari ham bir xil eras. Ular ikki guruhg'a bo'linadi: sotuvchilar va xaridorlar. Ular bozor munosabatlarda turli vazifani bajaradilar. Sotuvchilar – bozordagi tovar va xizmatlarni taklif etuvchi firma, korxona yoki ayrim ishlab chiqaruvchi, ish kuchi, yer – suv, mashina – uskuna, bino – inshoot egasi, pul kapitali, qimmatbafo qog'ozlar va valuta sohiblariidan iborat bo'lib, ular o'z tovarlarini sotadilar yoki ijara beradilar. Xaridorlar keng qatlam iste'molchilardan iborat bo'lib, ular bozorga o'z talab – ehtiyoji va puli bilan chiqadilar. Xaridorlar oddiy iste'molchi fuqarolar, resurslar oluvchi va ish kuchini yollovchi tadbirkorlar, davlat idoralari, jamoat tashkilotlaridan iborat bo'ladi.

Bozor subyektlari o'z manfaatlarini ko'zlaydi.

Rivojlangan bozor munosabatiga bilvosita savdo – sotiq aloqalarini xos, chunki bozor rivojlangan sari uning sir – asrorlarini bilish, oldi –

berdi operatsiyalarini o'tkazish maxsus tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. Bu ishni ixtisoslashgan tijorat firmalari, savdo—sotiq agentlari, broker, makler va dilerlar kabi dalollar o'z zimmasiga oladi.

Bozordagi tovarlar muomalasi keng va tor doirada yuz beradi. Keng ma'noda, bozor barcha tovarlar va xizmatlar muomalasini bildiradi, tor ma'noda—u ayrim yoki cheklangan guruhdagi tovarlarning ayriboshlanishi demakdir. Keng ma'noda, bozor hududiy jihatdan mahalliy, mintaqi, milliy va jahon bozorlaridan iborat bo'ladi. Bular bozor aloqalarining ko'lami bilan ajralib turadi. Albatta, milliy bozor mahalliy bozordan, xalqaro bozor esa, milliy bozordan keng bo'ladi. Ular faqat oldi—sotdi hajmi jihatidangina emas, balki subyektlarning soni va tarkibi jihatidan ham farq qiladi.

Bozor o'z rivojida ikki bosqichdan o'tadi.

Birinchisi, tartibsiz bozor bosqichi, bu bosqichda bozor aloqalari stixiyali tarzda o'rnatiladi, ishlab chiqaruvchi uchun bozor noma'lum bo'ladi. Stixiyali bozorda belgilangan tartib—qoida amal qilmaydi. Bunday bozor madaniylashmagan, yovvoyi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lib, o'tmishda mavjud bo'lgan. Ammo, uning ayrim ko'rinishlari hozir ham mavjud. Hozirgi deliqon bozori va chayqov bozorlari tartibsiz bozor namunasidir.

Ikkinchisi—bu tartib'anadigan bozor bosqichidir. Bu shunday bozorki, unga xos bo'lgan qonunlar ko'r—ko'rona amal qilavermaydi, bozor aloqalari shu qonunlarga oldindan moslashtirib boriladi. Bu yerda no'malum bozorga ishlab chiqarish yuz bermaydi. Bozor va uning segmentlari (kichik qismlari) oldindan tahlil etilib o'rganiladi, ishlab chiqarish marketing xizmati orqali bozor bilan uzviy bog'lanadi. Mana shunday bozor rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos, bunday bozor hozirgi rivojlangan mamlakatlarda mavjud.

Bozor bir qator iqtisodiy vazifalarni (funksiyalarni) bajaradi.

Bozor ayriboshlash jarayoni bo'lganidan, u ishlab chiqarishni iste'mol bilan bog'lovchi vosita vazifasini o'taydi.

Bozordagi yagona va universal xarid vositasi pul hisoblanadi.

Bozorda qiymat shaklining o'zgarishi yuz beradi. Bozor qiymatni tovar shaklidan pul shakliga aylantiradi. Buning uchun bozorda ham tovar, ham pul muhayyo bo'lishi shart.

Bozor—iqtisodiyotni tartiblashda ishtirok etib reguluatorlik funksiyasini ham bajaradi. Bu funksiyani bozor narxlar vositasida bajaradi. Bozor o'zida talab va taklifni mujassamlab, ularni muvozanatlashtiradi. Bozor narx . pasaygan yerdan resurslarning chiqib ketishini, aksincha, ularning narxi yuqori yerga oqib kelishimi ta'minlaydi. Bu bilan bozor niyani, qancha miqdorda va qaysi vaqtida

ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi. Bozor regulyatori iqtisodiyotni tartiblovchi kuch hisoblanadi.

Bozor xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) taqozo etgan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bozor mehnat taqsimotini chuqurlashtirib, ishlab chiqarishning davlatlararo miqyosda aniq ixtisoslashuvini, xalqaro miqyosdagi talab – ehtiyojni mo'ljalga olib yuritilishini taqozo etadi. Xulas, bozor xalqaro integratsion aloqalarni o'rnatish va ularni kengaytirish vositasi ham bo'jadi.

Bozor munosabatlari iqtisodiy munosahatlar doirasida mustaqil, lekin boshqa munosabatlarga aloqador kichik bir tizimni tashkil etadi.

Iqtisodiy aloqalar xarakteriga ko'ra, bozorni ikki katta turga ajratish mumkin: a) erkin, raqobatli bozor; b) monopollashgan, raqobat cheklangan yoki raqobat mutlaqo bo'lмаган bozor.

Erkin bozorda sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lib, ulardan hech biri bozorda hukmron mavqega ega bo'lmaydi, aksincha ular doimo raqobatda bo'lishadi. Bu yerda *narx – navoni* hech kim nazorat qilmaydi, narx bozorda erkin shakllanadi.

Monopollashgan bozor – bu ozchilik sotuvchilar va xaridorlar hukmron bo'lgan, raqobat cheklangan yoki raqobat umuman yo'q bozor. Monopollashgan bozorning o'zi uch xil bo'ladi: monopol raqobatli bozor, oligopolistik bozor, soj monopoliya bozori.

Bozor savdo – sotiqning shart – sharoitiga qarab ko'pgina bo'g'lnlarga ajratiladi va ular bozor segmenti deb ataladi. Segment bozorning bir kichik qismi bo'lib, bu yerda xaridorlar cheklangan guruh bo'lib, ularga ma'lum turdag'i tovarlar sotiladi. Bozorning segmentlarga ajralishiga ikki narsa sabab bo'ladi: a) mehnat taqsimoti chuqurlashib, g'oyat xilma – xil tovarlar ishlab chiqarilishi va ularning ma'lum guruh iste'molchilariga mo'ljalshanishi; b) iste'molchilarning sotsial – ijtimoiy jihatidan tabaqlananishi, ular talabining o'zaro farqlanishi.

Bozorni segmentlarga ajratish mezonlari g'oyat ko'p. Bir segment uchun aholining qobiliyati ustuvor bo'lsa, boshqa segment uchun raqobatning bor yoki yo'qligi muhim belgi bo'ladi. Segmentlar hududiy va sotsial – demografik mezonlarga qarab ajratiladi. Segmentlarga ajralish muayyan tovarlarga nisbatan ham yuzaga keladi. Masalan, kiyim – kechak bozori, bolalar kiyimi, yoshlar kiyimi, qariyalar kiyimi bozorlariga ajraladi. Turli – tuman segmentlari yaxlit bozorni tashkil etadi. Bozor hajmi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik segmentlarga boy bo'ladi.

Bozorni oldi – sotdi qilinadigan obyektlari jihatidan qaraganda iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari

(resurslari) bozori, mehnat (ish kuchi) bozori, moliya bozori, intellektual tovar bozorlariga bo'lish mumkin.

Iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori iste'molchilar bozori bo'lib, aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning oldi-sotdisini bildiradi. Iste'mol bozorida aholini o'z iste'moli uchun tovarlar va tovar sifatidagi pulli xizmatlarni xarid qiladi. Bu yerda sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtaisdagi oldi-sotdi munosabatlari yuz beradi, pul egasi tovar olsa, tovar egasi pul oladi.

Resurslar bozori – ishlab chiqarishni yuritish uchun zarur bo'lgan va tovarga aylangan mehnat vositalari, xomashyo, materiallarning to'g'ridan – to'g'ri yoki vositachilar orqali oldi – sotdi qilinishi. Bu bozorda mashina, uskuna, asboblar, bino, yer, xomashyo, yoqilg'i va materiallar oldi – sotdi qilinadi.

Mehnat bozori – ish kuchini oldi – sotdi qilish munosabatini bildiradi. Ish kuchi insonning mehnat qilish qobiliyati sifatida tovarga aylanadi, oldi – sotdi orqali ishlab chiqarishning shaxsiy omili bo'la oladi. Potensial mehnat qobiliyati bozordan o'tib, real – amalda ishlayotgan mehnat qobiliyatiga aylanadi. Mehnat bozorining bir tomonidan ish kuchi tursa, ikkinchisidan ish kuchiga muhtoj korxona, firma, turadi. Ular o'rtaaside ayirboshlash yuz beradi, bu ishga yollanish va ishga yollash shaklida yuz beradi, mavjud bo'lgan ish kuchini sotish. va sotib olishni bildiradi.

Mehnat bozori aniq shakllarda yuz beradi, ulardan eng muhimimi mehnat birjasidir. Mehnat birjasi tovarni – ish kuchini pulga ayirboshlashda vositachilik qiladi, ish kuchi egasi bilan uni yollovchi korxona yoki firma o'rtaaside turadi. Birjada ish kuchiga talab va ish kuchi taklifi bir – biri bilan bog'lanadi.

Moliya bozori – bu bozor tiziminining g'oyat muhim unsuri bo'lib, moliya resurslari (pul va pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) bozoridir. Bozor munosabatlari mulkdorlar bilan pulga muhtojlar o'rtaaside yuz beradi. Pulning bozorga chiqarilishi va ishlatilishi, birinchidan, shaxsiy iste'mol ehtiyojlarini qondirsa, ikkinchidan, puldan pul chiqarib olish ehtiyojini qondiradi.

Moliya bozori ikkiga ajraladi: iste'molni qondiradigan pul bozori va kapital bozori. Birinchi bozorga tushgan pul resursi qarzga olimib, shaxsiy iste'mol yo'lida, masalan, avtomashina xarid etish, uy qurish, sayohat qilish uchun ishlatiladi. Ikkinchi bozordagi mablag'lar qarzga olinganda, sotib yuborilganda, kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olib, kapital bozorini ikki mayda bo'g'inga ajratish mumkin: ssuda kapital bozori va qimmatbaho qog'ozlar bozori.

Moliya bozorining yana bir unsuri valuta bozoridir. Bu yerda turli mamlakatlar valutasi oldi – sotdi qilinadiki, bozorda korxona,

firma, davlat idoralari va fuqarolar qatnashadi. Ulardan biri valuta sosa, ikkinchisi uni sotib oladi. Valuta bozori amaliyotda valuta bilan savdo qiluvchi banklar va valuta auksiioni ko'rinishida bo'ladi. O'zbekistonda valutani oldi—sotdi qilish operatsiyalari bilan Respublika Markaziy banki va Respublika Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki shug'ullanadi.

Intellektual tovarlar bozoring maxsus turi bo'lib, aqliy mehnat mahsuli bo'lmish tovarlar va xizmatlarning ayirboshlanishini bildiradi. U sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyotida keng rivojlangan bo'ladi. Bu yerda sotuvchilar va xaridorlar maxsus tovar hisoblangan ilmiy g'oyalari, texnikaviy yangiliklar, san'at va adabiyot asarlari, xilma—xil axborotlarni oldi—sotdi etish yuzasidan munosabatda bo'ladi.

Intellektual tovarlar bozorida ilmiy—texnikaviy ishlanmalar oldi—sotdisi katta o'rinn tutadi. U amalda patent, litsenziya va nou—xau sotishdan iboratdir. Bu yerda ilmiy—texnikaviy yangiliklar xaridor mulkiga aylanish sharti bilan yoki o'z egasi mulki bo'la turib, vaqtincha foydalanish sharti bilan sotiladi.

Bu bozor ishlab chiqarish innovatsiyasiga xizmat qiladi, ya'ni u fan—texnika rivojiga ta'sir etadi, shu sababli uning ahamiyati nafaqat umummilliy, balki internatsional hamdir.

Hozirgi hozor iqtisodiyoti i'ntalab ishlab chiqarishning o'sishi, turli xizmatlar ahamiyatining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bular, o'z navbatida, intellektual tovarga talabni oshirib yuboradi.

Bozoring o'zi yaxlit bo'lganidek, uning turlari ham bir—biri bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Mehnat taqsimoti mayjud ekan, faoliyat turlari, albatta, ma'lum nisbatda bo'lishi shart. Shu boisdan, bozor turlari ham ma'lum muvozanatda rivojlanadi.

Erkin bozorning rivojlanishi monopol bozor yo'lini to'sadi yoki aksincha hol ham yuz beradi. Bozor turlarining bir—biriga moslashuvi iqtisodiy o'sishning sharti hisoblanadi, chunki shu orqali iqtisodiy muvozanat tashkil topadi.

### **3. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari**

✓ Bozor iqtisodiyoti amal qilishi uchun uning infratuzilmasi ishlab turishi kerak. Bozor infratuzilmasi bozor aloqalarini o'rnatishtga va samarali yuritishga xizmat qiluvchi korxona, tashkilot va muassasalar majmuidir.

✓ "Bozorga o'tishdan oldin bozor infratuzilmasini yaratish zarur. Moliya, bank—kredit tizimlari bilan bog'liq masalalarni hal qilish,

**sug'urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish zarur"<sup>1</sup>**

Bozor islohotlari bozor infratuzilmasini yaratishi chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bu infratuzilma besh bo'g'indan iborat:

1. Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma (transport, aloqa, ombor xo'jaligi, yo'l xo'jaligi, suv va energetika ta'minoti kabilari). Ular bozor iqtisodiyotidan oldin ham mavjud bo'lgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ularni tijoratchilik yo'liga o'tkazishga to'g'ri keladi, ya'ni ular yaxshi ishlab pul topish va o'z-o'zini moliyalashtirish yo'liga o'tkaziladi;

2. Tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo-sotiq ishlariiga xizmat qiluvchi infratuzilma (birjalar, savdo uylari, aukcionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari va agentlari, davlatning savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi muassasalar). Totalitar tuzum sharoitida mazkur infratuzilmaning ko'pchilik unsurlari bo'lmaydi, shu boisdan ular islohot yo'li bilan yaratiladi;

3. Moliya-kredit munosabatlariiga xizmat qiluvchi infratuzilma (tijorat banklari, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish mahkamalari, har xil pul fondlari). Ular ham islohotlar jarayonida yaratiladi;

4. /holiga xizmat qiluvchi yoki sotsial infratuzilma (uy-joy, kommunal va transport xizmati, maorif, madaniyat hamda sog'iqliqi saqlash muassasalarini, aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari). Ularning aksariyati bozor iqtisodiyotidan oldin ham mavjud bo'ladi, lekin ularni isloh etib, bozor sharoitida pulli xizmat ko'rsatish, tijorat yo'liga o'tkazishga to'g'ri keladi. Mehnat birjalarini, ishga joylashtirish firmalari esa yangidan yaratiladi;

5. Axborot xizmati (iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan har xil axborotlar-ma'lumotlar va xabarlarni to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi turli kompaniyalar, firmalar, maslahat idoralari, davlat muassasalarini).

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning axborot tashkilotlari bo'ladiki, ular faqat davlatga xizmat qilganidan, ularni ham bozor uchun ishlashiga moslashtirish kerak bo'ladi. Bu sohada, ayniqsa, iqtisodiy axborot tadbirdorlik uchun juda zarur bo'ladi.unga qarab o'z ishini rejalashtirish, pu'lni qayerga, nima uchun sarflash, qancha tovar ishlab chiqarish, qanday narx qo'yish kabi iqtisodiy xatti-harakatlar amalga oshiriladi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chequqfashlirish yo'liga. — T.: "O'zbekiston", 1995. №8 - bat.

Infratuzilma tizimida moliya – kredit xizmati alohida o'r'in tutadi, chunki bozor iqtisodiyoti pulga asoslangan. Shu boisdan, moliya – kredit sohasini isloh qilishga katta e'tibor beriladi.

Bank tizimi tashkil etilib, ayrim banklar monopoliyasi tugatiladi, raqobatlashuvchi tijorat banklari ochiladi, zarur bo'lganda inflyatsiyadan qutulish uchun pul islohoti o'tkaziladi. Valuta munosabatlari, qimmatbaho qog'ozlar bilan ishlash, aksiya va obligatsiya chiqarish tartibi qonunlar bilan belgilab qo'yiladi.

Islohotlar valuta auksionlari, investitsiya kompaniyalari, fond birja'lari ochilishini ko'zlaydi. Ular moliya bozori, uning asosi bo'lmish kapital bozorini shakllantiradi, uning amal qilish tartib – qoidalari o'matiladi.

#### **4. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos yo'lli**

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumjahon voqeasiga aylanishi XX asrning muhim belgisidir. Insoniyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti bir qator muammolarni, xususan:

- a) muttasil ravishda ishlab chiqarishni o'stirib, to'kinchilikni ta'minlash;
- b) tejamli xo'jalik yuritib, barcha resurslardan oqilona foydalanish;
- d) ommaviy farovonlikni ta'minlash;
- e) mazmuni yoki shaklidan qat'i nazar halol va samarali mehnatning qadriga yetish;
- f) umuminsoniy ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish.

Bozor iqtisodiyotining tamoyillari, qonun – qoidalari umuminsoniy, ammo boriladigan mar'a bir xil bo'lsa – da, uning yo'llari har xildir.

O'zbekiston ko'zlagan strategik istiqboldagi vazifa – mustaqil – likning iqtisodiy poydevorini yaratishdir. Bu maqsadga erishish uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurdir. Iqtisodiy mustaqillikka bozor mexanizmi orqali erishiladi, lekin uning O'zbekistonda shakllanishi o'ziga xos yo'l bilan yuz bermoqda. Bu yo'l bozor iqtisodiyotining umumiyligi tomonlarini e'tirof etgan holda. O'zbekistonning milliy xususiyatlarini hisobga oladi.

Bu xususiyatlar quyidagilardir:

1. O'zbekiston iqtisodiyoti kam rivojlangan bo'lsa – da, uning ishonchli salohiyati bor.
2. O'zbekiston tabiiy va mehnat resurslariga boy diyor, uning saxiy yeri va mehnatsevar xalqi bor.

3. Respublikamiz aholisining o'sish sur'atlari jadal, shu boisdan mehnat resurslari tez ortib boradi.
4. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'tni katta, shu boisdan aholining katta qismi (60 foizi) qishloq joylarda istiqomat qiladi.
5. O'zbekiston sharqiy sivilizatsiyaga mansub mamlakat. Bu yerda sharqona iqtisodiy ko'nkmalar, ota-bo'bbolardan meros qolgan xo'jalik yuritish usullari bor.

Bu xususiyatlar O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sari borish yo'lini tanlash uchun asos boldi. Bu yo'l jahon tajribasiga tayangan holda, ammo mamlakatimizning milliy manfaatini, undagi real sharoitlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotiga o'tishni bildiradi. Bu yo'l bozor iqtisodiyotiga inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy larzalarsiz, tinchlik va xotirjamlik sharoitida, xalqni ijtimoiy himoya qilish orqali sekin – asta, bosqichma – bosqich o'tilishini ta'minlaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Bizning qal'iy nuqtai nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingan jamiki foydali tajribalarini rad etmagan holda, o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlay olishdan iboratdir"<sup>1</sup>

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos yo'lli Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olg'a surilgan besh tamoyilda ifodalab berildi. Bular:

**Birinchi tamoyil** – iqtisodiyot siyosatidan ustuvor bo'lishi va buning uchun iqtisodiyot masfuradan xoli bo'lishi kerak. Iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmog'i zarur. Iqtisodiyot, siyosatga nisbatan ustuvor mavqega ega bo'lishi lozim. Iqtisodiyotga na siyosat, na masfura o'z tazyiqini o'tkazmasligi kerak.

**Ikkinchchi tamoyil** – davlat bosh islohotchi bo'lishi kerak. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz ravishda, o'zi bo'larchilik asosida emas, balki davlat rabbarligida amalga oshiriladigan islohotlar orqali yuz berishini bildiradi.

**Uchinchi tamoyil** – qonunlar va ularga amal qilinishining ustuvorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibli ravishda, hammaning keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqqan davlat qonunlariga so'zsiz roya etilishi orqali borishini bildiradi.

**To'rtinchi tamoyil** – faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu iqtisodiyotga kuchli ta'sir eta oladigan, xalqning ijtimoiy himoyasini, uning faolligini ta'minlaydigan, ijtimoiyadolatni yuzaga chiqaradigan siyosatni olib borishni anglatadi. Shu boisdan, iqtisodiy islohotlar jarayonida avval, odamlarni, birinchi navbatda, hinoyaga muhtoj

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston bozor immosababllariga o'tishning o'ziga xos yo'lli. –T.: "O'zbekiston", 1993, 25 -het

qatlamni oldindan kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralarini ko'rish zarurligi inobatga olinadi.

**Beshinchl tamoyil** – bozor iqtisodiyotiga sekin – asta, bosqichma – bosqich o'tish. Bu tamoyil chuqur iqtisodiy islohotlarni shoshilmasdan, sobitqadamlik bilan amalga oshirishni talab etadi. Bu yetakchi tamoyil bo'lib, islohotlarning butun ichki mantig'i, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Bizning bozor munosabatlariiga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlari, an'analari, urf – odatlari, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni bироqlama, beso'naqay rivojlanishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi"<sup>1</sup>.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Bozor iqtisodiyoti** – erkin tovar – pul munosabatlariiga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan va hoshqarilib (tartibga solinib) titruvchi iqtisodiyotdir.

### Bozor iqtisodiyoti subyektlari:

- A) iqtisodiy mustaqil mulk egasi yoki iste'molchi bo'lgan ayrim kishilar va guruhlar;
- B) firma, korxona, xo'jaliklar, ularda band bo'lgan tadbirkorlar;
- D) davlat, aniqrog'i, davlatning barcha mahkama – idora tashkilotlari;
- E) banklar.

**Bozor islohotlari** – xalq ishtirokida, lekin davlat tomonidan ishlab chiqilgan, bozor munosabatlari shakllantirishga qaratilgan chora – tadbirlarning davlat nazorati ostida amalga oshirilishi.

**Bozor** – bu iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar hamda tovarlar va pul harakati bo'yicha savdo vositachilari o'ttasidagi muayyan iqtisodiy munosabatlar majmui bo'lib, u bozor munosabatlari subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradi va mehnat niahsulotlari ayriboshilanishini la'minlaydi.

**Bozoring tuzilishi** – bu bozor unsurlarining ichki qurilishi, joylashishi va tartibi, ularning bozor umumiy hajmidagi ulushi.

**Bozorlar tizimi** – turli tuman mezonlar asosida alohida unsurlarga ajratilgan barcha bozorlar majmuidir.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, borqarolik shartjan va taraqqiyot kufolatlari. – T.: "O'zbekiston", 1997, 188 – bej

**Investitsiyalar bozori** – pul bozorining bir turi bo'lib, bunda bozor munosahatlarining obyekti kapital qo'yilmalari hisoblanadi.

**Innovatsiyalar bozori** – bu yangiliklar, kashfiyotlar, ratsionali – zatorlik takliflari bozori.

**Bozor segmenti** – bu bozordagi savdo – sotiqning shart – sharoitiga qarab ko'pgina bo'g'lnlarga ajratilishidir.

**Bozor infratuzilmasi** – bu bozorning savdo – sotiqga xizmat qiluvchi eng quyi bo'g'lnlar, tashkilot va muassasalaridir.

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz? Uning asosiy belgilarini sanab o'ting.
2. Bozor iqtisodiyotining ikki turini tavsiflab bering.
3. Bozor iqtisodiyoti obyektlariga nimalar kiradi?
4. Bozor xo'jaligining qanday subyektlarini bilasiz? Ular o'rtaсидagi aloqadorlikni tavsiflang.
5. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li va tamoyillarini ko'rsatib bering.
6. Bozor tushunchasiga ta'rif bering.
7. Bozor qanday vazifalarni bajaradi?
8. Bozorlarning asosiy ko'rinishlarini -ytib bering va ularni tavsiflang.
9. Bozor segmenti nima?
10. Bozor infratuzilmasiga ta'rif bering. U bozor iqtisodiyotida qanday vazifalarni bajaradi?

## **VI Bob. TALAB VA TAKLIF. BOZOR MUVOZANATI**

1. Talab tushunchasi. Talab qonuni.
2. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni.
3. Talab va taklif mosligi, bozor muvozanati.

### **1. Talab tushunchasi. Talab qonuni**

Bozorda, bir tomonidan, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar, ikkinchi tomonidan, bu tovarlarni iste'mol qiluvchilar harakat qiladi. Iste'molchilarning bozordagi harakati talab shaklida namoyon bo'ladi. Talab - bu, eng avvalo, biron - bir tovar yoki xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning bozorda namoyon bo'lishidir. Talabning asosi ehtiyoj bo'lar ekan, ehtiyoj bo'lib talab bo'lmasligi ham mumkin. Talab real (amaliy) bo'lishi uchun tovarni sotib olishga yetarli pul bo'lmoq'i kerak, haqi to'lanmaydigan ehtiyojni bozor hisobga olmaydi. Demak, talab - bu shunchaki ehtiyoj emas, balki to'lovga qobil, pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Masalan, kimningdir palto sotib olishga xohishi bo'lsa - yu, biroq bu xohishi xarid qilish qobiliyati bilan mustahkamlanmasa, ya'ni zarur miqdorda puli bo'lmasa, xohishi ro'yogha chiqmaydi, uning paltoga bo'lgan ehtiyoji bozorda yuzaga chiqmaydi, ya'ni talabni tashkil etmaydi.

Ayrim xaridor, qandaydir iste'molchilar guruhi yoki butun jamiyat xarid qilib olishni xohlayotgan aniq, tayin tovar hajmi talab qilingan tovar miqdori deyiladi. Iste'molchilar sotib olishni xohlayotgan tovarlar hajmi bilan xaridorlar tomonidan real sotib olingan tovarlar miqdorini farqlash kerak, chunki ular mos tushmasligi ham mumkin. Ko'p holatlarda xaridorlar real xarid qilib olish mumkin bo'lganiga qaraganda, ba'zi bir tovarlarni katta miqdorda xohlaydilar, bu xohish esa ularning shu tovarlarni sotib olish uchun zarur pulga ega ekanligini, ya'ni uning xohishi xayol bo'lmasdan amalda bo'lishini ko'rsatadi.

Talab qilingan tovarlar miqdorini bir qancha omillar belgilaydi; tovar yoki xizmatlar narxi, xaridorlar didi, ta'bi; iste'molchilar daromadi; o'rinnbosar tovat va xizmatlarning naxxi; mavjud tovar va xizmatlarni xarid qilib oluvchilarning umumiy soni; inflyatsiya ebtimoli yoki taxmini.

Yuqorida ko'rsatilgan omillar ta'sirida talabning o'zgarib turishi sodir bo'ladi. Bu o'zgarishda asosiy masala, tub negiz talab va tovar narxinining o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Chunki sanab o'tilgan omillar orasida narx va xarid qobiliyati talabning tez o'zgarishiga olib keladi.

Narx bilan talab miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Ana shu teskari proporsionallik talab qonuni deyiladi. Bu qonunning asosida nimalar yotishini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin.

1. Odatda, kishilar mavjud tovarni uning narxi yuqori bo'lgan sharoitda haqiqatan ham kamroq xarid qilib oladilar. Iste'molchilar uchun narx, xaridni amalga oshirishga xalaqt qiluvchi to'siq bo'lib hisoblanadi. Bu to'siq qanchalik yuqori va mustahkam bo'lsa, xaridorlar kam miqdorda mahsulot xarid qiladilar, narx to'sig'i qanchalik kam bo'lsa, ular shunchalik ko'p miqdorda mahsulot xarid qiladilar.

Boshqacha so'z bilan ifodalanganda, yuqori narx iste'molchilarda xarid qilish xohishini so'ndiradi, past narx esa bu xohishni kuchaytiradi.

2. Hamisha mahsulot xarid qiluvchi har bir shaxs mahsulotning keyingi birligidan kamroq qoniqish, naf yoki lazzat oladi. Masalan, xaridorga oyoq kiyim kerak, uning uchun bir juft oyoq kiyimning nafligi o'ta yuqori, chunki u yalangoyoq yura olmaydi. Ikkinchisi juft oyoq kiyim uni almashtirib turish imkonini beradi, lekin uning nafligi pastroq, chunki xaridor yalangoyoq emas, uni kiyadigani bor. Uchinchi va to'rtinchi juft oyoq kiyimning nafligi pasayib boraveradi, chunki ehtiyoj to'ydirilgan sari tovarning iste'molchi uchun nafligi pasayadi.

Shu sababli, iste'molchilar mahsulotning qo'shimcha birligini narxi pasayib borgan sharoitdagina xarid qilib olishadi.

Umuman, individual iste'molchilarning xulq-atvori ular ehtiyojlarining qanday qondirilishiha, u yoki bu tovarning qanday naf keltirishiga bog'liq. Naf deb tovar va xizmatni iste'mol qilishdan keladigan qoniqishga aytildi. Umumiy va me'yoriy naf (foydalilik)ni farqlash kerak. Umumiy naf deb ma'lum tovar yoki xizmatlar birligi majmui, to'plamini iste'mol qilishdan olinadigan qoniqishga aytildi. Me'yoriy yoki chegarali naf esa, mavjud tovar yoki xizmatning qo'shimcha birligini xarid qilish natijasida umumiy nafga o'sim bo'lib qo'shilgan nafni bildiradi.

Misol uchun, aytaylik, iste'molchi jahon klassiklari kitoblarini shaxsiy kutubxonaga yig'adi. Bu yerda umumiy naf kutubxonadagi klassik kitoblarni hamma to'plami hisoblanadi, bu naf har bir yangi kitobni sotib olish bilan oshib boradi. Me'yoriy naf – keyingi har bir xarid qilinadigan, aytaylik, A.Navoiy asarlarining navbatdagi to'plami yoki jiddlarini xarid qilishdan keladigan nafga aytildi. Agar iste'molchi A.Navoiy asarlarining keyingilarini xarid qilib olmagan bo'lsa, unda ma'naviy ne'mat bo'lgan kitobning me'yoriy nafligi juda yuqoti bo'lib qolaveradi. Shaxsiy kutubxonani shakllantirish jarayonida o'ninchisi va yuzinchisi kitobning nafligi bir xil bo'ladimi?

Shubhasiz, yo'q Chunki, kutubxonada kitoblarning to'planib horishi ehtiyoj o'tkirligini, chanqolqilini pasaytirib boradi. Shunga muvofiq, yuzinchi kitobning me'yoriy nafligi o'ninchи kitobnikiga qaraganda past bo'ladi. Shunday qilib, boshqa tovarlarning iste'moli o'zgarmasdan qolgan holda biron – bir tovar va xizmatga ehtiyoj to'ynib borishi bilan bu ne'matning keyingi birligini iste'mol qilishdan qoniqish pasayadi. Bu barcha tovarlarga xos bo'lib, me'yoriy naflikning pasayib borish qonuni deb qaraladi. Me'yoriy naflikning pasayib borishi mavjud ne'matning navbatdagi birligini xarid qilib, tasarrufidagi tovarlarni ko'paytiradigan, xaridor uchun ular qadrining pasayishi bilan bog'liq. Tabiiyki, har bir iste'molchi o'ziga keladigan umumiy naflikni oshirishga intiladi. Umumiy naflikni orttirish prinsipi quyidagicha: har bir iste'molchi tovarlar to'plamini xarid qilishda daromadni shunday taqsimlashi kerakki, u yoki bu tovarga sarflangan oxirgi pu'l birligidan oladigan naf bir xil bo'lsin.

3. Mahsulot narxining pasayishi iste'molchi pul daromadining real xarid qobiliyatini oshiradi. Shu tufayli u mavjud mahsulotni oldindagiga qaraganda ko'proq xarid qila oladi. Yuqoriroq narx aksincha holatga olib keladi. Yuqori narxlar sharoitida qimmat tovar o'rniغا ancha past narxdagi, ammo o'xshash bo'lgan tovari sotib olishga rag'bat f'yo bo'ladi. Iste'molchilarida qimmat mahsulot o'rmini arzon tovarlar bilan almashtirishga moyillik mavjud. Past narx sharoitida iste'molchida yuqori narx sharoitiga nisbatan ko'proq mahsulot xarid qilib olish xohishi bo'ladi. Demak, tovar narxi oshishi bilan ayrim xaridorlar sotib olishni umuman to'xtatadi va o'rnbosar tovarlarni iste'mol qilishga o'tadi, xaridorlarning bir qismini esa iste'molini qisqartiradi. Bularning barchasi talabning pasayishiga olib keladi.

Har bir iste'molchining shaxsiy talabi o'ziga xos o'zgaradi, ular shakl jihatidan bir – birini takrorlaydi. Jami bozor talabi yoki muayyan bozordagi umumiy talab esa, barcha iste'molchilar talabining yig'indisidir. Binobarin, jami talabning egri chizig'i narxlarning muayyan darajasida barcha iste'molchilar sotib oladigan tovar miqdorining ifodasi sifatida shakllanadi.

Ayrim olingen bir tovarning o'ziga iste'molchilarining turli gurubi talabi o'zgaruvchan yoki o'zgarmas bo'lishi mumkin. Lekin shunday tovarlar borki, ularga bo'lgan talab hamisha va aholining barcha guruhlari uchun amalda o'zgaruvchan emasdir. Birinchi galda hayot uchun birlamchi bo'lgan, xususan, oziq – ovqat mahsulotlari ana shu xil tovarlar guruhiга kiradi Aytaylik, non narxining oshishi uni kamroq sotib olishiga keltirinaydi, chunki u hayot uchun g'oyat zarui ozuga. Odamlar non iste'mol qilishni kamaytirmaslik uchun

boshqa tovarlarni sotib olishni qisqartiradilar. Ikkinci tomonidan nonga bo'lgan ehtiyojning jismoniy chegarasi bor.

Masalan, boshqa ovqatlar serob sharoitda non iste'moli jon boshiiga 1 yilda 100—120 kg bo'ladi. Demak, non narxining pasayishi uni haddan ziyyod ko'p (300 kg) iste'mol qilishga olib kelmaydi.

## 2. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni

Talabning qarshi tomonidan taklif turadi. Taklif ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan yoki bozorga keltirishi mumkin bo'lgan jami tovarlar va xizmatlar miqdoridir. Ishlab chiqaruvchilar bozorda sotishga mo'ljalagan tovar hajmi taklif qilingan tovarlar miqdori deyiladi. Tovarlar taklifining hajmi sotishga chiqarilgan tovarlar summasi bilan belgilanadi.

Tovarlar va xizmatlar taklifi ishlab chiqarish miqyosi va uning tarkibiga bog'liq. Biroq, tovarlar taklifi yaratilgan mahsulotlar miqdoriga teng bo'lmasligi mumkin, ya'ni tovarlarni taklif qilish va ne'matlar ishlab chiqarish hajmlari bir xil bo'lmasligi mumkin. Yaratilgan mahsulotning faqat bozorga chiqariladigan qismi tovar mahsuloti deyiladi, uning bozorga chiqarilmaydigan qismi taklifni yuzaga keltirmaydi. Misol uchun, davlat, jamoa va dehqon xo'jaliklarida kartoshka yetishtiriladi. Bu xo'jaliklar yetishtirgan kartoshkaning 10 foizini urug'lik uchun o'zida olib qoladi. Kartoshkaning bu qismi tovar bo'lmaydi, taklifni tashkil etmaydi. Kartoshkaning qolgan 90 foizi tovar bo'lib sotiladi, ya'ni taklifni yuzaga keltiradi.

Tovarlar taklifi mahsulotning tovarlik darajasiga, shuningdek, bozorga yetkazib berishga ham bog'liq.

Taklif qilingan tovarlar miqdoriga qator omillar, jumladan, tovar narxi, resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx oshish ehtimoli, tovarni ishlab chiqaruvchilarning soni kabilat ta'sir etadi.

Talab taklifa o'z ta'sirini o'tkazadi va uni o'zgartiradi. Taklifning o'zgarishini taklif qonuni orqali ko'rsatish mumkin.

Taklif qonuni bu taklifning narxga nisbatan to'g'ri mulanosibligida namoyon bo'ladi. Uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$T_f = T_m \times T_n$$

Bunda  $T_f$  — taklif,  $T_m$  — tovarlar miqdori,  $T_n$  — tovarlar narxi

Bu qonunga binoan narx qancha baland bo'lsa, taklif shunchalik oshadi va aksincha.

Narx o'zgarishining taklif o'zgarishi darajasiga ta'sir etishi elastiklik (o'zgaruvchanligi) deyiladi.

Taklif va narx o'zgarishlarini bir – biriga taqqoslash elastiklik koyeffitsientini beradi.

T<sub>f</sub> (foiz hisobida taklifning o'zgarishi)

Ek =

T<sub>n</sub> (foiz hisobida narxning o'zgarishi)

Taklif elastik bo'lishi uchun taklifning o'zgarish darajasi narxning o'zgarish darajasidan yuqori bo'lishi kerak. Natijada elastiklik koyeffitsienti 1 dan katta bo'ladi, ya'ni Ek > 1.

Bozorda taklif har doim elastik bo'lavermaydi. Bunga sabab, taklifning narx o'zgarishiga nisbatan pasayib ketishidir. Bunday holat noellastik taklif deyiladi.

### 3. Talab va taklif mosligi. Bozor muvozanati

Talab va taklif bozorning ikki tomoni sifatida har xil omillar ta'sirida o'zgarib turadi, ularning bog'lanishi narx orqali bo'ladi. Talab va taklifning mos kelishi bozor iqtisodiyotining eng muhim talabidir, chunki faqat shunday sharoitda iqtisodiy o'sish yuz beradi.

Har bir xaridor muayyan pul summasi evaziga ko'proq va sifatli tovarlar olishga, ya'ni mumkin qadar arzon sotib olishga intiladi. Sotuvchi esa, bunga teskari maqsad qo'yadi: u o'z tovarini mumkin qadar qimmatga sotishga intiladi. Shu sabahli, bozorda sotuvchi narxi va xaridor narxi mavjud bo'ladi.

Biroq, sotib olish va sotishdan iborat har qanday aniq faoliyat sotuvchi bilan xaridor o'rtaсидаги bitim natijasi bo'lmish bitta narx bo'yicha amalga oshiriladi.

Bozorda tovar narxining shakllanishiga talab va taklif qanday ta'sir etadi? Buni go'sht misolida ko'rishimiz mumkin.

### Talab va taklifning narxga bog'liqligi

1 kg go'sht narxi (so'm)	Talab qo'yilgan go'sht miqdori (tonna)	Taklif qilingan go'sht miqdori (tonna)	Talabning (Q) va taklifning oshib ketishi (-)
100	8	1	Q7
200	6	2	Q4
300	4	4	±0
400	2	6	-4
500	1	8	-7

Jadvaldan ko'rindiki, faqat 1 kg go'shtning narxi 300 so'm turgandagina qo'yilgan talab va tovar taklifi miqdori teng. 300 so'mdan kam bo'lganda, misol uchun, 1 kg go'sht 100 so'm tursa, tovar (go'sht) ning yetishmasligi ko'rini turibdi (talab=6 tonna, taklif=1 tonna). Bunday holatda talabning ortiqligi (7 tonnaga) yuz beradi. Aksincha, qachonki narx 300 so'mdan yuqori bo'lsa, aytaylik 400 so'm bo'lsa, bozorda ortiqcha go'sht bo'ladi. Bunday holatda talab = 2 tonna, taklif = 6 tonna. Demak, bu yerda taklifning ortiqligi (4 tonnaga) kuzatiladi. Bu nimaga olib keladi? Aytaylik, taklif talabdan oshib tushsin, masalan 1 kg go'sht 400 so'm tursin. Ikki tonna iste'molchilar tomonidan sotib olinganidan so'ng, ishlab chiqaruvchilarda 4 tonna go'sht sotilmasdan qoladi. Qandaydir favqulodda hodisa yuz berishi hisobga olinmasa, odatiy holatda go'shtini sotuvchi 1 kg go'sht narxi 300 so'mga kelguniga qadar uni tushira boradi, ya'ni bunda talab va taklif tenglashadi. Demak, taklifning oshib ketishi tovar narxining pasayishini keltirib chiqaradi. Shunga o'xshash talabning oshib ketishida tovar narxining o'sishi sodir bo'ladi.

Bozorda taklif qilingan tovar miqdori bilan talab qilingan tovar miqdori teng bo'lgan sharoitdagi narx muvozanat narxi deyiladi. Shu narx bo'lgani holda talab qilingan tovar hajmi miqdoriy muvozanatni bildiradi.

Sodda qilib aytganda, agar zarur tovarga bo'lgan talabni ifodalovchi pul summasini tovarning mavjud miqdoriga bo'lsak, muvozanat narxi hosil bo'ladi, bunda bozorda tovarning ortiqchaligi ham, yetishmovchiligi ham bo'lmaydi.

Talab va taklif o'zgarishining to'rt qoidasi bor.

- I. Talabning ortishi muvozanatlashgan narx va muvozanatlashgan tovar miqdorining o'sishiga olib keladi.

2. Talabning kamayishi muvozanatlashgan narx va muvozanatlashgan tovar miqdorining pasayishiga olib keladi.
3. Taklifning ko'payishi muvozanatlashgan narxning pasayishi va muvozanatlashgan tovar miqdorining ortishini keltirib chiqaradi.
4. Taklifning qisqarishi muvozanatlashgan narxning ortishi va muvozanatlashgan tovar miqdorining kamayishini keltirib chiqaradi.

Har bir bozor qatnashchilarining maqsad – muddaosi o'z xususiy manfaatlari bilan quvvatlanadi va umuman iqtisodiyotning bir butun holda muvaffaqiyatli "ishlab chiqarishga" qaratilmaydi. Bir – biriga bog'liq bo'limgan yoki bir – biridan bexabar qabul qilinadigan barcha qarorlarning o'zaro muvofiqlashuvini bozor mexanizmi amalga oshiradi. U alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning xatti – harakatlarini bir – biriga yetkazish hamda bularni muvofiqlashtirishni narxlar tizimi va raqobat kurashi orqali ta'minlaydi.

Shunday qilib, bozor muvozanati bozordagi talab va taklifning ham miqdor, ham tarkib jihatidan bir biriga muvofiq kelishidir. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqqan bo'ladi. Talab va taklif uzoq vaqt bir – biridan ajralib qolsa, bozor o'zining me'yordagi holatini, qiyolasini yo'qotadi.

Bozor muvozanati talab va taklifning mutlaq va abadiy mosligi emas. Bunday moslik, umuman olganda, barcha tovarlarga nisbatan va uzoq davrga xos bo'lishi mumkin. Ayrim tovarlarga nisbatan moslikning buzilishi muqarrar. Chunki ehtiyojning yuksalishi oqibatida yangi talab paydo bo'ladi va u darhol qondirilmaydi. Bozorning ishlab turishi talab, taklif, narxlar va boshqa miqdoriy ko'rsatkichlarning o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Talab** – ta'lovga qobil ehtiyoj.

**Talab qonuni** – talabning narxga nisbatan nomutanosibligi.

**Taklif** – ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan yoki bozorga keltirilishi mumkin bo'lgan jami tovarlar va xizmatlar miqdori.

**Taklif qonuni** – taklifning narxga nisbatan mutanosibligi.

**Taklif egiluvchanligi** – narx o'zgarishiga nisbatan taklifning ortib borishi.

## **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Talab qonuniga izoh bering.
2. Taklif qonuniga izoh bering.
3. Talab ellastikligi nima?
4. Taklif ellastikligi nima?
5. Bozor muvozanatini tushuntirib bering.

## **VII Bob. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING OMILLARI**

1. Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning tuzilishi.
2. Ishlab chiqarishning asosiy omillari.
3. Hozirgi zamon xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi asosiy tushunchalar.

### **1. Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning tuzilishi**

Kishilarning xo'jalik faoliyati o'ta murakkab va chalkash turli – tuman ijtimoiy ayirboshlashni aks ettiruvchi, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtaсидаги ijtimoiy aloqalar shaklidir. Iste'mol – ma'lum ehtiyojlarni qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan foydalanish jarayonidir. Bunda barcha bosqichlar o'zaro bog'liqlikda va o'zaro aloqadorlikda bo'ladilar.

Ta'kidlash lozimki, har qanday ishlab chiqarish ijtimoiy va takrorlanib turuvchi jarayondir.

Hozirgi kunda mahsulotlar va xizmatlarning millionlab va o'n millionlab turlari mavjud va bu turlar tez ko'payib bormoqda. Biroq, turli – tuman bo'lishiga qaranay, bu ne'matlar kishilarning ishlab chiqarish ehtiyojlarini, jamiyatning ishlab chiqarish ehtiyojlarini, qondiruvchi – ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan hamda odamlarning shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarini qondirilishiga qarab ikki turga bo'linadi. Shunga muvofiq, ijtimoiy ishlab chiqarish ham ikki bo'linmaga ajraladi:

I) ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish;

II) iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish.

Insonlarning ehtiyojlarini qondiruvchi ne'matlar va xizmatlar ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalari va tarmoqlarida yaratiladi. "Ijtimoiy ishlab chiqarish" deganda butun jamiyat yoki makroiqtisodiy miqyosda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni tushuniladi. Xo'sh, ijtimoiy ishlab chiqarishning tuzilishi qanday? Ijtimoiy ishlab chiqarish bir – biri bilan uzviy bog'liq ikki sohadan iborat.

*Bular:*

1) Moddiy ishlab chiqarish.

2) Nomoddiy ishlab chiqarish.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning tuzulishini 1 – va 2 – chizmalardan ko'rishimiz mumkin.

Moddiy ishlab chiqarish	Nomoddiy ishlab chiqarish
Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish	Nomoddiy xizmatlarni ishlab chiqarish

### Xizmat ko'rsatish sohasi

Ishlab chiqarish jarayoni uzlusiz bo'lishi kerak. Uning uzlusizligini takror ishlab chiqarish jarayoni ta'minlab beradi. Takror ishlab chiqarish tabiatan ikki xil bo'ladi: oddiy va kengaytirilgan.

Oddiy takror ishlab chiqarishda yil sayin ishlab chiqarish hajmi, ya'nii yalpi milliy mahsulotning hajmi o'zgarmaydi.

Kengaytirilgan ishlab chiqarishda yil saj'in yalpi milliy mahsulot hajmi ortib boradi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun kengaytirilgan takror ishlab chiqarish muhim ahamiyatga egadir. Yalpi milliy mahsulot (YAMM) qancha ko'p yaratilsa, aholining turmush darajasi shuncha ko'p ortib boradi. Yaratilgan YAMM ning bir qismi jamiyat a'zolarining shaxsiy ehtiyojiga, qolgan qismi ishlab chiqarishni yangilash va rivojlantirish uchun ishlatalidi.

Yaratilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish vositalaridan iborat qismi investitsiya uchun ishlatalidi.

**Investitsiya** – bu ishlab chiqarishda kapitalni unumli ishlatalishdir. Iqtisodiyotning rivojlanishi davlatning investitsion siyosatiga bog'liqdir. Investitsiya tabiatan ikki xil bo'ladi: yalpi investitsiya va sof investitsiya.

Yalpi investitsiya – umuman ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan barcha mahsulotlar va xizmatlar yig'indisidir, ya'nii investitsion tovarlardir.

Sof investitsiya – ishlab chiqarishni yangilash uchun yo'naltirilgan investitsion tovarlardan tashkil topadi.

### Ijtimoiy ishlab chiqarishning tuzilishi

Moddiy ishlab chiqarish		Nomoddiy ishlab chiqarish	
Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish	Moddiy xizmatlarni ishlab chiqarish	Nomoddiy xizmatlarni ishlab chiqarish	Nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish
Ishlab chiqarish uchun moddiy xizmatlarni ishlab chiqarish	Aholi uchun nomoddiy maishiy xizmatlarni ishlab chiqarish	Ijtimoiy madaniy xizmatlarni ishlab chiqarish	

#### Xizmat ko'rsatish sohasi

#### Ijtimoiy soha

## 2. Ishlab chiqarishning asosiy omillari

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida inson tabiat obyektlariga ta'sir ko'rsatadi va ulariga o'zining moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun yaroqli bo'lgan shakl beradi. Demak, ishlab chiqarish bevosita iste'mol qilish yoki keyinchalik ishlab chiqarish maqsadida tabiat ne'matlarni qayta ishlashdir. Ishlab chiqarishning bunday funksiyasi (vazifasi) uning har qanday ijtimoiy shaklida saqlanib qoladi.

Ishlab chiqarish jarayonini boshlash uchun ishlab chiqarish omillari (resurslari)ga ega bo'lish zarur. Shundan kelib chiqqan holda, ne'matlarni yaratish jarayonida qanday omillar ishtirok etishi to'g'risidagi masalani aniqlab olish muhimdir.

Iqtisodiyot nazariyasida ishlab chiqarish imkoniyatlari va natijalariga hal qiluvchi, ya ni ta'sir ko'rsatuvchi o'ta muhim element yoki obyekt tushuniladi.

Mahsulotni takror ishlab chiqarish uchun foydalilanligan bunday omillar juda ko'pdir. Binobarin, har bir mahsulotni ishlab chiqarishda o'zining bir qator omillari ishtirok etadi. Shuning uchun, ularni tavsiflash ehtiyoji yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish omillarini ajratishda va ularni alohida guruhlar bo'yicha tavsiflashda turli yondashuvlar mavjud.

Ishlab chiqarishning shaxsiy omili sifatida doim ishchi kuchi – insonning mehnat qilishga bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyatları majmui ko'rib chiqiladi.

Ishlab chiqarishning ashyoviy omili sifatida ishlab chiqarish vositalari qabul qilinadi.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish barcha omillarning kelishilgan holda harakatda bo'lishi, ularning proporsional miqdoriy nisbati, o'zaro almashuvi va h.k.ni ta'minlaydi.

Marjinalistik nazariya an'anaviy ravishda ishlab chiqarish omillarining to'rt guruhini ajratib ko'rsatadi: yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik faoliyati.

Yerga tabiiy omil sifatida qaraladi. Bu guruh elementlariga (omillariga) tabiiy boyliklar, ishlab chiqarish jarayonida ishlataladigan foydali qazilmalar kiradi. Bu kategoriya haydaladigan yerlar, o'monlar va h.k. kiritiladi.

Kapital tovarlar va xizmallarni ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi ne'matlar majmui bo'lib, unga asbob – uskunalar, mashinałar, jihozlar, omborxonalar, transport kommunikatsiyalari, aloqa vositalari va h.k. kiradi.

Kapital ko'p ma'noni anglatadi va pul summasi sifatida talqin qilinishi mumkin. U faqat moddiy predmetlarga emas (ishlab chiqarish vositalari), balki nomoddiy elementlar, ma'lumot, malaka singari inson qobiliyatlarini ham o'z ichiga cladi.

Kapital binolar, inshootlar, jihozlarda moddiylashadi. Bunday kapital ishlab chiqarishda bir necha yillar davomida ishtirok etadi va asosiy kapital nomi bilan yuritiladi. Xomashyo, materiallar, energetik resurslarda moddiylashib, bir yo'la bir ishlab chiqarish sikli jarayonida sarf qilinadigan kapital aylanma kapital deb ataladi.

Kapital tovar zapaslari (zahiralari) ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, kapital ikki shaklda: natura – buyum va pul shaklida namoyon bo'ladi.

Mehnat – bu insonning biror bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyati bo'lib, uning yordamida u tabiat in'omlarini o'zgartiradi va ularni o'zining chtiyoqlarini qondirish uchun moslashtiradi. Har qanday mehnat biror bir natijaga erishishni ko'zlaydi.

Mehnat ne'matlar yaratish va xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirilgan intellektual (aqliy) va jismoniy faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Shaxsning ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, tajribasi, va sog'lig'iga bog'liq bo'lgan qobiliyatları majmui – inson kapitali, binobarin bu kapital bo'yicha oladigan daromadi (ish haqil) shunchalik yuqori bo'ladi. Inson kapitaliga sarflanadigan

investitsiyalar hozirgi vaqtida jamiyat uchun eng samarali va o'zini tez qoplaydigan bo'lib hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarishni tashkil qilishda tashabbuskorlik, ishbilarmonlik va tavakkalchilikni talab etadi.

Tadbirkorlik – garchand, tadbirkor tushunchasi iqtisodiyotda XVIII asrda paydo bo'lgan bo'sha – da, (birinchi marta bu tushunchani ingliz iqtisodchisi R.Kantilyon ishlatgan), u bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi va faqat hozirgi yuzyillikda uni ishlab chiqarishning omili sifatida ko'rib chiqiladi.

Informatsiya (axborot) mexanizmlar, mashinalar, jihozlar tizimida, menejment va marketing modellarida moddiylashgan bilimlarning tizimiyligini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish omillari bir – biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi va ular o'zaro bog'liqdir. Jamiyatdagi ishlab chiqarish jarayonidagi omillarning darajasi ishlab chiqarishning hajmi va sifatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi mahsulot sifatini yaxshilashga olib keladi va ishlab chiqarishning shaxsiy omiliga ham ta'sit etadi, ya'ni uning malakasini oshirishga asos bo'ladi.

Jamiyat muntazam ravishda ishlab chiqarish omillarini, ya'ni texnika va texnologiya, xomashyo resurslari va malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirib borishi kerak.

### **3. Hozirgi zamon xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi asosiy tushunchalar**

Bugungi kunda xo'jalik yuritish faoliyati tadbirkorlik, biznes, tijorat, menejment va marketing kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi.

Tadbirkorlik – bu daromad olish maqsadida ilg'orlik (novatorlik), tavakkalchilik, kashfiyotchilikdan foydalanishga asoslangan xo'jalik yuritish faoliyatidir. Kengroq ma'noda, bu iqtisodiyot sohasidagi ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, faoliykdir. Tor ma'noda, bu xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyatidir.

Uzoq vaqt davomida bizda bu ibora tan olinmas edi va uning o'miga "xo'jalik yuritish faoliyati" iborasi ishlatalib kelinar edi. Bizning iqtisodiy tizimimizga "tadbirkorlik" iborasining qaytib kelishi quyidagi zarur shartlarni tan olishni anglatadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning formal emas, balki haqiqiy iqtisodiy va yuridik mustaqilligi;
- xo'jalik yurituvchilarning xo'jalik yuritish faoliyati ko'rinishlari va iqtisodiy munosahatlar agentlarini erkin tanlash;
- turli mulk shakllari, shu jumladan, xususiy mulk shakli mavjudligini huquqiy tan olish.

Tadbirkorlik quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Nafaqat xo'jalik faoliyati va uning metodlarini tanlashdagi erkinlik, mustaqillik, balki asosiysi novatorlik (ilg'orlik)dir;

2. Qabul qilinayotgan qarorlar, ularning oqibatlari va bu bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik bo'yicha javobgarlik;

3. Iqtisodiy va ma'naviy muvaffaqiyatga erishishni ko'zlab ish yuritish.

Hozirgi kunda tadbirkorlikning quyidagi shakllari keng tarqalgan:

- individual (yakka);
- birgaliddagi (qo'shma korxonalar);
- tavakkalchilikka asoslangan (venchur), ya'ni innovatsion firmalar fan-texnika taraqqiyotini izlovvchilar va tadbiq qiluvchilar.

**Biznes** – bu barcha xo'jalik yurituvchilarni o'z ichiga oluvchi va ularning faoliyatini bir butunga jamlovchi (integratsiya qiluvchi) tizimdir.

Biznes tizimining mohiyati shundan iboratki, bozor iqtisodiyotining har bir subyekti o'zining ishi bilan shug'ullanadi va shu bilan birga jamiyatda biznes o'zlarining iqtisodiy tashabbuskorligi, ishbilarmonligi, ishdagi uddahuronligini legal ravishda amalga oshiruvchi kishilarga zarar keltirmasligiga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'ladi.

Biznes shakllarini tavsiflash turli mezonlar asosida amalga oshiriladi. Iste'mol (uy xo'jaligi) va mehnat (yollanma mehnat bitimlari va h.k.) bizneslari mayjud. Hajmiga qarab mayda, o'rta va yirik bizneslarni ajratishadi. Mulk normalariga qarab xususiy, davlat va kollektiv (jamoja) bizneslari bo'ladi. Kapitalning tatbiq qilinish sohasini hisobga olib sanoat, savdo, ta'lim, agrar xo'jalik va h.k.dagi bizneslar to'g'risida gapirish mumkin. Kapitalning baynalminalashuvi darajasiga qarab milliy va xalqaro (transmilliy korporatsiya) va boshqa bizneslarni ajratib ko'rsatish mumkin. Biznes tashkiliy shakllarining rivojlanishi asosida oddiy kooperatsiya, manufaktura, fabrika, aksiyadorlik jamiyatni, xalqaro firmalari, to'la o'rtoqlik, ishonch bo'yicha o'rtoqlik, kooperativlar, aralash jamiyat va h.k. bo'lishi mumkin.

Tijorat (kommertsiya) – bu kishilarning savdo foydasini olishga qaratilgan savdo faoliyatidir. Tor ma'noda, bu mahsulotni sotish va foya olish bo'yicha muomala sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining bir qismidir. Keng ma'noda, bu har qanday biznesning tarkibiy qismi sifatidagi savdo bitimlarini tuzishdir.

Ijtimoiy faoliyatning eng yangi shakllariiga lizing (ishlab chiqarish vositalarini sotish uchun ijara va kreditning o'ziga xos

qo'shilishi)ni va faktoring (ishlab chiqaruvchi firmadan o'zining mijozlariga bo'lgan talablarini sotib olish yo'li bilan mahsulot sotish bo'yicha savdo bitimlarining bajarilishini jedallashtiruvchi tijorat faoliyatining shakli)ni kiritish mumkin.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Ishlab chiqarish** – zaruriy tovarlar tayyorlash va xizmatlar ko'rsatish uchun tabiiy resurslar va materiallar bilan birga ishchi kuchi, jihozlardan foydalanish jarayoni yoki hayotiy ne'matlarni tayyorlash jarayoni.

**Ishlab chiqarish omillari** – ishlab chiqarish imkoniyati va natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi alohida muhim element yoki obyekt.

**Ishlab chiqarishning shaxsiy omili** – insonning mehnat qilishga bo'lgan jismoniy va intellektual (aqliy) qobiliyatları majmui sifatidagi ishchi kuchidir.

**Ishlab chiqarishning ashyoviy omili** – barcha moddiy ishlab chiqarish vositalari.

**Yer** – ishlab chiqarishning tabiiy omili.

**Kapital** – tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalananidan ne'matlardir. Bular asbob – uskunalar, mashinalar, omborxonalar, transport kommunikatsiyalari, aloqa vositalari va h.h. kapital pul summasi sifatida nafaqat moddiy ashyolar (ishlab chiqarish vositalari)ni, balki inson qobiliyati, ta'lim va malaka singari nomoddiy unsurlarni ham o'z ichiga oladi.

**Asosiy kapital** – ishlab chiqarish jarayonida bir necha yil davomida ishtirok etuvchi va o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga qismma – qism o'tkazadigan mehnat vositalari.

**Aylanma kapital** – xomashyo, materiallar, energetik resurslarda moddiylashuvchi va bir ishlab chiqarish siklida sarflanuvchi kapital.

**Mehnat** – bu insonning biror bir maqsadga qaratilgan faoliyati bo'lib, uning yordamida u o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat in'omlarini o'zgartiradi.

**Inson kapitali** – shaxsning ma'lumoti, kasb mahorati, tajribasi, sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatları majmui.

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Biznes tushunchalariiga ta'rif bering.
2. Ishlab chiqarish omillariga ta'rif bering.
3. Asosiy va aylanma fondlarga ta'rif bering.
4. Inson kapitaliga ta'rif bering.
5. Investitsiyalar, investitsion tovar.

## **VIII Bob. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA DAROMAD. KORXONALAR FOYASI**

1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va turlari.
2. Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy tuzilishi.
3. Foydaning mazmuni. Foya normasi va massasi.
4. O'zbekistonda iqtisodiy resurslardan tejamli va samarali foydalinish – milliy iqtisodiyotni mustahkamlash garovidir.

### **1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va turlari**

Har qanday jamiyatda ishlab chiqarish jarayoni eng muhim iqtisodiy munosabatlari tizimini tashkil etadi. Bu jarayonda ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi eng asosiy omil hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish birliklari, korxona o'z faoliyati natijalaridan imkonli boricha ko'proq daromad olishga intiladi. Har qanday korxona o'z tovarini bir muncha yugori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf xarajatlarni kamaytirishga intiladi.

Har qanday iqtisodiy faoliyatda ma'lum miqdorda sarf – xarajatlar bo'ladi. Har qanday firma kapital negizida quriladi. Kapital – foyda topish maqsadida fu'na tomonidan ishlab chiqarishga qo'yilgan pul. Bu pul firmaning o'z mablag'i va bankdan qarzga olingan pulдан iborat bo'lib, asosiy va aylanma kapitalni tashkil etadi (bular MDH mamlakatlarida asosiy va oborot fondlar deb ham yuritiladi). Asosiy kapital bino – inshoot, mashina – uskunalarga sarflanadi, ular uzoq vaqt xizmat qiladi. Xizmat qilish davriga qarab ularning qiymati har yili qisman yaratilgan tovarlarga o'tadi. Mahsulot sotilgach, bu qism pul shaklida yana firmaga qaytib keladi. Shu qism amortizatsiya deyiladi. Masalan, to'quvchilik stanogi 500 ming so'm turadi va 5 yil xizmat qiladi. Hat yili uning yordamida 50 ming metr gazlama to'qiladi, bu gazlama narxi 25 million so'm turadi, shundan 100 ming so'm stanokning amortizatsiyasi hisoblanadi va u stanok narxiga nisbatan 20 foizni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish uchun ashyoviy resurslar (xomashyo, yarim fabrikat, yoqilg'i, elektr energiya, har xil materiallar) va ish kuchi kerak, ularni olish uchun ketadigan pul aylanma kapitali (fondi) deb ataladi. Ashyoviy resurslar uzoq xizmat qilmaydi, darhol ishlataladi va ularning qiymati yaratilgan tovarlarga bir yo'la o'tadi. Resurslar ishlab chiqarishda qo'llanilib, tovarlar va xizmatlar yaratiladi, ular bozorda sotilgach, firma (korxona) kapitali qaytadan pul shakliga keladi. Firma kapitali bozorga pul shaklida chiqsa, u bozordan resurs shakliga kiritib, ishlab chiqarishga uning omillari sifatida qaytadi.

Firma resurslardan foydalanib, tayyor mahsulot yaratadi, uni bozorga olib chiqib, uni pul shakliga aylantiradi. So'ngra biror narsa sotib olingach, resurslarga aylanadi. Xullas, tadbirkor kapitali turli bosqichlardan o'tib, turli shakllarga kiradi va shu yo'sinda doiraviy (aylanma) harakatda bo'ladi. Firma (korxona) faoliyati bozordan resurs sotib olishdan boshlanadi. Firma moddiy resurslar, ya'ni asbob – uskuna, stanoklar, transport va aloqa vositalari, xomashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ish kuchini sotib oladi, ya'ni ishchilarni ishga yollaydi. Kerak bo'lsa, binolar va yerni sotib oladi. Mabodo, zarurat bo'limasa, ularni ijara qilingan sarf ishlab chiqarish xarajatlariiga aylanadi.

Hozirgi davrda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish jarayoniga, xarajatlarga, yalpi ichki mahsulot miqdoriga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari bozorini shakllantirish va rivojlantirish mamlakatlar iqtisodiyotining deyarli barcha sohalariga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Agar O'zbekistonda barcha firmalar imkon darajasida foyda olishga erishiladigan maqbul iqtisodiy tadbirlarni oqilona va to'g'ri qo'llay olsalargina, raqobatbardosh tovar mahsuloti chiqarib, chetdan valuta tushumiga ega bo'sa yoki sarf va xarajatlarni kamaytirib daromad imkoniyatlarini kengaytira olsa, o'shandagina firma ishi barqarorlashib borishi mumkin.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida firma (korxona)lar o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Buning uchun o'z tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf – xarajatlarni imkonli boricha kamaytirishga ham intiladi.

## **2. Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy tuzilishi**

Firmanın iqtisodiy resurslar uchun qilgan sarfi ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi. Xarajatlarsiz hech bir iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi. Sarf – xarajat foya olishning sharti, chunki busiz ishlab chiqarishning o'zi bo'lmaydi. Korxonaning xarajatlari tovarlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan sarflar, ya'ni iqtisodiy resurslarni topish, xarid etish va ulardan samarali foydalanish sarflaridir. Xarajatlar tabiatan moddiyishgan va jonli mehnat sarfini bildiradi, ular tovarlarni korxonaga qanchaga tushganligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo'lib o'rghanish mumkin:

1. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari.

## 2. Muomala xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari deganda, mahsulotni bevosita ishlab chiqarish uchun qilinadigan barcha sarflar, ish haqi, xomashyo va mineral sarflar, energiya, amortizatsiya va boshqa ishlab chiqarishga bog'liq sarflar tushuniladi.

Tovar birligining qiymatida bevosita ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini, qolgan qismini esa, muomala xarajatlari tashkil etadi.

Muomala xarajatlari tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazguncha ketadigan sarflarga aytildi.

Keyingi paytlarda asosiy firmaga yordamchi shaxobcha firmalar ko'paydi, ular mahsulot ishlab chiqarish bilan bir qatorda, mahsulotni saralash, qadoqlash, saqlash, olib borish, sotish xizmatlari bilan shug'ullanadi. Albatta, bunday firmalardagi xizmat xarajatlari ham ko'p hollarda tovar tannarxi tarkibida bo'ladi.

Muomala xarajatlari ham ikki guruhga bo'linadi:

1. Qo'shimcha muomala xarajatlari.
2. Sof muomala xarajatlari.

Tovarlarni ishlab chiqarilgan korxonaning o'zida o'rash, qadoqlash saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari qo'shimcha muomala xarajatlari deyiladi. Bu xarajatlar ishlab chiqarish jarayoniga yaqin turib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Sarflangan xarajatlar, tovarlar sotilgandan keyin olingan pul, tushum summasidaan qoplanadi. Sof muomala xarajatlari esa, tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovari sotgandan keyin olingan loyda hisobidan qoplanadi. Demak, sof muomala xarajatlari firmanın o'ziga tegishli bo'limgan, shu tovari tayyorlash bilan bog'liq ish jarayonlarını bajaradigan bo'lmlardagi xarajatlarga aytildi.

Firmalar tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun ko'plab xomashyo resurslari va yordamchi materiallardan foydalananadilar.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'limgan, tovarlarning hajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchı hajmida ham mavjud bo'ladi.

Bunga korxonaning to'lov majburiyatları (zayomlar uchun foiz):

- soliqlar;
- amortizatsiya ajratmalar;
- ijara haqi;
- qo'niglash xizmatiga to'lov;

- uskunalarga xizmat ko'rsatish sarflari;
- boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilalar kiradi.

O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqariladigan tovar miqdorining oshishi yoki kamayishiga ta'sir qiladi va ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liqlikda o'zgaradi. Bunga xomashyo, materiallar, yonilg'i, transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi.

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarish samradorligini aniqlash uchun mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf - xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy, o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalaniлади.

O'rtacha umumiy xarajatlar yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chiqarilgan tovar miqdoriga teng.

O'rtacha doimiy xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lisl yo'li bilan aniqlanadi.

O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar o'zgaruvchi xarajatlarni miqdoriga chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lisl yo'li bilan aniqlanadi.

Xo'jalik yuritishning erkinlashtirilishi bozor iqtisodiyoti rivojlanishi jarayonida har bir korxona eng yuqori darajada foyda olishga erishish uchun o'z iqtisodiy ahvolini doimo tahlil qilib borishi kerak bo'ladi. Chunki, kuchli raqobatchilik sharoitida foyda olishga erishish uchun ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlab olish muhimdir. Bunda iqtisodiy tahlil mezoni bo'lib qo'shimcha xarajat tushunchasi xizmat qiladi.

Qo'shimcha xarajatlarni shunday amalga oshirish kerakki, oz sarfi bilan tovar sifatiga yoki uning bozor xarid darajasiga katta o'zgartirish kiritishga erishilsin.

Avvalo, qo'shimcha xarajat deb keyingi qo'shilgan mahsulotning har bitta birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga aytildi.

To'g'ri xarajatlar ham bo'ladi, bular mahsulot tannarxiga bevosita qo'shib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlardir.

Qo'shimcha xarajatlar esa, mahsulot tannarxiga ustama bo'lib, narxda aks etadigan xarajatlardir (masalan, avtomobilga magnitofon o'rnatilishi kabi).

### **3. Foydaning mazmuni. Foya normasi va massasi**

Korxonaning ishlab chiqarish jarayonida mehnat unumining ortishi ham moddiy, ham mehnat sarflarini qisqartiradi.

Ayni kunda bozordagi narx, talab barqaror sharoitda mehnat unumdonligi xarajatlarini pasaytirish orqali foydani ko'paytililadi.

Olingen foyda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning o'zgargan shaklidir. Demak, foydaning asl manbai qo'shimcha mahsulot bo'lib, u mahsulot sotilgandan keyin pul shaklida namoyon bo'ladi.

Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi pul tushumidan shu mahsulotlarni ishlab chiqarishga qilingan harcha xarajatlar (tannarx) chiqarib tashlansa, korxonaning balans foydasi yoki brutto foydasi qoladi. Bu iqtisodiy foyda deb ham ataladi.

Firma uchun foydaning ikki jihatni bor: birinchisi, foyda massasi, ya'ni uning umumiyligini miqdori. Ikkinchisi, foyda me'yori, ya'ni uning nima evaziga olingani.

Foyda me'yori, foyda miqdorining umumiyligini xarajatlariga nisbatining foizlardagi ifodasiga aytildi:

F

F m --- x 100

U

Foyda me'yori firmanın joriy sarf - xarajatlari naqadar samarali natija bergenligini aniqlaydi. Bu me'yori qanchalik yuqori bo'lsa, firma ichtiyoridagi resurslar muqobil tarzda shunchalik yaxshi ishlabilgan bo'ladi.

Foyda me'yori ishlab chiqarayotgan mahsulot hajmiga to'g'ri mutanosib hamda foydalanilgan, avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosib bo'ladi.

Shu tufayli, foyda me'yori korxona ish samaradorligining integral ko'rsatkichi hisoblanadi.

Respublikamizdagi ko'pgina samarali firmalar erkin raqobat va iqtisodiyotni erkinlashtirilgan sharoitda iqtisodiy faoliyatlarini to'g'ri tashkil etib, sifatli, zarur, xaridorgir tovar mahsulotlarini ishlab chiqarib, o'z daromadlarini ishlab chiqarishni tezlashtirish, sarf va xarajatlarni kamaytirish, sof pul tushumlaridan ishlab chiqarishning kengaytirishga sarflash hamda har bir tovar biriligiga ketadigan mehnat va sarf - xarajatni kamaytirgan holda firma foyda me'yorini oshirib, o'z iqlisodiy samaradorligini ta'minlamoqdalar.

Jamiyat nuqtai nazaridan takror ishlab chiqarish samaradorligi cheklangan resurslardan samarali foydalanishga bog'liq. Bu ko'rsatkich o'zida resurslarni taqsimlash samaradorligi va ishlab chiqarish samaradorligini ifodalaydi. Resurslarni taqsimlashning samaradorligiga erishish uchun resurslar korxona va tarmoqlar o'tasida shunday taqsimlanishi kerakki, natijada jamiyatga eng zarur bo'lgan mahsulotlarning ma'lum turlari ishlab chiqarilishi kerak. Ishlab chiqarish samaradorligi jamiyat uchun zarur bo'lgan har bir

tovar eng kam sarf – xarajatlar (resurs sarflari) bilan ishlab chiqarishni taqozo qiladi.

#### **4. O'zbekistonda iqtisodiy resurslardan tejamli va samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni mustahkamlash garovidir**

O'zbekiston yer osti va nusti boyliklariga boy mamlakatdir. Bu esa, butun dunyoga mashhur chet el kompaniyalari va banklarini jalg etishi tabiiy holdir.

O'zbekiston yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi. Bu yerda Mendeleyev davriy sistemasining barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2.7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan, istiqbolli joylar aniqlangan. Ular yuzga yaqin mineral xomashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortiq'i ishlab chiqarishga jalg etilgan. 300 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralarini 370 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral xomashyo salohiyati 3.3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, likvidlik darajasi yuqori bo'lgan foydali qazilmalarni o'zlashtirishga qaratilgan investitsiyalar katta – katta daromadlar keltiradi. 1992 – yilda oltin qazib olish bo'yicha «Zarafshon – Nyumont» O'zbekiston – Amerika qo'shma korxonasi tashkil etilgan edi. Qiymati 220 million AQSH dollariga teng bo'lgan zavod qurilishi 1993 – yil oktabrida boshlandi va bor – yo'g'i 18 oyda, ya'ni 1995 – yil may oyida tugatildi.

1995 – yilda qo'shma korxona oltinning birinchi turkumini ishlab chiqardi. Hozirgi vaqtda o'zbekistonlik sheriklar bilan mashhur «Nyumont Mayning Korporeyshn» (AQSH) va «Mitsui» (Yaponiya) kompaniyalari o'rtaida Toshkent zahirasining oltin rudasi konlarini o'zlashtirish haqida bitim imzolandi. Faoliyatning ko'pgina sohalarida ham bir qancha boshqa istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmoqda. Respublikaning tabiiy boyliklarini chet el kompaniyalari bilan birgalikda o'zlashtirish sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish borasida O'zbekistonning imkoniyatlari keng. Bunday hamkorlikning yuqorida keltirilgan misollari shunday loyihalarni amalga oshirish chet ellik investorlarni yuksak darajada qiziqtirayotganligini yana bir bor isbotlamoqda.

Samarasiz korxonalarni tugatish, raqobatga bardosh bera olmaydigan mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar ictisoslashuvini o'zgartirish ishlari bilan qo'shib olib borilishi kerak.

Ishning bu jihatni yangi korxonalar barpo etishdan ham muhimroq ahamiyatga egadir.

Shu sababli, eng asosiy vazifa o'tish davomida butun xalq xo'jaligi tizimini chuqur qayta qurishdan iboratdir. Shunday bir tizimni vujudga keltirish zarurki, bu tizim barcha resurslarimizni hisobga olib, O'zbekistonning iqtisodiy va asosiy mustaqilligini ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 – yil 12 – mayda bo'lib o'tgan 2 – chaqiriq V sessiyasida sanoat, qurilish, transport va aloqa masalalari qo'mitasi raisi I.Kochmarik «Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun loyihasini deputatlar e'tiboriga havola etdi. Qonun loyihasi muhokamasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ham qatnashdi. Davlatimiz rahbari ushbu qonun loyihasining favqulodda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etib, mamlakatimizning o'zida axborot – texnik vositalar ishlab chiqarishni va uning dasturiy ta'minotini rivojlantirish, xalq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurligiga e'tiborni qaratdi. Prezident kompyuter texnikasi, internet tarmog'i salohiyatidan iqtisodiyotning barcha sohalarida, shuningdek, mamlakatimiz maktablari va oliy o'quv yurtlarida kengroq foydalanish zarurligini qayd etdi. Zamon bilan baravar qadam tashlash, bu sohada rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetishga intilish zarur. Nafaqat tabiiy zahiralar, balki aqliy salohiyat ham katta boyligimizdir. Shu tufayli, biz ilg'or ilmiy – texnologiyalarni rivojlantirishimiz va bu sohada o'z mutaxassislarimizni yetishtirishga alohida e'tibor berishimiz lozim, deb ta'kidlab o'tdi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Ishlab chiqarish xarajatlari** – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar.

**Ichki xarajatlar** – korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan qilingan xarajatlar.

**Tashqi xarajatlar** – tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshrishga ketgan xarajatlar.

**Doimiy xarajatlar** – ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etmaydigan, u o'zgarganda ham miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlar.

**O'zgaruvchi xarajatlar** – ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etadigan xarajatlar.

**O'rtacha xarajatlar** – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar.

**Qo'shimcha xarajatlar** – mahsulotning navbatdagi qo'shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

**To'g'ri xarajatlar** – mahsulot tannarxiga bevosita qo'shilib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlar.

**Foyda massasi** – foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo'lgan nisbatining foizdagi ifodasi.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ishlab chiqarish sarf – xarajatlarining asosiy tushunchasini va tarkibini tushuntiring.
2. Ichki va tashqi xarajatlar o'rta sidagi farqlar nimadan iborat ekanligini misollar yordamida tushuntiring.
3. Ishlab chiqarish resurslari tarkibida qaysi biri uzoq muddatli xarajatlarga kiradi?
4. Foydaning mazmuni va manbaini tushuntiring.
5. Foyda normasi va massasining oshishi qanday omillarga bog'liq?
6. Respublikada iqtisodiy resurslardan tejamli va samarali toydalanishni tushuntirib bering.

## **IX Bob. NARXLARNING TASHKIL TOPISHI VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGI**

1. Narx va uning funksiyalari. Narxning tashkil topishi. Muvozanat narx.
2. Narx turlari. Mehnatning narxi. Sarmoya narxi.
3. Raqobatning mohiyati. Raqobat turlari.

### **1. Narx va uning funksiyalari. Narxning tashkil topishi**

Bozor munosabatlarda narx muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda yaratilgan mahsulotlarning aksariyati ko'pchilikning mehnati bilan, ya'ni ijtimoiy mehnat bilan yaratiladi. Natijada yaratilgan mahsulotlar qiymatga ega bo'ladi. Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni narxlash zarurati kelib chiqadi. Chunki, tovarlarni ayriboshlash uchun ular narxga ega bo'lishi kerak.

**Narx** – bu tovar qiyamatining puldagi ifodasi. Qiymat qonuniga binoan, narx qiyamatga teng bo'lishi kerak. Lekin, bozor iqtisodiyotida narxning shakllanishiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Natijada narx qiyamat atrofida tebranib turadi. U yoki bu qiyamatdan baland, yo teng yoki qiyamatdan past bo'ladi. Bozorda narx ishlab chiqaruvchi va iste'molchi uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki narx orqali ishlab chiqaruvchi va iste'molchi surʼat qilgan mehnatlarini solishtiradilar.

Narxning iqtisodiy mazmunini uning fuknksiyalarida (vazifalarida) ko'rish mumkin. Uning besh asosiy funksiyasi bor.

Bozor muvozanatini ta'minlash funksiyasi. Bunda narx talab bilan taklif o'tasidagi muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, taklif talabga nisbatan kamayib kesa, narx ko'tarilib ketadi. Natijada ishlab chiqaruvchilar yuqori foyda ola boshlaydilar. Yuqori foyda ishlab chiqaruvchilarni ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga undaydi, ular bozorni to'ldiradi.

Bozorda taklifning ko'payishi narxlarning pasayishiga olib keladi. Natijada muvozanat narx paydo bo'ladi, talab bilan taklif o'tasida muvozanat yuzaga keladi.

**Hisob-kitob, o'Ichov funksiyasi.** Ijtimoiy ishlab chiqarishda qilingan xarajatlar, foyda, ko'nigan zarar, ish kuchi ma'lum narxlar asosida hisob – kitob qilinadi.

**Iqtisodiy tartiblovchi funksiya.** Bozor munosabatlarda narx tartibga soluvchi vazifasini bajaradi. Bozordagi talab bilan taklif o'tasidagi nisbat narx vositasida ifoda etiladi. Masalan, agar bozorda talab taklifga nisbatan yuqori bo'lsa narxlar ko'tarilib ketadi. Yuqori

narxlar tovar ishlab chiqaruvchilarga katta daromad keltiradi. Natijada ular ko'plab mahsulot ishlab chiqaradilar va bozorni to'ldiradilar. Bunday holat narxarning pasayishiga olib keladi va talab bilan taklif o'rtaida muvozanat holatini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, narxlearning ko'tarilishi va pasayishi natijasida bozor muvozanati yuzaga keladi.

**Raqobat vositasи.** Halol raqobatning kurash usullaridan biri bu narx vositasida kurash olib borishdir. Firmalar raqobat kurashida engish uchun, boshqalarga nisbatan baholarni pasaytirishga harakat qildilar. Buning uchun ular mahsulot birligiga sarfi qilingan moddiy va mehnat xaratjalarni qisqartirishga harakat qildilar. Ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni qo'llaydilar.

**Sotsial himoya funksiyasi.** Davlat aholining nochor va kambag'al qatlamini sotsial himoya qilish maqsadida, ayrim tovarlarga dotaliyalashgan narxlarini, ya'ni arzonlashtirilgan narxlarini belgilaydi. Aholining bunday qatlamiga arzon oziq - ovqat va kiyim - kechaklar sotiladi. Dotaliyalashgan narxlar bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qo'llaniladi va u vaqtincha bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tilgandan keyin dotaliyalashgan narxlar erkin narxлага almashtiriladi.

**Narxlearning tashkil topishi.** Bozor iqtisodiyotida narxlearning shakllanishig, bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Bularga - qiymat, talab va taklif, bozor turlari kiradi. Narxlar birinchi navbatda tovariarni ishlab chiqarish jarayonida shakllanadi. Ishlab chiqarish jarayonida mehnat asosida tovar qiymati yaratiladi, ya'ni sarfi qilingan buyumlashgan va jonli mehnat hisobga olinadi. Sarflangan mehnat qancha ko'p bo'lsa, tovar qiymati ham shuncha yuqori bo'ladi. Shunga mos ravishda narx ham baland bo'ladi. Demak, narxning darajasi shunday bo'lishi kerakki, tovarni yaratish uchun qilingan sarfi - xaratjalarni qoplashi va daromad keltirishi kerak.

Talab va taklif omili ham narxning shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Bozorda talabning taklifiga nisbatan ko'p bo'lishi tovar taqchilligini keltirib chiqaradi, bunday holat o'z navbatida narxlearning ko'tarilishiga olib keladi. Aksincha, agar taklif talabiga nisbatan ko'p bo'lsa, narxning pasayishi yuz beradi. Bozorda talab bilan taklif nisbatining mavjud bo'lishi narxning qiymat atrofida tebranishiga sababchi bo'ladi.

Narxlarga ta'sir etuvchi omillardan biri - bozor turlaridir.

Erkin bozorda narxlar raqobat asosida shakllanadi. Erkin raqobat bozori muvozanat narxni yuzaga keltiradi. Prezident I.Karimov bu borada «...chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlearning amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat

**muhim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning o'zaro jips ta'sirini ta'minlaydi!**

Raqobasiz bo'lgan monopol bozorda monopol yuqori narxlar o'rnatiladi. Bunga tabiiy monopoliyalarni misol qilish mumkin, ya'ni neft' va gaz sotuvchi firmalar.

## **2. Narx turlari. Mehnatning narxi. Sarmoya narxi**

Bozor munosabatlari rivojlanishi munosabati bilan narxning bir necha turlari vujudga kela boshladi. Narx turlariga ulgurji, shartnoma, chakana, demping, nufuzli, cheklangan va erkin narxlar kiradi.

**Ulgurji narxlar**-ishlab chiqaruvchilar tomonidan yirik tovar partiyalarini ko'tarasiga sotganda belgilanadi. Ulgurji savdo birjalarda amalga oshiriladi.

Shartnoma narxlar – firmalar o'rtaida shartnoma asosida belgilangan narxlar. Shartnoma narxlar bozordagi talab bilan taklif nisbatiga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni u o'zgarmas narxdir.

Chakana narxlarda tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladi va u ulgurji narxdan yuqori bo'ladi. Chakana savdo supermarket, do'kon va bozorlarda amalga oshiriladi.

Demping narx sun'yi rawishda bozor narxiga nisbatan pasaytirilgan narxdir. Demping narx kerakli bozorga kirib borish uchun va raqobatchilarga qarshi kurashish uchun qo'llaniladi. Demping narxlar firmalar tomonidan vaqtincha qo'llaniladi. Ular bozorga o'rashib olgandan so'nq narx ko'tariladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat ayrim tovarlarning narxini cheklah qo'yadi, ya'ni narxning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi. Shu bilan birga, davlat dotatsiyalashgan arzon narxlarni belgilaydi, u davlat budjeti hisobidan arzonlashtiriladi.

**Nufuzli narx** bozorda monopol vaziyat vujudga kelganda o'rnatiladi. Monopoliyalar o'z mahsulotiga bozorda baland narxlarni o'rnatadilar va yuqori foyda oladilar.

**Erkin narx** erkin bozorda talab va taklif asosida kelib chiqadi. Erkin baho ishlab chiqaruvchi va iste'molchi uchun qulay narxlardir, u iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

**Mehnatning narxi.** Ish kuchi bozorida mehnatning narxi, ya'ni ish haqi darajasi turli xil bo'lgan ish kuchi va har xil ish turlari o'rtaida, raqobat asosida kelib chiqadigan talab bilan taklif o'rtaqidagi muvozanatga bog'liq bo'ladi. Har qanday iqtisodiyotda ish

<sup>1</sup> Karinov I A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuquqlashtirish yo'llida» T. «O'zbekiston». 1995. 88 – bel.

haqi, daromadning asosiy keng tarqalgan shakli bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotda ko'pchilik jarayonlarning tartiblanishi ish haqi bilan bog'liqdir. Masalan, nominal ish haqi bilan real ish haqi o'rtasidagi katta farq inflyatsiya darajasining ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

**Nominal ish haqi** – bu ishchining sarf etgan mehnati, vaqt uchun olinadigan pul qiymatidir. Real ish haqi esa, sotib olinadigan tovar va xiznatlar narxlarining darajasi bilan belgilanadi.

Ish haqi o'rtasidagi farqlar, ishchilarning malakasi va bajariladigan ishning turiga bog'liq. Ishchining malakasi qancha yuqori bo'lsa, ish haqi shuncha baland bo'ladi. Tunda bajariladigan ish uchun va inson uchun zararli bo'lgan ishga qo'shimcha ish haqi to'lanadi. Malakali ishchilar olinadigan foydaga ko'proq hissa qo'shgani uchun yuqori ish haqi oladilar. Malakali ishchilar narxi baland bo'lishining yana bir sababi, ularni tayyorlash uchun qilingan sarf – xarajatlarning ko'p bo'lishidadir.

**Sarmoya narxi**. Sarmoya bozori bu ishlab chiqarish omillarining asosini tashkil etadi. Bozordagi sarmoyaqa bino va inshootlar, texnika va ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan mashinalar, asbob-uskunalar, yer, xomashyo va materiallar, energiya va boshqalar kiradi. Bozorda sarmoyaning narxi, ishlab chiqarish jarayonida uni ishlatish natijasida olinadigan daromadi bilan o'lchanadi.

Sarmoya keltiradigan daromadni bir yillik foiz stavkasi o'zida aks-etadigan, ya'ni bir yillik daromadni sarmoyaqa nisbatan foiz hisobida o'lchanadi.

### 3. Raqobatning mohiyati. Raqobat turlari

Ziddiyatlar har qanday taraqqiyot, shu jumladan, iqtisodiy taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Ziddiyatning yo'q bo'lishi taraqqiyotni to'xtatib qo'yadi. Iqtisodiy taraqqiyotga bevosita ta'sir etuvchi ziddiyat bu raqobatdir.

**Raqobat** – bu ishlab chiqaruvchilarning bozorda mahsulotini sotish maqsadida mijoz uchun kurashishdir. Prezident I.A.Karimov raqobatning ahamiyati haqida, «**Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir**»<sup>1</sup> deb ta'kidlagan.

Faqat tabiiy kurash, ya'ni yashash uchun kurashish taraqqiyotga olib keladi. Qaysi bir mamlakatda raqobat sharoiti yaratilgan bo'lsa, shu mamlakat iqtisodiyoti tez rivojlanadi. Raqobat sharoitini faqat erkin iqtisodiyotga, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tilganda amalga oshirish mumkin. Bozor qatnashchilari – subyektlari o'z faoliyatilarini

<sup>1</sup> I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». T.: «O'zbekiston». 1999 – y. 34 – bet

erkin olib borishlari, ya'ni ular bozor ko'taradigan, xohlagan mahsulot va xizmatlarni taklif qila olishlari kerak.

Raqobat kurashi ishlab chiqaruvchilarni mahsulot sitatini yaxshilashga va narxini pasaytirishga majbur etadi. Natijada ular ish uslubini va texnologiyani takomillashtirishga majbur bo'ladilar. Natijada bundan iste'molchilar, umuman, jamiyat foyda ko'radi. Aholining turmush darajasi ko'tariladi.

Bozor iqtisodiyoti raqobatning bir necha turini keltirib chiqaradi. Raqobat turlariga sotuvchilar, xaridorlar, sotuvchi va xaridorlar o'rtasidagi mukammal va nomukammal raqobatlar kiradi.

Sotuvchilar o'rtasidagi raqobat iqtisodiy taraqqiyot uchun xizmat qiladi va raqobatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Sotuvchilar raqobatining ikki shakli bor: *tarmoq* ichida va *tarmoqlararo*. Tarmoq ichidagi raqobat mahsulot sitatining o'sishiga va narxlarning pasayishiga olib keladi. Tarmoqlararo raqobat o'rtacha foydani shakllanishi sababchi bo'ladi.

Xaridorlar o'rtasidagi raqobat bozorda tovarlar yetishmaganda, tovar taqchilligi sharoitida yuzaga keladi. Bunday raqobat sotuvchilarga qo'l keladi, ular tovarlar narxini oshirib yuboradi.

Sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi raqobat muvozanat narxlarini, ya'ni bozor narxini yuzaga keltiradi. Bunday raqobat ikki tomoniga foydalidir.

Raqobat turlaridan yana biri mukammal va nomukammal raqobatdir. **Mukammal raqobat** bozorda *sof raqobat* ko'rinishida mavjud bo'ladi. Sof raqobat sharoitida, bozorda tovar va xizmatlarni taklif qiluvchilar, mulk shaklidan va firmalarning kalta – kichikligidan qat'i nazar, raqobat qilishda teng huquqli va erkin bo'ladi. Mukammal raqobatli bozorda narxlarning shakllanishi talab bilan taklif qonuniga bo'ysunadi. Bunday bozorda hech bir ishlab chiqaruvchi o'z tazyiqini o'tkaza olmaydi. Mukammal raqobat bozorda tovarlar sitatini yaxshilashga va narxini pasaytirishga ishlab chiqaruvchilarni majbur etadi. Natijada bundan iste'molchilar va jamiyat naf ko'radi. Mukammal raqobat iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'ladi va uni tezlashtiradi.

**Nomukammal raqobat** bozordagi erkin raqobatni cheklab qo'yadi. Amaliyotda u uch ko'rinishda: monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya raqobatida mavjud bo'ladi.

**Monopolistik raqobat** bozorida bir necha yirik bo'lmagan firmalar xaridorlarga o'xshash mahsulotlarni taklif etadilar. Har bir firma bozoring ma'lum bir qismiga o'z ta'sirini o'tkazadi, lekin narxlarni belgilashda ularning ta'siri cheklangan bo'ladi. Monopolistik raqobat bozorida firmalar mahsulot ishlab chiqarish

hajmini va narxlarni kelishib olishlari qiyin bo'ladi. Ular bir-biriga nisbatan mustaqil harakat qilishadi.

**Oligopoliya raqobati** bozorida cheklangan bir necha yirik firmalar qatnashadi. Ular ma'lum bir tovar turlarini ishlab chiqarishga yakka egalik qiladilar. Masalan, avtomobil sanoatida. Bunday bozorda raqobat cheklangan bo'ladi.

Sof monopoliya raqobati sharoitida bozorda bitta firma hukmronlik qiladi. Unga raqobat qiluvchilar bo'lmaydi. Sof monopoliya ikki sababga ko'ra vujudga keladi: texnologik va tabiiy.

Texnologik monopoliya yangi texnologiya va texnikalarning kashfi qilinishi va yirik firmalarning ularga yakka egalik qilishidan kelib chiqadi.

Tabiiy monopoliyalar tabiiy boyliklarga ayrim firmalarning egalik qilishidan kelib chiqadi. Yer osti va yer usti boyliklari cheklanganligi sababli ularga egalik qiladigan firmalar bozorda narxlarni belgilashda o'z tazyiqini o'tkazadilar. Masalan, neft va gaz qazib oluvchi firmalar tomonidan.

Nomukammal raqobat iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi va unga zarar etkazadi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat ishlab chiqaruvchilar tomonidan turli usullar bilan olib boriladi. Raqobatning halol va g'irrom usullari bor. Halol raqobat madaniy bозorga xos bo'lib, u qonun belgilagan doirada olib boriladi.

**Halol raqobat** narx bilan raqobat qilishni, mahsulot sifatini ko'tarish va servisni (xizmat ko'rsatishni) yaxshilash orqali raqobat qilishni o'z ichiga oladi. Narx bilan raqobat qilishda firmalar narxni pasaytirish uchun mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni, ya'ni tannarxni kamaytirish va mehnat unumdarligini oshirish hisobiga etishadilar.

**G'irrom raqobat** yowvoyi bozorga xos bo'lib, noqonuniy va man etilgan vositalar yordamida olib boriladi. G'irrom raqobatda sanoat josusligi, reket, qo'poruvchilik, tovar belgisini o'g'irlash, mualliflik huquqini buzish va boshqa usullar qo'llaniladi. G'irrom raqobat iqtisodiyotga va jamiyatga katta zarar etkazadi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun davlat raqobatchilik muhitini yaratadi. Buning uchun davlat bozorda turli mulk shakkllariga asoslangan ishlab chiqaruvchilar safini kengaytirish chora-tadbirlarini ko'radi, monopoliyalar yuzaga kelmasligi uchun monopoliyaga qarshi siyosat olib boradi va monopoliyaga qarshi qonun chiqaradi. Prezident I.Karimov bu borada «Tovarlar, ishlar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaratish va monopoliyadan

**chiqarish bilan bog'liq masalalar echimini yakuniga etkazish zarur»<sup>1</sup> deb ta'kidlaganlar.**

Bu qonunda bozorda firmalar o'zaro narxlarni belgilashni kelishib olishlari va bozorlarni o'zaro bo'lib olishlari man etiladi.

## **ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR**

**Narx** – tovar qiymatining puldag'i ifodasi.

**Erkin narxlar** – talab bilan taklif nisbatiga bog'liq bo'lgan narxlar.

**Demping narx** – bozorga o'mashib olish maqsadida sun'iy ravishda tovarlar narxini pasaytirish.

**Raqobat** – bu ishlab chiqaruvchilarning bozorda mahsulotlarni sotish maqsadida mijoz uchun kurashi.

**Raqobat turlari** – sotuvchilar, xaridorlar, sotuvchi va xaridor o'rtafigi mukammal va nomukammal raqobatlar.

**Raqobat usullari** halol va g'irrom usullardan tashkil topadi. Halol raqobat madaniy bozorga xos bo'lib, u qonun belgilagan doirada olib boriladi. G'irrom raqobat yovvoyi bozorga xos bo'lib, noqonuniy yo'l bilan olib boriladi.

## **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.**

1. Narxning ta'rifini bering.
2. Narxning shakllanishi qanday omillarga bog'liq?
3. Narx turlari qanday bo'ladi?
4. Demping narx qanday bo'ladi?
5. Raqobat nima?
6. Raqobat turlarini sanab bering.
7. Mukammal raqobatga ta'rif bering.
8. Nomukammal raqobat qanday bo'ladi?

<sup>1</sup> Karimov L.A.ning Vazirlari Makhkamasining 2000 - yilda mu'milakatni ijtimoiy - iqtisadiy nivojlanish yuzunlari hamdo 2001 - yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloholarni chequurlashtirishning usluvor yu'nalishlariiga bay'ishlangan inajlisidagi In'a'ruzas. «Xalq su'zis ro'zuomasi. 2001 - yil 17 - foynal.

## X Bob. TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH. MENEJMENT VA MARKETING

1. Tadbirkorlikning mohiyati, asosiy tamoillari, turlari va tashkiliy shakllari.
  2. Firmalarning ixtisoslashishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik. Firmalarning asosiy shakllari.
  3. Marketing va uning mohiyati.
  4. Menejmentning mohiyati va vazifalari.
1. **Tadbirkorlikning mohiyati, asosiy tamoillari, turlari va tashkiliy shakllari**

Tadbirkorlik va bozor iqtisodiyoti tushunchalarini bir – biridan ajratib bo'lmaydi, ya'ni tadbirkorsiz bozor va bozorsiz tadbirkorming bo'lishi mumkin emas. Iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik tushunchasining sinonimi sifatida biznes tushunchasi ham qo'llanilib keladi. **Biznes** xo'jalik subyekti faoliyati sohasi va ularning iqtisodiy manfaatlarini tavsiflovchi iqtisodiy termin bo'lsa, **biznesmen** – ishbilarmon(ish odami), tadbirkor va tijoratchi ma'nolarini bildiradi. Umuman olganda, biznesmen va biznes tushunchalari tadbirkor tushunchasiga nisbatan kengroq ma'nos'i bildiradi.

«**Tadbirkorlik** deganda, moddiy va pul mablag'larini foyda topish yo'lida sarflab, bozorga kerakli tovarlar va xizmatlar yetkazib berib, kishilarga nafl keltiruvchi, ularning hojatini chiqaruvchi iqtisodiy faoliyat tushuniladi»<sup>1</sup>.

«**Tadbirkorlik** – yangi imkoniyatlarni qidirish, yangi texnologiyalarni qo'llash jarayoni, kapital qo'yishning yangi sohalarini topish, eskicha sarqitlar va chegaralardan voz kechish, ishlab chiqarish omillarining uch asosiy tarkibiy qismini bog'lashning eng maqbul usullarini topish»<sup>2</sup>dir.

«**Tadbirkorlik** – mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat yuritishidir<sup>3</sup>. *O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga binoan tadbirkorlik*<sup>4</sup> – tadbirkorming shaxsiy mol – mulki asosida;

<sup>1</sup> O'limasov A. Iqtisodiyot asoslari. – Toshkent «Mehnat», 1997 – 68 – 69 – betlar

<sup>2</sup> Долан Е.ДЖ. Линдсей Д.Е. Рынок: микроэкономическая модель. – Санкт-Петербург 1992 стр. 14-15

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik to'g'risidagi qonuni. 1 – modda – O'zbekiston Respublikasi: Qonun va farmonlar, 1992, 137 – bet.

<sup>4</sup> O'sha joyda, 137 – bet.

— tadbirkorning boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, ajnabiy hamda yuridik shaxslarning mol — mulklarini turli shakllarda jalb etish asosida;

— tadbirkorning davlat va jamoa tashkilotlari mol — mulklaridan foydalanish asosida;

— yuqoridaq shakllarni qo'shib olib borish asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik mulkdor tomonidan ham, shuningdek, uning mol — mulkini idora qiluvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqordagilardan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyatini yo'lg'a qo'yish uchun kishi o'z mulkiga ega bo'lishi, yoki o'z mulkiga ega bo'lmasligi muunkin. Mulk sohibi bo'lmaslik tadbirkor bo'lish imkoniyatini cheklamaydi, aksincha, kishilar ijara munosabatlari orqali ham tadbirkorlik faoliyatlarini yuritishlari mumkin.

Tadbirkorning pirovard maqsadi daromad (pul) topish hisoblanadi. Tadbirkorlik insonlarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat bo'lganligi sababli, ko'pchilik tadbirkor bo'lishga intiladi. Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali asta — sekin mamlakatda mulkdorlar sinfi shakllana boshlaydi.

Muldorlar sinfini shakllantirish borasidagi «... eng muhim va dolzarb vazifa — ... mulkni haqiqiy egalari qo'liga berishni jadallashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish va mulkdorda yangi mulk egasi hissiyotini tarbiyalashdan iborat»<sup>1</sup>dir.

O'zbekistonda tadbirkorlar ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davriiga mos ravishda ishchi, xizmatchi va dehqonlar hisobidan vujudga kela boshladi. Bu yerda tadbirkorlar kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchilardan, fermerlardan, tomonqa xo'jaligi sohiblaridan, aksiyadorlik jamiyati a'zolaridan, yakka tartibda ishlovchilardan iborat.

Tadbirkorlik faoliyati mamlakatda raqobat muhitini shakllantiradi, insonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun sifatli tovarlar ishlah chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlikning o'ziga xos tamoyillari mavjud.

**Mulk egasi bo'lish.** Tadbirkorlarning o'z mulki bo'lgani yaxshi, lekin u hech qanday mulkka ega bo'lmasdan (o'zgalar mulkini ijaraga olib) ham ish yuritishi mumkin, lekin tadbirkor o'z mulkiga ega bo'lsa, o'zgalar mulkini ijaraga olib ishlagandan yaxshiroq iqtisodiy samara olishga harakat qiladi.

<sup>1</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston siyosiy — ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Valuu sajdagon kabi muqaddasdir T.3 — Toshkent, 1996. 27 — bet.

**Iqtisodiy faoliyat erkinligi va faoliyat mahsulini taqsimlash mustaqilligi.** Tadbirkor bozor talabini qondirish maqsadida o'zi tanlagan sohada faoliyat ko'rsatishi, o'zi xohlagan mahsulotni qanday va qayerda ishlab chiqishni, ularni kimga, qachon va qanchaga sotishni, o'ziga hamkor topishni shaxsan o'zi hal qiladi. Mazkur iqtisodiy munosabatlar jarayonida unga tazyiq ko'rsatilishi tamomila inkor etiladi.

**Daromad (foyda) olishga intilish.** Tadbirkor dastavval o'zining iqtisodiy ahvolini yaxshilashga, foyda olishga harakat qiladi. Uning bu maqsadi doimo saqlanib qoladi. Pirovardida u daromad olish bilan birgalikda jamiyat uchun qanchalik kerak ekanligini, o'z imkoniyatlarini o'zgalar imkoniyatlaridan yaxshiroq ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi.

**O'z faoliyatidagi iqtisodiy mas'uliyatni his etish.** Tadbirkor qaysi sohada faoliyat ko'rsatmasin u iqtisodiy mas'uliyatni shaxsan o'z zimmasiga olib ish yuritadi, olingan iqtisodiy natijaga faqat uning o'zi javobgar, mas'uliyatl bo'ladi.

**Iqtisodiy tavakkalchillkni o'z bo'yning olish.** Tadbirkor iqtisodiy xavf-xatarni his qilib, tavakkal qilib, «sinish»dan qo'rmasdan ish yuritadi. Agar kutilmagan hodisa bo'lsa, unga faqat tadbirkorning o'zi javob beradi.

**Tadbirkorlik qoidalari va qonunlarning ustuvorligiga rioya etish.** Tadbirkorlik faoliyatining o'z ichki qonun qoidalari va jamiyatning qonuniy asoslari mavjud. Qonun va qoidalalar qanday ko'rinishlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar tadbirkor ularga amal qilishi va hurmat qilishi kerak va shart.

**Raqobat muhitining rivojlanishida va uning kurashida qatnashish.** Tadbirkor o'z faoliyati davomida sifatli tovar ishlab chiqarishi va xizmat ko'rsatishi orqali raqobatning avj olishiga hissa qo'shishi va unda o'zi ham faol ishtirok etishi lozim.

**Tadbirkorlik sirlari.** Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar albatta o'zlarining sirlariga ega bo'lishlari va uni qattiq himoya qilishlari lozim bo'ladi. Chunki biznes ishi o'zgalardan sir tutilgan taqdirdagina katta daromad keltirishi, tadbirkorga esa, farovonlik bag'ishlashi mumkin.

**Halollik bilan ish yuritish.** Tadbirkor halol pul topishga intilishi shart. Bu tamoyil tadbirkor tushunchasining haqiqiy tabiatiga aynan mos keladi va unga zid bo'lgan har qanday ishlarni, harakatlarni inkor etadi.

**Nufuz (imij)ga ega bo'lish.** Nufuz tadbirkorming obro-e'tiborli bo'lishini, o'z nomiga putur etkazmaslikni, firma nomiga sodiqlikni va uni e'zozlashni bildiradi.

Tadbirkor o'z ishlab chiqarish faoliyatini o'zi boshqaradi, davlat uning ishiga aralashmaydi, balki tadbirkorni qo'llab – quvvatlash va uning daxsizligini kafolatlashi orqali qulay muhit yaratadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan tadbirkorlikka iqtisodiy kategoriya, xo'jalik yuritish usuli va iqtisodiy fikrlash tipi sifatida qaraishi mumkin. Agar biz tadbirkorlikka iqtisodiy kategoriya sifatida qaraydigan bo'lsak, dastavval uning subyekti va obyekti masalasini hal etib olishimiz zarur bo'ladi. Pirovardida esa tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko'rinishlari va tashkiliy shakllari ham uning subyekti va obyektiga uzviy bog'liq bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatining subyekti, dastavval, xususiy shaxs (xususiy, oilaviy xo'jalik va kerak bo'lsa undan ham yirikroq xo'jalik yurituvchi) bo'lishi mumkin. Bu tadbirkorlar ishlab chiqarish faoliyatlarini o'z mehnatlari yoki yollanma ishchilar hisobiga tashkil etadilar.

Tadbirkorlik faoliyati ma'lum guruhga birlashgan kishilar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Ularni umumiyl iqtisodiy manfaatlar va shartnoma munosabatlari birlashtiradi. Jamoa tadbirkorligi sifatida aksionerlik jamiyatları, ijara jamoaları, kooperativlar faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida, yana davlat mutasaddi tashkilotlari ishtiroy etishi ham mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatining obyekti – daromadni maksimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish omillarining samarali kombinatsiyalashuvni (birlashuvini)dir<sup>1</sup>. Tadbirkor bu borada xo'jalik yurituvchidan o'zining tashabbuskorligi bilan doimo ajralib turadi. Chunki tadbirkor oddiy xo'jalik subyektidan, ishlab chiqarish omillarini doimo yangi kombinatsiyalashuvini topishga intilishi bilan farq qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining subyekti va obyektining o'ziga xosligi uning juda ko'p ko'rinishlarga hamda shakllarga ega bo'lishini taqozo etadi.

Masalan, kichik biznesda tadbirkorlikning quyidagi turlarini farqlaydilar:

**Faoliyatning yo'nalishi bo'yicha:** ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va innovatsion tadbirkorlik.

**Tadbirkorlarning funksional yo'nalishi, mazmuni bo'yicha:** ishlab chiqarishni boshqarish, moliyalashtirish, vositachilik va maslahat.

**Faoliyat turlarining mlqdori bo'yicha:** bir qirrali, ko'p qirrali.

<sup>1</sup> Ильинский С.Н. Экономика микро и макроэкономики. М.: Изд. DELO, 1999. срп. 151.

**Faoliyatning murakkabligi bo'yicha:** noyob bilimlar va yuqori texnologiyalarni jalb etishga asoslangan maxsus bilimlarni talab etadigan tadbirkorlik.

**Faoliyatning tarmoq yo'nalishi bo'yicha:** sanoat, agrosanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa tarmoqlarda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik.

Tadbirkorlik faoliyati turlarining turli – tumanligi bois, uning faoliyatini aniq shakllarda amalga oshirishni talab etadi. Shu sababli, tadbirkorlikning quyidagi shakllarini farqlaydilar:

**Xususiy tadbirkorlik** tadbirkorlikning mazkur turi jismoniy shaxs va korxona tomonidan xususiy tashabbus orqali o'z mablag'larini ishga tushirish asosida tashkil etiladi.

Mutaxassislarning hisob – kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda xususiy tadbirkorlar soni 3,5 mln. kishini tashkil etadi. Ular asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik sohalarida faoliyat ko'rsatishadi. O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi xususiy tadbirkorlikning ulushi 1999 – yilda 16,5 foiziga to'g'ri keldi.

**Jamoa tadbirkorligi** – fuqarolar guruhi, jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobiga tashkil etiladi.

Jamoa tadbirkorligi O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchisi aholining o'ziga xos xususiyatlari, mental'itetini o'zida mujassam etadi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov aytganlaridek: «*Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga horib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir*»<sup>1</sup>.

**Shartnomaviy tadbirkorlik** – korxona rahbari tomonidan amalga oshiriladi va u mulk egasi yoki uning ishonchli vakili tomonidan ma'lum huquq va majburiyatlarni oladi va albatta javobgarlikni o'z bo'yninga oladi. Rahbar – tadbirkor fugaro tadbirkor qanday ro'yxatdan o'sa, u ham shunday ro'yxatdan o'tadi va javobgarligi ham xuddi fuqaro – tadbirkorniki kabi bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyati yuridik shaxs maqomini olib yoki olmasdan, yollonma mehnatdan foydalanib yoki foydalanmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.

Tadbirkorlikning yuqorida sanab o'tilgan shakllariga mos ravishda tadbirkorlikda davlat, munitsipial, jamoa, xususiy, qo'shma, aralash, xorijiy korxonalar faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining dastlabki bosqichlarida davlat tadbirkorligi (korxonalar) tadbirkorlikning boshqa turlariga nisbatan vaqtincha ustun bo'ladi O'tish davrida mulkchilik

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarraqqiyot yo'li // O'zbekiston buyuk kelajak sari kitobida –Toshkenf «O'zbekiston». 1999, 11 – bet.

munosabatlarini juda tezlik bilan qayta qurib bo'lmaydi, bu jarayon uzoq davom etadigan tadrijiy jarayon bo'lmoqligi darkor.

Davlat korxonaları budget korxonaları, davlat ishlab chiqarish korxonaları va aralash kompaniyalar tarzida faoliyat ko'rsatadilar. Davlat korxonalarining barcha daromad va xarajatlari davlat budgeti orqali o'tadi, ular aniq vazirlik yoki idoraga hamda mahalliy boshqaruv organlariga bo'ysunadi. Davlat ishlab chiqarish korxonaları esa, o'zlarida tijorat korxonaları va davlat organlari xususiyatlarini mujassam etadi.

**Aralash kompaniyalar** esa, hissadorlik jamiyatları va majburiyatları cheklangan jamiyatlar shaklida tashkil etilib, ular chiqargan aksiyalar davlatga va xususiy omonatchilarga taalluqli bo'ladi.

## **2. Firmalarning ixtisoslashishi, ular o'ttasidagi aloqadorlik.**

### **Firmalarning asosiy shakllari**

**Firma** — inglizcha (firm, firm's trade name) so'zlaridan olingan bo'lib, *tijorat maqsadlarini ko'zlovchi korxona, kompaniya va boshqa xo'jalik tashkiloti* degan ma'noni anglatadi. Firma (korxona) — bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli va bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Firmalar o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga mos va xos ravishda ma'lum sohalarga ixtisoslashadilar. Ixtisoslashuv darajasi va faoliyat yo'nalishiga qarab korxonada ishlab chiqarish omillari uyg'unlashadi. Ya'ni unda muayyan texnika – texnologiya birlashadi va ma'lum kasbiy malaka hamda mahoratga ega kishilar mehnat jarayonlariga kirishadilar. Mehnat taqsimoti korxona va turdosh korxonalar guruhiga faqat ularga xos, ya'ni boshqalar bajarmaydigan vazifalarni biriktirib qo'yadi. Korxonalar o'zaro hamkorlik tamoyiliga asoslangan holda boshqa korxonalar bilan bog'lanadilar va bir – birlarining xizmatlaridan bahramand bo'ladir.

Korxonalar ma'lum bir sohalarda ixtisoslashadilar va mahsulotlarning ayrim qismlarinigina yaratadilar. Tayyor mahsulotning murakkabligiga qarab uni ishlab chiqarishda yuzlab, hatto minglab, bir yoki bir necha mamlakatlarning korxonaları ishtirot etadilar.

Korxonalar mehnat faoliyati sohasi va ixtisoslashuviga qarab *sanoat, transport, qurilish, aloqa, qishloq ho'jaligi, savdo, tijorat, maishiy xizmat, madaniy xizmat, davolash, o'qitish* va boshqa korxonalarga bo'linadi.

O'tish davrida erkinlik darajasiga qarab korxonalar uch toifaga bo'linadi: **davlat buyurtmasi saqlangan korxona, ham buyurtma, ham bozorga ishlovchi korxona, faqat bozorga ishlovchi korxona.**

Ma'muriy – buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida korxonalarning erkinligi cheklangan bo'ladi. Hattoki, jamoa mulki ham amalda davlatlashtirilgan bo'ladi. Shu sababli, ko'pgina korxonalar, «**davlat buyurtmasi saqlangan korxonalar**» maqomini oladilar. Ular davlatning nazorati ostida bo'ladi va u belgilagan faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi. Lekin korxonalar doimo davlatning nazorati ostida qolmaydi va asta – sekinlik bilan bozor munosabatlariga tortila boshlaydi. Mazkur korxonalarda ishlash chiqarish ikki yoqlama tus oladi:

➤ *birinchidan*, Korxona davlat buyurtmasi topshirig'i bilan ishlaydi;

➤ *ikkinchidan*, buyurtma hajmi qisqartirilib, mahsulotning bir qismi bozorda o'z bilganicha sotila boshlaydi. Bu holda korxonaning ham davlat buyurtmasiga, ham erkin bozorga ishlash inkoniyati yaratiladi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi korxonani iqtisodiy mustaqil bo'lishini ta'minlaydi. Nimani qancha, qanday usullar bilan, qancha miqdorda ishlab chiqarish va uni kimga, qanchaga sotish va tushgan pulni qanday m'aqsadlarda ishlatishni korxonaning o'zi hal qildi. Yoki boshqacha so'z bilan aytganda, **korxona faqat bozorga** ishlay boshlaydi.

Yugoridagi xususiyatlarning mavjudligi korxonalarning turli shakllarda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Firma (korxona)larning shakllari quyidaqicha bo'ladi:

- ❖ xususiy firmalar;
- ❖ mas'uliyati cheklangan firmalar;
- ❖ mas'uliyati cheklanmagan firmalar, ya'ni shirkatlar;
- ❖ davlat korxonaları – firmalar;
- ❖ aralash korxonalar;
- ❖ korxonalar birlashmasi (konsorsium va konserm);
- ❖ firmalar shoxobchasi (bo'linmasi) va vakolatxonasi.

**Xususiy firmalar** – ayrim shaxslarga va oilalarga qarashli bo'lib, individual xususiy mulk hisoblanadi. Bunday korxonalar kichik, o'rta biznesda va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritadilar.

**Mas'uliyati cheklanmagan firmalar** – mol – mulki sherikchilik asosida egalik qilinadigan va olingan daromad qo'shgan hissasiga qarab taqsimlanadigan firmalardir. Bunday firmada ko'rilgan zarar sheriklar tomonidan teng qoplanadi.

**Mas'uliyati cheklangan firmalar** – jamoa korxonasi bo'lib, uning mulki ta'sis etuvchilarning pay (hissa) mablag'i asosida tashkil etiladi. Bunda olingen daromad yoki ko'rilgan zarar qo'shgan hissasiga qarab taqsimlanadi yoki qoplanadi. Mazkur turdag'i firmalarga aralash firmalar, aksionerlik jamiyatlari kiradi. Mas'uliyati cheklangan firmalarning eng ko'p tarqalgan turi aksionerlik jamiyatlari hisoblanadi. Aksionerlik jamiyatlari ochiq va yopiq turda bo'ladi. Ochiq turdag'i aksionerlik jamiyatida aksiyalar erkin sotilishi va sotib olinishi mumkin bo'ladi. Yopiq turdag'i aksionerlik jamiyatlarida esa, aksiyalar bir necha kishilar (korxonalar)ga tegishli bo'lib, bozorda erkin sotib olinishi mumkin emas. Aksionerlik jamiyatlari o'ziga qo'yilgan kapitalning miqdoriga qarab aksiyalar chiqaradi. Ushbu aksiyalarni sotib olgan kishilar aksionerlarga aylanadilar va foydadan o'z hissasi dividendni olishga haqli bo'ladi.

**Davlat korxonaları** – davlat mulki bo'lgan va uning nazorati ostida bo'lgan korxonalar. Mazkur korxonalar davlat va mahalliy hokimiyat organlariga qarashli bo'ladi va bирgalikda davlat sektorini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida YAIM ishlab chiqarishda davlat sektorining hissasi yil sayin kamayib bormoqda. Bu holat o'z-o'zidan bozor munosabatlarining rivojlanib, takomillashib borayotganligidan darak beradi.

**Aralash korxonalar** – turli mulk shakllariga taalluqli firmalar bo'lib, xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag'lari asosida tashkil etiladi. Ular sirasiga qo'shma korxonalarni ham kiritish mumkin. Qo'shma korxonalar xorijiy va milliy kapitalning aralashuvidan vujudga keladi.

**Konsorsium** – korxonalarning vaqtincha tashkil etilgan birlashmalari. Ular odatda moliyaviy ishlar yuzasidan tashkil etilib, unga davlat, banklar, moliya investitsiya kompaniyalari, yirik firmalar, har xil pul fondi tashkilotlari uyushadi.

**Konsern** – ishlab chiqarish, investitsiya, moliya, texnika va tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida bирgalikda ish yuritishni ko'zlaydigan korxonalarning majmuasi hisoblanadi. Konsernlar bir yoki bir necha tarmoqlararo birlashmalari tarzida namoyon bo'ladi.

**Firmalar shaxobchasi (filiali)** – yirik firmalarning tarkibiy qismi bo'lib, mustaqillikka ega bo'lmaydi.

Firmalar ish ko'lamiga qarab **kichik, o'rta va yirik** biznesga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilik hujjalariга muvofiq kichik va o'rta biznes (tadbikorlik) korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Ular xususiy tadbirkorlikdan farqli o'laroq, yuridik shaxs sitatida faoliyat ko'rsatishadi. Qonunlarda belgilab qo'yilganidek,

kichik va o'rta biznes korxonalarini toifalarga ajratish mezoniga ko'ra u yoki bu toifaga qarashlilik xodimlarning o'rtacha soni va faoliyat sohasiga qarab belgilanadi. Xususan, o'rta korxonalarda xodimlarning maksimal soni 100 kishini, kichik korxonalarda 40 kishini, mikrofirmalarda esa 10 kishini tashkil qiladi.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining shakli, ixtisoslashuvi va hajmi uning samarali ekanligini ko'rsatuvchi belgilar emas. Mazkur korxonalarning haqiqiy samaradorligi ularda marketing faoliyatining qanday yo'lga qo'yilganligiga ham bog'liq bo'ladi.

### 3. Marketing va uning mohiyati

Marketing faoliyati tadbirkorlarning manfaatlari asosida tashkil topadi. Modomiki shunday ekan, avvalgi tadbirkor bilan hozirgi tadbirkor o'rtasida katta farq borligiga e'tibor berish talab etiladi. Avvalgi tadbirkorlar o'z faoliyatlarida mukammal andozalarga mos keluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning natijasi bo'lgan mahsulotning sifatiga katta e'tibor bergen bo'lsalar, hozirgi kunga kelib, bunday yondashuv yetarli darajada zamon talablariga mos kelmaydi. Hozir ishlab chiqarishning va to'lovga qobil talabning to'la ma'noda bozorga yo'naltirilganligi va moslashuvi muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli, marketing faoliyatini o'rganish hozirgi kunda katta ahamiyatga ega.

**Marketing** (ingлизча – *market – bozor degan ma'noni anglatadi*) – bozorni har tomonlama o'rganish orgali firma oldida turgan muammolarni hal etishdir.

«Marketing» termini birinchi bo'lib AQSHda paydo bo'ldi va amaliyotga tatbiq etildi. Uning paydo bo'lishi obyektiv zaruriyat bo'lishi bilan birligida davr taqozosi hamdir.

Marketingning paydo bo'lishi uning quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- XX asrning 60 – 80 – yillariga kelib tovar ishlab chiqarish, uni sotish jarayonlari murakkablashdi va jadallahshdi;

- tovarlar assortimenti (turi) ko'paydi va ular tez yangilana boshladi;

- tovarlarning ma'nnaviy eskirish jarayoni jadallahshdi;

- ishlab chiqarish imkoniyatlari intensiv ravishda orta boshladi;

- bozor talablaridagi umumiy va xususiy o'zgarishlar tezlashdi;

- tadbirkorlar o'rtasidagi raqobat kuchayib ketdi va h.k.lar.

Marketing faoliyati natijasida bozor munosabatlari sharoitida yuzaga kelishi «xavfi» bo'lgan aksariyat muammolarni o'z vaqtida, oqilona usullar bilan yechish yo'llari topiladi. Marketing faoliyati yuqori daromad olish borasida korxona imkoniyallaridan samarali

foydalanish va firma kelajagini bozor an'analariga mos ravishda bashoratlash imkonini beradi.

Marketingning **afzallik jihatlari** shundaki, u zamonaviy xo'jalik yuritish usullarini o'zida mujassam etadi. Shu bilan birga, u o'z amaliyotida ilg'or fan – texnika yangiliklaridan, xususan, informatika va kibernetika sohasidagi yangiliklardan, shuningdek, psixologiya fani yutuqlaridan ham keng foydalanadi.

Marketing jarayoni juda murakkab va o'ziga xos jarayondir. Shu bois, uning mohiyatini bayon etishga qaratilgan 2000 dan ortiq ta'rif mavjud. Lekin ularning barchasi ham marketingning mohiyatini to'la ochib beradi deb aytolmaymiz. Masalan, marketing to'g'risida F.Kotlyar: «Ehtiyojni axtaring va uni qidiring. Sota oladigan tovarni ishlab chiqaring. Tovarni emas, mijozni seving» degan fikrlarni bildiradi.

Marketingga qanday ta'rif berilishiga qaramasdan, uning faoliyati natijasida quyidagilar ta'minlanadi:

– Bozor va undagi talabning tarkibi, o'ziga xosligi, xaridorlarning didi va nozik jihatlari to'g'risida o'z vaqtida, ishonchli, to'g'ri ma'lumotga ega bo'linadi;

– Raqobatchilarning tovarlariga qaraganda yaxshiroq, bozor talablariga aynan mos keladigan, xaridorlarning didiga ko'proq javob bera oladigan, tovarlar va ularning yig'indisi (assortimenti)ni yara'ish imkoni paydo bo'ladi;

– Marketing faoliyati iste'molchiga, uning talabiga va pirovard oqibatda bozorga ta'sir etadi va uni o'z nazoratiga oladi.

– Marketingning diqqat markazida inson iste'moli yotadi va shunga o'xhash yo'naltirilgan faoliyat tufayli pirovard maqsadga erishiladi.

Marketing faoliyati tovar harakatining deyarli barcha bosqichlarida birdek zatur. Marketingning iste'molchi talabini to'la qondira olishidagi ahamiyatini quyidagicha bosqichma – bosqich ko'rishimiz mumkin<sup>1</sup>.

– Iste'molchi yuqori sifatlari va o'zi uchun ma'qul bahodagi tovarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'ladi. Natijada tovar osongina sotiladi va tovar egasi o'z maqsadiga osonlik bilan erishadi. Natijada, ko'zlangan miqdordagi tovarlarni sotib, kutilgan darajada foya olish mumkin. Bunda soddagina maxsus tijoriy – marketing faoliyati yuz beradi, xolos.

– Ayrim holatlarda tovarlarni sotish va undan katta foya olish uchun bozorni chuqur o'rganish, reklama, baho siyosati, tovarlarni sotish va saqlash bilan bog'liq ishlarni bajarish, qadoqlash va

<sup>1</sup> Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. – Toshkent: «O'zbekiston», 1999. 268 – bel.

tovarlarni o'rash, tovarlar sotilgandan keyingi iste'mol bilan xizmatlarni uyushtirish kabi ishlarni o'z ichiga oladigan murakkab marketing tizimi talab etiladi. Bu, albatta, oddiy savdo emas, balki tovarlar harakatini me'yoriga yetkazish bilan bog'liq barcha ishlarni amalga oshirishdan iborat murakkab jarayonni o'z ichiga oluvchi marketing xizmatidan iboratdir.

Marketingning o'ziga xos jihatidan biri uning istiqbolga yo'nalganligidir. Marketingning bu jihatni jami xaridorning kelajakdag'i ehtiyojlarini va bu ehtiyojlarni qondirish uchun muayyan tovarlar, texnologiyalar va xizmatlarni taklif etishda ko'rinadi. Marketing munosabatlaridagi eng muhim jihat uning maqsadga yo'naltirilganligi, majmualiliqi va marketing faoliyatini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarini maqsadga muvofiq ravishda yagona «texnologik jarayon»ga birlashtirishda ko'rinadi.

**Marketingning vazifasi** korxonaning barqaror samaradorlik datajasini, muayyan vagt davomida serdaromadlikni ta'minlash hisoblanadi.

Marketingdan foydalanishning iqtisodiy mohiyati asosiy va aylanma fondlar samarasini tezlashtirish, yangi tovarlarni yaratish va ularni tashqi bozorlar tomon harakatini tezlashtirish bilan chegaralaanmaydi, balki ushbu jarayonlarda yuqori tijoriy samara olish bosh maqsad hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rnnib turibdiki, marketingdan foydalanish bozor munosabatlari o'tish davrida katta ahamiyatga ega va korxonalarni ushbu davrda yashab qolishining muhim sharti ham hisoblanadi.

Korxonalar bozor munosabatlari sharoitida yaxshi faoliyatga ega bo'lishi uchun marketing faoliyatining o'ziga xos tamoyillariga bevosita rioya etishlari ham talab etiladi.

Bular quyidagilardir:

- Bozorning tez o'zgaruvchan talabini va tadbirkorlik faoliyatining alohida sharoitlari, ularning tadrijiyligi va holatini aniq hisobga olish;

- Ishlab chiqarish, mahsulot assortimenti va ishlab chiqarish – sotish va savdo faoliyatini bozor talablariga, ijtimoiy talabning tarkibi va rivojlanishiga maksimal darajada moslashtirish;

- Talab, bozor va tovar sotilish jarayonlariga mavjud vositalar bilan faol ta'sir etish va h.k.lar.

#### **4. Menejmentning mohiyati va vazifalari**

**Menejment** (inglizcha *management*) – «...u yoki bu faoliyat turini (tashkil etishni va sahbarlik qilishni) iqtisodiy, moliyaviy va

*boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi*<sup>1</sup>. Menejment ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi insonlar o'rtasidagi, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fandir.

Menejment ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etishning shakl va usullarini o'rganish bilan bir qatorda, ushbu jarayonda ishtirok etuvchi insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ham o'rganadi va bu borada yaxshi natijalarga erishishni nazarda tutadi.

Menejment tushunchasini idrok qilishda ko'proq ularning umumiy va xususiy tushunchalar ko'rinishidagi farqlarini bilib olish kerak bo'ladi. Masalan, menejment tushunchasining tadbirdorlik faoliyati bilan bog'liq jihat qiyidagicha bo'ladi:

**Tadbirkorlik faoliyati** – biznes va iqtisodning turli – tuman sohalarida namoyon bo'ladi. Uning farqlanishidagi xususiyati, uning aqli faoliyati va chaqqon tashabbuskorligi bo'lib, moddiy boylikka to'la yoki qisman ega bo'lib, ularni o'z ishi va biznesini tashkil etish uchun ishlatadi.

Menejmentdagi eng muhim tushunchalardan biri – **menejerdir**. Menejer malakali boshqaruvchi bo'lib, u odamlar harakatini o'z maqsadlariga erishishga yo'naltiradi. Tadbirkor aniq bir ishga ega bo'lsa, menejer esa xizmatchi hisoblanadi. Kichik biznesda bir shaxs ham tadbirkor, mulk egasi va ham menejer vazifalarini birجا bajaradi. Aksincha, korporatsiyalarda, yirik firmalarda menejerlar korpusi ko'pincha, bir vaqtida qisman mulk egasi hisoblanadilar. Menejer, tadbirkor faol faoliyat bilan shug'ullanuvchi odamlar bo'lib, ular muvaffaqiyatga erishganlarida katta daromad oladilar.

Menejment maxsus faoliyat turi sifatida qator vazifalarga egadir. Ular ichida eng muhimi **boshqaruv vazifalaridir**. **Boshqaruv vazifalari** – bu biror obyektga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat turi deb tushuniladi. Boshqaruv vazifalari o'zining tarkibi bilan boshqaruv texnologiyasini buniyod etadi. Boshqaruv vazifasining ma'nosiga ikkita element kiradi: u avval tizimda nima qilinayotqanligini belgilasa, so'ngra qanday qilib savoliga javob berishni bildiradi.

Boshqaruv vazifalarini taqsimlash turkumlarida ikki xil yondashuv mavjud.

**Birinchisi**, boshqaruvning umumiy vazifalarini belgilash. Ularga quyidagilar kiradi:

- Rejalashtirish;
- Tashkii qilish;
- Muvofiglashtirish va tizimga salish;

<sup>1</sup> Fidaiyev S.S., Menejment asoslari. –Toshkent, 1998, 13 – hel.

- Nazorat;
- Tartibga solish.

Ikkinchisi, boshqaruv obyekti xususiyatini baholashga asoslanadi. Bu holda ishlab chiqarish boshqaruvida butun bir tiziining aniq vazifalari ajratib ko'rsatiladi.

Ular quyidagilar:

- ❖ *Asosiy ishlab chiqarishni boshqaruv;*
- ❖ *Yordamchi ishlab chiqarishni boshqaruv;*
- ❖ *Kizmatga ishlab chiqarishni boshqaruv;*
- ❖ *Marketing boshqaruvi;*
- ❖ *Moliya boshqaruvi;*
- ❖ *Sifat boshqaruvi;*
- ❖ *Mehnat boshqaruvi;*
- ❖ *Yangiliklar kiritish boshqaruvi;*
- ❖ *Xodimlar boshqaruvi va boshqalar.*

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Tadbirkorlik** — yangi imkoniyatlarni qidirish, yangi texnologiyalarni qo'llash jarayoni, kapital qo'yishning yangi sohalarini topish, eskicha sargitlar va chegaralardan voz kechish, ishlab chiqarish omillarining uch asosiy tarkibiy qismini bog'lashning eng maqbul usullarini topish.

**Xususiy tadbirkorlik** — xususiy tashabbus orqali o'z mablag'larini ishga tushirish asosida tashkil etiladigan tadbirkorlik.

**Jamoa tadbirkorligi** — fuqarolar guruhi jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobiga tashkil etiladi.

**Shartnomaviy tadbirkorlik** — korxona rahbari tomonidan amalga oshiriladi va u mulk egasi yoki uning ishonchli vakili (organji) tomonidan ma'lum huquq va majburiyatlarni olib, javobgarlikni o'z bo'yniga oladi. Rahbar — tadbirkor fuqaro tadbirkor qanday ro'yxatdan o'sa, u ham shunday ro'yxatdan o'tadi va javobgarligi ham xuddi fuqaro — tadbirkorniki kabi bo'ladi.

**Firma** — inglizcha (firm, firm's trade name) so'zlaridan olingan bo'lib, tijorat maqsadlarini ko'zlovchi korxona, kompaniya va boshqa xo'jalik tashkiloti degan ma'noni anglatadi.

**Xususiy firmalar** — ayrim shaxslarga va oilalarga qarashli bo'lib, individual xususiy mulk hisoblanadi.

**Davlat korxonalar** — davlat mulki bo'lgan va uning nazorati ostida bo'lgan korxonalar.

**Aralash korxonalar** – turli mulk shakllariga taalluqli firmalar bo'lib, xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag'lari asosida tashkil etiladi.

**Marketing** (inglizcha – *marketing*) – aniq iste'molchilarning talab (ehtiyoj)larini imkonli boricha to'laroq qondirishga qaratilgan va shu asosda yuqori foyda olishni ko'zlagan, firma miqyosida ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishning majmuali tizimidir.

**Menejment** firma ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, mehnat jarayonini tashkil etish, savdo – sotiq ishlarini yuritish, firmaning iqtisodiy salohiyatini boshqarish kabilarni o'z ichiga oladi.

**Menejer** malakali boshqaruvchi bo'lib, u odamlar harakatini o'z maqsadlariga erishishga yo'naltiradi. Tadbirkor aniq bir ishga ega bo'lsa, menejer esa, xizmatchi hisoblanadi. Kichik biznesda bir shaxs ham tadbirkor, mulk egasi va ham menejer vazifalarini birga bajaradi.

**Boshqaruv vazifalari** bu biror obyektga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat turi deb tushuniladi.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Biznes va tadbirkorlikning farqi nimada?
2. Tadbirkorlikning qanday turlari bor?
3. Tadbirkorlikning qanday shakllarini bilasiz? .
4. Firma nima?
5. Firmalarning ixtisoslashuviga qarab uning qanday turlarini bilasiz?
6. O'zbekistonda tadbirkorlik va uni qo'llab – quvvatlash to'g'risida qanday qonunlar va qarorlar qabul qilingan?
7. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati qanday rivojlanmoqda?
8. Marketing nima?
9. Menejment nima?
10. Menejer kim?

## XI Bob. BOZOR SHAROITIDA ISH HAQI VA BANDLIK MUAMMOLARI

1. Ish haqi taqsimot munosabatlarining shakii sifatida. Ish haqi turlari.
2. Mehnat bozorida raqobat va ish haqi to'lash. O'zbekistonda bandlik muammosi, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.
3. Hozirgi davrda mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli.

### **1. Ish haqi taqsimot munosabatlarining shakli sifatida. Ish haqi turlari**

Ish haqining mazmunini to'g'ri tushunib olish uchun, eng avvalo, yaratilgan milliy mahsulotning taqsimlanish tamoyillari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish kerak. Hozirgacha ishlab chiqarilgan mahsulotni (tovar va xizmatlarni) taqsimlash tamoyillari bo'yicha turli nazariyalar mavjud.

Jumladan, A.Smit taqsimotni ayirboshlash munosabatlari orqali ko'rib chiqdi. U mehnat taqsimoti va insonlarning mehnat natijalarini ayirboshlashga moyillik, umuman olganda, yaratilgan mahsulotni piir o'vardida o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

D.Rikardo ishlab chiqarishning ijtimoiy shaklini taqsimot qonunlari orqali aniqlashga harakat qilgan. Demak, bularning qarashlarida daromad turlarining u yoki bu shaklini aniqlab berish bilan bir qatorda manfaatlarning ikkita asosiy tomoni ham ko'rsatiladi. Taqsimot, birmichidan, manfaatlarning qarama-qarshiligi, ikkinchidan esa, manfaatlarning hamjihatligi asosida bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy nazariyaning hozirgi zamon namoyondalari qarashlarida ham taqsimotning umumiqtisodiy tamoyili (qonuni) borligi qayd etiladi. Ammo bunda daromadlarning tengsizligi mavjudligi inkor etilmaydi va unga sabab qilib resurslarning cheklanganligi va ularning notejis taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Barcha nazariy qarashlarni umumlashtirsak, taqsimot munosabatlarida ishlab chiqarish ishtiroychilarining manfaatlari ifodalananadi.

Ishchi daromadinining mohiyati ish haqi to'lash qonuni, ya'ni obyektiv iqlisodiy bog'liqlik aks etgan ish haqi ish kuchining qiymatiga yoki bahosiga ko'ra aniqlanishi bilan ifodalananadi. Bu ish haqining miqdori, ishchi tomonidan zaruriy ish vaqtida yaratilgan qiymat o'lchamiga bog'liqligini bildiradi. Agarda ishchining qiymati ko'tarilsa, ish haqi ham ortishi kerak va aksincha.

Mehnatkashlarning, har qaysi ishchining ish haqi miqdori ishlab chiqarishda, bozorda, ijtimoiy munosabatlar sohasida vujudga kelgan turli xil omillarga bog'liq.

Ularning ichida eng asosiysi ishchi kuchi qiymatining yuqori va past darajasi bor. Ishchining sarf etilgan mehnat layogatini tiklashga uning malakasini oshirishga, oilasini boqishga ketadigan qiymat yig'indisining quyi chegarasi bo'ladi. Ko'p davlatlarda hozirgi davrda past malakali ishchi va xizmatchilar hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag' miqdori kambag'allik darajasini aniqlash uchun, rasmiy ravishda, turmush kechirish minimumi hisoblab chiqilmoqda va shunga ko'ra, ish haqining eng kam (minimal) miqdori belgilab qo'yilmoqda.

Belgilangan eng kam ish haqi miqdori darajasi pulning qadrsizlanishi, ishlab chiqarish sanaradorligining o'sishi, yetarli moliyaviy mablag'lar jamg'arilishi kabi iqtisodiy sharoitlarda ko'rishi mumkin.

Ishchi kuchi qiymatining chegarasi, yana o'sha mamlakatda shakllangan an'anaviy udumlar, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun kerakli mablag'ni ham o'z ichiga oladi.

Yuqorida aytilgan nazariy fikrlar va amaliy tajribalar hamda hozirgi davr bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talabasi ni hisobga olib, yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha asoslash mumkin.

Umuman olganda, mahsulotni, binobarin, daromadlarni taqsimlash ham doim bir xil bo'lmay, balki shu davrda amal qilib turgan iqtisodiy munosabatlar tizimiqa, jumladan, mulkchilik munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Yaratilgan ichki milliy mahsulotning uning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida mehnatning miqdori, sifati va unumdotligiga qarab taqsimlanadigan qismi ish haqi deb yuritiladi

Ish haqi hozirgi davrda hamma mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rinn tutadi.

Ish haqi ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdotligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldag'i ifodasıdir.

**Ish haqining shakllari va turlari.** Ishlab chiqarishning texnik asoslari, ishchilar mehnatining mazmuni, ularga bilim berish va kasb - korlikka o'rnatish borasidagi o'zgarishlar munosabati bilan ish haqi shakli va tizimlari ham vaqt o'tishi bilan o'zqarib boradi. Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy shakli: vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi.

Vaqtbay ish haqi xodimning malakasi, mehnatning sifati va ishlagan vaqtiga qarab to'lanadigan ish haqidir. Vaqtbay ish haqi miqdori bajarijgan ish vaqt miqdoriga ko'ra belgilanadi. Bunda ish haqi o'lchami bir soat, kun, hafta yoki oyga hisoblanadi va ishlangan vaqtga ko'paytiriladi.

Ishbay ish haqi ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori yoki bajargan ishining miqdoriga qarab beriladigan ish haqidir. Mahsulot birligi uchun ratsenka (to'lov), tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish me'yoriga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi. Ishchilarining bir qismiga to'g'ri ishbay tizimi bo'yicha haq to'lanadi. Bunda ishlab chiqarish me'yori qanday darajada bo'lishidan qat'iy nazar, ish haqi mahsulot birligi uchun belgilangan ratsenka bo'yicha to'lanadi.

Ishbay – mukofot tizimi bir qancha ko'rsatkichlar uchun mukofot berishni nazarda tutadi. Ishbay progressiv haq to'lashda ishchining belgilab qo'yilgan me'yor doirasida, ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan ratsenka bo'yicha ish haqi beriladi, me'yordan yuqorisiga esa oshirilgan haq ratsenka bo'yicha to'lanadi. Ishbay ish haqi tizimida yakka tarlibdag'i jumoa va ijara pudratida qo'llaniladigan mehnatga haq to'lash farqlanadi. Hozirgi davrda haq to'lashning jumoa shaklida ish haqi brigada, sex va boshqa bo'linmaning pirovard mehnat natijaleriga bog'liq qilib qo'yiladi.

Ishchilarining ish haqini tabaqlashtirish, eng avvalo, davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. Tarif tizimi majmui yordamida tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo'yicha, ular ichida ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmatchilarining ish haqi darajasi taribga solib turiladi.

Tarif tizimi, tarif malakasi spravochniklarini ish haqiga qo'shimcha har xil koeffitsientlarini o'z ichiga oladi. Tarif – malaka spravochniklari ayrim kasblar va mehnat turlarining bat afsil tarifi, u yoki bu aniq ishni bajaruvchining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablardan iborat bo'ladi, shuningdek, unda bu ishni tariflash uchun qo'yiladigan razryadlar ham ko'rsatiladi. Tarif setkasida ular birinchi razryadli ishchiga haq to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi (birinchi razryadning tarif koeffitsienti hamma vaqt birga teng).

Tarif stavkalarini tegishli razryadga ega bo'lgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.

Mehnat qilish sharoiti og'it va zararli bo'lgan ishchilarga tarif stavkasiga qo'shimcha haqlar belgilanadi. Tarif stavkalariga ustamalar

shaklidagi haq (razryadlar bo'yicha farqlantirilgan) professional mahorat bilan belgilanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ish haqi to'lash munosabatlari rivojlantirish va takomillashtirish eng muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi davrda O'zbekiston iqtisodiyotida agrar sohaning ahamiyati ustuvor yo'nalish bo'lib hamma sohalarni rivojlantirish, ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish zarur, shu bilan birga, jahon bozorida xaridorgir navlarni, tolalarni yetkazib berishni taqozo etmoqda.

Ish haqi va taqsimot munosabatlari oqilona hal etish borgan sari jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish omili bo'lib xizmat qiladi. Bu holat ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, aholi turmush darajasining o'sishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

## **2. Mehnat bozorida raqobat va ish haqi to'lash. O'zbekistonda bandlik muammosi, ishsizlarni iqtisodiy himoyalash**

Hozirgi davrda barcha bozor turlari kabi ish haqi munosabatlari (mehnat bozori) ish kuchiga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi. Mehnat ish kuchining funksiyasi ish kuchi esa insонning qobiliyati bo'lib, uning jismidan ajratilmaydi. Ish kuchini oldi—sotdi qilish mehnat bozorida yuz beradi, bu yerda ishga yollanuvchilar o'z mulkini tahlil etadilar, ishga oluvchilar esa mehnatga o'z talabini bildiradilar. Ular o'rtasida bitim asosida kishilar ishga taklif etiladi, ya'ni ish kuchining oldi—sotdisi yuz beradi.

Mehnat bozorining mehnat subyektlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan mulkdorlar va tashkilotlar, ularning manfaatlarini himoya qiluvchilar (tadbirkorlar uyushmalari);
- yollanib ishlovchilar va tashkilotlar, ularning manfaatlarini himoya qiluvchilar (kasaba uyushmalari, ishchilar tashkilotlari);
- davlat (ularning turlicha ko'rinishlari va tuzilishi bo'yicha) ishga yollanuvchilar va jalb qiluvchilar o'rtasidagi vositachilaridir;
- mehnat bozori bozor iqtisodiyoti sharoitida bir qator eng muhim ijobiy xususiyatlarga ega;
- hozirgi zamon talablariga javob beradigan ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi;
- ishchi kuchining tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishi va qayta taqsiunlanishini ta'minlaydi;
- ishchi kuchining harakatchanligini tezlashtiradi;
- mehnat unumdonligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat jarayonini bevosita harakatga keltirish uning ichki mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Mehnat bozori segmentatsiyasi – bu obyektiv jarayon bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi jamiyat siyosiy – iqtisodiy, ijtimoiy omillarining rivojlanish darajasiga, vujudga kelayotgan tabiiy mehnat tarmoq'iga alohida shakllanayotgan bozor subyektlari, segmentlari turlicha xususiyatlarga ega bo'lgan ishchilarning toifalariga ham bog'liq bo'ladi. Mehnat bozori segmentatsiyasini odatda uch belgi asosida: professional tarmoq, malakaviy ish haqi va ijtimoiy – demografik o'r ganiladi. Bu belgilarning uyg'unlashuvni natijasida turli ishchi guruhlari, o'zining mavqeい, moddiy ta'minlanishi jihatidan farqlanuvchi tarmoqlar vujudga keladi.

**«Mustahkam hududiy negiz bo'lgandagina o'zini oqlamagan eski tizimni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin. Shu sababli birinchi bosqichda biz islohotlarning o'z hududiy negizini yaratishga assosi e'tiborni qaratib keldik»<sup>1</sup>**

Ishchining daromadi ish haqi to'lash qonuni, ya'ni obyektiv iqtisodiy bog'liqlik aks etgan ish haqi kuchining qiymatiga yoki bahosiga ko'ra aniqlanish bilan ifodalanadi. Bu ish haqining miqdori, ishchi tomonidan zaruriy ish vaqtida yaratilgan qiymat o'lchamiga bog'liqligini bildira<sup>2</sup>. Agar ishchining qiymati ko'tarilsa, ish haqi ham ortishi kerak va aksincha. Mehnatkashlarning, har qaysi ishchining ish haqi miqdori ishlab chiqarishda, bozorda, ijtimoiy munosabatlар sohasida vujudga kelgan turli omillarga bog'liq. Bularning eng asosiysi ish kuchi qiymatining o'lchamidir. Har qaysi ishchi guruhida bunday qiymatning yuqori va past darajasi bor. Ishchi kuchi qiymatining chegarasi, ya'ni o'sha mamlakatda shakllangan an'anaviy udumlar, ijtimoiy – madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun kerakli mablag'ni ham o'z ichiga oladi. Belgilangan eng kam ish haqi miqdori darajasi inflyatsiya darajasining o'sishiga, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi, yetarli moliyaviy mablag'lar jamg'arilishi kabi iqtisodiy sharoitlarda ko'riliishi mumkin. Amaliyotda nominal va real ish haqi darajalari farqlanadi. Nominal ish haqi, ishchining satfi etgan mehnati, vaqt uchun olinadigan pul qiymatidir. Real ish haqi esa, nominal ish haqiga sotib olish inumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdoridir, ya'ni nominal ish haqining xarid quvvatidir. Mehnatkashlarning ish haqi darajasiga, mehnat sifatiga ish sharoiti (bajarilayotgan ishning kishi sog'lig'i uchun zatarligiga, zaharli ximikatlar bilan ishslash) ishchining bilimi va

<sup>1</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chugurlashtirish yo'lida» – T.: «O'zbekiston», 1995 – y.

malakasi darajasi, noyob qobiliyatga ega ekanligi (ayrim sportchilar, musiqachilar, artistlar, davlat arboblari) ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamon fan - texnika taraqqiyoti davrida yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bir vaqtning o'zida nisbatan murakkab bo'lgan mehnat kattaroq qiymat yaratadi, shu bilan birga, yuqori malakali ishchi sarf etgan quvvatini takror hosil qilish uchun turmush sharoitini yaxshilashni talab qiladi. Mehnat bozorida ham malakali mehnatga bo'lgan talab raqobat kurashini vujudga keltiradi. Raqobat jarayoni ishchilarning o'z ustida muttasil ishlashni, malakasini oshirishni shart qilib qo'yadi. Ishchilar daromadining miqdori, shuningdek, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy turg'unlik va tushkunlik davrida mehnatga talab kamayadi, bu esa, ishlab chiqarishning o'zidagi qisqarish bilan izohlanadi.

Mehnatga talabning mavsumiy o'zgarishi ish bilan band bo'lganlarning ishsiz qolishini bildiradi. Normal darajadagi ishsizlik iqtisodiyot uchun tabiiy hol, chunki iqtisodiyot uchun mehnat zahirasi kerak.

**Friksion ishsizlik** vaqtincha ishsizlik bo'lib, ish joyini almashtirish paytida yu' beradi, eski ishdan ketib, yangi ishga o'tganda ishsizlik yuz beradi.

**Tarkibiy ishsizlik** ishlab chiqarish tarkibi o'zgargan chog'da vujudga keladi. Bunda yangi sohalar rivojlanib, eski sohalar qisqaradi, eski sohalarda ishlab kelganlar yangi sohalarga kerak kasbni darhol o'zlashtira olmaydilar, kash o'zgarishi mobaynida ishsiz qoladilar.

**Mavsumiy ishsizlik** - mavsumiy ishda band bo'lganlarning mavsum tugagach ishsiz qolishi. Bu ishsizlik qishloq xo'jaligi, qurilish va oromgohlar sohalariga xos.

**Yashirin ishsizlik** - rasman ish bilan band bo'lganlarning faqat qisman ishlashi, ya'ni to'liq ishlamay turishi. Unga qisqartirilgan ish kuni yoki qisqa ish haftasiga o'lganlar, ish yo'qligidan haq berilmaydigan ta'tilga chiqqanlar kiradi.

**Umumiy ishsizlik** - tovarlar va xizmatlarning bozori kasod bo'lishi natijasida ularni ishlab chiqarganlar mehnatiga talabning qisqarib ketishi bilan paydo bo'ladi. Bu ishsizlik odatda iqtisodiy tanglik sharoitida yuz beradi.

**Ixtiyoriy ishsizlik** tabiiy ishsizlik turi bo'lib, bunda mehnatga layoqatli kishilarning mehnat faoliyatidan o'z xohishi bo'yicha chetlashgan, ya'ni ishlashu xohlamanaydigan qismi tushuniladi.

Mehnat bozori, ishlab chiqarish vositalarining egasi ishchi kuchini istagan joydan topishi va sotib olishi mumkin bo'lgandagina vujudga keladi.

Hozir mehnat bozorida kasbiy stratifikatsiya vujudga keldi: oldindan mavjud bo'lgan an'anaviy mutaxassislik ishchilari so'nggi paytlarda paydo bo'lgan maxsus bozor kasblari ishchilari (brokerlar, maklerlar, auditorlar, menejerlar, ko'chmas mulk operatsiyalari bo'yicha mutaxassislar va boshqalar) bilan almashtiriladi. Mehnatkashlarning o'ziga xos «an'anaviy» va «bozor kadrlariga» ajralishi yuz berdi. Ish vaqtining qisqarishiga olib keladigan iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari mehnat bozorida amal qilishning yangi shakllarini, egiluvchan mehnat bozorini (EMB) yuzaga keltirdi. Iqtisodiy EMB qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish xarajatlari, ishsizlik, ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar shunchalik past bo'ladi.

Aholining ish bilan bandligi orta borayotgan hozirgi sharoitda mulkchilikning turli shakllaridagi tarmoq va korxonalar bo'yicha ishchi kuchining o'tish oqimi faollashdi. Bu jarayon O'zbekistonda bandlik muammolarining ijobiy yechimini topayotganligi va uni to'g'ri hal etilayotganligidan dalolat beradi.

### **3. Hozirgi davrda mehnat munosabatlариниң iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli**

Hozirgi davrda mehnatga haq to'lashni shakllantirish va rivojlantirishni kasaba uyushmalari, davlat va tadbirkorlar hamkorlikda olib borishlari kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishga yollash bo'yicha korxona ma'muriyati va ishchilar o'rtaida mehnat shartnomalari asosida shakllanadi. Mehnat shartnomalari, avvalo, ish haqi stavkasi, me'yordan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun qo'shimcha dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog'liqni saqlashdan ajratmalar hamda baholarning o'zgarishini hisobga olib **iste'molchilik savati** qiymatini tartibga solish kabilarni o'z ichiga oladi. Odadta, shartnoma bir yilga va bir necha yilga tuziladi.

Ko'pchilik mainlakatlarda mehnat munosabatlариниң rivojlanishida asosiy masala ishsizlikni ijtimoiy kafolatlashga, ishlovchilarining mehnat idorasini yaxshilash va ish haqini oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar hisoblanadi. Bu muammlarni hal qilishda asosiy rolni **kasaba uyushmalari** hal etadi. Kasaba uyushmalari nisbatan ko'p sonli ishga yollovchilar bilan muzokaralar olib boradi va ularning asosiy iqtisodiy vazifasi ish haqini oshirishdan iborat bo'ladi. Kasaba uyushmalari bu maqsadga quyidagi yo'llar bilan erishadi.

1. Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish. Kasaba uyushmalar nuqtai nazaridan ish haqini oshirishning eng qulay usuli mehnatga bo'lgan talabni kengaytirish hisoblanadi.

2. Ishchi kuchi taklifini qisqartirish. Kasaba uyushmalari ishchi kuchi taklifini qisqartirish yo'li bilan ish haqi stavkasini oshirishi mumkin. Bunda quyidagi yo'llar bilan erishiladi: a) immigratsiyani cheklash; b) bolalar mehnatini qisqartirish; d) pensiyaga muddatida chiqishni qo'llab – quvvatlash; e) ish haftasini qisqartirishga yordam berish.

3. Kasbni malakali litsenziyalash. Bu ma'lum mehnat turi taklifini cheklash vositasi hisoblanadi. Bunda kasaba uyushmalari korxona ma'muriyatiga kasbdagi ishchilar aniq ko'rsatilgan talablarga javob bergen taqdirda ishchi qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi. Bu talablar o'z ichiga ishchining ta'lim darajasi, mutaxassislik bo'yicha ish staji, test – sinov natijasi va shaxsiy tavsiflarini oladi.

Hozirgi zamон mehnat munosabatlari o'zida davlatning ta'sirini ham aks ettiradi. Davlatning qonunchilik faoliyati mehnat munosabatlarining barcha tomonlarini qamrab oladi. U nafaqat iqtisodiyot davlat sektorining ishchi kuchiga bo'lgan talabini bildiradi, balki uni xususiy sektorda ham tartibga soladi, milliy iqtisodiyot miqyosida ishga yollashning asosiy o'lchamlarini aniqlaydi.

Mehnat munosabatlariga davlatning ijtimoiy dasturlari (kam ta'minlangan oilalarga yordam, ishsizlik bo'yicha nafaqa, har xil ijtimoiy to'lovlar, pensiya ta'minoti va boshqalar) katta ta'sir ko'rsatadi. Bu dasturlar bozor tahlikasi yuqori bo'lgan davlatlarda aholining ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini barqarorlashtirishga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy islohotlarning samara berishi va barqaror rivojlanishi uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan yangicha tashkil qilish, mehnat unumdoorigini oshirish ish haqi va mehnat munosabatlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Ish haqi** – ishchi va xizmatchilarning mehnati miqdori, sifati va unumdoorigiga qarab milliy mahsulotdan olinadigan ulushining puldag'i ifodasi.

**Nominal ish haqi** – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

**Real ish haqi** – sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori.

**Vaqtbay ish haqi** – ishchining ishlagan vaqtı (kun, hafta, oy) hisobga olinib to'lanadigan ish haqidir.

**Ishbay ish haqi** – ishlab chiqargan mahsulot miqdoriga va bajargan ishi miqdoriga qarab to'lanadigan ish haqidir.

**Ihsizlik** – mehnatga layoqatlı bo lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi.

**Mehnatga bo'lgan talab** – jamiyatning ish kuchiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib uning bozordagi ko'inishidir.

**Tarif setkasi** – ish toifalari nisbatiga qarab ish haqi to'lash.

**Tarif stavkasi** – tegishli ish toifasiga ega bo'lgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.

### **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Ish haqiga ta'rif bering.
2. Real ish haqi darajasiga qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?
3. Ishchi kuchini takror hosil qilish deganda nimani tushunasiz va uning xususiyatlari qanday?
4. Ishchi kuchining sifati qanday aniqlanadi. Fan – texnika taraqqiyotida ishchi kuchining sifatiga qanday talablar qo'yiladi?
5. Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?
6. Kasaba uyushmala i ish haqini oshirishning qanday usullaridan foydalanadilar?
7. Ihsizlikning asosiy turlariga tavsif bering.

## **XII Bob. DAROMADLARNI AHOLO GURUHLARI ORASIDA TAQSIMLASH. SHAXSIY VA OILAVIY DAROMAD**

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida taqsimot qonunining amal qilish xususiyati va aholi daromadining shaklanishi.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aboli daromadlarining tabaqalanishi sabablari.
3. Aholi turinush darajasi, oilaviy daromadlar tarkibi va undan foydalanish.
4. O'zbekistonda ijtimoiy siyosat va uning asosiy yo'nalishlari.

### **1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida taqsimot qonunining amal qilish xususiyatlari**

Jamiyatda mavjud bo'lgan resurslar va daromadlar aholi o'tasida taqsimlash tamoyillari, shakllari va bu jarayonda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ko'rib chiqamiz.

Taqsimotning sotsial-iqtisodiy mohiyati bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'p mulkchilik munosabatlarining mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Taqsimot jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiqa va bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuniyatlariga bog'liqdir. Ko'p mulkchilik sharoitida daromadlar qonuniy bo'lishi, kim nimaga va qanchalik ega bo'lishi hamda ularni ishlatish samarasini darajasiga bog'liqdir.

Taqsimot bir tomonidan ishlab chiqarish bilan, ikkinchi tomonidan ayirboshlash va iste'mol o'tasidagi aloqani ifodalab, quyidagi vazifalarni bajaradi:

**birinchidan**, jami ichki mahsulotda va milliy daromadda turli mulk shakllarining, tadbirdorlar va ayrim xodimlarning iqtisodiy mehnat faoliyatiga qarab ulushini belgilaydi;

**ikkinchidan**, aholi guruhlari orasida daromadlarni va ehtiyojlarning tarkibini shakllantirish;

**uchinchidan**, aholi guruhlarining daromadlar miqdori bilan mehnat faoliyatining pirovard natijalari o'tasida bevosita bog'liqlik o'rnatadi, bu tadbirdorlarning ishlab chiqarishni o'stirishini rag'batlantiradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib va mustahkamlanib borgan sayin unga xos bo'lgan taqsimot tamoyillari va vazifalari tobora to'laroq kengayib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida butun taqsimot mexanizmi takomillashtirilib, uning talabiga moslashtirilib, daromadlarning shakllari xilma-xil bo'lib bormoqda. Shunga binoan, kapital egasi — foyda, ish kuchi egasi — ish haqi, pul egasi — foiz va dividend, yer egasi — renta oladi.

Muayyan mulk bo'lgan narsalar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish omili bo'lib xizmat qiladi va uning samarasi qanchalik yuqori bo'lsa, daromadlar ham o'shanchalik yuqori va cheksiz bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitiga daromadlarning cheklamasligi xosdir. Mavjud muayyan sharoitda daromadlarni belgilovchi samaradorlik mezoni bozorda aniqlanadi. Ya'ni resurslardan foydalaniib yaratilgan tovarlar bozor talabiga qanchalik javob beradi, qanchalik tan olinishiga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar asosan pul shaklida, qisman natura shaklida, bepul yoki imtiyozli xizmat shakllarida ham bo'lishi mumkin. Sabab, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholi tomorqalarining ko'paytirilishi va davlat tomonidan ijtimoiy himoya shakllarining ahamiyati oshib bordi.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, pensiya, nafaqa, stipendiya tariqasida tushadigan pul tushumlari, kapitaldan oladigan foyda, puldan olingen foiz, aksiyadan oladigan dividend, renta shaklida oladigan daromadlarni, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar majmuidan tashkil topadi.

Natural daromad tomorqa xo'jaligidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar, qishloq xo'jaligi jamoa xo'jaliklarida mehnat hisobiga beradigan natural mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Aholi daromadlarining tarkib topishi tuzilishida ish haqi asosiydir, uning salmog'i asosiy qismni tashkil etadi. Shuningdek, daromad miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida ish haqidan tashqari tovarlarning chakana narxi, bozordagi iste'mol tovarlari chakana narxi, bozorning iste'mol tovarlari bilan to'yinish darajasi (talab, taklif, narx)ning barqaror va begaror bo'lishining ta'siri kuchli bo'ladi.

Real daromad — unga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori ko'rinishidagi daromad. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda jamiyat a'zolarining daromadlari tuzilishida ularning turli qisirlari va manbalari nisbati turli shakllarda rivojlanib borishini ifodalaydi.

## **2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining tabaqalanishi sababları**

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati taqsimot munosabatida tenglikni emas, tengsizlikni keltirib chiqarishi tabiiy

holdir. Chunki, bozor iqtisodiyotining muhim belgisi iqtisodiy erkinlik va erkin raqobat kurash jarayonidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tengsizligining asosiy sabablarini quyidagi omillarga bog'liq:

- kishilar intellektual, jismoniy, estetik qobiliyatlarining turliligi;
- bilim va kasb tayyorgarligidagi farqlanishi;
- kishilarning ko'proq daromad olish maqsadida bir necha joylarda, o'rindoshlik asosida ishlashi. Intensiv va qiyin sharoitlarda og'ir mehnat qilish xohishi va tavakkalchilik qilishga tayyorligi;
- mulkka egalik qilishdagi farqi;
- kishilarning bozordagi mavqelariga ko'ra farqlar, ularning bahoni oshirib borishga moyilliklari;
- omad, aloqalar, baxsizlik va kamshitilish.

Bozor iqtisodiyoti munosabati shunday qiziqtirish (stimul)ni vujudga keltiradiki, daromadni ko'paytirish uchun yuqori foyda olishga zo'r berib urinish va raqobatlashish yuzaga keladi, bu bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatidir.

Sun'iy ravishda daromadlarni tenglashtirishga urinish, taqsimot tajribasida adolat tamoyillarini eng tipik suratda va g'oyat halokatli tarzda buzishdir. Bir tekis taqsimlashning eng oddiy va ochiq ko'rini turgan namuasi bir-biridan ancha farq qiladigan mehnat cunumlari uchun bir xil haq to'lashdan iboratdir. Bir tekisda taqsimlash sotsial adolat va moddiy manfaatdorlikka putur etkazib, sotsial-iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi.

Daromadlarning tengsiz bo'lismiga sabab nima? Uning ikki sababi bor: tabiiy va ijtimoiy sabablar. Kishilar tabiatan jismoniy va aqliy jihatdan farqli bo'lib, bu ularning qobiliyati va ishbilarmonligiga birinchi asos bo'ladi. Lekin, qobiliyatning rivoj topishi va ro'yobga chiqishi ijtimoiy sabablarga bog'liq. Inson yaxshi bilim olishi, qobiliyatiga yarasha ish bilan ta'minlanishi, biror foydali faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Aks holda, har qanday aqliy va qobiliyatlari kishi ham faoliyasiz bo'lib qoladi. Bu jamiyatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti darajasi, ijtimoiy-siyosiy tuzumi va boshqa xususiyatlarga bog'liqdir.<sup>1</sup>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir kishi imkoniyati boricha ko'proq natijaga erishib, ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Tadbirkor, o'z tasarrufida bo'lgan mulkni samarasini yuqori bo'lgan sohaga joylashtirib, ko'proq foyda olishga intiladi. Ish kuchi sohibi bo'lgan ishchi o'z malakasini oshirish va ko'proq, yaxshiroq mehnat

<sup>1</sup> Matov A.A. va boshqalar. "Bozor iqtisodiyotining shakllanish asosları" – Andijon, 1998, 335–336 – hetlar.

qilish va ko'p ish haqi olishga harakat qiladi. Demak, har ikkala subyekt qonuniy holda o'z mehnati natijasiga muvofiq ko'proq daromad olishi ularning qobiliyatiga bog'liqdir. "... mustaqillik yillarda odamlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi, hayotga bo'lgan munosabati ham tubdan o'zgardi. Turmush darajasi, oilasining farovonligi, eng avvalo, o'ziga bog'liq ekanligini tushunib yetayotgan odamlar tobora ko'payib bormoqda"<sup>1</sup>.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning tengsizligi mavjud bo'lar ekan, albatta, bu ma'lum datajada mulkiy tengsizlikka sahab bo'ladi. Demak, boy – kambag'allik muammosi yuzaga keladi.

Xo'sh, kambag'allik nima? Kambag'allik – bu inson o'zining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun pul mablag'lari yetarli bo'imagen, mulk va boshqa resurslar bilan nisbatan kam ta'minlanganligi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari past darajada qondirilishidir. Iqtisodiyot nazariyasi fani har doim kambag'allikda nisbiy va mutlaq kamabag'allikni farqlaydi.

Iqtisodiyotda boy va kambag'al aholi o'rtasida notenglikni Djinni indeksi orgali ko'rsatilmoqda. Agar bu indeks 0 ga qanchalik yaqin bo'lsa, jamiyatda shunchalik mutloq tenglik holati bo'ladi. Agar bu koefitsient birga teng bo'lsa, u holda qashshoqlar ko'pchilikni, o'ta boylar ozchilikni tashkil etadi. Yirik rivojlangan davlatlarda bunday keskin tabaqlanish holatlari yo'q. Iqtisodiyotning rivojlanishi yuqori darajada bo'lganligi sababli kam daromadli oilalar kam bo'lib, o'rtacha va yuqori daromadli oilalar qatori daromad olish imkoniyatiga egadir.

Aholi daromadlari tengsizligi katta bo'lishining asosiy sababi bozor tizimiga asoslangan taqsimot qonuning amal qilishidir. Ayniqsa, keyingi yillarda Respublika aholisi daromadining tabaqlanishidagi tafovuti tez o'sib bormoqda. Daromadning minimal darajadan bir necha barobar yuqori daromadga ega bo'lgan ijtimoiy qatlama yuzaga keldi.

### **3. Aholi turmush darajasi, oilaviy daromadlar tarkibi va undan foydalanish**

Aholi turmush darajasi, tushunchasi murakkab sotsial – iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kisbilarning yashashi uchun mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishidir. Bu tushuncha bir – biriga bog'liq bo'lgan sotsial – iqtisodiy ko'rsatkichlardir. Bu quyidagicha ifodalananadi: mehnat sharoiti, aholi bandligi va daromadi, iste'mol darajasi va uning tarkibi ya'ni uning to'yinli oziq – ovqat,

1. L.A.Kachirov. Istohlottar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiluvchi kengeshi yig'ilishidagi ma'rezasi. "Xalq so'zi", 2000 – yil, 2 – foydali.

sifatli kiyim – kechak, poyabzal, madaniy – maishiy mollarga bo'lgan talablarining qondirilishi darajasidir.

Aholi turmush darajasi jamiyatda hukmron bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darjasasi, shu bilan birga, har bir iqtisodiy rejaning geografik muhitga, madaniy taraqqiyotga, uning boshqa xalqlar bilan iqtisodiy – madaniy aloqadorlik ko'lamiga bog'liqdır.

Aholi turmush darajasi mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mos keluvchi hayot sharoitlarining yig'indisi, jamidir. Turmush darajasi, ishlab chiqarish taraqqiyot darajasiga, tovar va xizmatlar mo'l – ko'lligi, kishilarning iste'mol miqdori va sifatiga bog'liqdir.

Aholi iste'moli mamlakatda ishlab chiqilgan milliy daromadning mutlaq hajmiga, uning iste'mol va jamg'arish fondlariga bo'linish nisbatiga bog'liq bo'ladi. Agar jamg'arish fondiga nisbatan iste'mol fondiga ko'proq ajratilsa, ishlab chiqarishning o'sishi yuqori bo'lsa – da, iste'molning o'sish darajasi past bo'ladi va aksincha. Milliy daromadning jamg'arish va iste'mol fondiga bo'linish nisbati mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot holati va talabiga bog'liq holda bo'ladi.

Jamg'arish va iste'mol fondini optimallashtirish iqtisodiyot fanning muhim vazifasidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy daromadning taqsimotida iste'mol fondiga ajratishning o'sib borishi xarakterlidir. Buning sababi inson omiliiga, yuqori malakali ish kuchiga bo'lgan talabning ortib borishidir. Busiz yuqori iqtisodiy o'sishga erishib bo'lmaydi. Mamlakatda aholi soni o'sadi, bu esa ma'lum darajada iste'mollning kamayishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi asosida aralash iqtisodiyot o'sib borgan sari iqtisodiyoti yuqori darajada taraqqiy elgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, insonparvarlik tamoyillari o'sib borishi sababli, milliy datomadni jamg'arishga ajratmalar nishbatan qisqarib, iste'molga ajratish ortib bormoqda.

Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri aholing pul tariqasida oladigan turli daromadlari yig'indisi bo'lib, turli manbalar hisobiga shakllanadi, ulardan asosiylar:

- yollarib ishlovchi xodimlar oladigan pul daromadlarining asosiy qismi ish haqi bo'lib, pul daromadi umumiylaj hajmining shakllanishida salmoqli o'rinn tutadi;
- aholi pul daromadi shakllanishining yana bir ko'rsatkichi davlat budjeti va boshqa manbalardan beriladigan to'lovlardir. Bu manbalar hisobidan pensiya va turli xil nafaqalar beriladi;

- aholining moliya – kredit tizimi orqali oladigan har xil pul daromadlari va hokazolar.

Aholi daromadlilik darajasi yalpi ichki milliy mahsulotning mamlakat aholisi jon boshiga nisbati bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra, daromadlilik miqdoriga ko'ra, mamlakatlar uch guruhga, toifaga bo'linadi.

I	O'rta chadan past daromadli mamlakatlar	695 \$ va undan past
II	O'rtacha daromadli mamlakatlar	695 \$ dan 8625 \$ gacha
III	Yuqori daromadli mamlakat	8626 \$ va undan yuqori

Aholi daromadi asosiy ko'tsatkich bo'lib, u iste'molning hamma jihatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi umumlashgan ko'rsatkichdir. Iste'molning miqdoriga ko'rsatkichi o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, u ish haqi miqdoriga to'g'ri proporsional va iste'mol tovarlari bahosiga (iste'mol buyumlari miqdorining pasayishi bundan istisno) teskari proporsiyada o'zgarib boradi. Agar iste'mol buyumlarining bahosi o'zgarmagan holda ish haqi darajasi ko'tarilsa, sotib olish mumkin bo'lган tovarlari miqdori kamayadi. Kishilarning ehtiyojlari doimiy emas. Ularning ehtiyojlari jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtaida o'zaro bog'liq bo'lib ishlab chiqarishsiz iste'mol bo'lmaydi, lekin iste'molsiz ham ishlab chiqarish bo'lmaydi, bunday holda ishlab chiqarish maqsadsiz bo'lib qoladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadining tabaqalashuv darajasi keskin o'zgarib ketdi, ayni vaqtda aholi shaxsiy iste'moli darajasining o'zgarishi ham bir xil kechmaydi. Iste'molning elastikligi deganda, oila pul daromadi darajasiga, shuningdek, boshqa omillar ta'siriga ko'ra iste'molning o'zgarib borishini tushunmoq kerak. Daromadi yuqori bo'lган oilalarining iste'moli o'zgaruvchan bo'lib, ular ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq mablag' sarflaydi va aksincha. Binobarin, daromadlar kabi turmush darajasida ham tengsizlik, tabaqalashuv sodir bo'ladi.

Hozirgi bosqichda aholi shaxsiy iste'molini sotsial guruhlar bo'yicha tahlil qilish muhim ahamiyat kash etadi. Aholi shaxsiy iste'molini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: qisqa muddatga foydalanadigan kundalik buyumlar (oziq – ovqat mahsulotlari, ba'zi kiyim – kechak, uy – ro'zg'or buyumlari va h.k) o'rtacha, uncha uzoq bo'lмаган muddatga foydalanadigan buyumlar (kiyim – kechak, poyabzal); uzoq muddatga foydalaniladigan buyumlar (shaxsiy uylar, mebel, elektr asboblar, yengil avtomashinalar, velosipedlar, fotoapparatlar, ustki kiyim, qilamlar, mo'yna kiyimlar va h.k).

Birinchi guruhga kiruvchi iste'mol buyumlari qisqa vaqt ichida iste'mol qilinadi, jamg'atilmaydi. Ikkinchi guruh mahsulotlari, ya'ni

kiyim – kechaklar va poyabzaidan ma'lum davr ichida (o'rtacha bir – uch yil ichida) foydalilanadi. Bu guruhga kiruvchi buyumlarni jamg'arish hajmini aniqlash murakkabdir. Uchinchi guruhga kiruvchi iste'mol buyumlardan uzoq vaqt davomida foydalilanadi. Bu guruhga kiruvchi buyumlar uzoq yillar davomida jamg'arilib boriladi.

Oila daromadlarining o'sishi bilan oilaning iste'mol buyumlari uchun ajratiladigan mablag' ko'payadi. Daromadi past bo'lgan oilalar dastavval oziq – ovqatga mablag' sarflashni afzal ko'radi. Aholi iste'mol darajasining o'zgarishi oila daromadining miqdoriga bog'liq bo'ladi. Pul daromad o'sishi bilan iste'mol tizimi tez o'zgaradi. Oziq – ovqatga qiladigan xarajatning (absolyut hajmi o'sib) umumiy daromaddagi salmog'i kamayadi, shuningdek, iste'mol qiladigan tovarlar tarkibida o'zgarish yuz beradi.

Yuqori sifatli va to'yimli oziq – ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish hajmi oshib boradi. Oilalar o'z budgetidan oziq – ovqatga sarflanayotgan xarajatlarning salmog'ini kamaytirib, ayni vaqtda uzoq muddatga ishlatajidan sanoat tovarlari, madaniy buyumlarga hamda madaniy – maishiy maqsadlarga ko'proq mablag' ajratishga intiladi.

Aholi pul daromadlarining tabaqalashib borishi mulkiy tabaqalanishni, turmush darajasining tabaqalashishiga asoslanib, uning boy, o'rtacha va kambag'al qatlamlari aniqlanadi. Bunday sharoitda davlat daromadlarni qayla taqsimlash bilan daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish, boy va kambag'al qatlamlar o'rtasidagi farqning kamayishiga harakat qiladi.

#### 4. O'zbekistonda sotsial siyosatning o'ziga xosligi va asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos yo'li tanlandi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tizimi joriy etildi. O'tish davrining beshta asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy himoya sohasida ham uzoq muddatli davlat dasturi bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. Bu davrda ish haqi, pensiya, stipendiya va turli nafaqalar miqdori muntazam oshirilib borilayapti.

Tovon to'lovlar, shuningdek, imtiyozlar va turli dotatsiyalar shaklida bilvosita to'lovlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, bir vaqtda qo'shimcha sotsial imtiyozlar kompleksi amal qildi. Ular jumlasiga boshlang'ich sinflar va yolg'iz nafaqaxo'rilar uchun tekin nonushta, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun tekin ovqatlanish, maktab o'quvchilari va ta'labalar uchun imtiyozli ovqatlanish tashkil etildi.

Prezident I.A.Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi ma'rurasida: "To'rtinchı ustuvor yo'nalish xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilishni ifoda etadi"<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tgan. Ijtimoiy yordam aholining kam ta'minlangan qatlamiga pul yoki natura shaklida bo'lib, iqtisodiy faoliyatda ularning qatnashishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy yordamning maqsadi jamiyatda kam ta'minlangan oilalar, nafaqaxo'rlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, ishsizlar, o'qiyotgan yoshlar, shuningdek, sotsial soha xodimlarini sotsial himoyalash va qo'llab-quvvatlash, minimal darajada turmush kechirishini ta'minlashga qaratilgan.

Bu yordam oilaga yo'naltiriladi va milliy an'analarimizga xos o'zini – o'zi boshqarish organi bo'lgan mahalla orqali beriladi.

Aholi sotsial himoyasining iqtisodiy sohasi ijtimoiy ishlab chiqarishda takror ishlab chiqarilgan taqsimotchilik munosabatlariiga bevosita bog'liqdır va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'zining miqdoriy ifodasini topadi.

Mamlakat miqyosida yaratilgan milliy daromadning bir qismi obyektiv sabablarga ko'ra ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etolmaydiganlarning iste'moli uchun ajratiladi. Bu ajratma "Pensiya fondi", "Nafaqalar fondi", "Bandlik fondi" nomi bilan yuritiluvchi fondlar orqali taqsimlanadi. Turli mulk shakllarinig mavjudligi tufayli aholining sotsial himoyasi uchun ajratilgan mablag'lar ham turli shakldagi davlat, korxona, muassasalar daromadlarining bir qismidan, ya'ni belgilangan me'yorlarda shakllanadi.

Undan tashqari, sotsial himoya fondlariga mamlakatimizdagи korxona va tashkilotlar, xorijiy davlatlardan keladigan homiylik va insonparvarlik yordamlari ham qo'shiladi. Sotsial ta'minot fondining asosiy qismi davlat tomonidan belgilangan me'yorlarga muvofiq milliy daromadning bir qismi hisobidan shakllanadi.

Davlat moddiy jihatdan muhtoj oilalarga mustaqillikning birinchi yillardan boshlab faol yordam bera boshladi. Adresli ijtimoiy himoyaga o'tildi. Aholining iqtisodiy jihatdan nochor qatlamiga o'z – o'zini boshqarish fuqarolar yig'ini organlari orqali ijtimoiy – moddiy yordam berila boshlandi. O'tish davrida qiyinchiliklar imkon boricha yunshatilib, aholining nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularni minimal hayot kechirishlari ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 – yil 13 – yanvarda "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Farmonning bajarilishi maqsadida

<sup>1</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrja intilmoqda – Toshkent, "O'zbekiston", 1999.

1999 – yil 1 – martdan boshlab ishlamaydigan onalarga bolasi ikki yoshga yetgunga qadar nafaqalar belgilash va to'lash, muhtoj yolg'iz nafaqaxo'rлarni oziq – ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaning o'ziga xos xususiyatining tahili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston andozasining muhim tamoyili bosqichma – bosqich va makroiqtisodiyotning barqarorligi bilan bog'langan bo'lib, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy – sotsial xarakteriga bog'liq.

Ijtimoiy himoyaning sotsial – iqtisodiy munosabat sifatidagi mohiyati jamiyat va aholi o'rtaсидagi muhtojlik hollarida yordam, qariyalarga ko'maklashish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ahvol, hayotiy zaruriy vositalar bilan ta'minlash kabi munosabatlarning manzili va maqsadli bo'lishidan iborat.

Ijtimoiy himoya, pensiya, nafaqa, moddiy yordam, qariyalar, bemorlar, nogironlarga intiyorli xizmat ko'rsatish, bolalarga ko'rsatiladigan g'aинxo'rlik kabi jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatda namoyon bo'ladi.

### ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Aholi daromadlari** – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natura shaklida olgan daromadlari miqdori.

**Nominal daromad** – aholining pul shaklida olingan daromadlari summasining miqdori.

**Real daromad** – narx darajasining o'zgarishini hisobga olgan holda aholi tomonidan real iste'mol qilingan ne'matlar miqdori.

**Ijtimoiy to'lovlar** – moddiy jihatdan kam ta'minlangan fuqarolarga pul yoki natura shaklida yordam ko'rsatish tizimi.

**Ijtimoiy siyosat** – daromadlarni taqsimlashda iqtisodiyot qatnashchilari o'rtaсиda tengsizlik natijasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosati.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi pul daroamdlari turlarini aniqlab bering.
2. Natural daromadni tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining tabaqalanishi sabablarini ko'rsatib bering.
4. Aholi turmush darajasi deganda nimani tushunasiz?
5. Aholining turumush darajasi sifatini ifodalaydigan ko'rsatkichlarni ko'rsatib bering.
6. O'zbekistonda sotsial siyosatning o'ziga xosligi va asosiy yo'naliшlari nimalardan iboral?

### **XIII Bob. MILLIY IQTISODIYOT: ASOSIY NATIJALAR VA ULARNING O'ZGARIB TURISHI. IQTISODIY O'SISH. MILLIY BOYLIK**

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rsatkichlari.
2. Yalpi milliy mahsulot mazmuni va uni hisoblash usullari.
3. Milliy daromad, uning tarkibi va undan foydalanish.
4. Iqtisodiy o'sish tushunchasi, turlari va ko'rsatkichlari.
5. Milliy boylikning mohiyati, tarkibiy tuzilishi va O'zbekiston iqtisodiy potentsialidan samarali foydalanish.

#### **1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rsatkichlari**

O'zbekiston tanlab olgan yo'l ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'lib, bu yo'l Respublikaning o'ziga xos turmush sharoiti, xalq an'analari shart – sharoitlari va xususiyatlari hamda xalq urf – odatlarini har tomonlama hisobga olgan holda milliy iqtisodiyotni shakllantirishga keng yo'l ochib berdi. O'zbekiston Respublikasi xo'jalik tizimini qayta qurish, uni tarkibiy o'zgartirish yangilash lozim edi. Sababi, iqtisodiy ziddiyatlar q'oyat kuchli bo'lib, amaldagi xo'ja'k yuritish mexanizmi mazkur ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega emas edi. Iqtisodiy taraqqiyot sur'ati keskin pasayib ketgan, aholi turmush darajasi pasayib ketgan edi.

O'zbekiston iqtisodiyoti bir yoqlama rivojlangan bo'lib, paxta yakkahokimligiga, xomashyo va yarim fabrikat mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan, markazga qarashli bo'lган agrar o'lka edi.

Respublikadagi ko'plab korxonalar bevosita markaz bo'y sunuvida bo'lib, ularning mahsulotlari qayta ishslash, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol uchun mamlakat tashqarisiga olib ketildi.

**"O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga – ega bo'lган"**<sup>1</sup>. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston xo'jalik tizimini qayta qurish va o'zgartirish orqali, mamlakat hududidaqи barcha tabiiy mineral xomashyo boyliklarini, jainiki iqtisodiy resurslarni xalq manfaati uchun foydalanish imkoniyati vujudga keldi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarish yuzaga keldi. Bir butun yangi energetika resurslari, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlari, ko'plab yirik inshootlar, korxonalar, zavod va fabrikalar qurildi. Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga erishishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Sababi, har qanday jamiyatda aholining ehtiyoji doimo o'sib

<sup>1</sup> Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrqa inhilorda" – T.: "O'zbekiston", 1999. 6 – bej

boradi, binobarin, ishlab chiqarishning hajmi va tarkibiy tuzilishi ham doimo talabga mos ortib borishi, ya'ni mamlakat umumiy holda iqtisodiy o'sishga erishishi zarur. Bu holatda, birinchidan, iqtisodiy o'sish parametrlari milliy iqtisodiyotning qanchalik darajada rivojlanganligiga baho berish uchun qo'llanilsa, ikkinchidan esa, iqtisodiy o'sish mamlakatning rivojlanib, taraqqiy etib borishini ifodalaydi.

O'zbekiston qisqa davrda yoqilg'i va g'alla mustaqilligiga erishdi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi, mustaqilligi ta'minlangan, o'z xalqi, millati, manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllanmoqda.

Milliy iqtisodiyot yangi sifat va o'sishga moyil bo'lgan barcha ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarini o'z ichiga qamrab olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

Milliy iqtisodiyotning shakllanish jarayonida fan - texnika inqilobi ta'sirida nisbatan ancha yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgan tarmoqlar turkumining vujudga ketishi birinchi darajali ahamiyatga egadir. Ularga neft, neftni qayta ishlash, kimyo sanoati, gaz kondensati, tabiiy gaz, rangli, nodir va radioaktiv metallar, mineral xomashyo va qurilish materiallari, radioelektronika, hisoblash texnikasi va zamонавија tarmoqlar ishlab chiqarish yuzaga kelnoqda.

O'zbekiston MDH davlatlarida yetishtirilayotgan tillaning 65 foizini, qorako'lning 40 foizini ishlab chiqaradi.

O'zbekiston iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish asosida yaxlit milliy iqtisodiyotni shakllantirish yangi ijtimoiy munosabatni zaruriyat qilib qo'yamoqda.

Milliy iqtisodiyot bir butun tizim sifatidagi iqtisodiyot hamda butun milliy xo'jalik darajasida yuz berayotgan jarayonlar makroiqtisodiyot tahlili asosida aniqlanadi.

Iqtisodiyotda makrodarajada xususiy sektor, davlat sektori, uy-ro'zg'or xo'jaligi va boshqalar, ya'ni turli xil majmular (agregatlar) o'rjaniladi. Boshqacha aytganda, muayyan belgilarga ega bo'lgan iqtisodiy birlıklarning birlashmalari ushbu turkumga xos bo'lgan faoliyat ko'rsatish va rivojlanish qonuniyatlar bilan birgalikda iqtisodiyotning umumiy tuzilishi bitta yagona iqtisodiyot sifatida qaraladi. Bu narsa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tafsifini belgilaydi. Shuni ta'kidlash joizki, mikro va makroiqtisodiyotlar xo'jalik tayinligi va iqtisodiy nazariyaning bir - biriga bog'langan sohalardir. Zero, u yoki bu mamlakatning iqtisodiyotini, u qanchalik keng miqyosda bo'lmasın pirovardida ayrim kishilar, oilalar, korxonalar mehnati tashkil etadi.

Demak, iqtisodiyotni bir butun qilib o'rganishda uning alohida tarkibiy qismlarini o'rganishdan chetga chiqib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi asosida mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib tahlil qilinadi.

Mikro va makroiqtisodiy tahlili asosida milliy iqtisodiyotning ma'lum davri, vaqt birligi oralig'iда ishlab chiqarish hajmi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy faoliyatning xilma-xil sifat va miqdor tavsiflari iqtisodiy ko'rsatkichlar shaklida ifodalanadi. Ular ichida eng to'lig'i, keng qamrovligi yalpi milliy mahsulot (YAMM). Unga qarab jamiyatda bir yil davomida ishlangan barcha tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning jami haqida fikr yuritish mumkin.

Milliy iqtisodiyotning holatini belgilovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – Yalpi milliy mahsulot (YAMM), Ichki milliy mahsulot (IMM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), ish kuchi birligi, iqtisodiy tangliklar, ishsizlik, pulning qadrsizlanishi singari bozor samaradorligi va jozibadorligi jarayonlari, ya'ni bozorning makroiqtisodiy betakrorligi muammolari deb nomланади.

## **2. Yalpi milliy mahsulot mazmuni va uni hisoblash usullari**

Har bir jamiyat o'z oldiga iqtisodiyot sohasida iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlariiga, yil davomida ishlab chiqarishning muayyan hajmiga erishish, ishsizlikni kamaytirish, narxlar darajasi, savdo balansini barqarorlashtirish singari maqsadlarni qo'yadi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun iqtisodiyotga tegishlicha ta'sir ko'rsatishi kerak, unda yuz berayotgan jarayonlarni bilmasdan turib bunga erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiy faoliyatning xilma-xil sifat va miqdor tavsiflari iqtisodiy ko'rsatkichlar shaklida ifodalanadi. Ular ichida eng to'lig'i, keng qamrovligi yalpi milliy mahsulot (YAMM). Unga qarab jamiyatda bir yil davomida ishlangan barcha tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning jami, miqdori haqida fikr yuritish mumkin.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) – milliy iqtisodiyotning bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga yetkazib berilgan tayyor tovar, pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymatidan iboratdir.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) pul shaklidagi barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida yil davomida yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar yig'indisidan iborat. Yalpi milliy mahsulot ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi ishlab chiqarishida, ishlab chiqarish vositalarining yetkazilgan mahsulotlarga o'tkazgan qiymati,

xomashyo, yoqilg'i qiymatlari va amortizatsiya ajratmasi qismidan iborat, ikkinchi qismi ishlab chiqarishda band bo'lganlarning ish haqi bilan foyda yig'indisidan iborat bo'lib milliy daromadni (MD) tashkil etadi.

Narxlar darajasining o'zgarishi ham makroiqtisodiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. Birinchidan, iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish uchun narxlar darajasi vaqtning muayyan davri mobaynida qay tarzda o'zgarishining — uning oshayotgan (inflyatsiya) yoki pasayayotgani (deflyatsiya) va qanday me'yordarda borayotganini bilish zarur. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida jamiyatda barcha ishlab chiqilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymat (pul) ifodasini oladi va statistika tomonidan ayni shu ko'rinishda qayd etiladi; pul ko'rsatkichlari ko'proq ishlab chiqarish umumiy hajmi turli xil komponentlarini yagona o'zakka keltirishda foydalilanildi.

Narxlar darajasi indeks ko'rinishida ifodalananadi. Narxlar indeksi tovarlar muayyan majmuiga narxlarning o'rtacha hisoblangan qiymatini bildiradi. U muayyan bir davr ichida narxlar o'rtacha darajasining nisbatan o'zgarishini ko'rsatadi va ushbu yil narxlarni baza sifatida tanlangan biror boshqa yil narxлari bilan taqqoslash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichning eng umumiy formulasi quyidagichadir.

### Ushbu yil narxlari

$$\text{Narxlar indeksi} = \frac{\text{Ushbu yil narxlari}}{\text{Baza yili narxlari}} \times 100\%$$

Iqtisod fani va amaliyotda turli tarkibdagи narxlar indekslarining anchagini miqdori ishlab chiqilgan hamda qo'llanilmoqda. Ular ichida eng ko'p tarqalganlari — iste'mol narxлari indeksi, ishlab chiqarishga mo'ljalangan tovarlar narxlarning indeksi, YAMM deflyatori.

Foizli stavka muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu kreditga beriladigan pul uchun to'lov, to'g'rirog'i yil davomida foydalilanigan bir pul birligi uchun to lash talab qilinadigan summadir. Keng miqyosli foizli stavkalarning butun bir guruhni mavjud bo'lib, foiz me'yoring miqdori butun bir qator omillar yordamida aniqlanadi. Birinchidan, kredit beruvchining tavakkal qilish darajasi qancha yuqori bo'lsa, ya'ni qarz oluvchi ssudani to'lamaslik ehtimoli qancha katta bo'lsa, ssuda foizi ham shuncha yuqori bo'ladi. Ikkinchidan, boshqa teng sharoitlarda uzoq muddatli ssudalar odalda qisqa muddatli ssudalariga qaraganda ancha yuqori foiz bilan beriladi. Uchinchidan, tavakkal qilish darajasi va kredit

muddatida foizli stavka ssudaning miqdoriga bog'liq bo'ladi. To'rtinchidan, ssuda foizi darajasiga kapitaldan olingan daromadlarga solinuvchi soliq xususiyati jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Soliq me'yori qancha past bo'lsa, foizli stavka ham shuncha past bo'lishi mumkin.

**Nominal va tayin foizli stavkalar mavjud. Nominal stavka "joriy" pullardagi foizli daromadning ssuda miqdoriga amaldagi nisbatidir. Aniq foizli stavka pul qadrsizlanishining darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi.**

Ijtimoiy tizimda muomaladagi pullarning miqdori – pul massasining hajmi ko'rsatkichi ham katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning inflyatsiyasiz faoliyati uchun pul miqdori unga bo'lgan talabga muvofiq kelishi kerak. Talab uzoq muddatli istiqbolda jamiyatda hosil qilingan daromad hajmi va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, shuningdek, pul bozori muvozanatda bo'lgan chog'da mavjud bo'lgan narxlar darajasi bilan belgilanadi. Qisqa muddatli talab esa, bundan tashqari, foizli stavkalar darajasi va pul muomalasining tezligiga bog'liqdir. Sanah chiqilgan barcha omillar davlat tomonidan pul muomalasini tashkil etish chog'ida hisobga olinishi kerak.

Asosiy makroiqtisodiy muammolar va ko'rsatkichlar bilan tanishib chiqilgandan so'ng, iqtisodiyotni bir butun sifatida yanada batafsil o'rghanishga kirishish mumkin. Buni, albatta, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmini tavsiflovchi jihatlardan boshlash kerak, zero xo'jalik hayotining ko'pgina boshqa tomonlari uning miqdor va sifat darajasi bilan belgilanadi.

Jamiyatning iqtisodiy farovonligini o'lchanida yordam beradigan anchagina ko'rsatkichlar mavjud. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, ular ichida eng yaqqoli YAMMDir. Milliy hisob – kitoblar tizimiga asos qilingan YAMM iqtisodiyotda bir yil ichida ishlab chiqilgan pirovard tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar butun hajmining yalpi bozor qiymati sifatida aniqlanadi. Bunda shuni e'tiborda tutish kerakki, ushbu yilda ishlab chiqarilgan tovarlarning hammasi ham sotilgan bo'lishi shart emas, ba'zilari zahirani to'ldiradi. Zahiralarning o'sishi ham YAMMni hisoblashda e'tiborga olinishi kerak, chunki ana shu ko'rsatkich yordamida hosil qilingan barcha mahsulot, sotilgan – sotilmaganidan qat'iy nazar, o'lchanadi.

Yuqorida yalpi milliy mahsulot haqida umumiy tasavvur berilgan edi. Endi ishlab chiqarish butun hajmining bozordagi qiymati qanday qilib o'lchanishi mumkinligini ko'rib chiqaylik. Buni ikki usul yordamida amalga oshirish mumkin: birinchidan, iste'molchi mahsulotning pirovard foydalanuvchisi sifatida uni xarid qilish uchun qancha sarflashi hisoblanadi, ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonida hosil etilgan butun ish haqi, renta to'lovlar, ssuda foizi va foyda

qo'shib chiqiladi. Boshqacha aytganda, YAMM ushbu yilda sotilgan mahsulot butun hajmini xarid qilish xarajatlarini qo'shish yo'li bilan yoki ushbu yildagi mahsulot butun hajmini ishlab chiqarishdan olingan daromadni qo'shish vositasida aniqlanishi mumkin.

**YAMMni xarajatlar bo'yicha hisoblash.** Yalpi milliy mahsulotni ana shu usul bilan o'lchash uchun iqtisodiyotda bir yil ichida hosil qilingan pirovard mahsulotlar va xizmatlarni barpo etish xarajatlarining quyidagi barcha turlarini qo'shish zarur.

- uy xo'jaliklarini uzoq muddatli va hozir foydalaniladigan predmetlarga, shuningdek, xizmatlarga ketgan xarajatlarni o'z ichiga oladigan shaxsiy iste'mol xarajatlari;

- yalpi xususiy ichki investitsiyalar, ya'ni tadbirkor tomonidan mashinalar, uskunalar va dastgohlar xarid qilinishi, qurilish, zahiralarining o'zgarishi bilan bog'liq barcha xarajatlari;

- tovar va xizmatlarning davlat xaridi, unga markaziy va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlarining korxonalar pirovard mahsuloti va ishlab chiqarish omillarini xarid qilishga doir barcha xarajatlar kiradi (bunga davlat transport to'lovleri kirmaydi, chunki ular joriy ishlab chiqarishning ko'payishini aks ettirmaydi);

- tovar va xizmatlarning sof eksporti, ya'ni ushbu mamlakat tovarlari va xizmatlari uchun xorijiy xarajatlarning ana shu mamlakat tovarlari foydalarini va tashkilotlari chet el tovar va xizmatlari uchun sarflangan xarajatlardan oshib ketgan miqdori (sof eksport manfiy ham bo'lishi mumkin).

**YAMMni daromadlar bo'yicha hisoblash.** Daromadlar bo'yicha hisoblanganda yalpi milliy mahsulot tarkibiga qanday qismilar kirishini qarab chiqaylik.

Iqtisodiyotda foya va yalpi daromadning miqdorini aniq hisoblash uchun tadbirkorlik sho'basining yalpi daromadlarini amortizatsiya chegirmalarini hisobga olish zarur. Aslini olganda ular kapitalning iste'moli uchun chegirmalardir, ya'ni ular ushbu yil YAMM ni ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan investitsion tovarlarni xarid qilishga ketadi. Tadbirkorlar daromadining hammasini resurslarni yetkazuvchilar bilan hisob-kitob qilish uchun ishlatib bo'lmasligi ana shu turdag'i xarajatlarning ahamiyati katta ekanligini belgilagan. Bu xarajatlarning bir qismi — ayni mahsulot qiyamatining bir qismi — ishlab chiqarishning foydani kamaytiradigan chiqimlaridir. Biroq, ishlab chiqarish chiqimlarining boshqa turlaridan farq qilib, amortizatsiya biror bir daromadga qo'shilinaydi.

Xarajatlarning daromad to'lash bilan bog'lanmagan yana bir turi davlat oladigan muayyan soliqlar bilan bog'liq. ular egri soliqlar deb ataladi. Tadbirkorlar ularni ishlab chiqarish hajmi deb qaraydilar va shu sababli mahsulot narxini oshiradilar. Binobarin, yillik mahsulot

qiymatining bir qismi tovarlar narxlari orqali iste'molchilar zimmasiga yuklanadigan egri soliqlardir. Milliy ishlab chiqarishning ushbu turi ish haqi, ijara to'lovi, foiz yoki foyda ko'rinishida chiqa olmaydi.

### **3. Milliy daromad, uning tarkibi va undan foydalanish**

Jami ijtimoiy mahsulot har xil qismlarga bo'linadi. Jami milliy mahsulot qiymatining bir qismi ishlab chiqarishda iste'mol etilgan ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondlarini qoplashga ajratiladi. Buni qoplash fondi deb yuritiladi.

Qoplash fondi bu ishlab chiqarishda foydalananligan ishlab chiqarish vositalarining mahsulotga o'tkazgan qiymatiga tengdir. Jami milliy mahsulot qiymatidan, iste'mol etilgan ishlab chiqarish vositalarining qiymatini chegirib tasblansa, ya'ni

#### **SMM=YAMM=Amortizatsiya yillik summasi**

Sof milliy mahsulot tarkibida davlat tomonidan egri soliq bo'lib, uni chiqarib tashlangandan so'ng qolgan qismi jamiyatning milliy daromadini tashkil etadi.

#### **MD=SMM=egri soliqlar**

Milliy daromad milliy xo'jalikda bir yil davomida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymat bo'lib, natural shaklida iste'mol buyumlari, ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallangan ishlab chiqarish vositalarining bir qismidan iboratdir.

Takror ishlab chiqarishda aynan ana shu bosqichni: ishlab chiqarish, taqsimot, muomala va foydalanish stadiyalarini o'taydi. Uning hajmi sarflangan mehnat, mehnat unumdonligi va ishlab chiqarish vositalarining tejamligiga bog'liq.

Milliy daromad (MD) moddiy ne'mat ishlab chiqaruvchi korxonalarda va ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining yig'indisidan iboratdir.

Milliy daromad (MD) moddiy ne'mat ishlab chiqarish tarmoqlarida ish haqi va foyda shaklida yaratilgan yangidan yaratilgan qiymatdir.

Milliy daromad yaratuvchi tarmoqlar sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, yuk transporti va aloqa, savdoning (ishlab chiqarish davomi bo'lgan qismi) va boshqa tarmoqlardir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida mulkning turli shakllari vujudga keldi. Shu munosabat bilan milliy daromadning ijtimoiy tarkibi butunlay o'zgarib ketdi. Milliy daromadni (MD) taqsimlanish va foydalanish uning hajmi va tarkibiga bog'liqdir.

Iste'mol uchun xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar pirovard mahsulotlar deb ataladi. Qayta sotish yoki ishlov berish uchun xarid

qilinadigan mahsulotlar esa oraliq mahsulotlari deyiladi. YAMMga faqat pirovard mahsulotlarning qiymati kiritiladi, chunki barcha oraliq bitimlar allaqachon unga kiritilgan.

YAMM va milliy daromadning (MD) o'sishi tahlil qilinganda joriy va o'zgarmas baholardan foydalaniladi. Milliy daromadni (MD) amaldağı joriy bahoda hisoblash bir yil ichida yaratilgan qiymat hajmidir. Milliy daromad hajmini o'zgarmas bahoda hisoblashda bazis yili bahosi bilan hisoblanadi.

Milliy daromadning foydalanish xususiyatiga qarab iste'mol va jamg'arish fondlariga bo'linadi.

Jamg'arish fondi milliy daromadning kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish rivojlanishini ta'minlaydi. Dastavval u asosiy va aylanma fondlarini ko'paytiradi va takomillashtiradi.

Jamg'arish fondi hisobiga nomoddiy fondlar (uy – joylar, shifoxonalar, kutubxonalar, mакtablar, sanatoriylar) quriladi. Jamg'arma fondi hajmini aniqlashda uy xo'jaliklari daromadidan iste'molga mo'ljallangan sarflarini ayirib tashlash uning qolgan qismi jamg'arma fondini tashkil etadi.

Agar daromad fondidan iste'molga mo'ljallangan sarflar miqdori ko'p bo'lsa, jamg'arma hajmi o'shanchalik kam bo'ladi va aksincha. Jamg'arishning mohiyati asosiy va aylanma fondlarni hamda ehtiyo z-hiralalarini ko'paytirish uchun sarflanishiga oztiladi. Jamg'arish fondi, uning hajmi va tarkibi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish o'sish sur'atini belgilab beradigan omildir.

Iste'mol fondlari bu milliy daromadning jamiyatning jami moddiy ehtiyojlarini qondirishga sarflanadigan qismidir. Jami iste'mol fondi o'zining foydalanish xususiyatiga qarab, ikki qismiga bo'linadi: yakka tartibdag'i va jamaoa bo'lib iste'mol qilish fondiga. Yakka tartibdag'i yoki jamaoa bo'lib iste'mol qilish bir – biridan farqlanadi.

Yakka tartibdag'i iste'mol fondiga moddiy ne'mat ishlab chiqarish jarayonida band bo'lganlarning ish haqi, sotsial ta'minot (pensiya, nafaqa, stipendiya va h.k.)

Jamaoa bo'lib iste'mol qilish fondi qismiga jamiyat a'zolarining guruhlari moddiy ne'mat va xizmatlardan, ya'ni maorif, fan, tabiat, san'at, madaniyat va boshqaruв tizimi kiradi. Iste'mol fondi mablag'laridan butun milliy iqtisodiyot qamrovida band bo'lgan xodimlarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini, shu jumladan, boshqarish va mudofaa ehtiyojlarini qondirishda sarflanadi. U jamiyatda hamma aholining shaxsiy iste'molini, aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalarining, ilmiy muassasalar boshqarishdagi moddiy harajatlarni o'z ichiga oladi.

Iste'mol fondining asosiy qismi shaxsiy daromad shaklida xodimlarning qo'liga kelib tushadi va iste'mol maqsadlari uchun foydalanadi.

#### **4. Iqtisodiy o'sish tushunchasi, turlari va ko'rsatkichlari**

Ehtiyojlarini yuksalish qonuniga binoan jamiyat a'zolarining sotsial – iqtisodiy ehtiyojlarini uzlusiz yuksalib boradi. Mazkur ehtiyojlar esa o'z navbatida kishilarning mehnat qilishi va iqtisodiy mavqega ega bo'lishi uchun iste'mol etilishi zarur bo'lgan tovar va xizmatlar majmuidan iborat. Yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qondirishning yagona vositasi esa iqtisodiy o'sish hisoblanadi.

**Iqtisodiy o'sish** deb, aholi ehtiyojlarini uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlari va xizmatlarni ishlab chiqarishning ko'payib borishiga aytildi. Moddiy ne'matlari deganda biz nafaqat noz-ne'matlarni, balki shu bilan birga ishlab chiqarish vositalari va resurslarining ko'payib o'sib borishini ham tushunamiz.

Iqtisodiy o'sish real yalpi milliy mahsulotni (YAMM) aholi jon boshiga nisbiy narxlarida taqsimlash yoki jamiyat yalpi ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sish **mikro** va **makro** ko'lama yuz beradi. Mikroiqtisodiy o'sish xo'jalik bo'g'inlari, firma yoki tarmoq doirasidagi o'sishni makroiqtisodiy o'sish esa jamiyat miqqyosidagi mikroiqtisodiy o'sishni bildiradi.

Iqtisodiy o'sishning hajmini uning ko'lami va sur'ati ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish ko'lami yaratilgan tovar va xizmatlar hajmini bildirsa, uning sur'atlari esa, o'sish tezligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sishning natijasi jamiyat a'zolarini ta'minlovchi foydali real moddiy ne'matlardir. Aynan ular iqtisodiy o'sishning haqiqiy mezoniidir. Ijtimoiy taraqqiyotning oliv mezoni ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti darajasidir. Mezonga iqtisodiy o'sishni aniqlovchi ko'rsatkichlar muvofiq kelishidir. Ular o'z navbatida statistika va dinamik hamda miqdor, sifat ko'rsatkichlarga egadir.

Iqtisodiy o'sishning ikki jihatni bor, ularni farqlamoq kerak. Birinchidan, uning ko'lami ishlab chiqarish hajmini bildiradi, butun jamiyatda qancha mahsulot va xizmatlar yaratilishini, ularning o'sishi qanday miqdorda bo'lishini ko'rsatadi. O'sishning ikkinchi tomoni, uning sur'atlari bo'lib, iqtisodiy o'sishni nisbiy jihatdan ifodalandaydi, uning mutlaq o'sishi emas, balki o'sish tezligini ko'rsatadi. Uning o'sish sur'ati ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sish tahlil qilinishida uning har ikki jihatni birlgilikda ko'riliadi. Iqtisodiy o'sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat me'yori ham mavjud. Shu sababli yaratilgan mahsulot va xizmatlar miqdoran

ko'payibgina qolmasdan, o'z sifati jihatdan talab – ehtiyojni qondirishga qodir bo'lishi talab etiladi. Qoloq iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning miqdoriy tomoni birlamchi bo'ladi, chunki ishlab chiqarish darajasi past bo'lganligidan mahsulotlarni tanlab iste'mol etish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi, sifati yetarli bo'lmasa – da, ko'proq mahsulot talab qilinadi.

Ishlab chiqarish yuksalgan sati sitatga talab oshib boradi. Yuqori darajada rivojlangan iqtisodiyot sharoitida mahsulot va xizmatlar miqdori ko'p bo'lganda ularni tanlab iste'mol etish imkoniyati katta bo'ladi, binobarin, sifat ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar mavjud, bular:

- tabiiy resurslarning miqdori va sifati,
- mehnat resurslarining miqdori va sifati,
- asosiy kapitalning miqdori va tarkibi,
- texnologiya darajasi.

Mazkur omillar ishlab chiqarishning miqdoran o'sishini ta'minlovchi taklif omillari deb ataladi. Ammo, iqtisodiy o'sish talab va taqsimot omillariga bog'liq. Bunga sabab:

- birinchidan, jamiyat iqtisodiyotida o'sib borayotgan ishlab chiqarish potensialini (imkoniyatini) ro'yobga chiqarish uchun jami xarajatlar hajmining oshirilishidir;
- ikkinchidan, ishlab chiqarish potensialini to'laroq maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslarni to'la ishga solish, shu bilan birga, ulardan tobora samarali, tejamlı foydalanishni ta'minlash ham talab qilinadi.

Resurslarni turli sohalarda maqsadga muvofiq taqsimlanishi ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi deb ataladi. Bunday taqsimlanish iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlaydi. "Tarkibiy tuzilishda chugur o'zgarishlarni amalgalashish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini va aboli farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishning eng asosiy shart – sharoitlaridan biridir".<sup>1</sup>

Iqtisodiy o'sishning ikki turi mavjud: **ekstensiv** va **intensiv**.

**Ekstensiv** rivojlanishida iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining o'sishi hisobiga mahsulot hajmi oshadi. Iqtisodiy o'sishning bu turi ishlab chiqarish samaradorligiga olib kelmaydi.

**Intensiv** iqtisodiy o'sish yo'li yaratilgan mahsulot va xizmatlar miqdorining ko'payishi, ular sifatining yaxshilanishi, resurslarning tejamlı ishlatalishi, fan – texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga ta'tbiq

<sup>1</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chugurleshtirish yo'lida – Toshkent: "O'zbekiston", 1995. 228 – het.

etish va mehnat unumdarligini oshirish hisobidan amalga oshirilishidir. Bu yo'l ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga uzbek bog'liq. Samaradorlik ishlab chiqarish natijalarining xaratatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Samaradorlik qancha resurs sarflab, qancha va qanday sifatli mahsulot va xizmatlar yaratilganligini ifodalaydi. Makroiqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligi YAMM — pirovard natijasi bilan o'lchansa, mikroiqtisodiyot iniqyosida esa (korxonada), yaratilgan sof mahsulotning yoki fondning mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Garchi iqtisodiy o'sish samaradorligini intensiv usullar zaminida amalga oshirganda barqarorlikka erishilsa ham, ammo barqarorlik doimiy tus ololmaydi, chunki iqtisodiy o'sishda uzilishlar ham, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishlar ham bo'lib turadi. Bunday holat iqtisodiy o'sishning davriyligi deb ataladi. Iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning goh tez sur'atda o'sishi, goh inflyatsiya va baholar darajasining ko'tarilib borishi, ya'ni barqarorlik holatlarining yuz berib turilishi iqtisodiy o'sishning sikli deb ataladi. Sikl iqtisodning davriy ko'tarilishi va pasayish hodisalarini o'z ichiga oladigan, iqtisodning tebranib turishi bilan tavsiflanadigan tebranma davridir.

### **5. Milliy boylikning mohiyati, tarkibiy tuzilishi va O'zbekiston iqtisodiy potensialidan samarali foydalanish**

Iqtisodiy o'sish jamiyatda nafaqat aholining joriy ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, shu bilan birga, uning milliy boyligining ko'payib borish manbai hamdir.

Milliy boylik nima? Milliy boylik insoniyat jamiyat tarraqqiyoti davomida ajdodlar mehnati bilan yaratilgan va butun tarixiy tarraqqiyot mobaynida jamg'arilgan ne'matlarning, iste'mol qiyatlarning yig'indisidir.

Milliy boylik jamiyatda aholining turmushi moddiy va ma'naviy darajasining negizi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy asosi va pirovard natijasidir.

Milliy boylikni tashkil etadigan moddiy ne'matlar o'zining hosil bo'lishi jihatdan bir qismi inson mehnatining natijasi bo'lsa, ikkinchi qismi ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilgan tabiiy boylik resurslardan iboratdir.

Tabiiy resurslar jamiyat tasarrufidagi yer, suv, o'rmon, foydali qazilmalardan iborat bo'lib, ular milliy boylikning moddiy ne'matlar qisminи yaratishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Milliy

boylikning moddiy buyumlashgan qismi jamiyatda avlodlar mehnati, ya'ni ishlab chiqarishning unumli mehnatining natijasidir.

Milliy boylikning o'ziga xos xususiyatlari uning mehnat mahsuli ekanligi va ko'paya borishi, jamg'arila borishi, takror hosil bo'lishi va muayyan mol — mulk sifatida kishilar tasarrufida bo'lishidir.

Milliy boylik, uning tarkibiy tuzilishi va uni tashkil etgan qismlarning sifati, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning muhim omilidir, mamlakat iqtisodiy qudratining eng muhim ko'rsatkichidir. Milliy boylik hajmining ko'payishi — xalq turmush darajasini oshirishning zarur shartidir. Kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish jarayonida milliy boylik faqat o'sibgina qolmasdan, yangidan yaratilgan mahsulotlar hisobiga to'ldirilib va doimo yangilanib boradi, shu tariqa iqtisodiy taraqqiyotning natijasi yuzaga keladi.

Milliy boylikning asosiy qismi bo'lgan asosiy va aylanma fondlari, sanoat ishchilari, agrar sektor xodimlari, injener — texnik xodimlar va ilm — fan sohiblari bilan birga, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini tashkil etadi. U muayyan davlatning jamiyat ishlab chiqarishi va farovonligining u yoki bu darajasini ham ta'minlash layoqatini ifodalaydi.

Milliy boylikning bir qismi ishlab chiqarish resurslari sifatida sarflansa, ikkinchi qismi iste'mol vositasi sifatida sarflanadi.

Jamiyat ixtiyoridagi milliy boylik, uning ishlab chiqarish resurslari shu jamiyatning iqtisodiy kuch — quvvatini, ya'ni iqtisodiy salohiyatini tashkil qiladi. Iqtisodiy salohiyatini (bo'lg'usi) — jamiyatning ishlab chiqara olish qobiliyatidir. Bunday qibiliyat yaratilgan yalpi milliy mahsulotda ishlab chiqarishining pirovad natijasida o'z ifodasini topadi. Erishilgan iqtisodiy salohiyat — amalda ishlatilgan salohiyat bo'lib, bugungi ishlab chiqarish darajasini bildiradi, kelajakdagi salohiyat esa, to'la — to'kis ishlatiladigan salohiyat bo'lib, resurslardan maksimal darajada foydalananishni taqozo etadi. Bo'lajak salohiyat amalda erishilgan salohiyatdan ortiq bo'ladi.

Iqtisodiy salohiyat quyidagi unsurlardan iborat: mehnat salohiyati, texnika — texnologiya salohiyati, ilm — fan (intellektual) va tabiiy salohiyatlar.

**Mehnat salohiyati** ishlab chiqarishga layoqatli aholi qismi bo'lib, uning miqdorini ishga yaroqli kishilar soni tashkil esa, sifati esa aholining bilim darajasi, kasbiy malaka va tajribasiga bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda bu unsurning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi hissasi 20 — 25 foizni tashkil etadi.

**Texnika — texnologiya salohiyati** jamiyatning ixtiyoridagi mashina asbob — uskunalar miqdori, ularning texnikaviy va texnologik darajasi va tarkibidan iborat.

**Tabiiy salohiyat** cheklangan bo'lib, u yer – suv zahiralari, o'rmon va yer osti boyliklar, suv boyliklari, iqlim qulayliklaridan iborat. Tabiiy resurslarning kamyobligi tufayli vujudga keladigan qiyinchilik va to'siqlarni ilmiy – texnikaviy potentsial yordamida bartaraf etish mumkin. Masalan, Yaponiya tabiiy resurslari (salohiyati) ning kamyobligini, uning yuksak texnika – texnologiya salohiyati yordami bilan qoplaydi.

O'zbekiston boy tabiiy, moddiy va mehnat resurslariga ega. Oltin, kumush, mis, volfram, kaliy, qo'rg'oshin va qora metallurgiyaga boy. Respublika tog' – sanoat kompleksi hamda xomashyo va ishlab chiqarish bazasi iqtisodiy taraqqiyotning qanday borishini ko'p jihatdan belgilaydi. O'zbekiston 55 xildagi turli qazilma boyliklarga ega. Ularning umumiy qiymati 3,3 trillion AQSH dollariga teng.

O'zbekistonda tuproq va o'simlik resurslari mavjud bo'lib, u intensiv qishloq xo'jaligi uchun qulay. «... biz o'z ixtiyorimizdag'i g'oyat boy tabiiy ma'dan, xomashyo, mehnat resurslariga mustahkam tayanishimiz, ulardan eng samarali foydalanishni hisobga olishimiz lozim»<sup>1</sup>.

O'zbekiston xomashyo yetishtirishga mo'ljallangan iqtisodiyotning bir tomonlamaligini qat'iy bartaraf etib, uning resurslarini zai onaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantiris'iga yo'naltirishi, barqaror iqtisodiy o'sishni, aholi farovonligini ta'minlashining, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishining eng asosiy shartiga aylanadi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Yalpi milliy mahsulot (YAMM)** – bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi suminasi.

**Ichki milliy mahsulot (IMM)** – bir yil davomida mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlar va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati.

**Sof milliy mahsulot (SMM)** – YAMM dan amortizatsiya ajratmalari summasini chegirib tashlangandan qolgan qiymat summasi.

**Milliy daromad (MD)** – yil davomida yangitdan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SMMdan egi soliqlarni chegirib tashlashdan qolgan qiymat summasi.

<sup>1</sup> Karimov I. A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai – T: "O'zbekiston", 1994, 36 – het.

**Milliy hisoblar tizimi** – YAMM, IMM va Milliy daromadni ishlab chiqarish, taqsimlash, foydalanishni qiymat shaklida ifodalaydigan o'zaro bog'liq hisoblash tizimi.

**Investitsiyalar** – ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarini kengaytirish, takomillashtirish, asosiy va aylanma fondlarni ko'paytishga sarflanadigan mablag'lari.

**Iqtisodiy o'sish** – YAMM (SMM, MD) yillik miqdorining mutlaq o'sishi.

**Milliy boylik** – insoniyat jamiyati taraqqiyoti tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni izohlab bering.
2. YAMM nima?
3. Nima uchun YAMMni hisoblashda faqat pirovard *mahsulotlarning qiymati e'tiborga olinadi?*
4. YAMMni hisoblashdagagi ikki yondashuvning mohiyati qanday?
5. YAMMni hisoblashda dunyoning boshqa mamlakatlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlik qanday hisobga olinadi?
6. YAMM va SMM bi. – biridan nima bilan farqlanadi?

## XIV Bob. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES.

1. Agrar munosabatlarning mohiyati va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xususiyatlari.
2. Yer rentasi va uning turlari.
3. Agrobiznes va uning turlari.
4. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi.

### 1. Agrar munosabatlarning mohiyati va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Qishloqda bozor mexanizmlarini rivojlantirish, dehqonda sohiblik bissini uyg'otish, mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, jamoa xo'jaliklarini qayta tuzib, ularni xo'jalik mol-mulkining bir qismini, muayyan ulushini dehqonlarga biriktirib qo'yishga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish, xo'jaliklarning o'zida ijara munosabatlarini chuqurlashtirish, yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berib qo'yish orqali, shuningdek (fermer) hamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni keng rivojlantirish asosida ro'y berishi lozim»<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tgan.

Agrar munosabatlar iqtisodiy munsoabatlarning o'ziga xos turi hisoblanadi. «Qishloq ho'jaligida ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga agrar munosabetlar»<sup>2</sup> deyildi.

Boshqa bir ta'rifda esa «Yer bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar» deb ataladi<sup>3</sup> deyilgan.

Yuqoridaq ta'riflardan ko'rinib turibdiki, yer bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar agrar munosabatlarning asosini tashkil etadi. Shu sababli, agrar munosabatlarning asosiy xususiyatlari ham yerga uzviy bog'liq bo'ladi.

*Uni quyidagicha asoslash mumkin:*

❖ yerning agrar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatidagi xususiyati: yerning narxi va uning sifati agrobiznesning boshqa resurslarini tanlash, uyg'unlashtirish va ulardan foydalanishning turli variantlarini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi;

<sup>1</sup> Karimov I. A. «O'zbekiston XXI asr bo'seq'asida xavfsizlikka tabrid, tarqatorlik shartlari va taraqiyot kafolatlar». – T.: «O'zbekiston», 1997, 202 – het.

<sup>2</sup> Shodmonov Sh., Jo'rayev T.: Iqtisodiyot nazarasi. Maʼruzalar mutui. – T., 2000, 152 – het.

<sup>3</sup> O'masov N., Sharifko'jaev M. Iqtisodiyot nazarasi. – Toshkent: «Mehmox», 1995, 338 – het.

❖ qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabning noelastikligi bu sohadagi daromadlarning past bo'lishini belgilaydi: qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi ularning foydalilik darajasini kamaytiradi.

Agrar munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri atrof-muhitda bo'layotgan tabiiy jarayonlarning unga bevosita ta'sir ko'rsatishidir. Mazkur jarayonlar yerning mahsuldorligida va ushbu sohadagi ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatuvchi iqlim, ob-havo sharoitlarida o'zining aksini topadi.

Yerda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barcha tarmoqlari, shu jumladan, qishloq ho'jaligi, sanoat va qurilish korxonalari joylashadi. Yer osti va ustidan transport yo'llari o'tadi, yer ostidan qazilma boyliklari qazib olinadi va yerda o'rmon ho'jaliklari yuritiladi. Yerda turar-joy, madaniy-maishiy binolar qad ko'taradi. Demak, har qanday iqtisodiy faoliyat, shu jumladan, agrar sohadagi faoliyat yer bilan uzviy bog'langan bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida yer tovarga, tadbirkorlik obyektiga aylanadi. Ammo, yer resurslari makonda tabiiy ravishda cheklangan, uni takror ishlab chiqarib bo'lmaydi. Yer taklifi yer narxining ortishi bilan ko'payib, aksincha kamayishi bilan tushib ketmaydi. Shu sababli, yer taklifi mutloq noellastik (o'zgarmaydigan) bo'ladi. Yer e'zining shu xususiyatlari bilan boshqa iesurardan farqlanadi.

Yrlarning mutlaq noellastikligi to'g'risidagi farazlarni ham qandaydir ma'noda inkor etishga asos bor. Chunki yrlarning mutlaq noellastikligi farazining susayishiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- ❖ yangi yrlarni o'zlashtirish;
- ❖ ularga investitsiyalarni keng jaib etish;
- ❖ yerdan samarali foydalanish yo'llarini topish orqali yer taklifini ko'paytirish;

❖ yerdan nooqilona foydalanish natijasida ularning qishloq ho'jaligi aborotidan, umuman olganda, muomaladan chiqib ketishi va h.k.lar.

Agrar munosabatlar bozor munosabatlari sharoitida yangicha mazmun kash etadi. Yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlari agrar sohadagi iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Demak, agrar sohadagi iqtisodiy munosabatlarning asosini yerdan foydalanish xarakteri hal etadi. Bu nima degani, bu yerdan foydalanish, unga egalik qilish va tasarruf etish deganidir. Qishloq xo'jaligidagi yaratilgan mehnat natijalaridan foydalanish, egalik qilish ham aynan ana shu jihatlarga bog'liq bo'ladi.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Butun agrar siyosatning muhim masalasi-negizi» yerga

**mulkchilik masalasi**dir. Yer o'lkamizning eng asosiy boyligi. U yediradi, ichiradi, yashash uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratib beradi. Shu sababli, Respublikaning kelajagi, O'zbekiston xalqining kelajagi ko'p jihatdan yerdan foydalanish munosabatlarning qanday tashkil ettilishiiga bog'liqdir<sup>1</sup>, deb oqilona fikr yuritadi va shu sohadagi kelgusi tadbirlarni belgilab beradi.

Qishloq ho'jaligi insonning tabiatga bo'lgan munosabati bilan kishilarning o'zaro munosabatlari yaxlitlikda olib borilishini talab etadi va iqtisodiyotning agrar sektorini tashkil etadi.

Agrar sohadagi asosiy resurs yer, lekin u cheklangan, yerni mehnat jarayonida yaratib bo'lmaydi. Ko'pgina resurslar o'zining muqobillariga ega, ammo yer bunday xususiyatdan mahruin, ammo yerni muqobil ishlatish usullari ko'p. Shu sababli, yerga bo'lgan talab doimo ortib boradi, ya'nii egasi yo'q yer bo'lmaydi. Shu sababdan, yerni ishlatish uchun tekinga berilmaydi, yer egasiga undan foydalanganlik uchun haq to'lash kerak.

O'zbekiston Respublikasining mavjud qonunlarda yerdan foydalanishning to'lovlarga asoslanganligi qayd etib o'tilgan. Bozor munosabatlari o'tayotgan mamlakatlarda yerdan foydalanishda ana shu xususiyatni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yer ho'jalik yuritish obyekti sifatida egallab olinadi, ya'nii yerda turli xo'jaliklar tashkil topadi. Yaroqli yerlar bo'sh turmaydi. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ta'kidlanganidek: «**Yer uchastkalari yuridik va jismoni shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish va ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin**»<sup>2</sup>. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risidagi» qonuning 10—moddasida «Fuqarolarga fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari ellik yilgacha bo'lgan, lekin 10 yildan kam bo'limagan muddatga ijara beriladi» deb yozib qo'yilgan.<sup>3</sup> Yoki O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaliklari to'g'risidagi» qonuning 8—moddasida «... dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomonqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydonni ham qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 get targacha va sug'orilmaydigan yerlarda 0,5 get targacha

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurleshtirish yo'lida // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.—Toshkent 1996. 216—bel.

<sup>2</sup> O'zbekiston respublikasining Yer kodeksi.—Toshkent: «O'zbekiston», 1999, 20—moddasi.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risidagi» qonuni, 10—moddasi, 1998—yil 30—aprel.

o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o'lchamda beriladi» deyilgan<sup>1</sup>.

Yer mulk hisoblanadi, shu sababli, undan yerga ega (mulkdor)larining roziligidisiz foydalananib bo'lmaydi. Yerdan foydalananish uchun uning egasiga haq to'lash kerak. Yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq renta deyiladi. Shu sababli, keyingi bo'linda yer rentasi va uning turlari to'g'risida fikr yuritiladi.

## 2. Yer rentasi va uning turlari

Agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil etadi. Yer rentasi – ijrarachining yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lovi yoki yer egasining daromadi<sup>2</sup>dir. Qishloq xo'jaligida yer egasi (mulkdor) yerdan foydalanganligi uchun yerni ishlatuvchilardan to'lov oladi. Mazkur to'lovnинг miqdori (yerning bozor narxi) bir tomondan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lgan tadbirkorlarning yalpi talabi bilan ikkinchi tomondan yer egalarining taklifi o'tasidagi aloqadorlikka uzviy bog'liq bo'ladi.

Yer egasi yaratilgan mahsulotning bir qismini o'zlashtirib oladi. Bu yer davlatnikimi, xususiyimi ahamiyati yo'q. Davlat uni yer solig'i, xususiy yer egalari esa yerdan foydalanganligi uchun to'lov sifatida oladi. Shuning uchun yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihaldan amalga oshirish (realizatsiya qilish) shaklidir.

Yer rentasining bir necha xillari mavjuddir. Bular quyidagilar:

- ❖ absolyut yer rentasi.
- ❖ differensial (tabaqałashgan) renta – I.
- ❖ differensial (tabaqałashgan) renta – II.
- ❖ monopol renta.
- ❖ mutlaq renta.
- ❖ undirma sanoatda olinadigan renta.
- ❖ qurilish uchastkalari uchun olinadigan rentalardir.

**Absolyut yer rentasi** – taklifining cheklanganligi, mulk ekanligi va uning sifatidan qat'iy nazar yer egalariga tegadigan daromad. Absolyut yer rentasining vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ham, yerga ham talab oshgan paytda eng yomon yerlardan ham foydalaniлади va bu yerlardan cilingan daromad tadbirkorning daromadini ham, rentani ham berishi kerak. Ya'ni mahsulot odatdagidan yuqori narxda sotiladi. Bu absolyut yer

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi qonuni 8 – modda, 1998 – yil 30 – aprel

<sup>2</sup> Загорулько М.М. Основы экономической теории и практики: Учебно-методическое пособие - Волгоград: изд. Волгоградского университета, 1994б стр.-218

rentasini hosil qiladi va yer egasi uni o'zlashtiradi. Mana shu renta absolyut yer rentasi deb nom olgan. Agar yer ijara berilganda, shu yerda turli xil inshootlar, binolar qurilgan bo'lsa, ularning ijara haqi alohibda hisoblanadi.

Yerlarning sifati ularning geografik o'rniiga va unumdorligiga qarab turlichcha bo'ladi. Yerning miqdori va sifatini tabiatning o'zi cheklab qo'ygan, inson uni ko'paytirishga ham qodir emas. Shu holatga mos ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini faqat yaxshi va unumdor yerlarda to'plash ham maqsadga muvofiq emas. Mazkur holat yer uchastkalaridan olinadigan rentaning ham o'ziga xosligini belgilaydi. Differensial (tabaqaqlashgan) renta ana shunday hosil bo'ladi va u yerning sifatiga qarab olinadi hamda u rentaning absolyut rentadan ortiqcha bo'lgan qismidir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotiga talab (to'lovga qobil talab) katta bo'lsa, yer mahsuldorligining pastligi va joylashuvining noqulayligi ham yetarli darajada e'tiborga olinmaydi. Aksincha, bunday holat narxlarning shakillanishidagi ijtimoiy normal sharoit hisoblanadi. O'rtacha va yaxshi yerlarda xo'jalik yurituvchilar esa ko'proq qo'shimcha mahsulot (foyda) olish imkoniyatiga ega bo'ladir va foyda doimiy tavsifga ega bo'ladi. Mazkur hol differensial (tabaqaqlashgan) rentaning vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi.

Tuproqning hosildorligi ikki xil bo'ladi: tabiiy hosildorlik va iqtisodiy hosildorlik. Modomiki shunday ekan, renta ham turlichcha bo'ladi. U differensial renta - I, va differensial renta - II ga bo'linadi.

**Differensial renta - I** yerning tabiiy unumdorligi (tuproqning hosildorligi)ga va uning joylashuviga qarab olinadi. Ma'lumki, yerlar sifat jihatidan bir-biridan farqlanadi. Yerlarning noellastikligini nazarda tutadigan bo'lsak, yomon yerlar (hosildorligi past yerlar) ham bo'sh qolmaydi va takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb etiladi. Lekin bu yerlarga sarflagan harajatlar nisbatan ko'proq va olinadigan foyda esa shunga mos ravishda kamroq bo'ladi. Aksincha, yerlarning sifati yaxshilanib borgan sari ulardan olinadigan mahsulotning va foydaning miqdori ham ortib horadi. Endi masalaning nozik bir jihatni hor, bu ham bo'lsa bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarning bir xilligidir. Yerlarning sifatiga qarab ularga sarf qilingan harajatlar esa turlichadir. Xuddi ana shu farqlar differensial renta - I ni hosil qiladi.

O'zbekiston Respublikasida yerlar sifat jihatidan 5 turga bo'linadi: juda yaxshi yerlar, yaxshi yerlar, o'rtacha yerlar, yomon yerlar va o'ta yomon yerlar. Davlat ushbu yerlardan olinadigan renta (soliq)ning adoletli bo'lishini nazarda tutgan holda Respublikadagi yerlarning sifatini aniqlash va ularning bonitetini belgilash borasida

katta ishlarni amalga oshirdi. Hozirgi kunda yerlardan olinayotgan soliqlar yernarning ball bonitetiga qarab olinadi.

Tuproq tabiiy unumdarligining o'zi differensial renta—I ning paydo bo'lishiga yetarli darajada asos bo'lolmaydi. Yerlarning geografik joylashishi, ya'ni uning transport yo'llariga, yirik shaharlarga, qishloq xo'jaligi va boshqa bozorlarga nisbatan qulay yoki noqulay joylashuviga qarab ham differensial renta—I hosil bo'ladi.

**Differensial renta—II** tuproqning iqtisodiy hosildorligi natijasida hosil bo'ladi. Iqtisodiy hosildorlik deganda, yerga qo'shimcha mablag' sarflab, unga ishlov berib hosildorlikni sun'iy ravishda oshirish tushuniladi. Mazkur tadbir natijasida xo'jaliklarning mahsulot birligi hisobiga qilayotgan sarf—harajatlarining ular olayotgan daromadga nisbatan kamayishi kuzatiladi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarning narxlari bir xil bo'lganligi sababli, yerga yaxshi ishlov bergen xo'jaliklar yaxshiroq daromad oladilar. Ya'ni, ular o'zları qilgan sarflariga nisbatan olgan ustama daromad (qo'shimcha iqtisodiy foyda) differensial renta—II ni hosil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariiga o'tish davrida differensial renta—II ning bir qismi davlat fondiga jalb qilinishi ijobjiy samara beradi. Davlat yerlarning holatini yaxshilashga va pirovard oqibatda bu rentaning hosil bo'lishiga o'z hissasini qo'shami. Davlat o'zining ustuvor iqtisodiy maqsadlariga mos ravishda transport yo'llari qurilishiga, irrigatsiya—melioratsiya ishlarini yo'liga qo'yishga kapital mablag'lar sarflaydi, texnikalar, kadrlar, mineral o'g'itlar yetkazib beradi. Shunday qilib, differensial renta—I va II yer egasi bo'lgan davlat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida taqsimlanadi.

**Monopol renta** o'ziga xos tabiiy sharoitga ega, qishloq xo'jaligi mahsulotlari (uzumning alohida navlari, sitrus ekinlari, choy va h.k.lar)ning noyob turlarini yetishtirish imkoniyatini beradigan yer uchun uning egasiga to'lanadigan rentadir. Bunday erlarning taklifi juda oz bo'lib, aksincha talab juda katta bo'ladi. Mazkur yerlarda mahsulot narxlarining yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qobil talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol naixlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi tabiiydir va u ishlab chiqarishga ketgan xarajatlardan ancha yuqori bo'ladi va pirovardida yer egalari monopol renta olish imkoniga ega bo'ladi. Monopol renta ijara haqining yuqoriligidagi ham o'z ifodasini topadi.

Faqat qishloq xo'jaligida emas, balki undirma sanoatda ham qo'shimcha daromad olinadi. Ma'lumki, foydali qazilma konlari joylashuvi jihatidan ham, konning boyligi jihatidan va qazib olish sharoitlarining o'ziga xosligi bilan ham bir—biridan farq qiladi.

Xuddi qishloq ho'jaligidagi singari o'rta va yaxshi konlardagi korxonalar qo'shimcha foyda oladilar, u ham rentaga aylanadi.

**Qurilish uchastkalari uchun to'lanadigan renta** – yerlardan qurilish obyektlarini joylashtirish uchun to'lanadigan renta. Yer bilan qurilishni ajratib bo'lmaydi, har qanday bino yer ustida qad qo'taradi. Ammo, qurilish uchastkalari uchun olinadigan rentaning o'ziga xos xususiyati shundaki, mazkur renta boshqa rentalarga nisbatan yuqori bo'lishi talab etiladi. Aynan shu talab bajarilgan taqdirdagina ushbu yerlar ijaraga beriladi. Qurilish uchastkalaridan undiriladigan renta ushbu yerlarning geografik o'rni, transport yo'llari, aloqa vositalari, suv obyektlari, sog'lomlashtirish maskanlari, issiqlik quvurlariiga bog'liq bo'ladi va yerning sifati bu joyda rol o'ynamaydi.

### 3. Agrobiznes va uning turlari

**Agrobiznes** deganda, qishloq xo'jaligi sohasidagi biznes tushu – niladi va u bozor tizimining tarkibiy qismalaridan birini tashkil etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida agrobiznesning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- ❖ bu sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nisbatan bir xilligi;
- ❖ bu sohada mustaqil mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o'ta ko'pligi va shu sababli ularda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori raqobatbardoshligi;
- ❖ qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning doimo bir xil emasligi sababli undagi bozor konyukturasining beqarorligi;
- ❖ agrar sohada tadbirkorlik xavf – xatarining yuqoriligi;
- ❖ bozor muvozanatini ushlab turish maqsadida davlat aralashuvining mavjudligi va boshqalar.

Agrobiznes rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamalakatlariga xos bo'lib, unga qishloq xo'jaligining o'zi, shu soha mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatları kiradi.

Agrobiznesning maqsadi iste'mol bozorini to'la – to'kis ta'minlash orqali foyda ko'rishidan iborat. Agrobiznes ishtiroychilar – tadbirkor fermerlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tadbirkorlari va nihoyat shu mahsulotni sotish bilan shug'ullanuvchi tijoratchilardir. Bularidan tashqari, agrobiznes doirasiga banklar, sug'urta va moliya kompaniyalari ham jalb qilinadi.

Agrobiznes avvalari qishloq xo'jaligi bilan cheklansa, keyinchalik u agrosanoat integratsiyasi natijasida agrosanoat kompleksini qamrab oladi.

Agrobiznesning eng tarqalgan turi fermer xo'jaliklari hisoblanadi.

«Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birligidagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir»<sup>1</sup>.

Fermer xo'jaliklari iqtisodiy adabiyotlarning ko'pchiligidagi «ferma», «oilaviy ferma» deb talqin etiladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaviy fermer xo'jaliklari keng tarqalgan. Ular yuksak darajada ixtisoslashgan va zamonaviy fan - texnika yutuqlariga tayangan xo'jalik hisoblanadi, ular yuksak mehnat unumi va sifatlari mehnatni ta'minlashga qodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim olimlar unga «... ferma yoki oilaviy ferma xususiy qishloq xo'jaligi korxonasi bo'lib, uning maqsadi foyda shaklidagi pul daromadi olishdir. Fermalar asosan shaxsiy va ijaraga olingan yerlarda faoliyat ko'rsatadilar» deb ta'rif berilgan<sup>2</sup>.

Fermer xo'jaliklariga qanday ta'riflar berilishiga qaramasdan, ularning pirovard maqsadi daromad c'ish hisoblanadi.

Masalan, AQSH fermer xo'jaliklari bir necha tashkiliy shakklardan iborat. Bunday holat Yevropa mamlakatlarining fermer xo'jaliklariga ham xos. Bular shaxsiy oilaviy fermalar, sherikchilik va qishloq xo'jaligi korporatsiyalaridir.

Shaxsiy (individual) fermalar ularning eng ommalashgan turi hisoblanadi. Bunday xo'jaliklarga AQSH fermer xo'jaliklarining 9/10 qismi to'g'ri keladi. Bu fermer xo'jaliklari yerlарining 70 foizini egallagan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 60 foizini ishlab chiqaradi.

Fermer xo'jaliklarining boshqa bir shakli sherikchilik bo'lib, u o'zida bir oilaning turli avlodlarini birlashtiradi. Foya va zararni taqsimlashda avval qo'yilgan mablaq'larning salmoq'iga qaratadi. Sherikchilik qarindoshlarning yeri, moliyaviy, moddiy mehnat resurslarini birlashtirish imkoniyatini berib, pirovardida qishloq xo'jaligi samaradorligining oshishiga olib keladi.

Fermerchilikning yana bir shakli qishloq xo'jaligi korporatsiyalaridir. Korporatsiyalar mustaqil yuridik shaxs bo'lib,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risidagi» qonuni, 1 - modda, 1998 - yil 30 - aprel

<sup>2</sup> Кемпбелл Р. Мокконнелл. Стенли Р. Брю. Экономика. Т. I. -М., 1992, стр. 238.

cheklangan ma'suliyatga ega qo'rchilar (paychilar, hissadorlar) dan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklari tezlik bilan ko'payib bormoqda, natijada 1999 – yilda fermer xo'jaliklar soni 23 mingdan ziyodni tashkil etdi, ularning 10 mingdan ortiqrog'i chorvachilikka ixtisoslashgan.

1998 – 1999 – yillarda Respublikada yetishtirilgan go'shtning 90 foizi, sutning 92 foizi, kartoshkaning 76 foizi, sabzavotning 70 foizi, mevaning 61 foizi, poliz mahsulotlarining 53 foizi, uzumning 50 foizi, dehqon xo'jaliklari tomonidan tayyorlandi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga katta e'tibor berildi.

Paxta ekinadigan maydonlar tegishli suratda qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991 – yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda 35,9 foizga o'sdi<sup>1</sup>. Bugungi kunda respublikamizda 85,5 ming fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda va aynan ular hozirgi kunda muhim qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtiradigan asosiy ishlab chiqaruvchilarga aylanmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni moderniza'siya va isloh etishdir» mavzusidagi nutqlarid; iqtisodiy sohadagi muhim ustuvor vazifalarga to'xtalib, 2004 – yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yakunlarini ko'rsatib o'tdilar. Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yili 10,1 foizga, boshqolli don ekinlaridan 5 mln. tonnaga yaqin hosil olindi. Paxta xomashyosi yetishtirishda eng katta natijaga, ya'ni 3,5 mln. tonnaga erishilganligini va zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli shirkatlarni fermer xo'jaligiga aylantirish borasida 2005 – 2007 – yillarda 1100 ta jumladan, 2005 – yil 406 ta shirkat xo'jaligi qayta tashkil etish vazifasi belgilangan yangi dastur haqida ta'kidlab o'tdilar<sup>2</sup>. Fermer xo'jaligidan tashqari agrobiznes turlari ham bor. Ulardan biri agrofirmadir. Agrofirma muayyan turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir.

Agrotirmalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bor:

- ❖ Bu yerda qishloq xo'jaligi va sanoat resurslari birlashadi;
- ❖ Yagona ishlab chiqarish siklida agrar va industrial texnologiyalarning uyg'unlashuviga erishiladi;

<sup>1</sup> Fulominov S., Usmonov Q. Mustaqililik O'zbekistonga nima berdi. – T., 2000 – y. 48 – 49 – betlar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rufuzasi // «Turkiston» ro'znomasi. 29.01.2005, №8.

- ❖ Tarmoqlararo ishlab chiqarish aloqalarining jadallahuvি kuzatiladi;
- ❖ Bozor infrastrukturasi agrar, sanoat va savdo firmalari va ularning xo'jaliklararo kommunikatsiyalari talablariga moslashadi va h.k.lar.

Agrobiznesning yiriklashgan turi bu agrosanoat birlashmalaridir.

Bunday birlashma bir necha xo'jalik va korxonalar faoliyatini integratsiyalashtiradi. Bu yerda ishlab chiqarishning bir necha o'zaro bog'langan turlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi va tijorat ishi bilan shug'ullanuvchi korxonalar birlashadi. Fermer xo'jaligidan farqliroq, birlashmalar tanho (individual) xususiy mulkka asoslanmaydilar. Birlashma ishtiroychilarining mustaqil shaxsiy (individual) mulki bilan birlashtirilgan umumiy jamoa-korporativ mulki ham bo'ladi.

Agrobiznes ishiga fermerlar assotsiatsiyasi (uyushmasi) va ittifoqlari ham xizmat qiladi. Ular ko'ngilli va psychilik mablag'iga asoslangan uyushma bo'lib, o'z a'zolariga xizmat ko'rsatadi, ularning manfaatini himoya qiladi.

#### **4. Agrosanoat integratsiyasi.**

##### **Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi**

Mamlakat iste'mol bo'zorida qishloq xo'jaligining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Tarmoqning maqsadi aholining oziq-ovqat mahsulotlariiga ho'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Mazkur maqsadlarga erishish esa uni sanoat, savdo va boshqa tarmoqlar bilan bain mustahkam aloqada bo'lishini va bu tarmoqlar bilan uyg'un rivojlanishini talab etadi. Ya'ni zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritish agrosanoat integratsiyasi doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «*Qishloq joylarida zamonaviy texnologiyaga ega harakatchan kichik korxonalar ochish hisobiga yangi ish joylari tashkil etish eng muhim vazifalardan biridir. Qishloqda mutlaqo yangi tarmoqlarni ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani, kommunikatsiyalar tarmog'ini, zamonaviy maishiy va servis xizmatini ko'rsatishni barpo etish vazifasini oлганмиз*»<sup>1</sup> deb ta'kidlagan.

Bu tadbir amalga oshirilsa, qishloqdagi ishlashni xohlovchilarning hammasini ish bilan ta'minlash mumkin.

«Agrosanoat integratsiyasi— qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tundid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafoliatlari. — T.: «O'zbekiston» 1997—y. 203—204—betlar.

tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularni uzviy birikishi jarayonidir»<sup>1</sup>.

Agrosanoat integratsiyasi ko'p qirrali, o'ziga xos, murakkab iqtisodiy jarayon. Agrosanoat integratsiyasining qanday darajada ekanligi uning mamlakat ko'lamida, mintaqaga yoki korxona doirasida yuz berishiga uzviy bog'liqidir. Yuqori daraja (butun mamlakat va mintaqalar ko'lami) dagi agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining tarmoqlararo aloqalari kuchayishida, xalq xo'jaligi oziq - ovqat (tarmoq) va mintaqaga agrosanoat majmualari tashkil bo'lishi va rivojlanishida o'z aksini topadi.

Agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi xalq xo'jaligi tarmoqlari majmuasidir.

ASM quyidagi tarmoqlardan iborat:

- ✓ qishloq xo'jaligi;
- ✓ qishloq xo'jaligi uchun mashina va jihozlar yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari hamda ularga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar;
- ✓ qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish);
- ✓ odamlar bayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma (yo'l transport xo'jaligi, aloqa moddiy - texnika xizmati mahsulotni saqlash tizimi, ombor va idishlar (tara) xo'jaligi).

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni (uy - joy, madaniy - maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish) o'z ichiga oladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Qishloqni yangilash va qayta qurish chora - tadbirdilari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega».

Respublikada 2000 - yilgacha mo'ljallangan qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda 1998 - 2000 - yillarda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish davom ettilmoqda. Faqat 1999 - yil davomida qishloq joylarida 1965 km suv quvurlari tarmog'i ishga tushirildi. 4844 km gaz tarmoqlari qurildi. Mablag' bilan ta'minlanadigan barcha manbalar hisobidan umumiy maydoni 6,83 mln. kv. m. uy - joy binolari foydalanishga topshirildi. Qishloqlarda 204 qishloq

<sup>1</sup> Shodmonov Sh., Jorayev T. Iqtisodiyot nazoriyasi. - T., 2000, 157 - bet.

shifokorlik punktlari qurildi. Natijada 200 qishloq aholi punktlari aholisini malakali shifokorlar yordamidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Agrar munosabatlari** — yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari.

**Yer taklifining mutlaq noelastikligi.** Yer resurslari makonda tabbiy ravishda cheklangan, uni takror ishlab chiqarib bo'lmaydi. Yer taklifi yer narxining ortishi bilan ko'payib, aksincha kamayishi bilan tushib ketmaydi. Uning shu xususiyati yer taklifining mutlaq noelastikligi (o'zgarmasligi) deyiladi.

**Yer rentasi** — ijara chining yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lovi yoki yer egasining daromadi.

**Undirma sanoatdagli renta** — yer qa'ridagi qazilma boyliklarga, ularning sifatiga, qazib olish xarajatlariga qarab olinadigan renta.

**Qurilish uchastkalari uchun olinadigan renta** — yerni faqat tuproqning sifatiga qarab emas, balki uning joylashgan joyini hisobga olib va yerni boshqa usulda ishlatalishdan ko'ra ko'proq foyda olishga qarab undiriladigan rentadir.

**Ijara munosabasi** — yerdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddatga foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy aloqalar.

**Agrobiznes** deganda qishloq xo'jaligi sohasidagi biznes tushuniladi va u bozor tizimining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Keng ma'noda, bunga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan biznes turlari kiradi.

**Agrofirma** muayyan turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir.

**Agrosanoat birlashmalari** — agrosanoat — qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishining bir necha o'zaro bog'langan turlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi va tijorat ishi bilan shug'ullanuvchi korxonalar birlashmalaridir.

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Agrar munosabatlari va uning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Nima uchun yerga bo'lgan mulkchilik shakli agrar munosabatlarning asosini tashkil etadi?
3. Renta niina va uning qanday turlarini bilasiz?

4. Yerga bo'lgan talabning noellastikligi (o'zgarmasligi) to'g'risida nima bilasiz?
5. Yer narxi niima va u qanday hisoblanadi?
6. «Ijara haqi» va «yer rentasi»ning farqlarini izohlang.
7. Agrobiznesni qanday tushunasiz?
8. O'zbekistonda agrar sohani isloh qilish va uning xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Agrar sohani isloh qilishda fermer xo'jaliklarining roli qanday?
10. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining o'rni qanday bo'ladi?

## **XV Bob. MOLIYA TIZIMI. PUL MUOMALASI. BANKLAR**

1. Moliya munosabatlarining tarkib topishi, ularning mohiyati va vazifalari.
2. Davlat budjeti va uning tuzilishi.
3. Soliq tizimi va uning vazifalari.
4. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatları.
5. Kreditning mohiyati, shakllar va vazifalari.
6. Bank tizimi va ularning asosiy vazifalari.

### **1. Moliya munosabatlarining tarkib topishi, ularning mohiyati va vazifalari**

Moliya atamasi lotincha "financia" va fransuzcha "financia" so'zlaridan olinib to'lov, daromad ma'snosini bildiradi. Moliya iqtisodiy kategoriya bo'lib, tovar – pul munosabatlarining mahsulidir. Moliya o'z mohiyatiga ko'ra davlat va korxonalar ixtiyoridagi barcha pul mablag'larining tashkil topishi, taqsimoti va ulardan foydalanish xususida vujudga keladigan munosabatlar tizimidir.

Moliya munosabatlari pul munosabatlarining bir bo'lagi bo'lib, davlat budjeti, har xil jamoachilik fondlari, sug'urta fondlari, davlat valuta zahiralari (rezervlari), firmalar, tashkilotlar, - tijorat bo'g'inlarining pul fondlari va boshqa maxsus fondlar moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Takror ishlab chiqarish jarayonida makroiqtisodiyotdan tortib, butun makroiqtisodiyotning turli pog'onalarida pul resurslari hosil bo'ladi. Shu sababli, ularning yuzaga kelishi va ayniqsa sarflash jarayonining tartibga solish zaruriyati vujudga keladi. Bu vazifani moliya tizimi bajaradi.

Demak, moliya munosabatlari, avvalo, pul shaklida harakatlanadi. Aynan shu pul munosabatlari moliya amal qilishining zaruriy shartidir. Moliya munosabatlari takror ishlab chiqarishning taqsimot fazasida IM (ijtimoiy mahsulot) qiymatini avvaldan belgilangan maqsadlar uchun taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi.

Pul jamg'armalarining harakati jarayonida davlat, firmalar va tashkilotlar, hududlar va alohida tadbirkorlar va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi jamki iqtisodiy munosabatlar moliyaviy munosabatlarni vujudga keltiradi. Moliya davlatning xo'jalik faoliyati jarayoniga ta'sir ko'rsatishning asosiy dastagi bo'lib xizmat qiladi, amalda iqtisodiyotni boshqarishning hamma tomonlariga vositachilik vazifasini bajaradi.

Moliya tizimining iqtisodiyotdagি asosiy vazifasi:

1. Iqtisodiy jarayonlar, tadbirdarni moliyaviy ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish, ya'ni ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlarini harakatini moliyaviy ta'minlash va xizmat ko'rsatish pul fondlariiga shakllantirish va ishlatish.

2. Moliyaning taqsimlovchi vazifasi, moddiy ne'mat ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan YAMM, ayniqsa, MD davlat va turli mulk shakllariga asoslangan firmalar iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar o'rtaida taqsimlash va qayta taqsimlashda ko'rindi. Bunda MDning bir qismi korxonalar va aholi daromadlaridan olinadigan turli xil soliqlar, renta va bojxona to'lovlari, aksiz yig'inlari orqali davlat ixtiyorida to'planadi.

O'z ixtiyoriga to'plagan MDning katta qismiga davlat moliya vositasida aholini ijtimoiy himoyalash va moddiy ehtiyojlariga (uy-joy qurish, tibbiyot xizmati; maorif, nafaqa, stipendiya), daromadlar darajasini ushlab turish, milliy muhofaza va atrof-muhitni muhofaza qilishga sarflaydi.

3. Moliyaning rag'ballantiruvchi vazifasi, YAMM va MD davlat budjeti, ijtimoiy sug'urta fondi, maxsus fondlar, korxonalar, fondlariga belgilangan maqsadni bajarish uchun taqsimlaydi, ya'ni moliyaviy kafolatlashdan iborat.

4. Moliyaning yana bir vazifa - soliqlarni to'g'ri tashkil etish va ularni belgilangan maqsad yo'lida foydalanish nazoratini amalga oshiradi.

Davlat moliyasi makroiqtisodiyotni to'liq qamrab oladi va o'z tarkibiga davlat budjeti, davlat ijtimoiy sug'urtasi, (nafaqa fondi), davlat mulki va shaxsiy sug'urtasi, davlatning budjetdan o'zga fondlarni ham o'z ichiga oladi. Binobarin, moliya tizimi davlat manfaati uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida moliya tizimi Moliya Vazirligi tomonidan boshqariladi. Moliya Vazirligi Markaziy moliya tashkiloti shaklida davlatning yagona moliyaviy siyosatini yuritib, moliyanı tashkil etishga umumiylahbarlik qiladi.

## 2. Davlat budjeti va uning tuzilishi

Davlat budjeti davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul fondidir. U o'zero bog'langan ikki qismni: kelib tushadigan mablag'lar, belgilangan daromadlar va chiqimlarning barcha turlarini o'z ichiga oladigan xarajat qismalaridan iboratir.

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga qarab budjet ikki pog'onali yoki uch pog'onali tuzilishga ega. O'zbekiston

Respublikasida ikki pog'onali budjet tuzilishi mavjud bo'lib, u markaziy davlat budjeti va mahalliy budjetlardan iborat. Davlat budjeti o'z ichiga hamma mahalliy budjetlarni qamrab oladi. Davlat budgetining daromadlar va xarajatlar qismlari quyidagicha:

Budjet daromadlari manbai	Davlat budjeti xarajatlari tarkibi
1. Korxonalar, firmalar foydasidan soliqlar. 2. Aksiz to'lovleri. 3. Bojxona to'lovleri.	1. Iqtisodiyotni moliyalashtirish (infratuzilma obyektlari uchun kapital mablag'lari, korxonalarga dotatsiya, qishloq xo'jaligiga subsidiya)lar berish.
4. Davlat zayomlaridan keladigan daromad. 5. Pul emissiyasi keltirgan daromad.	2. Ijtimoiy – madaniy sohaga (sog'liqni saqlash, maorif, sport, ijtimoiy nafaqalar, mahalliy hokimiyatlar).
6. Davlat oladigan divident, foiz, ijara haqi	3. Mudofaa xarajatlari. Ma'muriy boshqaruv xarajatlari.
7. Davlat mulkini sotishdan keladigan daromad.	5. Ilmiy ishlar va ilmiy – texnika dasturlari uchun xarajatlari.
8. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan tushadigan daromad. 9. Soliqsiz daromadlar. 10. Renta to'lovleri. 11. Qo'shilgan qiymat solig'i. 12. Ssuda fondi mablag'lari va boshqa daromadlar.	6. Tashqi siyosatni ta'minlash uchun xarajatlari, diplomatiya shobobchalarini va tashqi mamlakatlar zayomlari uchun xarajatlari. 7. Davlat qarzi bo'yicha to'lovlar. 8. Maqsadli dasturlar uchun xarajat. 9. Kreditlar va o'zga mamlakatlarga yordam va boshqa xarajatlari.

Harajat va daromad teng bo'lganda budjet balansga ega bo'ladi. Xarajatning daromaddan oshib ketishi budjetning yetishmovchiligini bildiradi. Budjet taqchilligining sabablari quyidagilar: iqtisodiy tanglik davrida daromadlarning pasayishi va MD o'sishining pasayishi; davlat budgetiga tushuvchi aksiz soliqlarining qisqarishi.

Budjet taqchilligining o'sishi mutlaq miqdorda va uning yalpi milliy mahsulot YAMM ga nisbatida aniq namoyon bo'ldi. 1999 – yil Respublikamiz davlat budgetining taqchilliği YAMM ga nisbatan (1,8)

faqat ikki foizni tashkil qilgan<sup>1</sup>. Buni qoplash uchun davlat soliqlarni oshirishga, davlat qarzini ko'paytirishga (bu esa budjetning daromad qismini ko'paytiradi), shuningdek, qo'shimcha miqdorda pul chiqarishga majbur bo'ladi (bu esa pulni qadrsizlantiradi).

Iqtisodiy xarakatlar tarkibiga, shuningdek, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani mablag' bilan ta'minlash: yo'llar, portlar, aerodromlar qurilishi, aloqa vositalari, elektr, gaz va suv ta'minoti, irrigatsiya inshootlarini barpo etish va sozlab turish, tibbiyot, o'quv yurtlari, uy - joy fondi, madaniy tadbirlar va sport korxonalari hamda tashkilotlarini ta'minlab turish kiradi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida, hozirgi paytda davlat budjeti daromadlarining ko'p qismini joylarga berish va mahalliy budjetlarni mustahkamlash uchun yo'naltirilmoqda.

Mahalliy budjetlarga keng iqtisodiy erkinlik berish, tumanlar, shahar, viloyatlarning mustaqilligini ta'minlaydi. Budjetlarni shakllantirish va undan foydalananish manfaatdorligi oshdi va budjetdan foydalananish intizomi mustahkamlandi.

Ko'p mamlakatlarda mahalliy transport, suv va gaz ta'minoti, maktab, shifoxona va uy - joylar qurilishi, shaharlarni ta'mirlash, kommunal xo'jalik va hokazolar mahalliy budjetdan mablag' bilan ta'minlanadi. Uni daromadlarning butun bir majmui: savdo bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar va huquq berish solig'i, uylarni, yer, o'rmonlarni ijaraga berish va solishdan olingan daromad, sud tovonlari, atrof - muhitni ifloslantirganlik uchun jarimalar, shuningdek, markaziy budjetdan olinuvchi yordam puli to'ldiradi.

Prezident I.A.Karimov "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asarida budjet siyosatining eng muhim vazifasi iqtisodiyotni budjet kamomadini cheklash hisobiga barqarorlashtirish vazifalarini hal etish zarurligini ta'kidlagan.

### 3. Soliq tizimi va uning vazifalari

Har bir mamlakatda soliq tizimining tashkil etilishi, ularning tarkibi, undirib olish uslublari ma'lum darjada o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, soliqqa tortish obyektlarida, tamoyillarida bir qator umumiyliliklar ham mavjud. Soliqlar davlat tomonidan fiskal siyosat o'tkazish miqqoslarida undiriladi va majburiy xarakter kasb etadi.

Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida soliq oluvchi bilan soliq to'lovchilar o'rtasida doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy vogelikni bildiradi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish - eng muhim vazifalariz. "Nash so'zi", 2000 - yil, 15 - foydali.

Soliq bu mustaqil ishlab chiqarishda faoliyat qiluvchi subyekt daromadining bir qismini qonun asosida belgilangan shaklda va ma'lum miqdorda davlat ixtiyoriga olishdir. Soliqlar, asosan, davlatning firmalar, konsernlar, tashkilotlar, aholidan undiriladigan pul mablag'laridir.

Soliqlar soliq to'lovchilarning faqat daromadidan undiriladi, xolos. Ma'lum soliq tizimini yaratishda davlat daromadlarning maksimal bo'lishi zaruriyatini, soliqqa tortishning samarali va adolatli bo'lishini hisobga olish kerak. Turli xil xarajatlar va daromadlar soliqqa tortilishi mumkin.

Soliq undirilishining manbalari:

- tovarlar va ishlab chiqarish omillari bozorida;
- sotuvchilar va xaridorlardan;
- uy xo'jaliklari va kompaniyalardan;
- daromad manbai va xarajat.

Odatda soliqlar quyidaqi ko'rinishlarda bo'ladi:

- jismoniy shaxslardan daromad solig'i sifatida;
- yuridik shaxslardan daromad solig'i sifatida;
- turli xil egri soliqlar sifatida;
- ijtimoiy fondga ajratmalar sifatida;
- iste'molchiga nisbatan alohida xildagi soliqlar sifatida;
- mol — mulk solig'i;
- hadya, meros solig'i va hokazolar.

Soliqlar shaxsiy va huquqiy bo'ladi. Shaxsiy soliqlar faqat aholi daromadlaridan undiriladi. Huquqiy soliqlar jismoniy va huquqiy shaxslardan undiriladi.

Ko'p ukladli iqtisodiyotda soliq undiriladigan subyektlar ko'p bo'ladi. Soliq obyekti — bu soliq undiriladigan daromad yoki mol — mulkdir. Soliq undiriladigan obyektlar: daromad, kapital, yer, tadbirkorning xo'jalik faoliyatidan, ayrim tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar va hokazo'lari.

Soliq undiriladigan obyektlarni quyidagicha ajratish mumkin:

- daromad (aholi, korxonalar, firmalar);
- mulk (harakatdagi mulk, ya'ni kapital sifatida daromad keltiruvchi) va harakatda bo'lmagan mulk;
- mulknii merosga qoldirishdan, qimmatli qog'ozlar sotishdan, bojxona to'lovlarini va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimida tabaqlashtirilgan soliq mezonlari mavjud bo'lib, daromad miqdoriga binoan progressiv tarzda soliq undiriladi.

Soliqlarning ijtimoiy vazifasi daromadlar va soliq stavkalari o'ttasidagi nisbatga muvofiq progressiv, regressiv va proporsional usulda undiriladi.

Progressiv soliq daromad o'sib borishi bilan o'rtacha soliq stavkasi ham o'sib boradi.

Regressiv soliq usulida soliq miqdorlari tadbirkor daromadiga nisbatan kamayib boradi. Ayrim soliq to'lovchilarga imtiyozlar yaratiladi.

Proporsional soliq usulida daromad miqdoridan qat'iy nazar o'rtacha soliq stavkasi o'zgarmaydi.

Amaliyotda uchala soliq undirish usulidan foydalanib, ular asosida davlatning ijtimoiy vazifasi bajarilishi ko'zda tutiladi. Soliqning uchinchi vazifasi davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda foydalaniladi.

To'g'ri va egri soliqlar mavjud. To'g'ri soliqlar uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar daromadlaridan undiriladi. Egri soliqlar, soliq tizimining boshqa bo'g'inlariga xos bo'lib, soliq yuki iste'molchilar zimmasiga tushadi, ya'ni tovar va xizmatlar narxiga qo'shiladi.

To'g'ri soliqlar davlat tomonidan soliq to'lovchilarning daromadlari yoki mol-mulkidan undiriladigan soliqlardir. Daromad (ish haqi, foyda, foiz va hokazo) va mol-mulkning qiymati (yer, uylar, qimmatbaho qog'ozlar va hokazo) to'g'ri soliqlarning obyekti hisoblanadi.

To'g'ri soliqlarning eng ko'p tarqalgan turlari:

- daromad solig'i (u to'lovchining sof daromadi — yalpi daromadga solinadi, undan moddiy sarf-xarajatlar va soliqdagagi imtiyozlar chegiriladi. Daromad solig'i asosan ish haqi berilishi va daromadning boshqa turlarida, shuningdek, maxsus moliya organlariga manbalarini ko'rsatgan holda barcha ishlab topilgan summani o'z ichiga olgan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish chog'ida chegirib qolish yo'li bilan undiriladi. Agar daromad o'sishi bilan daromad solig'inining miqdori ko'paysa, u o'sib boruvchi soliq, agar yagona stavka bo'yicha undirilsa, proporsional soliq deb ataladi.);

- korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliq (olinadigan foydasiga markaziy hukumat ham, mahalliy hokimiyat ham soliq solinadigan korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalari daromadlaridan olinadigan soliq);

- kapitalning o'sishiga solinuvchi soliq (mol-mulk oldi-sotdisidan olingen daromaddan undiriladi. U mol-mulkning bozor narxi bilan uni xarid qilish narxi o'rtasidagi farq natijasida hosil bo'lgan daromaddan undiriladi);

- meros va sovg'a qilishga solinuvchi soliq (mol-mulkni bir miqdordan boshqasiga berishda uning qiymatidan undiriladi. Meros va sovg'a qilishda mulkning butun miqdoriga soliq solinadi.).

Egri soliqlar tovar yoki ko'rsatilgan xizmat narxiga ustama ko'tinishdagi soliqlar. Ushbu tovarning xaridori bo'lgan iste'molchi egri soliqni to'lovchi hisoblanadi. Egri soliqlarning eng ko'p tarqalgan turlari:

▪ aylanma solig'i (muomalada bo'lgan tovarlar katta miqdorining qiyamatidan undiriladi);

▪ aksiz solig'i (ma'lum tovarlarga qo'yiladigan soliq: sigaretlar, vino, aroq, benzin va hokazo.);

▪ qo'shilgan qiymat solig'i (ishlab chiqarish yoki muomalaning har bir bosqichida qo'shilgan qiymat qismidan undiriladi. Qo'shilgan qiynatga ish haqi, amortizatsiya, kredit uchun foiz, elektr energiyaga, transportga reklamaga ketgan sarf – xarajatlar kiradi. Bittagina tovar boshqatdan sotilayotgan bo'lsa, soliq xarid va sotish narxları o'rtaqidagi ayirmani hosil qiluvchi qo'shilgan qiymatdan hisoblanadi. So'ngra bu soliq tovarning uzil – kesil narxiga qo'shiladi, ya'ni bunda ishlab chiqaruvchining emas, balki iste'molchining daromadi soliq solish obyekti bo'ladi);

▪ fiskal monopol soliqlar (faqat davlat tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar – tamaki, spirt, gugurt, tuz va hokazolarga solinadi);

▪ bojxona tovonlari (xorijdan olib kelinadigan, mamlakatdan tashqariga olib ketiladigan yoki uning hududi orqali olib o'tiladigan tovarlarga solinadigan soliqlar. Soliq miqdori ko'pincha soliq solinadigan tovar qiymatiga foiz tarzida belgilanadi. Bojxona tovonlarini kamaytirib yoki ko'paytirib, davlat eksport va import savdo operatsiyalarini rag'batlantiradi yoki cheklaydi).

Soliq tizimi adolatli bo'lishi iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydi. Soliq tizimi, soliq obyektlari, soliq me'yorlari dunyodagi muayyan mamlakatlarda bir – biridan keskin farq qiladi. Sabab soliq tizimi muayyan mamlakat iqtisodiyoti xususiyatiga, taraqqiyotiga muvofiq shakllanadi. Masalan: AQSHda daromad solig'i ish haqining 31 foizini, Fransiyada 57 foizni, Shvetsiyada esa 72 foizni O'zbekiston Respublikasida 35 foizni tashkil etadi. Keyingi yillarda bu soliq me'yorining ancha pasayishi sezilmogda.

HAR bir davlat yig'ilayotgan soliq hajmini ko'paytirishga harakat qiladi. Sabab davlat budgeti, mahalliy budget sarf – xarajatlari miqdori ko'payib bormoqda.

#### 4. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatları

Pul tovarlar aylanishining umumiyligi ekvivalentidir. Demak, tovarlar o'z qiymatlarini pulda ifodalaydi va o'z bahosiga ega bo'ladi. Pul munosabatlari iste'mol qiymati sifatida namoyon bo'ladi, sabab

istalgan vaqtida xohlangan sharoitda, xohlangan tovar qiymatiga aylanadi. Demak, pul umumiy ehtiyoj predmeti bo'lib, umumiy iste'mol qiymatini ifodalaydi. Pul haqiqatda alohida o'ziga xos iste'mol qiymatga ega bo'lib, alohida maxsus ideal umumiy qiymat bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi pul va bank hujjatlarining quyidagicha tavsifi mavjud:

- bitishuvlar uchun pul (M1). Bular joriy hisoblari (omonat banklaridan «yo'qlab» olguncha) bo'lgan qog'oz va metal pullar, naqd qog'oz pullar.

- pul (M2), unga M1 pullari, shuningdek, muddatli hisoblarga joylashtirilgan, ya'ni belgilangan muddat mobaynida (bir necha oydan tortib undan oshiq muddatga) bank va omonat banklardan olib bo'lmaydigan pullar kiradi.

Pul muomalasi bu tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakatidir. Naqd pul muomalasiga banknotlar va metal tangalar xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar, cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati deb yuritiladi.

**Veksel** bu muayyan miqdordagi qarzni belgilangan muddatda qat'iy to'l-sh majburiyati yuklangan, qonun bilan ta'silangan holatda to'ldirib rasmiylashtirilgan qarz dorlik tilxatidir. Veksel, eng avvalo, bir shaxs tomonidan ikkinchisiga yozib berilgan qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog'ozning bir shaklidir. Vekselni har qanday to'lovga qobil korxona va tashkilot yozib berish huquqiga ega. Shu tariqa savdo bitimi naqd pul yoki chek emas, balki kredit hujjati va veksel vositasida amalga oshiriladi, u veksel sohibiga ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng veksel beruvchidan unda ko'rsatilgan pulni talab qilish huquqini beradi.

Veksellar ikki xil bo'ldi: oddiy va o'tkazma. Oddiy veksel qarz oluvchi tomonidan kreditorga berilgan qarzni to'lash majburiyatidir. O'tkazma veksel kreditor tomonidan yozilib, u ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pu'lni uchinchi shaxsga to'lashni ko'rsatadi. Veksellardan foydalanish ma'lum chegaraga ega. Vekselni taqdim etuvchi shaxs qarzini o'z vaqtida to'lab olishiga ishonch mavjud bo'lgan holdagini ular tovarga haq to'lash chog'ida qabul qilib olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995—yil 2—iyunda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligida veksellarni qo'llash to'g'risida»gi qarori Respublikada veksel muomalasini tashkil etilishining barcha o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. O'zbekistonda veksel muomalasi tashkil

etilishining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, muomalaga chiqarilgan har bir veksel oldindan emitentning to'lov qobiliyatini aniqlab, banklar tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

**Garov shahodatnomasi.** U savdo va tijorat operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan ko'chma va ko'chmas mol - mulkning qarzdor tomonidan garovga qo'yilishi haqidagi kredit hujjatidir. Xususan, garov shahodatnomasi asosida bankdan naqd pul bilan kredit yoki ssuda olish mumkin, shuningdek, xarid qilinadigan haq to'lash uchun foydalansa bo'ladi.

**Kredit kartochkalari.** U kichik o'lchamdagisi plastik yoki metall kartochka ko'rinishidagi hujjat bo'lib, bankdagi hisob sohibining shaxsini tasdiqlaydi va unga naqd pullar yordamisiz mol va ko'rsatilgan xizmatga haq to'lash huquqini beradi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ko'pchilik savdo markazlari, do'konlarida kredit kartochkalari yordamida bitimga kelishish, xarid qilish uchun mo'ljallangan maxsus bankomatlar, kompyuter tizimlari mavjud, ko'chalarda avtomobil manzilgohlari, muassasalarida kredit kartochkalari sohiblariga naqd pul beradigan bankomatlar o'rnatilgan. AQSHda, masalan, 80 - yillar oxirida muomalada barcha tiplardagi 200 milliondan ortiq, Buyuk Britaniyada sa'ljam 30 mln. kredit kartochkasi bo'lgan. MDH mamlakatlarda ular hozircha sa'ljam 30 ming dona.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Eng asosiy qonunlaridan biri muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Pul muomalasi nisbatan mustaqil bo'lib, o'z qonuniyatlariga binoan amal qiladi.

Tovar muomalasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdorini quyidagi omillar belgilaydi: sotish uchun taklif etilayotgan tovar va xizmatlar hajmi, ularning narxlari, kredit uchun to'lanadigan summa, kreditning qaytarib berilishi va nihoyat pul aylanishining tezligi. Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Tb = Xk + Xt$$

$$Pm = \frac{\text{At}}{\text{bunda}};$$

At

bunda:

Pm - muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pulning miqdori;

Tb - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar bahosining summasi;

Xk — haqi sotish davridan boshqa vaqtida to'lanadigan bahosining summasi;

Xt — haqi to'lash muddati kelgan tovarlar bahosining summasi;

At — pul aylanishi tezligi.

Mazkur formula pul muomalasi qonunini ifodalaydi. Muomalada bo'lgan pul birligi miqdorining tovarlar bahosi summasidan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi infliyatsiyani bildiradi, (infiyatsiya va uning oqibatlari 16 – mavzuda to'liq berilgan).

O'zbekiston Respublikasi 1994 – yil 1 – iyuldan boshlab milliy o'zbek so'mini muomalaga chiqardi. Birinchidan, milliy valutaning muomalaga chiqarilishi O'zbekiston davlatining o'z milliy valutasini e'tirof etishi bo'lsa, ikkinchidan, iqtisodiy mustaqillikni tiklashdagi eng muhim ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ma'naviy yo'nalishdagi yutuq bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi so'mi mamlakat ichkarisida xorijiy valutaga erkin ayrboshlashni ta'minlashdir. Bu muammo hal etilib, Markaziy Bank bilan 19 bank valuta birjasida qatnashmoqdalar. O'zbek so'mi chet el valuta birliklariga erkin almashtirilmoqda.

Davlat Markaziy Bank bilan pul – kredit tizimidagi rezervlar miqdorini o'zgartirish bilan ham pulning taklif va talabiga ta'sir etadi. Rezervlar miqdor o'sishi pul taklifini qisqartiradi, aksincha banklarning rezervlardagi pul miqdorini kamaytirish siyosati pul taklifining o'sishiga sabab bo'ladi. Shu yo'nalishlardi tadbirlar asosida davlat milliy valuta barqarorligini ta'minlash choralarini amalga oshirdi.

O'zbek so'mini mustahkamlash uchun davlat bozorlarni tovarlarga bo'lgan talab va taklif muvozanatini vujudga keltirish uchun tadbirkorlarga kredit berish va milliy tovarlar miqdorini ko'paytirish choralarini ko'rilmogda.

Valuta zahirasini ko'paytirish va mustahkamlashga erishish, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga mahsulot olib chiquvchi korxonalarni rag'batlantirish, infliyatsiyaga qarshi choralar ko'rish va uning darajasini pasaytirish, o'zbek so'mining quvvatini oshirish imtaqillik istiqboli uchun xizmat qildirishdir.

## 6. Kreditning mohiyati, shakllari va vazifalari.

Kredit – egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarza olishi va qaytarib berishi yuzasidan kelib chiqqan munosabatlardir. Kredit munosabati ikki subyekt o'rtasida, pul egasi, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

Kredit munosabatlari subyektlari korxonalar (firmalar), tashkilotlar, davlat va uning muassasalari, aholining tadbirkorlik bilan faoliyat qiluvchi qismidir. Bu subyektlar bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi bo'lishi mumkin.

Kredit munosabatlarining obyekti korxonalarning ish haqi berilguncha, tovar sotilguncha vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari; asosiy kapitalni (asosiy fondni) tiklash uchun ajratilgan amortizatsiya ajratmalari, korxonalarning ishlab chiqarishni kengaytirishga va rekonstruksiya qilishga bog'liq bo'lib jamg'arilgan mablag'lari, aholining omonat banklarida jamg'arilgan jamg'armalari, kelgusi ishlab chiqarish jarayonigacha bo'lgan davrda vaqtincha bo'sh turgan aylanma mablag'larining bir qismi sifatida korxona pul resurslari, davlatning jamg'arilgan pul resurslari, chet el davlatlari va boshqa subyektlarning pul resurslari va hokazolar.

Kredit quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (masalan, veksel, chek, sertifikatlar va hokazo) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etadi.
2. Bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantiradi.
3. Qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'ttasida qayta taqsir-lash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko'chi-turishini ta'minlaydi.
4. Qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.
5. Kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy subyektlar faoliyati ustidan nazorat qiladi, iqtisodiyotni tartibga soladi, kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirib, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar beradi.

Kredit berish ma'lum qoida — tamoyillarga asoslanadi. Ya'ni kredit o'z egasiga qaytarilishi shart, kredit ma'lum bir maqsad uchun ma'lum muddatga berish, foiz to'lash shartlaridan iboratdir.

Kreditning asosiy shakllari: bank krediti va tijorat krediti.

**Bank krediti** obyekti pul kapitalidir. Bank krediti o'zining muddati, maqsadli berilishi va boshqa qoida va imtiyozları asosida tijorat kreditidan farq qiladi.

Bank krediti kapital jamg'arish, aholi va firmalar pul mablaq'larini kapitalga aylantirish kabi vazifani bajaradi.

**Tijorat krediti** bir korxonaning ikkinchi korxonaga sotilgan tovar uchun muddati kechiktirilgan to'lov ko'rinishida amalga oshadi. Tijorat kreditining asosiy vositasi vekseldir. Tijorat krediti tovar aylanishini tezlatib, undan keladigan foydani o'zlashtirishdir.

Rivojlangan davlatlarda bank va tijorat kreditlari bir—birlari bilan qo'shib ketgan.

**Iste'molchilik krediti** bankdan ssudalar berish asosida xususiy shaxslarga uzoq muddatga iste'mol qilinadigan tovarlarni xarid qilish uchun (mebel, avtomobil, televizor) ma'lum inuddatga beriladi. Iste'molchilar kreditiga chakana savdo—sotiq qiluvchi do'konlarning to'ovi kechiktirilgan savdosi ko'rinishida bo'ladi. Iste'molchilar krediti asosan 3 yil muddatga beriladi. O'zDEU avtokompaniyasi mahsulotlari 7 yilga berilmogda. Iste'molchilik kreditining foiz stavkasi ancha yuqori bo'ladi.

**Ipoteka krediti** ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar chiqargan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Kreditning yana bir shakli **davlat kreditidir**. Bunda qarz oluvchilar davlat va mahalliy hokimiyat tashkilotlaridir. Ular qimmatli qoq'ozlar bozorida moliya—kredit tashkilotlari orqali zayomlar chiqarib, pul mablag'larini toplashni bajaradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda davlatning kredit berish faoliyati kengayib, uy—joy qurilishi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni jadallashtirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida kreditdan keng foydalilmoqda.

**Xalqaro kredit** mamlaktlar o'rtasida ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlari sohasidagi harakatida namoyon bo'ladi. Xalqaro valuta fondi, Xalqaro taraqqiyot va Tiklanish banki, Jahon banki turli mamlakatlarga kredit berishning markazlaridir. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardir.

Kredit iqtisodiyotda bir qator vazifani bajaradi. Jumladan, pul mablag'larini qayta taqsimlash vazifasini aboli, korxonalar, davlatning vaqtinchalik pul resurslarini ssuda kapitali tarzida iqtisodiyotning zarur bo'lgan tarmoqlarini, korxonalarini rivojlantirish uchun qayta taqsimlanishidir.

Kreditning yana bir vazifasi kapitalni bir joyga to'planishi va markazlashuvini tezlashtiradi. Kredit muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajarib, pul banknotlari o'rniga veksel, chek, banknot kabi hisob—kitob hamda pul o'tkazish shaklida muomala bilan pul muomalasini tezlashtiradi. Kreditdan iqtisodiyotni tartibga solishda dastak sifatida foydalilmoqda.

Qarzga berilgan pul hisobiga olinadigan daromad **foiz** yoki **foizli daromad** deyiladi. Olingen foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga uisbatli va yuzga ko'paytmasi foiz stavkasi yoki foiz me'yori deyiladi.

Kredit asosida jamiyat uchun muhim bo'lgan sohalar taraqqiyotini ta'minlash va tadbirkorlar faoliyatini tartibga solib turadi. Jamiyatda iqtisodiyotning eng dolzarb, umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan sohalarning taraqqiyotini jedallashtirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi va ta'minlaydi.

## 6. Bank tizimi va ularning asosiy vazifalari.

Bozor iqtisodiyotining negizini bank tizimi tashkil etadi. Xilma-xil bo'lgan bank tizimi o'z ichiga bank tartibotlaridan tashqari, bozor faoliyati jarayonida shakllanadigan, kredit berish, qimmatli qog'ozlar oldi—soldisi, moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish, investitsiyalar, ssuda va hokazolar borasidagi iqtisodiy munosabatlarning deyarli butun majmuini oladi.

Banklarning bir necha turi mavjud. Ular ichida eng keng tarqalgani — **tijorat banki**, uning asosiy vazifalari — aholining korxonalarining omonati sifatida kelib tushadigan pullarni jamg'arish, kredit berish, turli xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdir. MDH mamlakatlarida hozirdanoq saltkam 200 mingta davlatniki bo'limgan, aksiyali va xususiy tijorat banklari mavjud. Investitsiya banki bozor xo'jaligining barcha tarmoqlariga muddatli kredit berish va ularni investitsiyalash bilan shug'ullanadi, shuningdek, qizmatbaho qog'ozlar — aksiyalar, obligatsiyalar, xazina biletlari, banknotlar, kuponlar va hokazolar bilan operatsiyalar o'tkazadi.

Odatda investitsiya banklari fond birjasi bilan yaqindan bog'langan bo'ladi, bunday birjada portfel investitsiyalarini amalga oshiriladi, ya'ni egallab olish, ishlab chiqarishni qayta qurish, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish maqsadida biror korxonaning aksiyalari, obligatsiyalari sotib olinadi hamda sotiladi. Investitsiya banklari, shuningdek, mijozlarning buyurtmalari bo'yicha qimmatbaho qog'ozlar bilan bo'ladi dan operatsiyalar bilan birga turlicha dallollik xizmatlarini ko'rsatadi.

Ixtisoslashtirilgan banklar muayyan tarmoqlar korxonalarini yoki faoliyat sohalariga kredit beradi va ularni mablag' bilan ta'minlaydi. Masalan, qishloq xo'jalik, qurilish, tashqi savdo va boshqa banklar mavjud. Ipoteka banki (yunoncha "ipoteka" — garov) ixtisoslashtirilgan bankning alohida turi bo'lib, uning asosiy vazifasi turli ko'chmas mulkni — yer, imoratlarni garovga olib ssuda berishdan iborat. Ipoteka banklari asosan fermerlik rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan.

Markaziy (yoki davlat) banki davlatning mulkidir. U pul, obligatsiya emissiyasi (chiqarilishi) bilan, shuningdek, mamlakatning butun bank tizimini boshqarish, nazorat qilish bilan shug'ullanadi.

Masalan, Federal Rezerv Tizimi (FRT) deb ataladigan AQSH markaziy banki tijorat, investitsiya va ixtisoslashtirilgan banklarga kredit beradi, ularning faoliyatini sug'urtalaydi, boshqaradi, davlat obligatsiyalari, xazina biletlarini sotib oлади va sotadi. Markaziy bank, odатда, ijrochi hokimiyatga (prezident, hukumatga) qaram bo'lmaydi, uning faoliyatini faqat mamlakat parlamenti boshqaradi. Olmoniyada – Bundesbank, Fransiyada – Fransiya milliy banki, Italiyada – Italia davlat banki, O'zbekistonda – O'zbekiston Respublikasi Milliy banki markaziy bank hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati" to'g'risidagi qonunda belgilanishicha, tijorat banklari va aksiyali pay asosida tashkil topgan xususiy banklar bo'ladiki, ular "kredit hisob-kitob va o'ziga xos bank xizmatini ko'rsatadilar". Tijorat banklari faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishni ko'zda tutadi. Tijorat banking daromad manbai mijozlarning bank xizmati uchun to'lagan va aktivlaridan – zayom, kredit, qimmatli qog'ozlardan olinadigan foyda hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonda ko'plab ixtisoslashgan tijorat banklar iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit – pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshirmoqda. Sanoat qurilish banki – sanoat, transport, aloqa va moddiy – texnika ta'minoti sohalarida Zamin, G'alla, Paxta banklar agrosanoat kompleksi tarmoqlari va boshqa sohalarida; Tadbirkor banki mayda va o'rta biznes, kooperativ va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida kredit – pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

Xalq banki – mamlakatda omonat ishlarini bajaradi, naqd pulsiz hisob – kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishi, aholiga shaxsiy ehtiyojlariga kredit berishi va shu kabi operatsiyalarni amalga oshiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport – import operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxona va muassasalarga kredit beradi, aralash qo'shma kerxonalarga kredit berishda katnashadi, to'plangan valuta rejasining ijarasini, valuta resurslaridan tejab, samarali foydalinishini nazorat qiladi, shu bilan birga, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob – kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni la'minlaydi.

Ixtisoslashgan investitsion va ipoteka banklar – maxsus kredit muassasalari bo'lib, ular operatsiyalariga obligatsiya hamda qarz majburiyatlar boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatlari ssuda kapitalini jalg qiladi va ularni mijozlarga tavsija etadi. Investitsion kompaniyalar, qimmatbaho qog'ozlar chiqarish va sotish yo'li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to'playdi va ularni korxonalar, aksiya va obligatsiyalarga joylashtirib foyda olishni ko'zlaydi.

**Ipoteka banklar** – bu ko'chmas mulk (yer va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalar. Ipoteka bankining pul resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Ipoteka bankidan olingen ssuda uy – joy va har xil inshootlar qurish, korxonalarni rekonstruksiya etib, ishlab chiqarish qvvatini oshirish uchun foydalanadi.

Banklar ikki xil – passiv (*sust*) va aktiv (*faol*) operatsiyalarini amalga oshiradi. Passiv (*sust*) operatsiyalar yordamida pul resurslari jamlanadi, aktiv (*faol*) operatsiyalar yordamida ular joylashtiriladi va taqsimlanadi. Bankda pul resurslari o'zining va jaib etilgan mablag'lar hisobiga shakllantiriladi. Bankni ta'sis etish chog'ida (*ta'sis kapitali*), shuningdek, foyda va daromad olish asosida hosil bo'ladi gan kapital o'zining mablag'lariga kiradi.

Pul resurslarining asosiy qismi esa, jaib etiladigan omonatlar (depozitlar) va boshqa banklardan kelib tushadigan mablag'lar hisobiga shakllantiriladi. Depozitlar ikki xil bo'ladi: *yo'qlab olinuvchi* va *muddatli*. Birinchisi – omonatchi tomonidan istalgan paytda *yo'qlab olinishi* mumkin bo'lgan joriy hisoblardagi mablag'lar. Odatda ularga eng kam foiz to'lanadi. Bank o'z xarajatlarini mijoz, omonatchi o'z hisobida mavjud bo'lgan pul mablag'laridan to'liq foydalanmasligi evaziga qoplaydi. Bunda qat'iy kassa qoldig'i hosil bo'ladi, uni bank turli iqtisodiy subyektlarga ssuda va kredit sifatida beradi.

Ikkinci holdagi depozitlar ko'rsatilgan muddatlarga qo'yiladi, u tugainaguncha mijoz pulini talab qilib olishga haqli emas. Bunday holda omonatchilarga *yo'qlab olinuvchi* omonatlarga qaraganda ancha katta foiz to'lanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bank boshqa banklardan ssuda, kredit olish yo'li bilan pul resurslarini jaib etishi mumkin. Xususan, markaziy bank tijorat banklariga, agar ular o'zlarining to'lovga qobililiklari va ishonchiliklari xususida kafolat bera olsalar, muayyan hisob loizi bilan kredit beradi.

### ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Moliya** – pul fondlarining shakllanishi, taqsinlanishi va foydalanishini tartibga solish bilan vujudga keladigan munosabatlardir.

**Moliya tizimi** – turli darajadagi moliyaviy muassasalar bo'lib moliyaviy munosabatlarga xizmat qiladi.

**Davlat budjeti** – davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul fondidir.

**Budget taqchilligi** – budget daromadlari bilan xarajatlarining nomuvofiqligi bo'lib, xarajatlarning daromadiardan ortiqcha bo'lgan farq.

**Davlat qarzları** – budget taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar.

**Budget balansi** – xarajatlar va daromadlarning teng bo'lismidir.

**Soliqlar** – jamiyatda yaratilgan sof daromadning ma'lum bir qismini budgetga olish uslubi.

**Pul muomalasi** – naqd pul bo'lib, tovarlar aylanishi va notovarlar harakati uchun to'lov va hisoblarga xizmat qiladi. Aynan bir jarayonining doimo bir xilda takrorlanishidir.

**Pul tizimi** – tovar muomalasining rivojlanishi natijasi bo'lib, davlatlar tomonidan qonunchilik asosida mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish.

**Kredit** – bankda bo'sh turgan pullarni qarzga berish.

**Bank** – (ital'yancha "sarroflik do'koni") pul va pul kapitalini safarbarlash, jamg'arish, harakatlantirish va taqsimlashni amalga oshiradigan tashkilotdir.

**Bank soydasi (marja)** – olingan va to'langan foiz summasi o'rtaсидagi farq.

## TAKRORLASH UCHUN SA'OLLAR

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va iqtisodiy vazifalari nimadan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag'larining shakllanish va taqsimlanish xususiyatlari haqida mulohaza qiling.
3. Davlat budjeti miliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o'yaydi?
4. Budget taqchilligi nima?
5. Soliqning eng ko'p tarqalgan turlarini aniqlang.
6. Mahalliy budget daromad va xarajatlarining asosiy moddalarini sanab chiqing.
7. Pul muomalasining mazmunini va muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorni aniqlashni tushuntiring.
8. Kreditni nima zarur qilib qo'yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.
9. Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning asosiy vazifasi nima?
10. Markaziy bankning vazifasi qanday?
11. Tijorat banki bilan investitsiya bankini taqqoslang.

## **XVI Bob. INFLYATSIYA. INFLYATSIYANI OLDINI OLISH TADBIRLARI.**

1. Inflyatsiya tushunchasi. Inflyatsiya turlari.
2. Talab va taklif inflyatsiyasi. Hozirgi zamon inflyatsiyasi.
3. Inflyatsiya oqibatlari. Inflyatsiyaga qarshi siyosat.

### **1. Inflyatsiya tushunchasi. Inflyatsiya turlari.**

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida talab bilan taklif o'rtaida nomutanosiblik bo'lib turadi. Bu nomutanosiblik narxlarning o'sishiga olib keladi. Narxlarning o'sishi esa inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

**Inflyatsiya** – puuning tovar va xizmatlarga nisbatan keragidan ortiqcha chiqarilishi yoki tovar va xizmatlarning pul massasiga nisbatan kamayib ketishi natijasida narxlarning o'sishi va pulning qadrsizlanishidir.

Davlat tomonidan muomalaga keragidan ortiqcha pul chiqariladi, ya'nii pul emissiyasi amalga oshiriladi, natijada bozorda narxlar o'sib ketadi va pul qadrsizlanadi, ya'nii inflyatsiyaga uchraydi.

Ishlab chiqaruvchilar ham inflyatsiya sabachisi bo'ladilar. Ular tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni qisqartirib yuboradilar, natijada tovar taqchilligi kelib chiqadi va narxlar o'sib ketadi. Kerakligidan ortiq pullarning paydo bo'lishi va narxlarning o'sishi inflyatsiyaning tashqi ko'tinishi bo'lsa, milliy xo'jalikning nomutanosibligi va umumiy muvozanatning buzilishi uning asl mohiyatini tashkil etadi. Juhon iqtisodiy adabiyotlarida milliy xo'jalikni nomutanosiblikka olib keladigan uchta asosiy kuch ajratib ko'rsatiladi.

- davlat tomonidan o'z vazifasini ado etish uchun qog'oz – pul emissiyasiga, tashqi savdoga, noishlab chiqarish, avvalambor, harbiy va boshqa xarajatlarga monopoliya o'rnatilishi;
- kasaba uyushmasining ish haqi darajasi va muddatini belgilash monopoliyasi;
- narxni va xarajatlarni belgilashga yirik firmalarning monopoliyasi.

Yuqorida ko'rsatilgan uchta kuch bir – biri bilan o'zaro bog'liq va har biri alohida talab va taklifning o'sishiga yoki pasayishiga, ular o'rtaсидаги muvozanatning buzilishiga sababchi bo'lishi mumkin.

**Inflyatsiya turlari.** Iqtisodiyotda inflyatsiyaning bir nechta turlari mavjud. Bularga: ochiq inflyatsiya, yashirin inflyatsiya, muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan inflyatsiya, kutiladigan va kutilmaydigan inflyatsiya kiradi.

Ochiq inflyatsiya talab bilan taklifning o'zaro munosabati natijasida narxlarning cheksiz o'sishi sababli yuzaga keladi. Bunday inflyatsiya iqtisodiyoti hozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarga xosdir.

Yashirin inflyatsiya narxlar va daromadlar ustidan ma'muriy-buyruqbozlik nazorati o'rnatilgan mamlakatlarga xosdir. Narxlar ustidan kuchli nazorat qilish natijasida narxlar yuzaki qaraqliganda o'zgarmas bo'ladi, lekin pul massasining kerakligidan ortib ketishi tovar taqchilligini keltirib chiqaradi. Natijada talab taklifdan ortib ketadi va ular o'tasidagi muvozanat buziladi.

Tovar taqchilligi sharoitida qog'oz pullarga tovarlarni faqat «qora bozorda» sotib olish mumkin, lekin bunday bozorda narxlar davlat tomonidan belgilangan qat'iy narxlardan bir necha barobar yuqori bo'ladi. Natijada yashirin inflyatsiya yuzaga keladi.

**Muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan inflyatsiya.** Muvozanatlashgan inflyatsiya sharoitida har xil tovar guruhlarning bir-bitiga nisbatan narxi o'zgarmaydi. Bunday inflyatsiya biznes uchun xavfli emas, lekin vaqt - vaqli bilan narxlarni oshirib turish kerak.

Muvozanatlashmagan inflyatsiyada turli tovarlarning narxi muntazam ravishda va har xil nishatlarda o'zgarib turadi. Muvozanatlashmagan inflyatsiya biznesga katta zarar yetkazadi. Kapitalni unumli joylashtirish mumkin bo'lgan sohalarni tanlash juda qiyinlashadi.

**Kutiladigan va kutilmaydigan inflyatsiya.** Kutiladigan inflyatsiya bu oldindan bashorat qilinadigan va hisoblanadigan inflyatsiyadir, kutilmaydigan inflyatsiya buning aksidir.

Muvozanatlashgan va kutiladigan inflyatsiya kombinasiyalari iqtisodiyotga katta zarar yetkazmaydi. Muvozanatlashmagan va kutilmaydigan inflyatsiya iqtisodiyot uchun o'ta xavflidir.

Narxlarning o'sish sur'atiga qarab inflyatsiyaning uch turi mavjud:

■ oddiy yoki o'rmalovchi, inflyatsiya sur'ati yiliga 2-3 foiz bo'ladi.

■ suzib yuruvchi inflyatsiya, bunda narxlar tez o'sa boshlaydi, yiliga 10 foiz atrofida.

■ yuguruvchi inflyatsiya yoki giperinflyatsiya, narxlar oyiga 40-50 foiz atrofida o'sadi, ish haqi bilan narxlarning o'tasida farq juda katta bo'lib, aholining turmush darajasi pasayib ketadi, yirik korxonalar zarariga ishlaydi va inqirozga uchraydi, iqtisodiy aloqalar buziladi.

Iqtisodiy tanglik hilan inflyatsiyaning birqalikda yuz berishi stagflyatsiya deyiladi.

Iqtisodiyotning turg'unlik holatiga tushib qolishi **stagnatsiya** deb ataladi.

## **2. Talab va taklif inflyatsiyasi. Hozirgi zamон inflyatsiyasi.**

Talab inflyatsiyasi jami talabning o'zgarmas jami taklifga nisbatan tez o'sib borishida sodir bo'ladi. Lekin jami talabning ishlab chiqarish hajmiga, ish bilan bandililikka va narxlar darajasiga bo'lgan nisbati murakkab jarayondir. Masalan, jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi kengayadi, ishsizlik kamayadi, narxlar sekin – asta ko'tariladi. Ishlab chiqarishning kengayishiga qarab, zahiralalar kamayib boradi, zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarni izlash qiyinlashadi. Ishlab chiqarishga malakali kadrlarni jalb qilish, ularga baland ish haqini to'lashni zatur qilib qo'yadi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketadi va narxlar ko'tariladi.

Talab inflyatsiyasining kelib chiqish shartlari:

- ish bilan bandlikni va ish haqini o'sishi natijasida aholi tomonidan talabning o'sishi;
- iqtisodiy o'sish davrida investitsiyalarning kengayishi va kapital tovarlariga talabning ortishi;
- davlat xarajatlari o'sib borishi (harbiy va sotsial buyurtmalarning o'sishi).

**Taklif inflyatsiyasi** ishlab chiqarish harajatlarining narxi oshganda sodir bo'ladi. Keyingi paytlarda jami talabning pasayishi sharoitida narxlarning o'sishi natijasida paydo bo'lgan inflyatsiya turi jahon tajribasida tez uchrab turibdi.

Mahsulot birligiga sarf qilingan xarajatlarning ortib borishi ishlab chiqarish hajmini va daromadni qisqartirib yuboradi. Natijada taklif etilgan tovarlar va xizmatlar hajmi qisqaradi, narxlar ko'tariladi. Demak, bunday holda talab emas, balki ortiqcha ishlab chiqarish xarajatlari narxlarini oshirib yuboradi. Taklif inflyatsiyaning asosiy manhai bo'lib xom ashyo va energiyaning qimmatlashuvi natijasida narxlarning va ish haqining o'sishiga xizmat qiladi.

**Inflyatsiyaning sabablari.** XX asr o'talariga kelib industrial rivojlangan mamlakallarda shakllangan bozor mexanizmiga inflyasion tendensiyalar xos bo'lib qoldi. Bunga ikki asosiy omil sabab bo'ldi: moliya va pul – kredit tizimini tubdan qayta tashkil etilishi va iqtisodiyotning oligopolistik tuzilishining shakllanishidir.

Tadbirkorlarning yuqori soyda olish maqsadida narxlarini oshirishni erkin raqobat cheklab turgan. Pulning aylanishini va narx – navoning nisbiy barqarorligini oltin tangalar standarti ta'minlab turgan. Banknotlarning oltin tangalariga erkin almashinuvu pul qadrsizlanishining oldini olgan. Bulardan tashqari, banklar

muomalaga banknotlarni o'zidagi oltin zahiralari qiymatining hajmi miqdorida chiqara olganlar.

Narxlarning o'zgarishida iqtisodiyotning hozirgi zamonaliviy bosqichi tub burilishga olib keldi. Pul muomalasida qog'oz pullar oltinni butunlay siqib chiqardi, pul - kredit mexanizmi esa pul massasining ko'payishiga qulay sharoit yaratib berdi.

Iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlari oligopolistik tuzilish ko'rinishiga ega bo'ldi. Buni biz yirik biznes tomonidan bir xil turdag'i mahsulotlarga narxlarni o'rnatish siyosatini olib borishda kuzatishimiz mumkin.

XX asrda narxlar o'shining yangi tendensiyasi rivojlanma boshladi, lekin asrning birinchi choragida narxlarning o'sishi vaqtiga bilan iqtisodiy inqirozlar bilan uzilib turdi.

Ikkinchisi jahon urushi davrida deyarli barcha bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda narxlarning o'sishi kuzatildi. Bu davrda infliyasion jarayonlarning asosini ishlab chiqarish kuchlarining buzilishi tashkil etdi. Ishlab chiqarishdagi salbiy o'zgarishlar moliya va pul muomalasi sohalariga ta'sir ko'rsatdi: budgetdagi kamomad, davlat qarzi o'sib ketdi va pul emissiyasi kuchayib ketdi.

Urusbdan so'ng narxlarning o'sib borish tendensiyasi saqlanib qoldi. Narxlar muntazam ravishda barcha mamlakatlarda o'sa boshladi. XX asrning 70 - yillarda infliyatsiya o'shining muhim omili, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi bo'ldi. Shu bilan birga infliyatsiyaning o'sishiga tashqi omillar ham ta'sir etdi. Bular dollarning devalvatsiyasi va jahon bozorida xomashyo narxining ko'tarilishi.

Hozirgi zamon infliyatsiyasi bir nechta xususiyatlarga ega:

Birinchidan, avvallari infliyatsiya ayrim yoki bir nechta mamlakatlarda sodir bo'lgan bo'lsa hozir esa narxlarning o'sishi butun jahon xarakterini olgan.

Ikkinchidan, infliyatsiya har xil mamlakatlarda har xil sur'atlar bilan notejis va sakrash yo'lli bilan sodir bo'lmoqda.

Uchinchidan, zamonaliviy infliyatsiya onda - sonda emas, balki surunkasiqa bo'lmoqda.

To'rtinchidan, infliyatsiyaning xarakteri o'zgardi: 80 - yillar o'rtasigacha «o'rmalovchi» infliyatsiya emas, balki «yuguruvchi» infliyatsiya o'z mavqeini egalladi. Shu bilan birga, 80 - yillar o'rtalariga kelib rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda infliyatsiya sur'ati pasaya boshladi. Buning bir nechta sababi bor:

1. Jahon iqtisodiyotining siklik rivojlanishining o'ziga xosligi, 1980 - 1992 - yillardagi iqtisodiy inqirozden so'ng depressiyaning cho'zilib ketishi, inqirozdan so'ng iqtisodiyotning sekun - asta

tiklanishi, ommaviy ishsizlik tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qisqartirib yubordi. Bu esa o'z navbatida narxlarning o'sishini sekinlashtirdi.

2. Mehnat unumdorligi dinamikasidagi siljishlar. Mehnat unumdorligining o'sishi va ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishi, ichki va tashqi bozorda raqobatning keskinlashuvi monopoliyalar tomonidan narxlarni ko'tarishni cheklab qo'ydi. Bu esa, inflyatsiyaning pasayishiga sabab bo'ldi.

3. Moliya sohasidagi o'zgarishlar 70—yillar o'rtasiga nisbatan 80—yillarda budjetdagи kamomadni kamaytirdi, natijada davlat moliyasining inflyatsiyasi pasaydi.

4. Jahan bozorida energiya xomashyosiga narxlarning pasayishi. Lekin shunga qaramasdan, inflyatsiyaga hali barham berilgani yo'q. Iste'mol tovarlar narxi o'sib bormoqda, inflyatsiya sur'ati o'zgarib turibdi.

### **3. Inflyatsiya oqibatlari. Inflyatsiyaga qarshi siyosat.**

Inflyatsiya barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga katta zarar yetkazmoqda, ayniqsa, «yuguruvchi» va «giperinflyatsiya». Uning oqibatida ishlab chiqarish sohasidagi kapital muomala sohasiga oqib o'tadi, chunki muomala ohasida kapital tezroq aylanadi va katta daromad keltiradi; pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida mamlakat ichidagi tovar aylanishi tartibsiz bo'ladi; talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buziladi; kreditga va kredit tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; pul tizimining tartibsizlanishiga olib keladi. Shunday qilib, inflyatsiya takror ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga sabab bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarish va muomala sohalari o'rtasida. Shu bilan birga, inflyatsiya nafaqat mamlakat ichidagi iqtisodiyotga, u yana xalqaro valuta munosabatlariiga ham salbiy ta'sir etmoqda.

Birinchidan, narxlarning o'sishi milliy valutaning qadrsizlanishiga va uning sotib olish qobiliyatining pasayishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, inlyatsiya jahon bozorida narxlarning ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, narxlarning o'sishi eksport mahsulotining raqobatga bardosh berishini pasaytirdi, natijada tashqi savdo taqchillikni oshirib yuboradi.

To'rtinchidan, valutalarni sotib olish qobiliyatining notekis pasayishi valutalarning noekvivalent almashuvini kuchaytiradi, valutaning rasmiy va bozor kursi mos kelmay qoladi, natijada

valutalar kursi o'rtasidagi nisbatni qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiya, nafaqat mamlakatlarning ichki muammosi bo'lib qoldi, balki xalqaro valuta munosabatlariiga salbiy ta'sir etuvchi kuchga aylandi.

**Inflyatsiyaga qarshi siyosat**. Iqtisodiyotni tartibga solish uchun inflyatsiyaga qarshi kurashish dasturini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday dastur inflyatsiyani keltirib chiqaradigan sabablarni va omillarini chuqur o'rghanish asosida tuziladi va bu dasturda inflyatsiyani yo'qotuvchi va kamayitiruvchi iqtisodiy siyosat olib boriladi.

Inflyatsiya sharoitida xo'jalikni boshqarishga ikki yoqlama yondashish mumkin: birinchisi, inflyatsiya moslashuvchanlik siyosati bo'lsa, ikkinchisi inflyatsiyaga qarshi olib boriladigan siyosatdir.

Inflyatsiyaga moslashuvchanlik siyosati. Bunday siyosat olib borilganda bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan o'z iqtisodiy faoliyatida pulning sotib olish qobiliyatining pasayib borishi orqali inflyatsiyani hisobga oladilar. Jahan ta'jribasida pulning sotib olish qibiliyati pasayishi tufayli ko'rildan zararni qoplashning ikki usuli mavjud. Keng tarqalganlaridan biri bu foiz stavkalarini indeksasiya qilish. Odatda bu usulda inflyatsiyaga nisbatan foiz stavkasi ko'tariladi. Ikkinchi usulida, investitsiyaning boshlang'ich pul suminasi indeksatsiya qilinadi, u vaqt - vaqt bilan oldindan kelishilgan indeks asosida tartiblanib turiladi.

Firmalar inflyatsiya sharoitida iqtisodiy siyosatini o'zgartiradilar. Masalan, ular investitsiyalarni tezda qaytarib olish mumkin bo'lgan qisqa muddatli loyihalarni amalga oshirishadi. Aylanma mablag'larning yetishmasligi, firmalarni tashqi manbalarni qidirishga majbur etadi. Bunday holat firma qarzining ko'payib ketishiga olib keladi. Natijada firma qatzini to'lomaslik, bankrotlik holatiga tushib qolish mumkin.

Inflyatsiya sharoitida firmalar foydani ishlatish siyosatini o'zgartirishga majburdirlar. Bir tomonidan firma faoliyatiga iqtisodiy qiziqirishni kuchaytirish uchun menejerlar foydaning bir qismini ishchi va xodimlarni moddiy raq'baltantirish uchun yo'naltiradilar. Ikkinchi tomonidan inflyatsiya sharoitida daromadlar kamayib xarajatlar oshganda firma egalari ishlab chiqarishning qisqarib ketmashigi uchun sot foydaning ancha qismini ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sarflashga majbur bo'ladi.

Inflyatsiyaga qarshi kurash olib borishda keyr.schilar tarafidorlari, «tarkibiy inflyatsiya» va «taklif iqtisodiyoti» vakillari o'z dasturlarida iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol qalnashuviga katta e'libor berishgan, ya'ni narxlar va ish haqi

o'sishini vaqtincha to'xtatib qo'yish, tadbirkorlikni soliqlar orqali rag'batlantirish, yashash uchun zarur bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishni qo'llab — quvvatlash.

**Inflyatsiyaga qarshi tadbirlar.** Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatining boshqa variantlaridan biri bu bozor iqtisodiyotiga davlat aralashuvini cheklashdir. Monitarizm dasturiga asosan iqtisodiyotda davlat faolligiga nisbatan bozor regulyatorlari keng ko'lama qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Amaliyotda rivojlangan mamlakatlarda yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashda aralash dasturlar qo'llanilib keliminoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham inflyatsiyaga qarshi kurash dasturi tuzilgan. Prezident I.A. Karimov o'z nutqida «*Pulning qadrsizlanishiga qarshi qaratilgan qat'iy choralarini ko'rish va yaqin besh yil ichida pulning qadrsizlanish darajasini yiliga 6–8 foiz kamayishiga erishish zarur*»<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tgan.

«*Pul qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar inflyatsiya ko'rsatkichlarini prognoz qilingan darajada saqlab turish imkonini berdi*»<sup>2</sup>, deb aytib o'tdi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Inflyatsiya** — jog'oz pulning qadrsizlanishi.

**Oddiy yoki o'tmalovchi inflyatsiya** — inflyatsiya sur'ati yiliga 2–3 foiz bo'ladi.

**Suzib yuruvchi inflyatsiya** — bunda narxlar tez o'sa boshlaydi, yiliga 10 foiz atrofida.

**Yuguruvchi yoki giperinflyatsiya** — narxlar oyiga 40–50 foiz atrofida o'sadi.

**Stagflyasiya** — iqtisodiy tanglik bilan inflyatsiyaning birqalikda yuz berishi.

**Stagnasiya** — iqtisodiyotning turg'unlik holiga tushib qolishi.

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Inflyatsiya mohiyatini tushuntirib bering.
2. Inflyatsiya turlarini sanab bering.
3. Inflyatsiya oqibatlarini gapirib bering.
4. Inflyatsiyaga qarshi siyosat.

<sup>1</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga inbilmoqda». — T.: «O'zbekiston», 1999.

<sup>2</sup> Prezident Karimov I.A. ning Vazirlar Mahkemesining 2000 yilda mamlakatni ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishni yakunlai hunda 2001 — yilda iqtisodiyotni erkintashtrish va islohotlarni chiqurlashtrishning ustuvor yo'nalsishihaiga bag'ishlangan majlisdag'i ma'ruzasi// «Xalq so'zi» gazetasи, 17–fevral 2001 — y.

## **XVII Bob. DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIYOTNING TARTIBLANISHI**

1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblanishining nazariy va amaliy asoslari.
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni rivojlantirishning shakllari va yo'nalishlari.
3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga o'tishda davlatning roli.

### **1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblanishining nazariy va amaliy asoslari**

Tarixan tartibsiz, o'zi bo'larchilikka asoslangan, yovvoyi iqtisodiyotdan, tartiblanib turuvchi, tsivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyotiga o'tish yuz beradi. Iqtisodiyotni tartiblash – bu undagi turli bo'g'inxilar faoliyatining bir – biriga bog'lanish va mos holda rivojlanib borishidir. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy assoschilaridan biri Jon Meynard Keyns hisoblanadi. Keynschilik iqtisodiyot fanida yangi oqim sifatida 1929 – 1933 – yillardagi jag'on iqtisodiy inqirozidan so'ng bevosita yuzaga keldi. U nazariyasini o'zinin 1936 – yilda nashrdan chiqqan «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asanda bayon qilib berdi. Keyns iqtisodchilar orasida iqtisodiyotga davlatning aralashuvi zaruriyatini dalillagan dastlabki iqtisodi emas edi. Iqtisodiy siyosatning asoslarini ishlab chiqqan birinchi iqtisodchi Devid Rikardo bo'ldi. Undan tashqari iqtisodiyotni boshqarishning monetar nazariyasi mavjud. Bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarishning pul nazariyasi, inflyatsiya bilan kurash muammolari 1976 – yilgi Nobel mukofoti sovrindori amerikalik Milton Fridman boshliq Chikago maktabi olimlari tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning necklassik modeli. Bu yo'nalishdagi iqtisodchilar davlatning jamiyatdagi daromadlarini oqilona taqsimlash va allokatsion – ya'ni iqtisodiyotdagi resurslarni samaraliroq joylashtirish maqsadidagi vazifalarni tasdiq qiladilar. Neoklassik yo'nalish tarafdarlarining fikriga ko'ra kapitalning erkin oqib tushishi uchun to'siqlarni bartaraf etish uchun ham davlatning tartiblash mexanizmi zarurligini ta'kidlaydilar.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamakkatlarda iqtisodiyotni tartibqa solish borasida davlat muhim vazifalarni bajaradi. Davlat iqtisodiyotga faol aralashib, bozor mexanizmning amal qilishiga ko'maklashadi, raqobatchilik muhitini yaratib abolini bozorning

salbiy oqibatlaridan himoyalash chora – tadbirlarini ko'radi. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan asosiy maqsad bozor munosabatlarni muayyan va ma'lum yo'nalishlar asosida rivojlantirib, iqtisodiy tanglikning oldini olish hamda aholi turmush darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlarga bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishi oqibatida iqtisodiy tanglikning keskinligi bir muncha pasayadi, unday holatdan tez chiqib ketishga, ba'zan esa uning oldini olishga erishmoqdalar, aholining turmush darajasi ancha yaxshilangan. Aholining turli ijtimoiy tabaqalarizi o'rasisida ijtimoiy birdamlik, kelishuv vujudga kelmoqda.

Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish borasida taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga suyangan ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish yo'liga o'tib oldilar. Ulardan ba'zi birlari chunobchi, Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Gong – Kong, Malayziya va Tayland yangi industrial mamlakatlar deb atala boshladi.

Bozor munosabatlari endigina shakllantirilayotgan sohiq buyruqbozlik iqtisodiy tizimidan xoli bo'la boshlagan O'zbekiston Respublikasida davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi iqtisodiy taraqqiyotning etakchi yo'nalishlarini belgilaydi. Iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va mustaqil davlatimizning ijtimoiy – siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish izchil ro'yogba chiqarish kerak»<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tgan.

Davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda bozirgacha to'plangan boy tajribalarni o'rganish va ularni respublikamizning milliy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham davlatning, uni ta'liblashning nazariy jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bozor muvozanatining vujudga kelib, beqarorlikning muttasil takrorlanib turishi bozor regulatorining uning iqtisodiyotni tartiblashining obyektiv mexanizxmining barqaror muvozanatini saqlashga qodir emasligidan dalolat beradi. Shuning uchun bozor muvozanatini ta'minlash, uni saqlash uchun iqtisodiyotni

<sup>1</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashlirish yo'lida». – T. «O'zbekiston», 1995. 10 – 11 – betlar.

tartiblashning obyektiv bozor mexanizmidan tashqari, unga ko'maklashuvchi davlat mexanizmiga zarurat tug'iladi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida davlat bosh islohotchi, ya'ni iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning tashabbuskorii va yetakchisi hisoblanadi.

Davlat iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi to'liq bajara olmagan vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning asosiy maqsadi iqtisodiy muvozanatga erishish asosida tushkunlik va tanglikning oldini olish; ijtimoiy ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, aholi turli tabaqalari o'rtaida ijtimoiy muvozanatga erishishidan iboratdir.

Ma'lumki, iqtisodiy subyektlar o'zaro raqobatda bo'lgani va o'zlarining shaxsiy va jamoaviy manfaatlari yuzasidan faoliyat ko'rsatgani uchun ularning xudbinlik manfaatlari umumdavlat, jamiyat manfaatlariiga zid kelib qolishlari ham mumkin. Shuning uchun davlat iqtisodiyot subyektlari manfaatlari va faoliyatlarining jamiyat, davlat manfaatlariiga zid kelib qolmasligini, unga ziyon etkazmasligini nazorat qiladi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun davlat iqtisodiy subyektlarining makroiqtisodiyot miqyosidagi aloqa va bog'lanishlarni tartibga soladi.

## **2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni rivojlanтирishning shakllari va yo'nalishlari**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim vositalaridan biri, o'z mulki bo'lgan tarmoq va korxonalarini boshqarish, ya'ni bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdir. Davlat mamlakat ishlab chiqarish vositalarining bir qismini mulk egasi sifatida bevosita ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi, rejalahtiradi va uni nazorat qiladi. Davlat mulki va sohibkorligi ko'lami bozor iqtisodiyoti sharoitida cheklangan bo'ladi. U asosan mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Davlat o'z korxonalarining tovarlari va xizmattarini past darajadagi, aksariyat hollarda ishlab chiqarish xarajatlariga yaqin bo'lgan baholar bilan sotadi. Bu bilan aholi turmush darajasining oshishiga, xususiy va boshqa korxonalarining samarali ishlashiga, xalq xo'jaligi tarmoqlarining ma'lum nisbatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Davlat o'ziga qarashli korxonalarini ijara berish, mehnat jamoalari, xususiy shaxslarga sotish, aksionerlik jamiyatlariga aylantirishi yo'li bilan aralash mulkn shakllantirish orqali

iqtisodiyotning boshqa mulk doiralarining tashabbuskorligiga, samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat, birinchidan, o'ziga qarashli tarmoq va korxonalarning samarali ishlashi uchun xomashyo, asbob – uskunalar, ikkinchidan, boshqaruva apparati xodimlarini moliya bilan ta'minlash, uchinchidan, mehnatga layoqasizlar, qariyalar, etim bolalar, kambag'allar hamda ko'p bolali oilalar, yo'lg'iz qarovsiz kishilarga yordam maqsadida iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan ta'minlash, to'ttinchidan, harbiy anjomlar, quroq – yaroq'lar, armiya uchun lozim bo'lgan iste'mol tovarlari va xizmatlarni ishlab chiqarish. Beshinchidan, turli xil tabiiy ofatlarning oldini olish uchun davlat zahiralarini tashkil etish maqsadida tovarlar sotib oladi. Buning oqibatida davlatning tovarlar va xizmatlar bozori shakllanadi. Davlat bozori muhim ijobiy rol o'yaydi. Bu bozor kasolatli bo'lib, uning to'lov qobiliyati davlatning budjet va valuta fondi orqali ta'minlanadi. Bu bozor davlat buyurtmalarini orgali tartibga solinadi, unda kelishilgan baholar amal qiladi va uning ishtirokchilariga barqaror foyda keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida davlat iqtisodiy jihatdan ko'makka muhtoj bo'lgan aholini sotsial himoyalash maqsadida iste'mol tovarlarini va xizmatlarni xarid qilish tobora ortadi, fan – texnika inqilobi talablariga binoan fundamental fan, ilg'or ilm talab tarmoqlarni rivojlantirish, maorif, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, davlat korxonalari va tashkilotlari uchun tovarlar xarid qilish, davlat buyurtmalarini berish salmoqli bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim shakllaridan biri dasturlash va rejalashtirishdir. Ushbu tartibga solish shaklining zaruriyat ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi, mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashuvining chiqqurashuvi, davlat mulkining mavjudligi, iqtisodiyotga yo'naltiriladigan kapital mablag'lar harakati va oqibatlarining uzoq muddatligidan hamda bozor konyunkturasini o'rganishi bilan ifodalanadi. Shu bois, hamma rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolli aniqlanadi, dasturlanadi va rejalashtiriladi. Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini aniqlash (prognozlashtirish) qisqa muddatga (1 – 2 yil), o'rta muddatga (5 yil), uzoq muddatga (20 yil)ga mo'ljallanadi. Bunda mavjud o'tgan davrdagi iqtisodiy rivojlanishi bozor konyunkturasining o'zgarib borish tendensiyalariga asoslanib kelajakdag'i iqtisodiy ahvolning qanday bo'lishi, qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinadi. Bu – ekstropolyatsiya usuli deyiladi, okinjan ma'lumotlarga esa xususiy ishbilarmonlarning kapital mablag'lar qo'yish rejalarni turli so'rovlar orgali o'rganib borish orqali aniqliklar va tuzatishlar kiritiladi.

Prognozlar asosida iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturlarda iqtisodiyot rivojlanishining moddiy va sotsial maqsadlari ko'rsatiladi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun kapital mablag'lar qo'yish rejalarini tuziladi, ishlab chiqarish hajmi bilan talab o'rtaсидаги nisbatlar o'rGANILADI. Turli ishlab chiqarish bilan import o'rtaсидаги bog'liqlik, ishlab chiqarish bilan iste'mol, ishlab chiqarish bilan eksport, eksport bilan import o'rtaсидаги bog'liqliklar aniqlanadi. Buning uchun tarmoqlararo balansni tuzish, aholi ro'yxatini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bizda bir necha marta tarmoqlararo balans tuzilgan, aholini ro'yxatga olish amalga oshirilgan. Iqtisodiy rivojlanishning umum davlat dasturlari asosida rejalar qabul qilinadi. Ilgari ma'muriyat chilik, buyruqbozlikka asoslangan jamiyatda iqtisodiy rejalar buyruqbozlik xarakteriga ega bo'lib, yugoridan belgilanib, quyidagi xo'jalik bo'g'lnlari uchun majburiy edi.

Bozor iqtisodiyoti va mulkning ko'p shakllari mavjud bo'lган sharoitda esa dastur va rejalar davlat korxonalarini uchun majburiy, xususiy sektor uchun esa taklif, indekativ xususiyatga ega bo'ladi. Ishbilarmon, tadbirkorlarning rejalgaga amal qilishlarini rag'batlantirish maqsadida ularga turli imtijoziyor, ya'ni soliq to'lashda, kredit, subsidiyalar, xomashyo, yoqilg'i – energiya, asbob – us'lunalar olishda, tovarlarni eksport qilishda antiyoziyor berilishi lozim bo'ladi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Respublikasining Taraqqiyot Istiqbolini belgilash va Statistika qo'mitasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifalarini quyidagilardan iborat: ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning konseptsiyalarini qisqa va uzoq muddatli rejalarini, respublika va mintaqalarga doir tarmoq dasturlarini ishlab chiqish; aholini sotsial himoyalashga oid takliflarni asoslab berish, mehnat faoliyatini va tadbirkorlik imkoniyatlarini ko'paytirish, iqtisodiy ahvolni sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash, bozor munosabatlariiga o'tishning asosiy qoida va yo'naliishlarini shakllantirish va unga mos ravishda uslublarini takomillashtirish; xalq xo'jaligi tuzilmasini qayta qurishga oid takliflar tayyorlash, xalq xo'jaligi balanslarini tuzish asosida iqtisodiy nomutanosibliklarni barteraf etishga oid takliflarni ishlab chiqish; eksport – import ishlarini davlat yo'li bilan tartibga solish va rag'batlantirish sohasidagi yo'naliishlarini belgilash O'zistiqbolstat davlat qo'mitasi ushu vazifalarini boshqarish orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalasi muhim o'r'in tutadi.

Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish iqtisodiy islohotlarning bozirgi davrdagi strategiyasi ustivor vazifasi

hisoblanadi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniyatli va muqarrar jarayondir.

Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda tanglik hodisalarining oldini olish, iqtisodiyotning holatini ifoda qiluvchi mezon bo'lib xizmat qiladigan ko'rsatkichlarni yaxshilashga, shu bilan birga, mamlakatni tanglikka olib kelgan ichki sabablarni o'rganish, chalq'ishlar va nomutanosibliklar bo'lishi mumkinligiga o'z vaqtida e'tiborni qaratish, tanglik hodisalarini kelib chiqishining oldini olish tadbirlarini faol amalga oshirish g'oyat muhim.

Barqarorlashtirish siyosati – eng avvalo, bu makro-iqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek, u pul qadrsizlanishining, pul emissiyasining boshqarilishini ta'minlash, to'lov balansini bir me'yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan davlat siyosatidir.

### **3. O'zbekistongda bozor munosabatlariiga o'tishda davlatning roli**

**«Bozor munosabatlariiga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarint tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur»<sup>1</sup>**

Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi iqtisodiy siyosatining natijalarini quyidagi ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

#### **Yillik o'sish sur'atlari\***

	<b>1996</b>	<b>1997</b>	<b>1998</b>	<b>1999</b>
Yalpi ichki mahsulot	1,7	5,2	4,4	4,4
Sanoat mahsuloti hajmi	6,0	6,5	5,8	5,9
Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti	7,3	5,8	4,0	6,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	7,0	17	15	7,8
Aholi jon boshiga daromadlari	2,2	1,9	42,9	61,2

\* O'zbekiston Respublikasi. Makroiqtisodiyot va statistika Vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi. 1999-y.

<sup>1</sup> Karimov IA. O'zbekiston buyuk kelajik sari. – T., 1998, 113–bet.

Hozirgi darvda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim shakllari quyidagilardan iboratdir. Davlat mulki va tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirishga doir faoliyatlar, iqtisodiy monopolizmga qarshi qo'llanuvchi chora – tadbirlar, moliya – kredit munosabatlarining tartibga solish chora – tadbirleri, davlatning bahoni tartibga solish siyosati, aholini ijtimoiy himoyalash ahamiyatining o'sib borishidir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uchun davlat mulki bo'lgan tarmoq va korxonalarni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda.

Birinchidan, qazib chiqaruvchi tarmoqlar mahsulotlari respublikaning eng muhim milliy boyligi hisoblanadi. Energetika va transport esa xalq xo'jaligining hayotiy qon tomirlaridir. Shu bilan birga, ularning kapital hamkorligi yuqori va aylanish muddati uzoq bo'lganligi uchun xususiy korxonalarining bu sohadagi tashabbuskorligi cheklangan bo'ladi. Shu sabablariga ko'ra, ushbu tarmoqlarni davlat bevosita boshqarishi maqsadga muvofiqdir. Hamma rivojlangan mamlakatlarda ham davlat kapital mablag'larining ko'p qismi ushbu sohalarga yo'naltiriladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritish uchun mashinasozlik, shu jumladan, avtomobilsozlik, uskumasozlik, fan – texnika inqilobi vujudga keltirgan elektrotexnika sanoati tarmoqlarini rivojlantirishi zarurdir. Bu yangi tarmoqlar qaror topishi davlat tadbirkorlik faoliyati doirasida bo'ladi.

Uchinchidan, fan – texnika inqilobi sharoitida fan va texnikaga rahbarlik qilish ham davlat qo'lida bo'ladi. Davlat eng qimmatli fundamental fanlar sohasida ilmiy ishlarni moliyalashtiradi.

Davlat o'ziga qarashli korxonalarini ijaraiga berish, mehnat jamoalariga, xususiy shaxslarga sotish, aksionerlik jamiyatlariga aylantirish yo'lli bilan aralash mulkini shakllantirish orqali iqtisodiyotning boshqa mulk doiralarining tashabbuskorligiga, samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning xususiy, jamoa va boshqa toifadagi korxonalardan tovar va xizmatlarni sotib olishi iqtisodiyotni tartibga solishning bir usuli hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini rivojlantirishda chet el investitsiyalarining roli va o'mi shubhasiz muhim ahamiyat kasb etmoqda. 1999 – yilda iqtisodiyotning real sektoriga jaib qilingan chet el investitsiyalar hajmi 10 mlrd. dollardan oshib ketdi. 1999 – yilning o'zidayoq 2 mlrd. dollar sarmoya o'zlashtirildi. Umumiy chet el investitsiyalarining 15 foizi neft va gaz sanoatida, 12 foizi mashinasozlik va 11 foizi transport va

telekommunikatsiya sektorida, 10 foizi kimyo sanoatida, 4 foizi yengil sanoatda o'zlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasini Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq davlatlari ishtirot etmoqda. Ular orasida ayrim yirik investor davatlarning ulushi quyidagicha bo'limoqda: Buyuk Britaniya — 22 foiz, Malayziya — 16 foiz, Turkiya — 12,6 foiz, AQSH — 10 foiz, Yaponiya — 9,7 foiz, Janubiy Koreya — 8,9 foiz, Germaniya — 6,7 foiz<sup>1</sup>.

Hozir Respublika qudratli mehnat salohiyatiga ega mehnat zahiralari butun aholining deyarli 50 foizini tashkil etadi va har yili 210—220 ming kishiga ko'payib bormoqda. Mehnat salohiyatining muhim xususiyati uning yosh va kasb tarkibidir.

O'zbekiston aholisining o'rtacha yoshi 24 yoshga teng. Bu XXI asr bo'sag'asida mehnat zahiralari, yuksak mehnat faoliyati va kasb tayyorgarligi bilan ajralib turadigan odamlar ko'pchilikni tashkil etishga imkon beradi.

Shu bilan band bo'lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda meqnatga layoqatli yoshlarni faoliyatning yangi ilg'or tarmoqlari va sohalariga jalb qilish ham mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning qudratli zahirasidir. Hozir qishbloq xo'jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i band. Ularri bo'shatib olish va iqtisodiyotning boshqa sohalariga, eng avvalo, sanoatqa va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar qilish hamda uni jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida bozorga o'tishdan oldin bozor infratuzilmasini yaratish zarurligiga katta e'tibor bergan. «Infratuzilmani birdaniga yaratib bo'lmaydi. Bu ancha uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'llib, boshqa talablar bilan bir qatorda yuksak kasbiy mahoratga ega kadrlar bo'lishini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar ham aholi, ham xo'jalik faoliyatining yangi sharoitlariga ruhan moslashishini talab qiladi»<sup>2</sup> — deb ta'kidlagan edilar.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida budjet siyosati va soliq tizimining ishlab chiqarishini rivojlantirishga, moddiy, moliyaviy, mehnat, labiiy resurslardan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish vazifalari belgilab berilgan. Buning uchun Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «Davlat xarajatlari, ularning tarkibi

<sup>1</sup> Abubosimov X.P., Vahobov A.V. va b. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuquqlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. — T.: TDTU, 2001 — y., 61 — bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuquqlashtirish yo'llida. — T.: «O'zbekiston», 1995 — y. 98 — bet.

**shunday tashkil qilinishi kerakki, ular ayni ana shu maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi va bu hol bozorga o'tish jarayoniga har tomonlama ko'mak berishi lozim<sup>1</sup>.**

Soliq tizimini takomillashtirish va o'zgartirish korxonalarga solinadigan soliqlarni kamaytirish tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek, davlat budjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish yo'li bilan mahalliy budjetlarni mustahkamlash vazifasi qo'yilgan soliq tizimining isloh qilinishi oqibatida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va kishilarning mehnat faolligini kuchaytirishning omillarini vujudga keltirish maqsad qilib qo'yildi. Ushbu o'zgarishlar hozirgi zamon keynschilik nazariyasining muhim jihatlarini qo'llashga asoslangan, respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tish xususiyatlaridan kelib chiqqan iqtisodiy yo'nalishdir.

### **ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR**

**Iqtisodiyotni tartiblash** – bu undagi turli bo'g'inalar faoliyatining bir – biriga bog'lanishi va mos holda rivojlanishi borishidir.

**Iqtisodiyotni tartiblashning neoklassik modeli, yo'nalishi – iqtisodiyotchilarining fikricha, kapitalning erkin oqib turishi uchun to'siqlarni bartaraf etishga davlatning tartiblash mexanizmi zarurligini ta'kidlaydilar.**

**Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini aniqlash (prognozlashtirish)** har xil muddallarda belgilanadi. Qisqa muddatga (1 – 2 yil), o'rta muddatga (5 yil), uzoq muddatga (15 – 20 yil) ga mo'ljallanadi.

**Antimonopol qonunchilik** – davlatning iqtisodiyotda monopoliya – yakka hukmronligiga qarshi kurash siyosatini olib borishi.

### **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

- a. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblanishining nazariy asoslarini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblanishining maqsadi nimalardan iborat?
3. Iqtisodiyotni tartibga solishning turli andoza va modellarini tushuntirib bering.
4. O'zbekistonda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yana qanday shakllarini bilasiz?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda chet el sarmoyalalarining ahamiyatini qanday izohlaysiz?

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlari chuqurlashtirish yo'lda. – T. «O'zbekiston», 1985 – y. 204 – bet.

## XVIII Bob. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI

1. Jahon xo'jaligi vujudga kelishining obyektiv asoslari.
2. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari.
3. Jahon bozorining raqobat markazlari.

### 1. Jahon xo'jaligi vujudga kelishining obyektiv asoslari

Jahon xo'jaligining vujudga kelishi obyektiv tarixiy jarayon bo'lib, har xil mamlakatlar o'rjasida iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvidan iboratdir.

Jahon xo'jaligi bu xalqaro mehnat taqsimotiga va jahon bozoriga asoslangan mamlakatlar o'rjasidagi iqtisodiy aloqalardir.

Jahon xo'jaligi XIX asr va XX asr bo'sag'asida kapitalizm sharoitida vujudga keldi. Fan – texnika taraqqiyoti natijasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida milliy iqtisodiyotlar rivojlanib, ichki bozordan tashqi bozorga o'tish zarurati paydo bo'ldi. Mehnat taqsimoti nafaqat bir mamlakat doirasida, u mamlakatlar o'rjasida ham amalga osha bo'ldi. Natijada xalqaro mehnat taqsimoti vujudga keldi. U jahon xo'jaligining tashkil topishi va rivojlanishining muhim omiliga aylandi.

Ishlab chiqarishning mashinalashtirilishi, kooperatsiyalashtirilishi mehnatning bir mamlakat chegarasidan chiqishga va baynalmilal – lashuviga olib keldi.

Jahon xo'jaligi o'z obyekti va subyektiiga egadir. Xalqaro miqyosda resurslarning taqsimlanishi va samarali ishlatalishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, uning kooperatsiyasi, iqtisodiy integratsiya, savdo – sotiq, ilmiy – texnikaviy hamkorlik, qologlik va qashshoqlikka chek qo'yish, ekologiyaga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyat yuritish kabilat umumjahon munosabatlarning obyekti bo'lsa, turli davlatlar, xalqaro va milliy firmalar, xalqaro tashkilotlar ularning subyekti hisoblanadi.

Jahon xo'jaligi ma'lum bir qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Jahon xo'jaligi bozor qonuniyatlariga amal qiladi. Jahon xo'jaligida iqtisodiy aloqalar rivojlanib boradi va ularning shakllari o'zgarib boradi, ishtirokchilar doirasi yangi mamlakatlar hisobidan kengayadi. Keyingi yillarda bu doiraga Markaziy Osiyonining yosh davlatlari jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham kirib keldi.

Iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi xalqaro iqtisodiy integratsiyani yuzaga chiqardi va integratsiya ularning eng olyi

shakliga aylandi. Mamlakatlararo, mintaqalararo integratsiya oqibatida umumjahon integratsiyasi bilan yakunlanadi.

Jahon xo'jaligining muhim qonuniyatlaridan biri bu turli mamlakatlarning taraqqiyot darajasi jihatidan bir-biriga yaqinlashuvidir. Bu jarayon mamlakatlararo raqobat asosida bo'ladi, kam rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarga aylanishi yuz beradi. XIX asr oxirida Angliya sanoati eng rivojlangan mamlakat bo'lsa, XX asrning 70-yillariga kelib AQSH, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Kanada va Italiya ham rivojlangan mamlakatlarni tashkil etdi. 80-yillarning o'rtaлиriga kelib ularning safiga Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar – Janubiy Koreya, Tayvan', Gonkong, Singapur, Malayziya va Tailand kelib qo'shildi. Turli mamlakatlar iqtisodiy darajasining yaqinlashuvi va tenglashuvi sivilizatsiyalashgan munosabatlar natijasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning baynalmillashuvi mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga bog'lab qo'yadi. Natijada teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar mamlakatlarning kam rivojlangan mamlakatlarga ta'sirini kuchaytirib, ularning rivojiga ko'maklashadi.

## 2. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllaridan biri bu savdo – sotiqdir. Xalqaro iqtisodiy aloqalarda savdo – sotiq jahon bozori orqali amalga oshiriladi.

Jahon bozori – xalqaro mehnat taqsimoti orqali mamlakatlar o'rtaлиdagи oldi – sotdi munosabatlaridir.

Jahon bozori tovarlar, xizmatlar, moliya, ilmiy kashfiyotlar, mehnat bozorlaridan iborat. Xalqaro mehnat taqsimoti qanchalik chuqurlashsa, jahon bozori shunchalik kengayadi, u yerda sotiladigan tovarlar va xizmatlar ko'payadi. Jahon bozorining o'ziga xos infratuzilmasi mavjud. Bu infratuzilmani xalqaro tovar birjalari, fond birjalari, banklar, auksionlar, moliya – sug'urta, savdo – sanoat kompaniyalari, ishga yollovchi firmalar tashkil etadi. Jahon bozorida mamlakatlar obyektiv va subyektiv sabablarla ko'ra ma'lum tovar va xizmatlarga ixtisoslashgan bo'ladi va ular bir-biriga tovar yetkazib beradi. Ixtisoslashuvning obyektiv sabablarini mamlakatlarning geografik joylanishi, iqlimi, yer osti vay er ustii boyliklari tashkil etadi. Subyektiv sabablarini esa mamlakatdagi fan va texnikaning rivojlanganligi va malakali kadrlar tashkil etadi.

Jahon bozorida turli mamlakatlarda xarajatlar har xil bo'lganligi sababli eksport va importning qulayligi yoki noqulayligini keltirib chiqaradi. Agar tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari mamlakat ichida jahon bozoridan past bo'lsa, eksport qulay hisoblanadi va aksincha

agar xarajat yuqori bo'lsa, import amalga oshiriladi. Natijada mamlakatlar o'zidagi kam xarajatli tovarlarni eksport qilishga va ko'p xarajatli tovarlarni import qo'yishga intildi. Juhon bozorida maxsus narxlar – shartnoma narxlar mavjud, bu narxlar baynalmilal xarajatlarni talab va taklif nisbatini va raqobatni hisobga oladi. Natijada jahon bozoridagi narxlar talab va taklifga qarab o'zgarib boradi. Ammo shunday tovarlar borki, ularni ishlab chiqarish tabiiy sharoit bilan cheklangandir. Masalan neft, gaz, ko'mir va qishloq xo'jaligi mahsulotlari. Natijada ularni ishlab chiqaruvchilar monopol mavqega ega bo'ladilar va raqobat cheklanganligi sababli monopol narxlar yuzaga keladi. Bularning hammasi tabiiy monopoliyalar deb ataladi.

Jahon bozori milliy iqtisodiyot rivojiga kuchli ta'sir etadi. Hozirgi davrda bir mamlakat doirasida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha turlarini ishlab chiqarish mumkin emas. Natijada rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya va boshqa mamlakatlar o'ziga kerak bo'lgan tovarlarni jahon bozoridan xarid qilishga majbur. Masalan, AQSH kakao, kofe, ipak, nikel, tabiiy kauchuk, olmos kabi mahsulotlar importiga muhtoj.

Jahon bozorida mamlakatlar iqtisodiy mavqeiga qarab tabaqlananadi. Ular ikki guruhga: tayyor mahsulot yetkazib beruvchi va xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlarga ajraladi. Rivojlangan mamlakatlar ko'proq tayyor mahsulotlarni eksport qilishsa, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlar ko'proq xomashyonini eksport qiladilar.

Jahon bozori orqali pul kapitali, ish kuchi va texnologiya mamlakatlar o'rtaida taqsimlanadi.

Jahon xo'jaligida mamlakatlar o'rtaida ilm – ma'rifat – texnika hamkorligi katta ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga davlat budgeti va yirik kompaniyalar hisobidan har xil pul fondlar tashkil etadilar, bu fondlardan turli yordamlar ko'rsatadilar. Masalan, O'zbekistonga bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Jahon banki, Yevropa Iltifoqi hisobidan kadrlarni bepul o'qitish, xorijda ularning malakasini oshirishga yordam berilmogda.

Jahon xo'jaligida davlatlararo kapitalni taqsimlash iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda. Mamlakatlararo kapital eksporti yuz bermoqda. Rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarga kapital eksport qilinmoqda.

Jahon xo'jaligida ishlah chiqarish xalqaro xususiyatga ega. Transmilliy korporatsiyalar (TMK) yuzaga kelmoqda. TMK, birinchidan, o'z kapitalidan kelib chiqadi, ikkinchidan, faoliyat

doirasi jihatidan xalqaro xususiyatga ega bo'ladi. TMK bir nechta mamlakat milliy kapitalining birikishidan tashkil topadi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllaridan biri bu iqtisodiy integratsiya aloqalaridir.

Iqtisodiy integratsiya - milliy bozorlar va milliy xo'jaliklar birlashmasidir. Bu birlashma davlatlararo iqtisodiy kelishuv shaklida bo'ladi.

Integratsiyaning oddiy shakllaridan biri erkin savdo muhitini tashkil qilish hamda bojxona soliqlaridan ozod qilinishdir. Bunda savdo chekhanishlari shakllaridan biri bojxona ittifoqidir. Bu shaklda tashqi savdo chekhanishlari to'xtatiladi, yagona tashqi savdo tarifi o'rnatiladi. Yuqorida ko'rsatilgan ikki holda ham davlatlararo kelishuvlar faqat muomala sohasini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy integratsiyaning murakkab shakliga shunday iqtisodiy ittifoq kiradiki, bunda bojxona integratsiyasiga umumiyligi iqtisodiy siyosat va valuta siyosati qo'shimcha qilib kiritiladi. Integratsiyaning bunday shakliga Yevropa Iqtisodiy Ittifoqi misol bo'la oladi. Yevropa Iqtisodiy Ittifoqi 1957 - yil tashkil topib, unga 15 ta mamlakat a'zodir.

Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

### 3. Jahon bozorining raqbat markazlari

Jahon bozorida mamlakatlar o'rtasida raqobat kurashi olib boriladi. XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar o'rtasida raqobatning keskinlashuvi jahon xo'jaligida raqobatning uch asosiy markazini vujudga keltirdi. Bu markazlarni AQSH, G'arbiy Evropa va Yaponiya tashkil etadi.

XX asrning 60 - yillarigacha AQSH jahon xo'jaligida hukmronlik qilar edi va unga qarshi raqobat qiluvchilar yo'q edi. Lekin 60 - yillardan keyin jahon bozorida kuchlar nisbati o'zgara boshladi. G'arbiy Yevropa va Yaponiya jadal sur'atlar bilan rivojiana boshladi. Natijada uch markaz o'rtasida raqobat kuchayib ketdi.

AQSH hozirgi davrda ulkan ishlab chiqarish va fan - texnika imkoniyatiga, katta ichki bozorga egadir. Bunga qo'shimcha, uko pigma tabiiy resurslar bilan o'z - o'zini ta'minlay oladi. Shu bilan birga, AQSH monopoliyalari chetga kapital chiqarishni kengaytirmoqda.

G'arbiy Yevropa markazi keng rivojlangan regional ichki aloqalarga bir - birini to'ldiruvchi iqtisodiy strukturalarning mustahkam chirmashib ketganligiga, «Umumiy bozor» doirasidagi integratsiya jarayonlari tulayli ishlab chiqarish va kapitalning baynalmillallashuviga tayanadi.

Yaponiya, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari ega bo'lgan ko'pgina ustunliklarda, avvalo, o'z xomashyo bazasidan mahrumdir. Lekin u bu kamchiliklarni chet el keyingi vaqtida esa, o'z texnologiyasini samarali qo'llash hamda import qilingan xomashyodan samarali foydalananish, o'z iqtisodiyotini yuksak darajada moslashuvchanligi, mehnat unumdotligining tez o'sishi, eng ko'p talab qilinadigan sanoat tovarlarini ishlab chiqarishga fan - texnika imkoniyatlarini saferbar etish bilan qoplamoqda.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Jahon xo'jaligi** - xalqaro mehnat taqsimoti va jahon bozoriga asoslangan mamlakatlari o'rtafiga aloqalar.

**Iqtisodiyotning bayna millallashuv'i** - xalqaro mehnat taqsimoti natijasida ayrim mamlakatlari o'rtafiga barqaror ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalarning yuzaga kelishi va ularning jahon xo'jaligida chambarchas bog'lanib ketishi.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** - mamlakatlari o'rtafiga iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi asosida, ular iqtisodiyotining yaqinlashuv'i va birlashuvidan iboratdir.

**Erkin iqtisodiy hudud** - bir mamlakatda xorij kapitalining erkin harakat qilishi uchun ajratilgan hudud. Bunday hujudlarda boj olinmaydi yoki juda kam miqdorda belgilanadi, eksport - import operatsiyalarini nazorat qilish bekor qilinadi. Erkin iqtisodiy hudud mamlakat iqtisodiyoti rivojlantirishni ta'minlash, ijtimoiy va ekologik masala'larni hal etish uchun tashkil etiladi.

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Xalqaro mehnat taqsimoti nima?
2. Iqtisodiy integratsiya turlari?
3. Jahon bozorining infratuzilmasini nima tashkil etadi?
4. Ixtisoslashuvning obyektiv va subyektiv sabablarini nima tashkil etadi?
5. Jahon bozoridagi raqobat?
6. O'zbekistonni jahon xo'jaligining to'laqonli, munosib tarkibiy qismiga aylanishini qanday tushunasiz?

## XIX Bob. JAHON BOZORI. XALQARO MOLIYA VA VALUTA TIZIMI

1. Jahon xo'jaligi tizimida hozirgi zamон iqtisodiy munosabatlari va shakllari.
2. Xalqaro valuta munosabatlari va valuta tizimlari.
3. Xalqaro savdoning mazmuni va uning iqtisodiyotdagi roli.
4. Xalqaro moliya kredit tashkilotlari va ularning faoliyatları.

### **1. Jahon xo'jalik tizimida hozirgi zamон iqtisodiy munosabatlari va shakllari**

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim xarakterli xususiyatlaridan biri turli mamlakatlar va xo'jalik manbalari o'rtafiga o'zaro bog'liqlikning o'sib borishi hisoblanadi.

Jahon xo'jaligida har bir o'zgarishlar (jahon bozorida narx – navo va alohida mamlakatning joriy imkoniyatlaridan tortib dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy silijsi o'zgarishlar va xalqaro imkoniyatlar faoliyatları) dunyodagi hamma mamlakatlar manfaatini o'ziga tortadi. Davlatning savdo, ishlab chiqarish, valuta, moliya sohalarida jahon tashkilotlariga bog'liqlik obyektiv real voqe'lik hisoblanadi. Hozirgi unda har qanday mamiakat iqtisodiyoti qanchalik rivojlangan bo'lishiqa qaramasdan, ularning jahon xo'jaligi aloqalariga ja'b qilmasdan uning to'laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Dunyo bir – biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi, turli xil ijtimoiy – iqtisodiy tuzilmalar, xalqaro guruhlarga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. Milliy xo'jaliklar va ular o'rtafiga iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvni mahsulotlari ustun darajada ekportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqning shakllanishiga olib keladi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi ham o'ziga xos yo'l tanlab, jahon iqtisodiy rivojlanish tizimiga, integratsion jarayonlarga kirib bormoqda.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishidagi o'tgan qisqa o'n yillik tarixiy davrda respublikaning suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekistonni 165 dan ortiq davlat tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan

rasmiy diplomatik munosabatlardan o'rnatilgan. Toshkentda 43 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ayriboshlash, savdo sohasidan ko'proq ishlab chiqarish sohasiga ko'chib, tobora iqtisodiy hamkorlikning keng ko'lamlari ochilmoqda. Eng yirik bank va moliya organlari nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Respublikada 88 ta chet el vakolatxonalarini ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, O'zbekistonda 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarining vakolatxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 26 davlatda – AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda.

O'zbekiston barcha turdag'i xalqaro munosabatlarda faol ishtiroy etib, jahon mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik, do'stlik, hamkorlik, o'zaro yordam, tenglik va bir-birlarining ichki ishlariiga aralashmaslik asosida xalqaro huquqlar va konvensiyalar dasturlari asosida jahon hamjamiyatiga qo'shilgan. Respublikamiz jahon bozori va uning barcha turida ishtiroy etib o'z o'rni va salohiyatga ega bo'lib bormoqda.

Jahon bozori jahon xo'jaligining bir qismi bo'lib, murakkab, dinamik tarzda rivojlanib boruvchi ziddiyatli va ko'p qirrali tizimdan iboratdir. Shiddat bilan rivojlanayotgan ilmiy – texnika taraqqiyoti milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy sijishlar xo'jalik hayotini davlat tomonidan tartibga solish shakl va usublarining rivojlanib borishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qiyofasini o'zgartirib yubordi.

Tashqi aloqalar xalqaro munosaballarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirish, xavfsizlik va barqatorlikning kafolatidir.

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim xarakterli xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlar va xo'jalik regionlari o'rtafiga o'zaro bog'liqnining o'sib borishi hisoblanadi.

Jahon xo'jaligi deb, jahondagi barcha mamlakatlarning sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari va jahon bozorining mushtarak, murakkab, doimo kengayib rivojlanib boruvchi hosilasiga aytildi.

Jahon xo'jaligida har bir o'zgarishlar dunyodagi barcha mamlakatlar man'aatini o'ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valuta – moliya sohalaridagi jahon tamoyillanga bog'liqlik obyektiv reallik hisoblanadi.

Dunyo bir – biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan tarqlanuvchi turli xil xalqaro guruhlariga bo'linadi. Mamlakatlarning guruhlanishi har xil mezonlar asosida shakllanadi.

XX asrning so'nggi yillarda yetakchi mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishning tub sifat o'zgarishlari hamda jahon xo'jaligi tuzitishida, o'sish sur'atlarida bo'lgan o'zgarishlarning kuchayib borishi, xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichidagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Shu bilan birga, mamlakatlarni jahon xo'jaligi aloqalarida faol qatnashuvchlariga xalaqit beruvchi maskuraviy va siyosiy to'siqlarni olib tashlanishi har bir mamlakatga xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan manfaatdor bo'lishiga imkoniyatlar ochib berdi.

Jahon hamjamiyati mamlakatlari umumiy asosda yondoshib, xo'jalik tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular rivojlangan, rivojlanayotgan va hozor iqtisodida mavjud bo'lмаган mamlakatlar.

Rivojlanganlik hamda muqobililik bo'yicha uchta guruhga ajratish mumkin. Bular:

1. Shimoliy Amerika guruhi: AQSH, Kanada va Meksika. (Jahon yalpi mahsulotining 29 foizi).
2. G'arbiy Yevropa guruhi – bozor iqtisodiyoti rivojlangan Yevropa mamlakatlari (Jahon yalpi milliy mahsu'ctining 32 foizi).
3. Yaponiya guruhi – Yaponiya va tez rivojlanayotgan Janubiy-sharqi Osiyo mamlakatlari (Birgina Yaponiya hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining 15 foizi to'g'ri keladi)

Ta'kidlab o'tish kerakki, bu uch guruhga kiruvchi davlatlar o'rtaсидаги jahon bozorida o'z ta'sir doirasini kengaytirishda va ishtirokini oshirishga qaratilgan kuchli raqobat, hozirgi zamon xalqaro munosabatlarning mohiyatini ochib beradi.

Rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruh farqlanadi: kam, o'rtacha va yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar.

Shimoliy – sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial (YAIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabiston, Quvayt va boshqalar), shu jumladan, eng kambag'al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya) har xil regional ittifoqlar va guruhlar ajratiladi.

Har bir mamlakat o'zining ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga qarab jahon bozoriga turli xil tovar va xizmatlar yetkazib berishga ixtisoslashadi.

Milliy xo'jaliklar va ular o'rtaсидаги iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xaloqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti xalqaro iqtisodiy munosabatlari, ya'ni turli mamlakatlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari negizida yotadi va quyidagi shakkarda namoyon bo'ladi:

- tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- kapital va chet el investitsiyalarining harakati;
- ish kuchi imigratsiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- fan va texnika sohasida ayirboshlash;
- valuta kredit munosabatlari.

Xalqaro xo'jalik aloqalari ayrim oldi – sotdilardan mol yetkazib berishlar, ishlab chiqarish kooperatsiyasi doirasida amalga oshadigan, uzoq muddatli yirik kolamli savdodagi iqtisodiy hamkorlikkacha o'sdi.

Tashqi savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo'lidi.

O'zbekistonning xalqaro tashqi savdo aloqalanda Xitoy, Rossiya, Germaniya, Italiya, Turkiya, Ukraina, Hindiston, Malayziya va Koreya mamlakatlarining ulushlari kattadir.

O'zbekiston xorijiy mamlakatlarga paxta tolasi, elektr energiya, xizmatlar, qora va rangli metallar, kimyo va plastmassa va undan ishlab chiqariladigan mahsulotlar, avtomobillar, mineral o'g'itlar, neft mahsulotlarini chiqarish, valuta tushuvchini ko'paytirish, doimo jahon bozori kon'yunkturasiga mos tovarlar chiqarish zarurligini ko'rsatmoqda.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisoblanib, u o'z ifodasini mehnat resurslarining ancha qulay sharoitida ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishini bildiradi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan bir qatorda siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa omillar ham taqozo qiladi.

Migratsiya ikki tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1. Emmigratsiya – mamlakatlardan doimiy yashash joyiga chiqib ketishni.
2. Immigratsiya – mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi.

Shu bilan birga, fan – texnika yutuqlari bo'yicha xalqaro ayirboshlash bir qator shakkarda amalga oshiriladi.

U ilmiy – texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi kodimlari bilan ayirboshlashni tadqiqot va yangiliklarni iitsenziya asosida berishni, ilmiy – tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan – texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Jahon savdosida xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet elliq iste'molchilariga xizmat ko'rsatish, chet el valutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalgamoshiriladi.

## 2. Xalqaro valuta munosabatlari va valuta tizimlari

Tovarlar, xizmatlar, sarmoya va ishchi kuchlarini bir mamlakatdan boshqa mamlakatga harakati pul massasi orqali yuzaga chiqadi.

Ana shu harakatni tartibga solish zarurati xalqaro valuta tizimi va regional valuta tizimlarining shakllanishiga olib keladiki, u xalqaro valuta aloqalarini «tabiiy» bozor rivojlanishi bilan birgalikda ularni milliy qonunchilik va davlatlararo valuta bitimlari asosida muvofiqlashtiruvchi har xil shakllari mavjuddir.

Valuta (tom ma'noda qiymat, baholar bu mamlakatning pul birligi) dollar, marka, funt - sterling, rubl, so'm va boshqalar.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarda milliy va chet el valutasi farqlari hisobga olinadi.

Milliy valuta bu O'zbekiston Respublikasining banknot va mayda (chaqa) pul ko'rinishidagi pul belgilari, shuningdek, O'zbekiston respublikasi pul birliklarida (so'm) ifodalangan.

Har bir mamlakatning valuta tizimi xalqaro huquq me'yorlarini hisobga olgan holda ana shu mamlakatning qonunchiligi asosida shakllanadi. Xalqaro valuta tizimi xalqaro valuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- milliy valutalar;
- oltin;
- xalqaro valuta birliklari: SDR, Yevro;
- valuta kurslarini belgilash va uni ushlab turish mexanizmi;
- xalqaro to'lovlarini baravarlashtirish tartibi;
- valutaning qaytaruvchanligi;
- xalqaro valuta bozori va oltin bozori tartibi;
- valuta munosabatlarini tarlihga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Hozirgi davrda mamlakatlar o'rtaсидаги valuta munosabatları to'lov vositasi jahon puli asosida amalgamoshiriladi. Shunday pul tarzida asosan AQSH dollari qabul qilingan. Milliy valutalar kursi bir - biriga va AQSH dollariga qiyoslanib ularning qiymat nisbati aniqlanganda valuta munosabati paydo bo'ladi.

Davlatlararo hisob - kitob yagona valutada yuritilishi uchun aniq belgilangan valuta kursi talab qilinadi. Valuta kursi barqaror

bo'lishi zarur. Shu boisdan xalqaro aloqalarda suzib yuruvchi (tebranuvchi) valuta kursi ma'qul topilgan. Bu ma'lum chegara doirasidagina o'zgarib turadigan valuta kursi bo'lib, uni me'yoriy deb atash mumkin.

Mazkur kurs uning yuqori va quiyi chegarasi doirasida o'zgarib turadi. Barcha valutalar kursi AQSH dollari orqali belgilanadi. U yagona to'lov vositasi bo'lganidan hamma valutalarning kursi dollarda ifodalanadi. Ularning o'zaro kursi ham dollar orqali ifodalanadi. Milliy pul birliklarini xalqaro hisob-kitoblarda qatnashishi mamlakatning rivojlanish datajasini, uni jahon ayirboshlashdagi o'mini ishonchli tadbirkor, sherik sifatida ifodalarydi.

O'zbekiston 1992-yilda xalqaro valuta fondi va Umumjahon Bankining teng huquqli a'zosi bo'ldi. Jadal sur'atlar bilan xalqaro valuta munosabatlarini kengaytirmoqda va shuning uchun milliy valutani mustahkamlash, uning xarid quvvatini oshirish respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiing hozirgi bosqichidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Hozirgi paytda oltin o'zining asosiy to'lov, hisob-kitob vositasi xususiyatini yo'qotgan bo'lsa - da, u har qanday mamlakat valuta rezervlarining asosiy qismini tashkil etadi va undan ayrim hollarda muhim tashqi savdo operatsiyalarga xizmat ko'rsatish va kreditlarni katolatlashda foydalilanadi.

Oltin birinchi marta XVIII asrning oxirida Buyuk Britaniyada (1816-yil) monometalizm shaklida ekvivalent bo'lgan monometalizm - bu ham pul tizimida mustaqil unsur bo'lib, bunda bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiyligini roli beriladi.

Muomalada metalldan zarb qilingan tangalar va o'sha metallga tenglashtiriladigan qiymat belgilari yuradi. Tarixan uzoq vaqt davomida bunday umumiyligini ekvivalent vazifasini oltin bajarib keldi.

Oltin moneta standarti quyidagi iqtisodiy holatlarning namoyon bo'lishini anglatadi:

1. Oltin tangalar muomalada bernalol harakatda bo'ladi.
2. Oltin pulning barcha vazifalarini bajara oladi
3. Oltin tangalar erkin zarb etiladi.
4. Jismoniy shaxslar va davlatlar o'rtaida oltin cheklanmagan miqdorda harakat qila oladi.

Keyingi paytlarda 1976-78-yillarda Yamaykada 4-Jahon valuta tizimini yuzaga keltirish maqsadida o'tkazilgan davlatlararo kelishuvda davlatlar qarz majburiyatları va boshqa to'lovlarini oltin bilan qoplash huquqididan mahrum bo'ldilar.

1976-yil 1-yanvaridan boshlab Xalqaro Valuta Fondi tomonidan oltinning qat'iy belgilangan jahon bahosi bekor qilindi.

Qat'iy belgilangan valuta kursining bekor qilinishi:

- valutaning xarf – xatarini kuchaytiradi;
- xalqaro savdoda kapital kreditlar harakati xavfli bo'lib qoladi. Chunki birgina valuta kursining o'zgarishi natijasida millionlab zarar ko'rish mumkin.

Masalan, Germaniyada Folksvagen kompaniyasi 1985 – yilda birgina shu sabab tufayli 483 million dollarni yo'qtgan.

Xalqaro valuta fondi erkin suzib yuruvchi kurslarga o'tishni tavsiya etgandan so'ng:

- ❖ xalqaro kreditlarni to'lash qiyinlashib qoldi;
- ❖ davlatlar birin – ketin to'lovga noqobilligini e'lon qila boshladi;

1982 – yilda Meksika birinchi marta o'zining to'lovga noqobilligini e'lon qildi. Undan keyin Braziliya, Afrikaning qator davlatlari xuddi shunday qilishdi. Chunki berilgan xalqaro kreditlarning 60 foizi erkin suzib yuruvchi stavkalardagi kreditlar edi.

Keyingi yillarda rezerv valuta sifatida xalqaro pul birliklari ham (SDR, EKYU, YEVRO) foydalanilmoqda. Rezerv valuta javob berishi kerak bo'lgan asosiy talab uning konvertirlashuvidir.

Valuta konvertirlashushi deganda uni boshqa valutalarga almashish qobiliyati tushuniladi.

Hozirgi vaqtida valutalar, erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan, konvertirlanmaydigan valutalarga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valuta – bu amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayrboshlanadigan valutadir. Xorijiy valutani erkin sotib olish va sotish joriy operatsiyalar (tashqi savdo, ayrboshlash, xalqaro turizm) hamda kredit va investitsiya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlari bo'yicha amalga oshriladi. Erkin konvertirlanadigan valutalarga AQSH dollarri, Kanada dollarri, Yevropa hamjamiyati mamlakatlari (YEVRO), shuningdek, Shvetsiya, Shveysariya, Yaponiya milliy valutalarini kiritish mumkin. Ulardan valuta narxlarini aniqlashda foydalaniлади. Masalan, o'ta muhim mahsulot hisoblangan neft va boshqa energiya tashuvchilar bir qator metall narxlari AQSH dollarida qayd etiladi.

Qisman konvertirlanadigan valuta – bu milliy valuta bo'lib, faqat ba'zi bir xorijiy valutalarga ayrboshlanadi, shunda ham xalqaro to'lov oborotining barcha turlari bo'yicha emas. Masalan, faqat joriy operatsiyalar to'lovga ruxsat beriladi yoki tashqi iqtisadiy faoliyatda qatnashuvchilar uchun xorijiy valutani sotib olishda va sotish huquqiga cheklashlar qo'yiladi.

Konvertirlanmaydigan valuta faqatgina vaqtinchalik ichki to'lovga xizmat qiladi va xorijiy valutaga ayrboshlanmaydi.

Tashqi konvertirlashda to'lovlarning chet elda amalga oshirishga va aktivlarni ushlab turishga ruxsat beriladi. Valutalarning konvertirlanishi ko'pchilik mamlakatlari iqtisodiy siyosatining muhim maqsadi hisoblanadi va jahon tajribasining ko'rsatishicha, ko'pchilik mamlakatlarda raqobatga bardoshli sanoat bazasi va xalqaro rezervlar barpo etilgandan keyin kiritilgan.

Masalan, Fransiya, Italiya hamda Yaponiya o'z milliy valutalari to'liq konvertirlanishini faqat 80 – yillarning oxirida joriy etdilar.

Hozirgi vaqtدا xalqaro hisob – kitoblarda milliy valutalar bilan bir qatorda xalqaro yoki mamlakatlari pul birliklari (YEVRO) tobora keng qo'llanilmoqda.

### **3. Xalqaro savdoning mazmuni va uning iqtisodiyotdag'i rolli**

Jahon savdosи tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvи natijasida kapitalni chetga chigарish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog'liq ravishda xalqaro moliya – kredit munosabatlari rivojlandi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim obyektiv sabablar bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu tabiiy va xomashyo resurslarining mamlakatlari o'rtaida tekis taqsimlanmaganidir. Masalan, Yaqin Sharq mamlakatlari hissasining jahon neft zahitalarining 66 foizi to'g'ri kelsa, mis, tabiiy gaz, boksit va boshqa ko'plab foydalı qazilmalar zahitalarining 70 – 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shu bilan bir vaqtda ko'plab sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu tabiiy boyliklar yetishmasligi tufayli ularga ehtiyoj katta.

Mamlakatlari bo'yicha tabiiy boyliklarning notejis taqsimlanganligi, bir qator rivojlangan mamlakatlarda foydali qazilmalar zahiralarining kamligi, shuningdek, yoqilg'i, xomashyo mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning tez o'sib borishi – bu resurslarni keng ayriboshlashni hayotiy zaruratga aylantiradi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi o'rtaсидаги farq narxlarining turlicha bo'l shiga, ularni olib kelish va olib chiqish hisobiga qo'shimcha toyda olish imkoniyatini beradi. Agar xomashyo resurslarini asosiy yetkazib beruvchilar rivojlanayotgan mamlakatlari hisoblansa, sanoati rivojlangan mamlakatlari murakkab mashinalar, ashob – uskunalar yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Taraqqiy etgan mamlakatlari hissasiga jahondagi turli mashinalar, asbob – uskunalar savdosining 80 foizidan ortig'i to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo ayrboshlashning va tashqi savdo operatsiyalarining ko'rinishlari.

Tashqi savdo xalqaro ayrboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayrboshlash, yoqilg'I, xomashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari.

- xizmatlarni ayrboshlash muhandislik – maslahat xizmatlari, transport xizmatlari, turizm va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtida xizmatlarning jahon eksportidagi hissasi 30 foizdan oshib ketdi.

- yangi ilmiy – texnik ma'lumotlarni ayrboshlash: litsenziyalar va «nou – xaular». Ular hissasiga xalqaro savdo oborotining 10 foiziga yaqini to'g'ri keladi. Xalqaro mahsulotlar, xizmatlar va fan – tekniqa ma'lumotlarini ayrboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.

**Eksport operatsiyalari** – mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

**Import operatsiyalari** – mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

**Reeksport operatsiyasi** – avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib ketish.

**Reimport operatsiyasi** – avval ek port qilingan va u yerda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish. Ularning ichida eksport va import operatsiyalari asosiy hisoblanib, jahon savdo hajmi va uning rivojlanishini belgilab beradi.

Hozirgi davrda xalqaro savdoning rivojlanish xususiyatlari va yo'llari yildan – yilga xalqaro savdo jarayoni rivojlanib, jahon yalpi milliy mahsulotining taxminan 15 foizini tashkil etadi. Bunda AQSH, rivojlangan g'arb davlatlari va Yaponiya yirik eksport va import qiluvchilar bo'lib hisoblanadi, hozirgi jahon savdosи faqat yuqori o'sish sur'atlariqina emas, balki tarmoq va hududiy tuzilishdagi o'zgarishlarni ham ifodalaydi.

Jahon savdosи rivojlanishining bu xususiyatlari yuqori darajada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi dinamikasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq Tashqi savdo tovar aylanishi ayniqsa, Janubiy – Sharqiy Osiyoning «Yangi sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda», Xitoy, Turkiya va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori sur'atlarda o'smoqda. Biroq shunga qaramay, jahon savdosidagi yetakchi o'rinni hozirgi kunda ham AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya egallab kelmoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridan oq tashqi savdo aloqalarini sezilarli darajada faollashtirdi. Bu aloqalar

respublikalar savdo balansida ijobiy qoldiqqa (saldoga) erishish, import va eksport tuzilishini yaxshilashga yo'naltirilgandir. Keyingi yillarda birinchi marta chetga mahsulot eksport qilish hajmining o'sishi ta'minlandi. Yil yakunlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasida 317,3 mln. AQSH dollari miqdorida ijobiy saldoga erishildi<sup>1</sup>. Respublikamizda tashqi savdoni rivojlantirishning muhim muammolaridan biri eksport va import tuzilishini tubdan o'zgartirish hisoblanadi.

Eksportda hali ham paxta tolasi va mineral o'g'itlar chiqarish oldingi o'rirlarni egallaydi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarini kelajakda rivojlantirish chetga mahsulotlarni olib chiqishda, yengil va og'ir sanoatdag'i tayyor buyumlar hissasini tezda ko'tarishga va eksport tuzilishini yaxshilashga imkon beradi. Iqtisodiy imkoniyatlardan O'zbekistonda yaqin kelajakda oziq - ovqat mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish uchun xomashyoni keng ko'landa eksport qilishga imkon beradi. Respublika o'zining savdo sohasidagi me'yorlari doirasini kengaytirmoqda. Ularga MDH mamlakatlari bilan bir qatorda Belgiya, Gollandiya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Xitoy, Polsha, Malayziya va boshqalar kiradi. Ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi bilan savdo oborotini 2 mld. dollarga yetkazish uchun Prezidentimiz I.A.Karimovning Rossiyaga 2001 - yil may oyida qilgan ta'hrifida kelishib olindi. Hozir bu sohada amaliy chora - tadbirlar ko'rilmogda.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirib borish milliy iqtisodiyotning ko'tarilishiga, uning tuzilishi takomillashuviga yordam beradi. Tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ularning samaradorligini oshirishni ta'mindaydi.

#### **4. Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari va ularning faoliyatları.**

Jaqon valuta tizimini rivojlanitish va mustahkamlash, jahon ma'nnaviy resurslar bozorini barqarorlashatirish va kapital aylanishini rag'batlanitish maqsadida xalqaro moliya tashkilotlari tashkil etilgan edi. Ular ichida eng ahamiyatlisi xalqaro valuta fondi (XVF) va qator yirik banklar - Umumjahon Banki (UB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot Banki (YETTB), Xalqaro hisob - kitoblar banki (XHKB), Islom Taraqqiyot Banki (ITB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) va boshqalar hisoblanadi.

1944 - yil Bretton - Vudsda (AQSH) valuta moliya masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining anjumanı bo'ldi va unda

<sup>1</sup> Karimov I.A. Vazirlar Mahkumatining 2000 - yilda mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish yekunlari va 2001 - vilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vo'nalishlariga haqiqishlangan yig'ilishidaqи ma'rezall - Xalq so'zi ro'znomasi. 17.02.2001 - y.

44 davlat hukumati vakillari qatnashdi. Anjumanda qator bitimlar, jumladan, Xalqaro Valuta Fondi to'g'risida, Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Umumjahon Banki to'g'risida bitimlar tuzildi. Bu bitimlar 28 mamlakat tomonidan imzolandi va ular BMT doirasida yirik jahon moliya tashkilotlarini yaratishning huquqiy asosi bo'ldi.

Xalqaro Valuta Fondi (XVF) 1945 – yilning oxirlarida ish yurita boshladi, hozirda unga 178 mamlakat a'zodir. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar valuta – moliya siyosatini muvofiqlashtirish va ularga to'lov balansini tartibga solish hamda valuta kursini saqlash uchun qarz berish hisoblanadi. Buning uchun fond to'lov balansida qiyinchiliklar sezayotgan o'z a'zolarini moliyalashtiradi, ularning xo'jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko'rsatadi.

Jahon valuta tizimining rivojlanishida valuta operatsiyalari va kredit oqimlarini xalqaro miqyosda tartibga solishda BMTning ixtisoslashgan muassasalarini qatoriga kirmaydigan yirik moliyaviy tashkilotlar katta rol o'yinaydi. Ularga Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YETTB), Xalqaro hisob – kitoblar banki (XHB), Osiyo taraqqiyot banki va boshqalar kiradi. Bu bank 1991 – yildan ish yurita boshladi va uning ta'sischilari 34 mamlakat hisoblanadi. Ularga Markaziy Yevropa mamlakatlari, AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Turkiya, Kipr, Malta, shuningdek Yevropa hamjamiyati komissiyasi va Yevropa investitsiya banki kiradi. U markaziy va Sharqiylar Yevropa mamlakatlari bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha islohotlarni o'tkazishga ko'maklashish maqsadida tuzilgan.

O'zbekiston xalqaro moliya – kredit tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirib borgan sari xalqaro integratsion jarayonga munosib sherik sifatida kirib bormoqda.

## ASOSIY VA TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT)** – alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidir.

**Jahon bozori** – jahon xo'jaligining bir qismi bo'lib, murakkab, dinamik tarzda rivojlanib boruvchi, ziddiyatli va ko'p qirrali tizimdan iboratdir.

**Ish kuchining xalqaro migratsiyasi** – mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishini bildiradi.

**Monometalizm** – pul tizimida mustaqil unsur bo'lib, bunda bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalent roli beriladi.

**Valuta konvertirlashuvi deganda** uning boshqa valutalarga almashish qobiliyatı tushuniladi.

**Erkin konvertirlanadigan valuta** – bu amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valutadir.

**Eksport operatsiyaları** – mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

**Import operatsiyalari** – mahsulotni xorijiy sheriklardan sotib olish va mamlakatga olib kelish.

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Juhon xo'jalik tizimidagi hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlarning shakllarini izohlab bering.
2. Xalqaro mehnat taqsimotining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
3. Juhon valuta tizimining tarkibiy qismlarini asoslab bering.
4. Xalqaro savdo munosabatlari va uning hozirgi davrdagi rivojlanish xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Xalqaro Valuta Fondlarining vazifasi va tarkibiy tizimini tushuntirib bering.
6. O'zbekistonning xalqaro bozorga qo'shilish borishining yo'naliishlarini ko'rsating.
7. Xalqaro moliya tashkilotlarini izohlab bering.

## **XX Bob. JAHON IQTISODIYOTI TARAQQIYOTIDA UMUMBASHARIY MUAMMOLAR**

1. Insoniyat taraqqiyotida umumbashariy muammolarning mohiyati.
2. Umumbashariy ko'lamdag'i muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik qilish yo'llari.
3. O'zbekiston Respublikasining ekologik muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.

### **1. Insoniyat taraqqiyotida umumbashariy muammolarning mohiyati**

Insonning tabiat imkoniyatlari va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay jadal yuritilgan xo'jalik faoliyati, Rim klubining «XXI asr yo'li» deb atalmish tadqiqotlаридан birida ko'rsatib o'tilganidek, «Yer yuzida tuproq nurashi, o'rmonlardan mahrum bo'lish, baliqlarning haddan tashgari ko'p ovlanishi, tuzli yomg'irlar, atmosfera ifloslanishi, azon qatlami buzilishi va hokazolarning ro'y berishiga olib keldi. Mutaxassislarning baholariga, 2000—ylga horib o'rmonlar egallab turgan maydon quruqlikning 1/6 qisminiy na tashkil etadi, holbuki, 50—yillar ular 1/4 qismni egallagan edi. Jalon okeanining suvlari halokatli ravishda ifloslanib hormoqda, uning takroriy mahsulorligi keskin pasaymoqda. Jadal sur'atlar bilan yuz berayotgan urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning asosiy aglomeratsiyalar eng yirik iflosantirish manbalariiga aylanib qolishiga olib keldi. Buning natijasida butun dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq bo'lgan turli—tuman kasalliklar soni ortib hormoqda<sup>1</sup>. Hozirgi vaqtida jahon fan—texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zahiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'proq foydalaniilmoqda. Shu bilan birga, dunyo abolisi yildan—ylga o'sib hormoqda, bu o'sish ko'proq miqdorda oziq—ovqat, yoqilg'i, kiyim—kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarishni talab etadi. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal sur'atda qisqarishiga, cho'l—sahrolarning bostirib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan azon to'sig'i kamayib ketishiga, yer havosining o'rtacha harorati ortib borishiga va boshqa salbiy holatlarga sabab bo'limoqda.

Beto'xtov davom etayotgan qurollanish poygasi, atom, kimyoiviy qurollar va ommaviy qirq'in qurollarining boshqa turlarini ishlab

<sup>1</sup> Karimov LA. O'zbekiston buyuk kelajak suri. — T.: «O'zbekiston», 1998 — y. 506 — het.

chiqarish, saqlash va sinash insoniyat yashaydigan muhit uchun juda katta xavfdir.

Elozir, XXI as da, fan – texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jo'g'rofiy – siyosiy tuzilishi o'zgarmoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarda muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xalqaro hamjaniyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to'laqonli va sog'loni turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof – muhit sharoitlariga ham bo'lgan huquqlarning muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e'tirof etgan.

Insoniyat uchun umumlashshariy muammolarning dolzarbliyi (qurollanish poygasi, termoyadro halokati xavfi, atrof – muhitning ifloslanishi, aholi turmush darajasining yomonlashuvি turli xil kasalliklarning kuchayib borishi) dunyo bo'yicha bu muammolarni bartaraf qilishda kuchlarni umumlashtirish lozimligini ta'kidlamoqda. Jahan iqtisodiy jarayonlari umumlashuvining kuchayib borishi borgan sari umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniylashgan xalqaro ittifoqni tuzish va shu orqali davlat, jamiyat, har bir shaxsning rivojlanishi, ishlabi chiqarish samaradorligi, manfaatlarning uyg'unlashuviga erishishi lozimdir.

Hozirgi zamон jahon xo'jaligida bongan sari umumi, cheklangan, milliy va umumbashshariy muammolarning bog'liqligi va o'zaro aloqadorligi kuchayib bormoqda. Jahan xo'jaligi iqtisodiy muaminolarining mürakkabligi va keskinligi zamонaviy sivilizatsiya ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanish darajasi bilan xarakterlanadi.

Insoniyat uchun birinchi darajali vazifa sifatida yer yuzida tinchlikni saqlash, urushlarning oldini olish, kimyoiy, biologik, ayniqsa, termoyadroviy qurollanish poygasini to'xtatish, konversiyani kengaytirish, cheklangan, umumbashshariy harbiy to'qnashuvlarning oldini olishdir.

Umumiy vazifa sifatida mamlakatlar uchun yoqilg'i – energetika va komashyo muammosini hal qilish ham zarur. Tezlik bilan ko'pgina qoloq mamlakatlar uchun oziq – ovqat muammosini hal etishga yordam berish, ochlik, qashshoqlik, kasalliklarga (epidemiyyaga qarsh kurash, ayniqsa, eng xavfli kasalliklar yurak xastaligi, rak, SPID) ga qarshi kurashish.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan muammolar inajmuasini har tomonlama o'rGANISHI va uni hal etish zarurligini taqozo etadi. Jahan hamjaniyati hu muammolarning birgalikdagи kuch g'ayratlarini umumlashtirish va muvozifqlashtirish orqali yechishi mumkin. Bu esa

umumbashariy muammolarni iqtisodiy-siyosiy jihatdan yangicha tashkil qilish zaruriyatini vujudga keltirishni taqozo etadi.

Jahon integratsiya yo'li bilan davlatlar o'tasida savdo aloqalaridan iqtisodiy aloqalarqa, keyinchalik yagona iqtisodiy kompleksga qo'shilishini zarur qilib qo'yadi.

Hozirgi dunyodagi muammolarni tahlil qilish uchun mintaqaviy va umumbashariy muammolarning o'zaro aloqadorligiga e'tiborni qaratish kerak. Umumbashariy muammolar yangi bosqichda siyosat, iqtisodiy ekologiyalar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ikkinchisi yo'nalish «ko'p qutblilik» va «ko'p qirralilik» ko'rinishida dunyo iqtisodiyotida alohida mamlakat, mamlakatlar guruhlari bo'yicha jahon xo'jaligida namoyon bo'ladi. AQSHning asta-sekinlik bilan jahon iqtisodiyotidagi yo'lboshchiligi «yangi industrial» davlatlarning Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida birinchi va ikkinchi avlodlarining paydo bo'lishi yangicha iqtisodiy fikrlashga olib kelmoqda. Sivilizatsiyaning umumbashariy muammolarini alohida olingan davlatlar bilan hal qilish mumkin emas. Insoniyat ehtiyojlariiga javob beradigan yangi xildagi xalqaro munosabatlarning rivojlanishi hozirgi davrda jahon hamjamiyati oldiga umumbashariy muammolar yagona mexanizmini ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etadi. Shu bilan birga, bunday holatda alohidalashgan manfaatlar nuqtai nazaridar emas, balki butun dunyo xalqlari manfaatlari hisobga olgan holda yangi me'yorlar ishlab chiqilishi kerak. Umumbashariy muammolarni tadqiq qilishda ularni tahlil etishning boshlang'ich uslubini, tamoyillarini aniqlash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ajratib olish ko'ndalang bo'lib turadi. Mana shu joyda turli mamlakatlar o'tasida tafovut ko'rindi. Ilekkin insoniyatning kelajagi to'g'risidagi q'amxo'rlik ko'pgina tang vaziyatlardan chiqish yo'lini topishga intilishi barcha qarashlarni birlashtirib turadi.

## **2. Umumbashariy ko'lamdag'i muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik qilish yo'llari**

Umumbashariy miqyosdag'i muammolarni hal etish borgan sari o'z ahamiyati jihatidan insoniyatning hayot-inomot masalasi sifatida qaratmoqda. Bu masalani hal etish uchun jahon miqyosidagi hamkorlik hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Bu holat o'z navbatida turli xalqaro tashkilotlar faoliyatini aktivlashtirishga, obyektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirishga qaratilmog'i zarur.

Birinchi yo'nalihsda, BMTning sifat jihatdan hozirgi davrda, bu xalqaro tashkilotning yangi kelajakdag'i konsepsiyasini ishlab chiqish masalasiidir. Birlasigan Millatlar Tashkilotining Stokholmdagi yiq'ilishida, tashkilotda islohotlar o'tkazish jarayonida «BMT iqtisodiy

va siyosiy sohala dagi faoliyatini kuchaytirishi va faollashtirishi zarur» deb ta'kidlanadi.

Ikkinci yo'naliish — jahon hamjamiyati kuchlarini umumlashtirish xalqaro hamkorlik qilishga yo'naltirish xalqaro moliyaviy tashkilot ar Xalqaro Rivojlanish va Tataqqiyot banki bilan Xalqaro Valuta fondlari tuzilishi va faoliyatlarini aniq belgilab olish.

Uchinchi yo'naliish, bir-biri bilan bog'liq ikkita g'oya: umumbashariy muamolarni boshqarishning mustaqil xalqaro komissiyasi va oliy darajadagi umumbashariy muammolarga bag'ishlangan butunjahon yig'ilishini chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim xarakterli xususiyatlaridan biri turli mamlakatlar va xo'jalik mintaqalari o'rtafiga o'zaro bog'liqliklarning o'sib borishi hisoblanadi. Jahon xo'jaligida yuz berayotgan har bir o'zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar harakati, alohida olingen mamlakatning eksport imkoniyatidan tortib dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar va xalqaro mor opoliyalar faoliyatlariga) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o'z ichiga oladi. Har bir davlatning savdo ishlab chiqarish, valuta moliya sohalaridagi jahon tamoyillariga bog'liqligi obyektiv real voqelik hisoblanadi. Hozirgi davrda har qanday mamlakatning iqtisodiyoti qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jaligi aloqalariga jalb qilmasdan uning to'la qonli iqtisodiy rivojlanishini aslo ta'minlash mumkin emas. Dunyodagi bir-birlaridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar xalqaro guruhlarga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida emalga oshiriladi. Dunyodagi jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga (guruhashiga) umumiy asosda yondashib, xo'jalil tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhibi ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlangan bozor iqtisodiyoti, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti mavjud bo'lмаган мамилакатлар. Rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruhibi farqlanadi, kam, o'rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoliy-Sharqiyo Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar, yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabiston, Quvayt va boshqalar), eng kam rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan, eng kambag'al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya) va har xil mintaqaviy ittifoqlari va xalqaro guruhlarga ajratiladi. Bu jarayondan O'zbekiston ham chetda qolgani yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning biri ichi sessiyasida iqtisodiy vazifalardan biri sifatida «Mamlakatimizning eksport salohiyatini rivojlantirish va

**mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyoti tizimiga keng ko'lama integratsiyalashuvini ta'minlash»<sup>1</sup> vazifasini belgilab berdi.**

Butun jahon muammolari kompleksining markazi va bog'lovchi bo'g'ini inson va uning kelajagidir. Jahonshumul muammolar nafaqat ilmiy izlanishlar sohasi, balki milliy va xalqaro miqyoslarda faol siyosiy va iqtisodiy faoliyat sohasi hamdir. Yangi ming yillikda davlat va xalqlarning mushtarak bonyodkorlik harakati insoniyat oldida turgan birinchi navbatdagi vazifa bo'llib qoldi. Xavfsizlik Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida ham tarkib topishi va amal qilishi zarur. Bu tashkilot umuminsoniy muammolarni keng muhokama qilishga, ularni hal etishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishga, barcha davlatlarning ijtimoiy tuzumi va taraqqiyot darajasidan qat'iy nazar, ularning manfaatlari muvozanatini axtarib topishga, resurslarga tegishli ehtiyojlarni aniqlashga, xalqaro hamdo'stlik manfaatlariga mos keladigan aniq dasturlarni ishlab chiqishga imkon beradigan hukumatlararo universal mexanizmdir. Hozirgi sharoitda, bajarilayotgan dasturlar va loyihamar birligida kuch-g'ayrat sarflashni talab qiladi.

Umumjahon muammolarini hal etiishga yordam beradigan loyihalarga, shuningdek, jahon kosmik tashkiloti tuzish loyihasini, jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tuzilmasidan xavfli kasalliklarga, jumladan, SPIDga qarshi hamkorlik qilish uchun foydalaniш loyihalari va boshqa masalalarni o'z ichiga oladi. Tinchlik uchun jahon barakatida ishtirok etayotgan milliy va xalqaro datajalardagi ko'pgina tavsija va urushga qarshi tashkilotlar xalqaro hamkorlikka hissa qo'shmaqdalar. Keyingi yillarda, ayniqsa, tabiat va tinchlikni saqlash uchun kurashga chaqiruvchi ekologik yo'naliishdagi uyushmalar bu hamkorlikka keng miqyosda qo'shilmoqda.

Jehonda vaziyat tobora murakkablashib va keskinlashib bormoqda. Shu sababli, atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari oldinga o'ringa qo'yilmoqda. Bizda jahon okeani ham, koinot ham bitta, u yoki bu mamlakatda ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'lgan muammoning namoyon bo'lishi qanchalik xilma-xil bo'lmasin, u umumiy xususiyatga egadir. Butun yer yuzining biosferasi, atmosferasi, gidrosferasi va litosferasiga taaalluqliidir. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi xalqaro konsepsiya va harakat dasturi, turli-tuman ilmiy-texnikaviy loyihalarni ishlab chiqish va boshqa vazifalarni hal etish bilan bog'liq. Bular orasida ekologik himoya iqtisodiy jihatdan oldingi o'ringa qo'yilmoqda.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chequrlashtirish eng nubim vazirlarini// Xalq so'zi, 2000 – yil, 15 – fravsal

Insoniyat oldida yangi texnologiya ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish vazifasi turibdi. U o'z mohiyatiga ko'ta ekologik madaniyatga aylanmog'i lozim. Bu yerda chiqisiz texnologiya ustun texnologiya bo'lib maydonqa chiqmoqda. Bular yordamida ishlab chiqarish bilan tabiat o'rtaсидаги qarama-qarshilikni yumshtish, keyinchalik esa tugatish, iqtisodiy o'sishning ekologik cheklar ishlarini olib tashlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mumkin.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarini rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, YEXXT, NATO, YEKO, OIK, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda<sup>1</sup>.

Tarixn mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtaсидаги hamkorlik oldinga harakatlantiradi. «Hozirgi dunyoda umumbashariy muammolar tizimida xavfsizlik va barqarorlik faqat harbiy - siyosiy jihatlarnigina nazarda tutib qolmaydi. Iqtisodiy, ekologik va madaniy, ma'naviy jahhalar ham juda muhim bo'lib, xoh mintaqada bo'lsin, xoh butun sayyoramizda bo'lsin - bizning tinch va gullab-yashnayotgan umumiy uyimiz ana shulardan tashkil topadi»<sup>2</sup>.

Umumbashariy muammlor - tarqoq hodisalar va jarayonlar emas. Biz ularning bir - biri bilan bog'liq ekanligiga ishonch bosil qilamiz. Shuning uchun dunyoning yaxlitligiga uning muammlori bir - biri bilan chirmashib ketganligiga, butun sayyoramizda hamkorlik zarurligiga asoslanuvchi mutlaqo yangi konseptual yondoshuvlar va enaliy tadbirlar zarur. Inson yuqorida qayd etilgan muammlarni hal eta oladi. Buning uchun insoniyat yetarli ilmiy - texnikaviy va moddiy imkoniyatlarga ega. Faqatgina bu yo'lda barcha davlatlarning hamkorligi zarur.

### **3. O'zbekiston Respublikasining ekologik muammlari va ularni bartaraf etish yo'llari**

Hozirgi davrda ekologik xavfsizlik va atrof - muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. «Ochiq aytish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy - buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrinjon kuyalar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib

<sup>1</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston i XXI asr bo'sag'usida: xavfsizlikka tashdid, barqarorlik shartlari va taqquqiyot kaflotlari» - T. «O'zbekiston», 1997 - y. 303 - bel.

<sup>2</sup> O'sha asar. 303 - bel.

**qoishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq lashvish chekkan odamlarning «qalb nidosi bo'lib kelgan»<sup>1</sup>.**

Ekologik muammolar allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi. Bu xavfni ancha kech, XX asrning 70-yillariga kelib anglay boshladik. Insoniyat qanday xavi qarshisida turganligini atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi.

Ekologiya muammosi yer yuzining hamma burchaklarida ham dolzarb masala. Faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turbi mamlakatlarda va mintaqalarida turlichadir.

Ekologik muammolar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Bu yerda mutaxassislarining baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda.

Bunday vaziyat nimadan iborat? Birinchedan, yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavi to'xtovsiz ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitida yer tabiat in'om etgan boylikdir. U odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog'langan oilalarning emas, balki ma'lum bir tarzda qishloq xo'jaligi bilan aloqador barcha tarmoqlar va uning ne'matlaridan bahramand bo'layotgan Respublikaning barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negizini yaratadi. Ayni vaqtida yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir.

Bu hoi O'zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo'limoqda, chunki yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Respublikaning 447,4 ming kv.km dan ortiq bo'lgan umumiy maydonining atigi 10 foizigina ekin maydonlarini tashkil etadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O'zbekistonda aholining zichligi ayniqsa yuqori bo'lib, 1 kv km ga 51,4 kishi to'g'ri keladi. Holbuki, bu raqam Qozog'istonda – 6,1, Qirg'izistonda 22,7. Turkmanistonda – 9,4 ni tashkil etadi. Respublikamizda har bir odamga 0,17 ga ekin maydoni to'g'ri kelsa, Qozog'istonda 1,54, Qirg'izistonda – 0,26, Rossiyada – 0,67 ga yer to'g'ri keladi<sup>2</sup>.

O'zbekistonda aholining o'sishi nisbatan yuqori bo'lib, urbanizatsiya va bosildor yerlarni shaharlarni rivojlantirishga, uyjoy qurilishiga yangi korxonalar, imuhandislik hamda transport

<sup>1</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak satir». – T.: «O'zbekiston», 503 – bej

<sup>2</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak satir». – T.: «O'zbekiston», 509 – bej

komunikatsiyalarining tarmog'ini barpo etishga ajratib berish jarayonlari jadal bormoqda.

Tabiiy muhitning yomonlashuvi bilan birga, tuproq nurashi, sho'rланishi, yer osti va yer osti suvlarining sathi pasayishi va boshqa hodisalar ro'y bermoqda. Yerlarning niroyat darajada sho'rlanganligi O'zbekiston uchun ekologik muammodir. Yerlarni ommaviy suratda o'zlashtirish, hatto sho'rangan va mellioratsiyaga yaroqsiz yirik - yirik, yaxlit maydonlarni ishga solish ana shunga olib keldi.

Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalişlarini Prezident I.A.Karimov quyidaqicha asoslab berdi:

1. Tegishli teknologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Sanoat korxonalarida atmosferaga, suv havzalariga va tuproqqa ifloslantruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqlardan keng foydalangan holda mas'uliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy samarali tozalash qurilmalari tizimini joriy etish kerak.

2. Respublikaning foydali qazilmalardan ogilona foydalanish - dolzarb masala.

3. Katta - katta hududlarda tabiiy sharoitlarni, tabiiy zahiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilg'on, ilmiy asoslangan tarzda o'zlashtirish.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yanji turularini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak.

5. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'lli bilan shaharlarda va boshqa aboli punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish zarur.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. O'ol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib, uning ta'siri hozirning o'zidayot biologik muvozanatni buzayotganligi, bepoyon hududlarda aholining genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda tutish lozim.

Xalqaro tuzulmalarning zahiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini ara shu muammolarni hal qilishga jalb etish - birinchi darajali vaz fadir.

Butun dunyo va O'zbekiston uchun keng ko'lamdag'i ekologik tanglik tahdidini barhami toptirishga erishish, jismonan sog'lom yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun zarur shart - sharoitlar hamda ekologiya jihatidan musaffo hayotiy muhit yaratish imkonini beradi.

## ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Ekologik muammolar** – insонning xo'jalik faoliyati natijasida atrof – muhitga yetkazilgan zarar.

**Ekologik muammolarning umumiyligi** – ekologik muammolarning milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylanishidir.

**Yangi texnologik ishlab chiqarish madaniyati** – u o'z mohiyatiga ko'ra ekologik madaniyatga aylanmog'i lozim. Bu yerda chiqindisiz texnologiya bo'lib maydonga chiqmoqda. Ular yordamida ishlab chiqarish va tabiat o'rtaсидagi qarama – qarshilikni yumshatish, keyinchalik esa tugatish, iqtisodiy o'sishning ekologik cheklanishlarini olib tashlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mumkin.

**Umumbashariy muammolarga yangi konseptual yondashuv** – bozirgi davrda dunyoning yaxlitligiga, uning muammolari bir – biri bilan chirmashib ketganligiga, butun sayyora miqyosida hamkorlik zarurligiga asoslanuvchi mutlaqo yangi konseptual yondashuvlar va amaliy tadbirlarning zarurligidir.

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Umumbashariy muammolarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Unumumbashariy va mintaqaviy boq'liqligi va o'zaro aloqadorligini qanday izohlaysiz?
3. O'zbekistonda ekologik muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari nimalardan iborat?
4. Oroq muammosini hal qilishda xalqaro hamkorlikning zaruriyati va ahamiyati nimalardan iborat?
5. Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
6. Umumbashariy muammolarni birlgilikda hal etishda xalqaro tashkilotlarning roli va o'rni nimalardan iborat?

## ASOSIY ADABIYOTLAR

2. **Karimov I.A.** O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli. — T.: «O'zbekiston», 1992 — y.
3. **Karimov I.A.** O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'lli. — T.: «O'zbekiston», 1993 — y.
4. **Karimov I.A.** O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. — T.: «O'zbekiston», 1995 — y.
5. **Karimov I.A.** O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lli. // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 T.: «O'zbekiston», 1996 — y.
6. **Karimov I.A.** «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»// Va an sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. — T.: 1996 — y.
7. **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barcarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: «O'zbekiston», 1997 — y.
8. **Karimov I.A.** «Dehqonchilik taraqqiyoti — farovonlik manbai». — T.: «O'zbekiston», 1997 — y.
9. **Karimov I.A.** O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: «O'zbekiston», 1998 — y.
10. **Karimov I.A.** O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli. ✓ O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: «O'zbekiston», 1999 — y.
11. **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: «O'zbekiston», 1999 — y.
12. **Karimov I.A.** O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. — T.: «O'zbekiston», 1999 — y.
13. **Karimov I.A.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayat — pirovard maq'adimiz. — T.: «O'zbekiston», 2000 — y.
14. **Karimov I.A.** Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish — eng muhim vazifamiz// «Xalq so'zi», 2000 — y., 15 — may.
- ✓ 15. **Karimov I.A.** «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqur — lasht rishning ustuvor yo'naliishlari». O'zbekiston Vazitlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi// «Xalq so'zi», 2001 — y., 17 — fevral.
16. **Karimov I.A.** Ikkinci chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 5 — sesiyasi. «Xalq so'zi», 2001 — y., 15 — may.
17. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuni.
18. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyatining erkinligini kafolatlash haqida»gi qonuni.

19. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. 1998 – yil 30 – aprel.
20. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. 1998 – yil 30 – aprel.
21. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati) to'g'risida»gi qonuni. 1998 – yil 30 – aprel.
22. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. –T.: «O'zbekiston», 1999 – y.
23. Курс экономической теории. Учебное пособие (руководитель авторского коллектива и научной редактор проф. А.В.Сидорович). - М.: МГУ. Изд-во «ДИС», 1997.
24. Макконнелл К.Р., Брю С.Л.. «Экономика» принципы, проблемы и политика. -М.: «Республика», 1992.
25. Реферат учебника Самуэльсона П., Нордхауса В. «Экономика». Ч.1. Гл.1. введение. Ж: «Экономическая наука». -М.: 1990. №1.
26. Курс экономической теории. Учебник под ред. Проф. Чипурина М.Н., и Киселевой Е.А. -Киров. изд. «ACCA». 1995.
27. «Экономическая теория» под ред. академиков Ведяпина А.И., Журавлевой Г.П., Гулямова С.С., Шарифходжаева М.Ш., Абдурахманова К.Х. -Т.: «Шарк». 1999.
28. Введение в рыночной экономики. Учебное пособие под ред. Лившица А.И. Гл.1. -М.: «Высшая школа». 1994.
29. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. Перевод с англ. со 2-го издания. -М.: «Дело ЛТД». 1993.
30. O'lmasov A., Sharifxojayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: «Mehnat», 1995 – y.
31. Севликянц С.Г., Отто О.Э., Тешаев Б.Т. Экономика- основа жизни общества. -Т.: «Шарк», 1998.
32. Ивашковский С.Н. Экономика: микро и макроанализ. -М.: «Дело», 1999.
33. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. –T.: «Mehnat», 1997 – y.
34. Долан Э.Дж., Линдсей Д.Е. Рынок микропрограммистическая модель. Санкт-Петербург, 1992.
35. Зогорулько М.М. и др. Основы экономической теории и практики. Учебно-методическое пособие изд. Волгоградского университета. 1994.
36. Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'truza. O'zbekiston 2000. –T.: «O'zbekiston», 2001 – y.
37. Shodmonov Sh., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'tuzalar matni. –T.: 2000 – y.
38. Чжен В.А. Язык бизнеса. -Т.: «Шарк», 1995.

39. Pero M. Mežduinal'nye ekonomicheskie, valyutnye i finansovye otnosheniya / per. s frants. -M.: Progress. «Universitet», 1994.
40. Osnovy vnižnoekonomicheskikh znanij. Učebnik pod red. I.V. Flaminis'ego. -M.: Banksi i bиржи. 1995.
41. Qodirov A. va boshqalar. «Iqtisodiyot nazariyasi». -T.: «TDTU» nashriyoti, 1997.

### QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Abdullayev Yo., Boboqulov T. Kredit. -T.: «Mehnat», 1996 - y.
2. Abdullayev Yo., Xaxyaev Q. Soliq. -T.: «Mehnat», 1997 - y.
3. Abdullayev Yo.O. Bozor iqtisodiyoti asoslari. -T.: «Mehnat», 1997 - y.
4. Abdullayev Yo., Qoraliyev T. Pul. -T.: «Mehnat», 1996 - y.
5. Abulqosimov K.P., Vahobov A.V. va boshqalar. O'zbekistonda iqtisodiy iqtisadiyati chiqarishini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. -T.: 2001 - y.
6. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -Toshkent, 1998 - y.
7. Beknazarov N. va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. -T.: «Universitet», 1993 - y.
8. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. -T.: «O'zbekiston», 1999 - y.
9. Parpiyev U., Salomov I. Bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni ta'kkil etish. -T.: «Sharq», 1996 - y.
10. Umarov K.Yu. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: «Universitet», 1998 - y.
11. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. -T.: «Mehnat», 2000 - y.
12. Hakimova M. va boshqalar. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. -T.: «O'qituvchi», 1997 - y.
13. G'ulomov S., Usmonov Q. Mustaqillik O'zbekistonga nima berdi? -Toshkent, 2000 - y.
14. Erkaev B., Karimova G., Abulqosimov X.P. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish vositalari. -T.: «Sharq», 1996 - y.
15. Qobilov Sh. «Iqtisodiyot nazariyasi». Ko'rgazmali o'quv qo'llanmasi. -T.: «Sharq», 1997 - y.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I Bob. IQTISODIYOT NAZARIYASINING PREDMETI VA USLUBI.....	4
II Bob. MULKCHILIK VA XO'JALIK YURITISH SHAKLLARI.....	10
III Bob. TOVAR ISHLAB CHIQARISH. PUL.....	20
IV Bob. IQTISODIY RIVOJLANISHNING UMUMIY MUAMMOLARI.....	29
V Bob. BOZOR IQTISODIYOTINING MOHIYATI. BOZOR VA UNING TUZILISHI.....	37
VI Bob. TALAB VA TAKLIF. BOZOR MUVOZANATI.....	50
VII Bob. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING OMILLARI.....	58
VIII Bob. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA DAROMAD. KORXONALAR FOYDASI.....	65
IX Bob. NARXLARNING TASHKIL TOPISHI VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGI.....	73
X Bob. TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH. MENEJMENT VA MARKETING.....	80
XI Bob. BOZOR SHAROITIDA ISH HAQI VA BANDLIK MUAMMOLARI.....	94
XII Bob. DAROMADIARNI AHOLI GURUHLARI ORASIDA TAQSIMLASH. SHAXSIY VA OILAVIY DAROMAD.....	103
XIII Bob. MILLIY IQTISODIYOT: ASOSIY NATIJALAR VA UNING O'ZGARIB TURISHI. IQTISODIY O'SISH. MILLIY BOYLIK..	112
XIV Bob. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES.....	125
XV Bob. MOLIYA TIZIMI. PUL MUOMALASI. BANKLAR.....	139
XVI Bob. INFLYATSİYA. INFLYATSİYANING OLDINI OLISH TADBIRLARI.....	155
XVII Bob. DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIYOTNING TARTIBLANISHI.....	162
XVIII Bob. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUSIYASI.....	171
XIX Bob. JAHON BOZORI. XAIQARO MOLIYA VA VALUTA TIZIMI.....	175
XX Bob. JAHON IQTISODIYOTI TARAQQIYOTIDA UMUMBASHARIY MUAMMOLAR.....	187

Босишга руҳсат этилди 31.07.2005. Ҳақми 12,5 босма табок.

Бичими 60x84 1/16. Адади 2000 нусха. Булортым 308.

М.Улугбек йомидаги Ўзбекистон Миллий Университети  
босмахонасида чоп этилди.